M. Q. PARDAYEV

MAKROIQTISODIY TAHLIL



95 ЙИЛ

10 JILD

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

M.Q. PARDAYEV

MAKROIQTISODIY TAHLIL

10-jild

TOSHKENT–2025

UO'K: 38.24.01.001
KBK: 65.012.2ya73
P 21

M.Q. Pardayev Makroiqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. Hammualliflar: Sh.S. Oltayev, Yu.P. O'rinbayeva, O.M. Pardayev, Z.S. Artikov – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot – matbaa uyi", 2025. 396 bet.

ISBN 978–9943–573-16-3

Mazkur o'quv qo'llanmada turistik korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning nazariy va amaliy masalalari, turistik korxonalar tahlilining mazmuni, predmeti, obyekti, vazifalari, qo'llaniladigan usullari, tahlil jarayonida qo'llaniladigan axborot manbalari hamda turistik korxonalarning raqobatbardoshligi kabi muhim masalalar yoritilgan. Shuningdek, turistik korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyati tahlilining boshqa ayrim nazariy va amaliy jihatlari ham o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining turizm ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan. Undan mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, professor-o'qituvchilar, "Iqtisodiyot", "Buxgalteriya hisobi va audit", "Moliya", "Bank ishi", "Menejment", "Marketing", "Servis" kabi o'quv yo'nalishlari bo'yicha o'qiyotgan bakalavrlar, soha mutaxassislari hamda unga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

Mualliflar:
Sh.S. Oltayev, Yu.P. O'rinbayeva, O.M. Pardayev, Z.S. Artikov

Nashr uchun mas'ul:– M.Q.Pardayev i.f.d., professor.

Taqrizchilar:
M.M.Muhammedov – SamISI professori, i.f.d.;
B.Sh.Safarov– SamDU dekani, i.f.d., dotsent.

Ushbu o'quv qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy Kengashining 2024-yil 30-oktyabrdagi 3-sonli bayonnomasi qaroriga asosan nashr etildi.

ISBN 978–9943–573-16-3

© SamISI, M.Q. Pardayev va boshqalar, 2025;
© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2025.

KIRISH

Dunyo iqtisodiyotga integratsiyalashish Xalqaro Valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyoti banki kabi xalqaro moliya tashkilotlar bilan hamkorlik qilish bir qancha qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Bulardan biri mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilganda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini bir xil usul va uslublarda hisoblashni tashkil qilishdan iboratdir.

Mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda, qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, ularning zarurligini va samaradorligini baholashda iqtisodiy tahlil juda katta ahamiyatga ega. Tahlilni muhim vazifalaridan biri bo'lib mamlakatda sodir bo'layotgan jarayonlarni modellashtirishning sifatini oshirish, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatni natijalarini aniqlashdir. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash asosiy ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri bo'lib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liqliklarini aniqlab berishga yordam beradi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning vazifasi milliy iqtisodiyotda sodir bo'layotgan va bo'ladigan ko'rsatkichlarni baholash va monitoring o'tkazishda foydalanadigan usullari to'plamini o'rgatish hisoblanadi. Ma'ruza matnida mamlakatda ishlab chiqarishdagi tovar va xizmatlarni jami hajmini hisoblash, inflyatsiya sur'atlarini, ishsizlik darajasini, to'lov balansini saldosini va valyuta almashtiruv kursini tahlil qilish usul va uslublari hamda ularni prognoz qilish muammolari va ularni yechimini topish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Makroiqtisodiy tahlil iqtisodiyotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali xolisona baho berib, iqtisodiyotda kutilmagan hodisalarning oldini olish va tegishli chora-tadbirlarni ko'rish uchun zarur bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ygan. Mamlakatda sodir bo'ladigan holatlarning aniq tahlili va undan keyingi zarur bo'ladigan siyosatni ishlab chiqish, aniq iqtisodiy va statistik ma'lumotlari tizimli ravishda to'planishni va ularni qayta ishlashni talab etadi.

Mazkur o'quv qo'llanmaning maqsadi – hisobot asoslarini o'rgatish va mamlakat iqtisodiyotida mavjud daromad hamda boyliklarning taqsimotini, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni, budjet-soliq, pul-kredit siyosatlarini to'lov balan-

AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 75416/1

sini va tashqi qarzni tahlil qilinayotganda asosiy konsepsiyalarni, davlat xarajatlari va kapital qarz siyosatini tanishtirishdan iboratdir.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va innovatsion iqtisodiyotni joriy etish sharoitida iqtisodiy-ijtimoiy prognozlashtirish – bu, o'tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlari hamda vazifalarini aniqlashdan iborat.

Prognozlashtirish mamlakat iqtisodiyotini boshqarish nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bu fan boshqaruv yechimlarni tanlashda asos bo'lib xizmat qiladi, kelajak maqsadlariga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish yo'llarini aniqlaydi.

«Prognozlash» – bu iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishning bir qismidir. Shu bilan birga, u nisbatan mustaqil fan bo'lib, o'ziga xos bir qancha belgilari bilan farqlanadi. Odatda, prognozlar direktiv xususiyatga ega emas, ularning miqdorlari asosan ehtimollik xarakteriga ega, ular ko'proq darajada sodir bo'lgan rivojlanish muammolarini aniqlashga va ularni yechish yo'llarini izlashga qaratilganligi bilan farq qiladi.

«Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash» fanining predmeti – prognozlashtirish obyektining rivojlanish qonuniyatini o'tmishi asosida o'rganib, butun bir iqtisodiy majmua va uning tarkibiy qismlari obyektiv asoslangan rivojlanish holatlari, tendensiyalarining vaqt va fazodagi miqdor hamda sifat darajalarini aniqlashdan iboratdir.

«Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash»ning asosiy vazifasi jamiyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo'llarini real baholash, bu rivojlanishning maqbul boshqaruv yechimlarini ilmiy asoslash uchun ustuvor variantlarni aniqlashdir. Bundan tashqari, u iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, muammolarni, yangi jarayon va holatlarni o'rganadi, iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning ehtimoliy yo'nalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa chora - tadbirlarni hayotga tatbiq etadi, samarasini aniqlaydi.

«Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash» fanining maqsadi – prognozlashtirishning asosiy usullari va tamoyillarini jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga moslashgan holda o‘rganishdan iborat.

Mualliflar jamoasi:

Kirish – M.Q.Pardayev
1-2 va 14-boblar. – M.Q.Pardayev, O.M.Pardayev
3-6 va 12 boblar – Sh.S.Oltayev
7-11 va 13 boblar – Yu.P.O‘rinbayeva
15-bob – Z.Artikov

1-BOB. MAKROIQTISODIY TAHLILNING ZARURLIGI, PREDMETI, OBYEKTI, VAZIFALARI, METODI VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Makroiqtisodiy tahlilning obyektiv zarurligi

Jamiyatdagi o‘zgarishlarni anglash bilan bog‘liq insonning kundalik yashashining mazmuni tahlildan iborat. Chunki har kuni erta tongda uyg‘onish bilan nima qildim va nima qilish kerak degan savol aqli raso insonni cho‘lg‘ab oladi. Bu savolga javobni berish uchun odam o‘z faoliyatini xayolan tahlil qilib chiqadi. Kimki o‘zini chuqur tahlil qila olsa, u o‘ziga tegishli vazifalarni ham qo‘ya oladi va bashqalardan farq qilib boshlaydi. Shu tufayli, tahlil inson hayotida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu holatni inobatga olib, mamlakatimizda 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan keng qamrovli rivojlanish strategiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiyada ko‘zda tutilgan vazifalar hammaga (oddiy fuqarolardan tortib, hududiy va mamlakat rahbarigacha) tegishli va mos ravishda, uning hamma bandi hammaga daxldordir. Uning bajarilishida hech kim chetda tomoshabin bo‘lib qarab turishga haqi yo‘q. Hammaning vazifasi bor. Shu jihatdan har bir kishi mazkur yo‘nalishda qaysi masala menga tegishli va uni qanday bajarishim kerak, degan savolni o‘z oldiga qo‘yishi, bunga javob topish uchun o‘zini tahlil qilish, ya’ni o‘ziga befarq bo‘lmasligi kerak.

Iqtisodiy jarayonlar tahlili ham har bir iqtisodiy hodisani u mikro darajada bo‘ladimi, mezo yoki makro darajadami o‘rganishni taqozo etadi. Shu tufayli mazkur fan bugungi kunda ham o‘ta dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Makroiqtisodiy tahlil fanining predmetini o‘rganishning zarurligi, bu bo‘yicha turli qarashlar mavjudligi, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlarga mos raqamli iqtisodiyotga xos bo‘lgan ta’rifini ishlab chiqish, korxonalardan tortib, butun iqtisodiyotni boshqarishdagi o‘rni va vazifalarini ko‘rsatib berish, obyektiga aniqlik kiritish, ularning metodi va metodologik jihatlarini asoslash kabi bir qancha masalalarni nazariy jihatdan o‘rganishini mazkur fanning obyektiv zarurligini taqozo etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida tadbirkorlikka asoslangan turli mulk shaklidagi korxonalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning

tarkibida tadbirkorlikning o‘rni ham oshib borish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Bularning bari iqtisodiyotning shu jumladan, korxonalarning ham mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyat yaratib berdi. Ikkinchi tomondan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini ham oshirdi. Butun iqtisodiyotning, shu jumladan, korxonalarning ham iqtisodiy jihatdan erkinligi va mas’uliyatining oshganligi o‘z faoliyatini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Bu jarayon, eng avvalo, makroiqtisodiy tahlilning zarurligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, uni har bir xo‘jalik yurituvchi subyektda, mezo va makroiqtisodiyot darajasida qanday tashkil qilish muammosini hal qilishda namoyon bo‘ladi.

Ammo adabiyotlarda makroiqtisodiy tahlilni tashkil qilish O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini ifoda etgan holda yetarlicha yoritilmagan. Shundan kelib chiqib, makroiqtisodiy tahlilni tashkil qilish masalalariga bugungi kun talabidan, ya’ni iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, innovatsion hamda raqamli iqtisodiyot talablaridan foydalanish holatidan kelib chiqib, yondashish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, jamiyat hayotida erkin bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanish makroiqtisodiy tahlil bilan bog‘liq yangi-yangi muammolarni vujudga keltirdi. Ushbu muammolarning bir qismi hal qilindi, ammo hal bo‘lishi lozim bo‘lgan bir qancha guruh muammolar ham saqlanib qolmoqda. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, makroiqtisodiy tahlil fanini mamlakatimizda shakllangan iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanishning o‘ziga xos bozor munosabatlariga hamda raqamli iqtisodiyotga mos, uning nazariy va metodologik asosini hamda tarkibiy tuzilishini ishlab chiqish muammosi.

Ikkinchidan, ushbu fanning kimlarga kerakligini, ichki va tashqi foydalanuvchilar qaysi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishini asoslash va shunga mos ravishda mutaxassislarni tayyorlash muammosini ham hal qilish lozim.

Uchinchidan, bugungi kun talabidan kelib chiqib, islohotlarga, xususan, davlat va nodavlat sektoriga hamda raqamli iqtisodiyotga mos mazmunan yangi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish

muammosi ham kun tartibida hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar qatoridan joy olgan.

To‘rtinchidan, makroiqtisodiyot masalalari va turli mulk shaklida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda makroiqtisodiy tahlilni tashkillashtirish muammosi ham o‘z yechimini kutayotgan muammolardandir.

Beshinchidan, xizmat ko‘rsatish sohasi va korxonalari, xususan, turistik firma va kompaniyalar, mehmonxona xo‘jaliklari kabi xizmat ko‘rsatish subyektlari faoliyatini tahlil qilish muammosi ham hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolardandir.

Har bir muammoning mazmun-mohiyati va uni hal qilish yo‘llarini ko‘rib chiqish bugungi kunda o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanishda o‘ziga xos iqtisodiy dastaklar va shunga mos fanlarning shakllanishini ham taqozo etadi. Bunday fanlardan biri «Makroiqtisodiy tahlil» fani bo‘lib, uning tarkibi va mazmuni ma’lum darajada o‘zgartirilib, zamonaviylashtirilib, takomillashtirishni taqozo etadi.

Albatta, makroiqtisodiy tahlil oldingi ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud edi-ku, uni yangidan shakllantirishga zarurat bormi, degan savolning tug‘ulishi mumkin. Bunga javoban shuni ta’kidlash joizki, ushbu fan oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida ham haqiqatda mavjud va uning nazariy hamda metodologik asosi yaxshi rivojlangan edi. Ammo uning maqsadi va mohiyati, ta’kidlanganidek, rejali iqtisodiyotga moslashtirilgan bo‘lib, bevosita xalq xo‘jaligi miqyosida rejaning shakllanishi va bajarilishiga xizmat qilishga qaratilgan edi. Uning mazmuni esa, ma’lum darajada, mafkuraviylashgan holda, eng avvalo, davlat manfaatini ifodalab kelgan. Chunki barcha mulk, davlat tasarrufida bo‘lib, undan foydalanish bevosita davlatning ixtiyorida edi. Odatda, mulk kimga tegishli bo‘lsa, xo‘jalik faoliyatining natijalari ham shunga tegishli bo‘ladi.

Endilikda iqtisodiy vaziyat tubdan o‘zgardi. Davlatning mulkka va barcha iqtisodiy jarayonlarga egaligi barham topib, ko‘p mulkchilikka asoslangan, bozor munosabatlarini o‘zida ifoda etadigan, mazmun jihatidan yangi iqtisodiyot shakllandi. Bu esa shunga mos

ravishda mazmun jihatdan yangi mazmundagi «Makroiqtisodiy tahlil» fanining shakllantirilishini taqozo qildi. Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, innovatsion jarayonlardan hamda raqamli iqtisodiyot tomoyillaridan foydalanish ham ushbu fanning tarkibi va mazmuniga ayrim o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etadi.

Endigi «Makroiqtisodiy tahlil» fani, eng avvalo, hech qanday mafkuraga tobe bo'lmasdan, davlat manfaatini inkor qilmagan holda turli mulk egalarining (ish kuchi egasi, mehnat jamoasi, tarmoq, butun iqtisodiyot, xo'jalik yurituvchi subyektlar, korxona va tashkilotlarning) manfaatlarini o'zida aks ettirgan holda ifoda etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat mazkur fanning maqsadi, vazifalari, tarkibi, unda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimini, eng muhimi, uning mazmunini ham o'zgartirishni taqozo etadi.

Ushbu muammolarni hal qilish makroiqtisodiy tahlil fanining kimga kerakligi u bilan kim shug'ullanishi, uning obyektiv zarurligini asoslashni talab qiladi. Makroiqtisodiy tahlilda makroiqtisodiyot darajasidan korxonagacha bo'lgan bosqichlarda barcha rahbarlar va boshqa mutasaddilar (menejer), uning holati va o'zgarish tendensiyasini batafsil o'rganishi lozim. Buning uchun esa ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Shu maqsadda makroiqtisodiy tahlilda o'rganiladigan takomillashgan ko'rsatkichlar tizimi va ularni bugungi kun talabidan kelib chiqib, baholash yo'llari ishlab chiqilishi lozim.

Makroiqtisodiy tahlil fanining oldiga qo'yilgan muhim vazifalarni to'liq bajarish, uning bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot tamoyillariga mos kelishini ta'minlash, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish maqsadida mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarini axtarib topish yo'llarini ishlab chiqish kabi muhim iqtisodiy ishlarni to'g'ri bajarish uchun uning predmeti, obyekti, metodi, turlari, shakli, uslublari kabi mazkur fanning nazariy asoslarini aniq belgilab olishni taqozo etadi.

Makroiqtisodiy tahlil fanining hamon to'liq o'z yechimini topmagan bozor munosabatlariga xos nazariy muammolaridan biri uning predmetidir. Har qanday mustaqil fan o'zining predmetiga ega. Fanning predmeti deganda, odatda, shu fanda nima o'rganilishi tushuniladi. Iqtisodiy tahlil fanining predmetiga keng ma'noda qaraydigan bo'lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan obyekt

(korxona, birlashma, kompaniya, aksiyadorlik jamiyati, konsern, korporatsiya kabilar) xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va h.k) o'z ichiga oladi. Lekin har bir iqtisodiy fan o'ziga xos xususiyatga, o'zi o'rganadigan predmetga ega. Bu faqat shu fanga xos bo'lib, imkoni boricha boshqa fanlarda takrorlanmasligi lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy shartlaridan biridir.

1.2. Makroiqtisodiy tahlil fani predmetining ta'rifi

Makroiqtisodiy tahlil fanining predmeti tom ma'noda obyektni o'rganishga qaratilgan iqtisodiy va huquqiy munosabatlar bilan bog'liq xo'jalik faoliyatidir. Ammo buxgalteriya hisobi, statistika, moliya va kredit, audit, marketing, menejment kabi fanlarning ham predmeti keng ma'noda xo'jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o'rgatadi. Demak, har bir fanning, shu jumladan, makroiqtisodiy tahlil fanining o'ziga xos va mos jihatini unga tegishli predmetni aniqlab olish lozim.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni o'z ichiga oladigan fan iqtisodiyotga oid fanlardir. Ammo makroiqtisodiy tahlil fani bu jarayonlarning sodir bo'lish paytini emas, balki uning natijasi va kelajagini o'rganadi. Obyektda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar, uning rejasida ko'zda tutilgan ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo'lishini qonuniy jihatdan hujjatlashtirish bilan buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlar shug'ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o'z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan hujjatlarda ifoda etilgan boshqa ma'lumotlarga asoslanadi.

Hisobdagi ma'lumotlar statistikada jamlanadi va ushbu ma'lumotlar makroiqtisodiy tahlil faniga axborot uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Erkin iqtisodiyot sharoitiga mos makroiqtisodiy tahlil fanining predmeti yaratilmog'i lozim. Bizning fikrimizcha, u quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, u erkin iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning xo'jalik faoliyatini o'zida ifodalashi kerak.

Ikkinchidan, asosan makroiqtisodiy tahlilda o‘z yechimini topadigan obyektiv va subyektiv omillar ta’sirini aniqlash zarurligi ko‘rinib turishi lozim.

Uchinchidan esa, makroiqtisodiy tahlil o‘z chegarasiga, faoliyat doirasiga ega bo‘lish uchun butun xo‘jalik faoliyatidan o‘ziga tegishli sohani ajratib ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. Bunga, bizning fikrimizcha, korxonalar xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalar natijasining ma’lumotlar manbayida ifodalangan axborotlarni olishni kiritish mumkin.

Bu borada o‘zimizning chop qilgan adabiyotlarimizda[1] ham aytgan edik. Uni takomillashtirib yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib makroiqtisodiy tahlil fani predmetiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **Makroiqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda, innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta’sirida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalar natijalarining ma’lumotlar manbayida (reja, hisob, statistik hisobot va boshqalarda) ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi (sistemasi) orqali, uning holati va rivojlanishiga baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqishni o‘rganish tushuniladi.**

Makroiqtisodiy tahlilning ushbu ta’rifini nazariy jihatdan quyidagicha isbotlash mumkin.

Birinchidan, makroiqtisodiy tahlilning predmetida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar alohida o‘rin tutadi, chunki mikro va makro darajadagi iqtisodiy jarayonlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Ular ma’lum ichki va tashqi omillar ta’siri ostida ro‘y beradi. Shu omillar ta’sirini boshqa fanlar makroiqtisodiy tahlil darajasida atroflicha o‘rgatmaydi. Bu faqat shu makroiqtisodiy tahlil fanida o‘rganiladi va uning predmetining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, xo‘jalik faoliyati natijasiga to‘g‘ri baho bermasdan, unga ta’sir qilgan ijobiy va salbiy omillarni o‘rganmasdan turib ko‘zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Shu tufayli tahlil fani, shu jumladan, makroiqtisodiy tahlil

[1] Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlilning predmeti, metodi va unda qo‘llaniladigan usullar. Samarqand, SamKI,1999, - 3 bet. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari. - Samarqand, SamKI, 1999, - 3 bet. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik, Samarqand «Zarafshon» nashr - 2

fanining predmeti markazida ham obyektiv va subyektiv omillar turganligi ham bejiz emas.

Ikkinchidan, makroiqtisodiy tahlilning predmetini o'rganishda faqat sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo yetarli emas ekan. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan obyektning iqtisodiy moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Bu esa sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarga to'g'ri baho berib, bo'ladigan jarayonlar andozasini ham ko'rsatib berishni taqozo etadi. Bu xulosa makroiqtisodiy tahlilning predmetini o'tgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga qamrab olishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, shuni inobatga olish joizki, barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Ko'rsatkichlar esa asosan ma'lumotlar manbayida (rejalarda, me'yorlarda, hisoblarda, buxgalteriya va statistik hisobotlarda va h.k.) o'z aksini topadi. Obyektda iqtisodiy jarayonlar yakka-yakka bo'lib emas, balki birbiriga dialektik bog'liq ravishda birdaniga sodir bo'ladi. Uning har bir jihati alohida ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Shu tufayli xo'jalik faoliyatini o'rganishda bitta ko'rsatkich emas, balki ko'rsatkichlar tizimidan (sistemasidan) foydalaniladi. Bu esa, o'z navbatida, makroiqtisodiy tahlil faning predmetini o'rganishda ma'lumotlar manbayida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimiga asoslanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, ma'lumki, jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganadigan juda ko'p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning ichida makroiqtisodiy tahlil fani iqtisodiy ahvolga va mikro darajadagi xo'jalik faoliyatining natijalariga ham odilona baho bera oladi. Undagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarga omillar ta'sirini aniqlaydi. Shularga asosan iqtisodiyotni o'nglash xo'jalik faoliyatini yaxshilash yo'llarini ishlab chiqadi. Bu xususiyatlar faqat tahlilga xos bo'lganligi uchun ham uning predmetida natijaga to'g'ri baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish lozimligi ko'rsatilgan.

Bulardan ko'rinib turibdiki, makroiqtisodiy tahlil fani mustaqil fan bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga o'zining betakror predmetiga ega. Tahlilda o'rganiladigan iqtisodiy jarayonlar va ularning muhim jihatlari aynan shu tarzda boshqa fanlarda o'rganilmaydi va takrorlan-

maydi. Shu tufayli har bir mustaqil fan singari makroiqtisodiy tahlil fanining ham o'ziga xos predmeti shakllandi, tarkib topdi, nazariy jihatdan boyib yildan-yilga aniqliklar kiritilib takomillashib bormoqda.

Har bir fanning nazariy qismida uning predmeti bilan birga obyekti ham o'rganiladi. Chunki, obyekt bo'lmagan joyda predmet bo'lmaydi va predmet obyektsiz quruq gap bo'lib qoladi. Shu tufayli mazkur fannig obyektiga ham tegishli e'tiborni qaratish lozimdir.

1.3. Makroiqtisodiy tahlil fanining obyekti

Boshqa fanlar singari makroiqtisodiy tahlil fanining ham obyekti bo'lishi lozim. Ammo shu fanning nazariyasiga bag'ishlangan eng so'nggi adabiyotlarda[2] ham bu masala yetarlicha yoritilmagan. Ayrim olimlar fanning obyekti bo'lishini e'tirof etgan holda, uning ta'rifi darslik va o'quv qo'llanmalarda berilmagan. Shu tufayli fanning predmeti bilan obyektini ko'p hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa o'z navbatida nazariy jihatdan asossiz va chalkash xulosalarga olib kelishi mumkin. Albatta, ayrim olimlar adabiyotlarda (G.V.Saviskaya) makroiqtisodiy tahlilning obyektiga ta'rif berilgan. Faqat uning predmetidan xususiyatlarinigina keltirgan[3].

Makroiqtisodiy tahlil fanining obyekti uning predmeti qayerlarda amalga oshishini ko'rsatishi lozim. Makroiqtisodiy tahlil fanining predmeti, hozirgi bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida, ko'p mulkchilikka asoslangan barcha huquqiy va jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga olsa, uning obyekti ham xuddi shu jarayonlar, deb qaralmoqda. Ushbu masala bo'yicha bir qancha olimlar fikrlari bir-biriga o'xshash. Ammo ularning fikrlarini nazariy jihatdan tahlil

---

[2] Shoalimov A.X., Tojibayeva Sh.A., Davlatov X.M. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisodiyot» nashriyoti, 2014. – 236 bet., Raximov M.Yu. Iqtisodiy subyektlar moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisodmoliya», 2013. – 392 bet., Хасанов Б., Абдурахманова Ф., Кадырова З., Нарбаев О. Анализ Хозяственной деятельности. Учебное пособие. «Сано-стандарт», 2017, - 284 с., Баканов М.И, Шеремет А.Д, Теория экономического анализа-М: Финанси и статистика, 1998; Теория анализа хозяйственной деятельности. Под бош. ред. В.В.Осмольовского.Мн: Выш.шк. 1989.Каракоз И.И., Самборский В.И. Теория экономического анализа Киев: Выша школа, 1989. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Мн: ИП "Эксперспектива", 2000., Савицкая Г.В. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия. М.: ИНФРА-М, 2014. Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. – T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2009., Vahabov A.V., Ibragimov G.A., Yakubov U.K. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2015. va h.k.

[3] Савицкая Г.В. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 17-18 с.

qilmasdan, o‘z fikrimizni ifodalash bilan cheklanishni lozim, deb topdik. O‘quvchilar masalaning mohiyatini o‘zlari tushunib yetishlariga ishonchimiz komil.

Makroiqtisodiy tahlilning obyekti deganda, uning qaysi makonda (makro-, mezo- yoki mikro-, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarda) amalga oshirilishi tushuniladi. Shu tufayli, makroiqtisodiy tahlil fanining predmeti amalga oshadigan obyektlariga davlat va jamiyatda sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarni misol keltirish mumkin. Shu bilan birga, quyi subyektlar jumladan: jamoat tashkilotlari, korporatsiyalar, birjalar, korxonalar, firmalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar ham har biri tarmoqlarga birlashadi va shu orqali makro darajadagi iqtisodiy jarayonlarning asosiga kiradi.

Mazkur obyektlarga ularning shakllanishi bo‘yicha iqtisodiy asosi nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, ular davlat, jamoa, kooperativ, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko‘rsatadigan obyektlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos va mos iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini tanladi. Bugungi kunda 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” asosida jadal rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Bu yo‘l hammaga daxldor bo‘lganligi tufayli, ushbu vazifalarni bajarishga hamma subyektlar, mulk shaklidan qat’i nazar, ishtirok etishlari lozim. Ushbu holat ham, tahlilning bir xil metodologik usulini yoritishni taqozo etadi.

Obyektning (makonning) va davrning (zamonning) qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ushbu fan predmetining mohiyati o‘zgarmasligi, obyekt esa tahlilning qaysi makonda o‘tkazilishiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Shu jihatdan uning predmeti obyektidan mazmun va mohiyati jihatidan ma’lum darajada farq qiladi.

Shunday qilib, makroiqtisodiy tahlilning predmeti va obyekti bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitiga mos holda rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, makroiqtisodiy tahlil fanining o‘rni va vazifasi ham erkin iqtisodiyot sharoitiga mos tarzda nazariy jihatdan hamon yetarli darajada talqin qilingan emas. Bu esa mazkur muammoni ham tadqiq qilishni taqozo etadi.

1.4. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida makroiqtisodiy tahlilning vazifalari

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot sharoitida xo'jalik faoliyati tahlilining roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma'muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin, iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldin tahlil asosan reja ko'rsatkichlarini asoslashga uning bajarilishini ta'minlashning sabab va oqibatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, endilikda esa mamlakatimizda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni, har bir xo'jalik subyekti, mulk shaklidan qat'i nazar, o'z faoliyatini yuqoridan berilgan ko'rgazmani, buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki o'zlari mustaqil ravishda o'zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa, o'z navbatida, tahlilning rolini yanada oshiradi.

Makroiqtisodiy tahlil orqali har bir obyektida mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularning amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tufayli, hozirgi hayot har qanday korxonani to'g'ri boshqarish uchun tahlil qilishni taqozo etadi.

Bu maqsadlardan tahlilning vazifasi kelib chiqadi. Makroiqtisodiy tahlilning iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish sharoitida asosiy vazifalari:

1) mamlakat iqtisodiyotining makro darajadagi holat bilan birga, mikro darajadagi korxonalarning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash va iqtisodiyotni rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarini belgilash;

2) mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligina ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning turli darajalarda bajarilishini, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashini, uning iqtisodiy qudratini yaxshilashini, har bir xo'jalik subyektining raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o'rganish;

3) makro- va mikro- darajadagi iqtisodiyot subyektlari faoliyatining har bir yo'nalishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning

ta'sirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish;

4) mamlakat iqtisodiyotida, xususan, har bir xo'jalikda mavjud mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish va ularning ham natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini hamda har bir ko'rsatkich o'zgarishiga boshqa omillar ta'sirini baholash;

5) mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish uchun har bir korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatiga (potensialiga), uning to'lovga qodirligi va qobiliyatliligiga baho berish hamda bu natijaga erishish uchun makro- va mikro- darajalarda tezkor chora-tadbirlarni qo'llash yo'llarini ishlab chiqish;

6) korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko'rsata bilish va tashqi investorlarni korxona faoliyatini yaxshilashga jalb qilish va shu yo'l bilan ham makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish;

7) mamlakat iqtisodiyotini, shu jumladan, har bir korxonani rivojlantirishning ichki va tashqi imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha boshqaruvning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish kabilardan iboratdir.

8) mamlakat iqtisodiyotini o'nglash va uning strategik yo'nalishlarini belgilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar va "Yo'l xaritalari"ni ishlab chish, tegishli Davlat va hududiy dasturlarga kiritish borasida aniq takliflarni shakllantirish.

Tahlilning birinchi vazifasi, bevosita mikrodarajada uning biznes-reja bilan bog'liqligidan kelib chiqadi. Tahlil jarayonida bir tomondan biznes-rejaning amalga oshganligini o'rganilsa, ikkinchidan xo'jalik faoliyatini batafsil o'rganib kelgusi davr uchun biznes-rejani tuzishda tegishli axborotlarni to'plab beradi. Makro darajada davlat miqyosida tuzilgan dasturlarning bajarilishi tahlil qilinadi. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida xo'jalik faoliyatining asosiy reja ko'rsatkichlari yuqoridan berilar edi. Shu tufayli, tahlilni yuqori tashkilotlar amalga oshirib kelgan. Endigi bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida vaziyat tubdan o'zgardi. Har bir korxona o'z faoliyati uchun o'zi mas'ul. O'zi rejalashtiradi, o'zi hisobotni tuzadi va o'zi nazorat qiladi. Bunday sharoitda korxona xo'jalik faoliyatini yuqori tashkilot emas, balki uning o'z mutaxassislari,

menejerlari tahlil qiladi. Shu tufayli tahlilning roli va vazifasi biznes-rejani tuzishda kundan-kunga oshib bomoqda. Chunki biznes-rejaning har bir ko'rsatkichi iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishligi tahlil orqali amalga oshiriladi. Muhimi uning bajarilishini ta'minlashga ham qaratilgandir. Shu tufayli joriy davrda ham biznes-rejaning bajarilishini tezkor tahlil qilib borishni taqozo etadi. Makroiqtisodiyot doirasida "Yo'l xarita"laridagi va Davlat dasturlardagi belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilish tahlil qilinadi.

Makroiqtisodiy tahlilning ikkinchi vazifasi, bevosita makro darajada hudud va mamlakat miqyosida ishlab chiqilgan dasturlarning bajarilishi o'rganadi. Mikro darajada korxonada biznes-rejaning bajarilishini o'rganish bilan bog'liq. Hozirgi paytda biznes-rejani tuzish, unga kiritiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha qat'i belgilangan andoza yo'q. Bunday bo'lishiga fikrimizcha, zarurat ham bo'lmasa kerak. Chunki juda ko'pchilik korxonalar bir soha bilan shug'ullansa ham, ularning ish uslubi har xil, o'zlariga xos bo'lishi mumkin. Bu esa oldingidek hamma korxona faoliyatiga bir xil yondashish imkonini bermaydi. Ammo umumiy yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi bir-biriga yaqin bo'lishi tabiiy. Masalan, har bir korxona yuqori rentabellikka erishishga intilishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi, o'zining iqtisodiy qudratini yaxshilashi uchun harakat qiladi. Demak, bu tahlilning ham barcha korxonalar uchun metodologik asos bo'ladigan usullarining bo'lishini taqozo etadi. Shu tufayli, tahlil jarayonida biznes-rejaning bajarilish darajasini chuqur o'rganish shu orqali uning faoliyatiga obyektiv baho berishdek muhim vazifa ham ushbu fan zimmasiga yuklatilgan. Makroiqtisodiy tahlilda ham xuddi shunday ketma-ketlik va tamoyilga amal qilinadi. Unda mamlakat yoki hudud iqtisodiyoti yaxlit tarzda olinadi va tahlil umumiylikdan xususiylikka qarab chuqurlashtirib borilaveradi.

Biznes-rejani bajarish jarayonida ma'lum qonuniyatga ega omillar bilan birga ko'zda tutilmagan tasodifiy omillar ta'sir qilishi ham mumkin. Tahlilning uchinchi vazifasi makro va mikro darajada ham shu omillarni aniqlash va har birining ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Bu esa bozor munosabatlarining shakllanish jarayonida vujudga kelgan ko'pgina yangi ko'rsatkichlar va omillar ta'sirini aniqlaydigan omilli tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 75416/1

Omilli tahlil natija ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash yo‘li bilan shu tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichni yaxshilashni, ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash va uni kelgusi davr uchun safarbar qilish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan moliyalashtirish asosan barham topgan bir paytda, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va uni xo‘jalik faoliyatiga safarbar qilish tahlil orqali amalga oshiriladi. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, makro- va mikro- iqtisodiy tahlil bugungi mutaxassislarning faoliyati samaradorligini ta’minlash uchun tegishli bo‘linma va ko‘rsatkichlarni batafsil tahlil qilishni taqozo etadi.

2017–2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da qo‘yilgan ustuvor vazifalardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi sharoitida tahlilning asosiy vazifalaridan biri natijaga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish orqali ichki imkoniyatlarni axtarib topish va ularni xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirishga safarbar qilishdan iboratdir. Bunda ham nafaqat ichki omillar, balki tashqi omillardan ham foydalanish lozimligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Tahlilning to‘rtinchi vazifasi iqtisodiy jarayonlarning dialektik bog‘liqligidan kelib chiqadi. Qaysi soha bo‘lmasin, iqtisodiy jarayon sodir bo‘lishi uchun mehnat vositasi, mehnat predmeti va jonli mehnatning mujassamligi lozim bo‘ladi. Iqtisodiyotning bu elementlari samaradorligini oshirmay turib boshqa ko‘rsatkichlar miqdorining yuqori bo‘lishiga erishib bo‘lmaydi. Shu tufayli tahlil jarayonida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda moddiy-texnika bazasining boshqa elementlarga to‘g‘ri kelishini ta’minlashga katta e’tibor bermoq lozim. Masalan, yuqori mehnat unumdorligiga ega bo‘lgan, ilg‘or texnologiyaga asoslangan uskuna mavjud. Lekin shu uskunani ishlata oladigan, shunga malakasi yetarli bo‘lgan mutaxassis kerak bo‘ladi. Agar korxonada yuz kishi bo‘lsa (uning shtatida shuncha kishi band bo‘lsa), lekin tegishli mutaxassis bo‘lmasa bunday holatda korxonaning moddiy texnika bazasi ham, mehnat resurslari ham samarasiz bo‘ladi. Shu tufayli ular bir-biri bilan dialektik bog‘liqlikda.

Texnika va texnologiya takomillashdimi, demak, xodimlarning malakasi ham shunga mos ravishda oshib borishi lozim. Shundagina

tegishli, ko‘zda tutilgan natijaga erishish mumkin. Aks holda qilingan tadbirlar, sarflangan harakatlar tegishli samara bermasligi tabiiy. Bu holatlarning hammasi tahlil orqali aniqlanadi va aniqlangan vaziyatdan tegishli xulosa qilinadi. Shu tufayli tahlilning roli korxonalar, ularning mulk shaklidan qat’i nazar, samaradorligini oshirishda yanada oshmoqda. Korxonaning umumiy samaradorligi bevosita uning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarining samaradorligiga bog‘liq.

Tahlil jarayonida moddiy-mehnat va moliyaviy resurslarning samaradorligini alohida o‘rganish, ularning bir-biriga bog‘liqligini va umumiy natijaga ta’sirini ham ko‘rib chiqish lozim. Demak, tahlilning vazifasi shu ko‘rsatkichlarni dialektik bog‘liqlikda o‘rganish va iqtisodiy jihatdan asoslangan xulosa qilishdan iboratdir.

Tahlilning beshinchi vazifasi, korxonalarning erkin raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatayotganligidan kelib chiqadi. Hozirgi paytda tahlil asosan buxgalteriya balansidagi ma’lumotlar bilan cheklanib qolganligi tufayli uning iqtisodiy salohiyati (potensiali) to‘liq o‘rganilmayapti. Iqtisodiy potensialga buxgalteriya balansida ko‘rsatilgan asosiy va aylanma kapital hamda nomoddiy aktivlar bilan birgalikda mehnat resurslari ham kiradi. Ta’kidlanganidek, ushbu elementlar o‘zaro bog‘liq ravishda ishlatilishi uchun moliyaviy potensialning ahamiyati katta. Iqtisodiyotning har xil bosqichida moliyaviy potensial tarkibi turlicha bo‘lishi mumkin. Hozirgi bank krediti uchun to‘lanadigan foizning korxona imkoniyatlariga nisbatan balandligini inobatga olinadigan bo‘lsa korxonalar o‘z faoliyatini asosan xususiy mablag‘lari evaziga yuritgani yaxshi. Agarda iqtisodiyot barqarorlashib, pulning qadrsizlanish darajasi kamaygandan so‘ng bank kreditining foizi kamayadi va nihoyat undan foydalanish mumkin bo‘ladi. Hozirgi paytda korxona moliyaviy potensialning tarkibi, ulardan qanday foydalanilayotganligi, qanday o‘zgarishlar ko‘zda tutilayotganligi, istiqboli qanday bo‘lishi kabilarni o‘rganish hayot taqozosi. Bu esa tahlil orqali amalga oshiriladi. Shu tufayli makroiqtisodiy tahlilning asosiy va eng muhim vazifalaridan biri korxona iqtisodiy hamda moliyaviy potensialiga baho berish, ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tahlilning oltinchi vazifasi ham bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotning shakllanishi bilan vujudga keldi. Tahlil ikkita yo‘nalishda olib boriladi. Birinchisi makroiqtisodiy tahlil

bo‘lsa, ikkinchisi mikroiqtisodiy tahlil. Mazmun jihatidan hududlar tahlil asosan makroiqtisodiy tahlil usulidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Mikroiqtisodiy tahlil jarayonida korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini moliyaviy tahlil usullarini qo‘llagan holda, undagi mavjud tijorat sirini esa boshqaruv hisobi ma’lumotlarini tahlil qilish evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Tahlil orqali korxonaning moliyaviy ahvoli, uning istiqboli aniq va ravshan bo‘ladi. Barcha ijobiy natijalar bo‘lsa, albatta, tashqi investorlar xabardor bo‘lishi lozim. Lekin qaysi ko‘rsatkichlarni, qachon va qanday holatda oshkor qilish muhimligini hamma ham hamisha bilavermaydi. Tashqi investorlarning kapital qo‘yilmalarini jalb qilish maqsadida faqat shu korxonaga xos bo‘lgan ish usullarini, ba’zi faoliyat jarayoni va uning natijalarini oshkora qilmaslik kerak. Bu har bir korxonaning tijorat siri. Shu tufayli tijorat sirini oshkora qilmagan holda korxona moliya-xo‘jalik faoliyatini ko‘z-ko‘z qilish ham tahlilning asosiy vazifalaridan biridir. Xuddi shunday fikrlarni makroiqtisodiy tahlil bo‘yicha ham aytish mumkin.

Tahlilning yettinchi vazifasi, rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud bo‘lib, bu bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda ham saqlanib qoldi. Ammo u paytda faoliyatning hamma sohasi, jumladan, boshqaruv ham yuqoridan berilgan rejaning bajarishiga qaratilgan edi. Ko‘p hollarda asosiy reja ko‘rsatkichi bajarilar edi, ammo u korxona, davlatga qanchalik qimmatga tushayotganligi bilan hech kim qiziqmas edi. Masalan, savdo korxonalarining asosiy reja ko‘rsatkichi uning tovar oboroti. Uni boshqarish uchun hamma safarbarlik amalga oshirilardi. Lekin uning qancha xarajat talab qilishi mutasaddilarni unchalik qiziqtirmas edi. Oqibatda, juda ko‘p savdo korxonalari tovar oborotini bajarish bilan birga faoliyat natijasi zarar bilan yakunlanar edi. Natijada yuqori tashkilotlardan uning oborot mablag‘larini “to‘ldirish” uchun juda ko‘p mablag‘ ajratilardi. Endi bunday ishlarga barham berildi. Korxonani boshqarish yuqori tashkilot manfaatini hisobga olib emas, balki bevosita shu subyektning manfaatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu esa har bir korxona faoliyatini o‘rganish va tahlil qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar rejasi mavjud. Masalan, mamlakat YaIM hajmi. Ammo ushbu ko‘rsatkich barcha mulk egaligidagi va turli tarmoqlardagi faoliyat natijasida jamlanadi. Shu

tufayli makrodarajada ketgan xarajatlarni hisoblash imkoni yo‘q. Oldingi makroiqtisodiy rejalar, hozirgi paytda turli dasturlarda o‘z ifodasini topadi. Ushbu dasturlar ma’lum sohaga va ma’lum vaqtga bo‘lgilangan bo‘lishi lozim.

Shuni ta’kidlash lozimki, makro- va mikro- iqtisodiy tahlilning vazifalari ushbu bandlarda keltirilgan vazifalar bilan cheklanmaydi. Iqtisodiyotning yo‘nalishlari va bitta korxona faoliyatini oladigan bo‘lsa ham, uning ko‘lami keng va serqirrali. Tahlil jarayonida uning hamma tomonlarini o‘rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasini ham ko‘p qirralidir. Shu tufayli, ushbu yo‘nalishda ularning eng asosiylarini keltirdik, xolos.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo‘l qo‘yilmaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo‘jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va uning samaradorligining oshib borishi ta’minlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, tahlilning vazifasi bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo‘jalik faoliyatining uzluksiz yaxshilanib borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega.

1.5. Makroiqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Olam bir butun. Undagi hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda va o‘zgarishda. Shu tufayli olamni o‘rganadigan fanlar ham bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Mamlakat miqyosida, uning har bir hududida, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Aynan ushbu jarayonlarni o‘rganadigan iqtisodiyotga oid fanlarning soni ko‘p (Iqtisodiyot nazariyasi, Makroiqtisodiyot, Mikroiqtisodiyot, Menejment, Marketing, Buxgalteriya hisobi, Audit, Moliya, Makroiqtisodiy tahlil kabilar). Ushbu fanlarning har biri sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy hodisa va jarayonlarning u yoki bu jihatlarini o‘rganadi. Shu tufayli, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda.

Kuzatuvlarimiz ko‘rsatdiki, makroiqtisodiy tahlil fani, eng avvalo, **iqtisodiy nazariya** fani bilan bog‘liq. Iqtisodiy nazariy

jamiyatda sodir bo‘layotga iqtisodiy jarayonlarining ma’lum qonuniyatlarini, ularning xarakterlanish va amal qilish yo‘llarini o‘rgatadi. Bu esa uning barcha iqtisodiy fanlar uchun, jumladan, makroiqtisodiy tahlil fani uchun ham metodologik asos ekanligini ta’minlaydi. Iqtisodiy tahlil esa, shu qonunlarning makro va mikro iqtisodiyot (korxona, firma, birlashma kabilar) ko‘lamida sodir bo‘lish va amal qilish jarayonini o‘rgatadi. Bunda iqtisodiy nazariya fanining ilmiy-metodologik jihatlaridan foydalaniladi. Makroiqtisodiy tahlil o‘z navbatida, iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan jarayonlarni chuqur o‘rganish bilan iqtisodiy nazariya fanining rivojlanishi uchun ham asos yaratib, tegishli axborotlarni tayyorlab beradi. Shu tufayli, bu fanlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Ularning bog‘liqligini quyidagicha ifodalash mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm. *Iqtisodiyot nazariyasi va makroiqtisodiy tahlilning o‘zaro bog‘liqligi.*

Makroiqtisodiy tahlil bevosita **makroiqtisodiyot** fani bilan ham bog‘liq. Makroiqtisodiyot fani sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarni mamlakat miqyosida, ya’ni makro darajada o‘rgatsa, uning yuksalishini ta’minlaydigan imkoniyatlar va omillarni aniqlash yo‘llarini makroiqtisodiy tahlil fanida o‘rganiladi. Bular ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Mikro darajadagi iqtisodiyotning rivojlanishidagi aniq omillar aksariyat holda ilmiy-

nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilsa, makroiqtisodiy tahlil jarayonida ularning amaliy holati o‘rganiladi. Bu quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (1.2-rasm).



1.2-rasm. *Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiy tahlil o‘rtasidagi bog‘liqlik.*

Makroiqtisodiy tahlil fani bevosita **mikroiqtisodiyot** fani bilan ham uzviy bog‘liq. Mikroiqtisodiyot fani sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarning nazariy masalalarini xo‘jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar) miqyosida o‘rgatsa, uning rivojlanishini ta’minlaydigan imkoniyatlar va omillarni aniqlash yo‘llarining amaliy tomonlarini makroiqtisodiy tahlil fani o‘rgatadi. Mikroiqtisodiyot fanida mikrodarajadagi bir qancha xo‘jalik yurituvchi subyektlar tizim shaklida birdaniga o‘rganiladi. Makroiqtisodiy tahlilda esa iqtisodiyotning alohida subyektida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan jarayonlarni aniq omillar ta’sirida qanday o‘zgarganligini o‘rganadi. Bu quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (1.3-rasm).



1.3-rasm. *Makroiqtisodiy tahlilning mikroiqtisodiyot bilan o‘zaro bog‘liqligi.*

Makroiqtisodiy tahlil fani **buxgalteriya hisobi** fani bilan ham uzviy bog'liq. Bu fanlar mazmun va mohiyati jihatidan aniq amaliy fanlar guruhiga kiradi. Mikroiqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobining navbatdagi bosqichi sifatida uning mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi. Chunki, sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarni buxgalteriya hisobida hisobga olinib, jamlanib boradi va hisobotlarda o'z aksini topadi. Aynan ushbu ma'lumotlar makroiqtisodiy tahlilda jamlanadi va bunda ham batafsil o'rganiladi. Tahlil natijasida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Bu qarorlarning ijrosi yana iqtisodiy jarayonlarning samarali natijalar bilan sodir bo'lishini ta'minlaydi. Bular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi chizmada o'z aksini topgan (1.4-rasm).



1.4-rasm. *Makro- va mikro- darajada buxgalteriya hisobi va tahlining o'zaro bog'liqliklari.*

Buxgalteriya hisobining vazifasi buxgalteriya hisobotini tuzish, axborotlarini umumlashtirish bilan tugaydi. Shu hisobotlar va boshqa axborotlar asosida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bilan mikro va makroiqtisodiy tahlil shug'ullanadi. Tahlilda xo'jalik faoliyatining haqiqiy natijasi rejadagi, me'yorlardagi, o'tgan davrlardagi ko'rsatgichlar bilan solishtirilib, tegishli farqlari aniqlanadi. Unga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi, tegishli xulosa qilinib, ichki imkoniyatlar axtarib topiladi. Shu bilan tahlil o'z vazifasini bajaradi. Ushbu jarayonni takomillashtirishda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma'lumotlarni tayyorlab beradi. Makroiqtisodiy tahlil ma'lumotlariga asoslangan holda tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilish masalasi bilan

menejerlar shug‘ullanadi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (1.5-rasm).



1.5-rasm. *Makroiqtisodiy tahlilning menejment bilan o‘zaro bog‘liqligi.*

Ko‘rinib turibdiki, makroiqtisodiy tahlil mikro darajadagi buxgalteriya hisobi bilan ham, **boshqaruv (menejment)** bilan ham ikki yoqlama aloqada. Chunki makroiqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobi va hisobotlari ma’lumotlaridan to‘liq foydalanish bilan barcha aniq axborotlarni tayyorlab beradi. Buxgalteriya hisobotidagi asosiy ko‘rsatgichlar quruq hisobot uchun emas, balki ushbu axborotlarni tahlil qilib, shu korxona ahvolini bilish va uning samaradorligini oshirish, yashovchanligini ta’minlash uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishga mo‘ljallangan. Ularni umumlashtirish evaziga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar shakllanadi va bulardan aynan ushbu darajadagi iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda foydalanish mumkin.

O‘z navbatida makroiqtisodiy tahlil boshqaruvga tegishli axborotlarni yetkazib, tayyorlab berish bilan birga, boshqaruvdan tegishli buyurtmalarni ham oladi. Makroiqtisodiy tahlil faqat tahlil qilish uchun emas, balki boshqaruv uchun eng zarur axborotlarni yetkazib, tayyorlab berish uchun ham xizmat qiladi. Shunday qilib, u buxgalteriya hisobidagi axborotlar xomashyosini boshqaruv uchun tayyor mahsulot holiga keltirib beradi. Yaxshi buxgalteriya hisoboti, uning chiroyliligi bilan emas, balki tahliliyligi bilan belgilanadi. Tahlil uchun axborotlar aniq, tushunarli va to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Noto‘g‘ri axborotdan noto‘g‘ri xulosa chiqariladi. Noto‘g‘ri xulosa noto‘g‘ri

boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi. Oqibatda korxonaning iqtisodiy inqiroziga asosiy sabab bo‘ladi.

Makroiqtisodiy tahlil fani **satatistika** fani bilan ham bevosita va uzviy bog‘liq. Statistika fanida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash usullari o‘rgatilsa, makroiqtisodiy tahlilda shu ko‘rsatkichlardan tahlil qilish uchun foydalaniladi. Statistik hisob va hisobot ma’lumotlari ham makroiqtisodiy tahlil uchun axborot manbayi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, makroiqtisodiy tahlil jarayonida bir qancha statistik usulardan ham foydalaniladi. Bular bir-birini to‘ldirib boradi.

Statistika ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqidagi ma’lumotlarni mikro darajadan olib jamlaydi va makro iqtisodiyot darajasida talqin qiladi, makroiqtisodiy tahlil ham ularni makro iqtisodiyot darajasida o‘rganadi. Statistika yirik bir to‘plamlar, guruhlar, murakkab iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rgansa, makroiqtisodiy tahlil asosan yakka yaxlit olingan ko‘rsatkichlar guruhini, tarmoqlar, sohalar kesimida va tematik tarzda o‘rganish bilan cheklanadi.

Demak, statistika va makroiqtisodiy tahlil fanlari bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lishi bilan birga, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega ekan. Statistika fanida ko‘rsatkichlarni hisoblash yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Makroiqtisodiy tahlilda ushbu usullardan foydalanib, asosan, iqtisodiyotning holati va istiqboli bo‘yicha tegishli xulosalar chiqaradi, ma’lumotlarni to‘plab, tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yo‘naltiradi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi (1.6-rasm).

Makroiqtisodiy tahlil fani **moliya va kredit** fani bilan ham mustahkam aloqada.

Korxonalarda sodir bulayotgan iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlash, agar o‘z mablag‘lari yetarli bo‘lmasa, qancha kredit olish va unga qancha foiz to‘lash kabi pul munosabatlar bilan moliya va kredit fani shug‘ullanadi. Ularning maqsadga muvofiq ishlayotganligi, samaradorligining oshishi kabi muhim jihatlari bilan makroiqtisodiy tahlil fani shug‘ullanadi.



1.6-rasm. Makroiqtisodiy tahlil fanining statistika fani bilan o'zaro bog'liqligi.

Bu yerda ikki fanning ham o'rganish obyekti mikro va makro darajada (moliyaviy mablag'lar) bir xil. Ammo birinchisida ushbu kategoriyaning mavjudligi va ta'minoti o'rganilsa, ikkinchisida uning samarali va maqsadga muvofiq ravishda ishlatilishi o'rganiladi.

Shuningdek, mutaxassis makroiqtisodiy tahlil qilishi uchun moliyaviy unsurlarni, kredit munosabatlarini, soliq siyosatini yaxshi bilishi lozim. O'z navbatida, korxonani moliyalashtirish, olingan kredit resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun ham tahlil natijalaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, moliya va kredit makroiqtisodiy tahlil bilan ikki yoqlama uzviy aloqada. Shu jihatdan ham ular bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda. Bu quyidagi chizmada o'z aksini topgan (1.7-rasm).

Makroiqtisodiy tahlil fani **hudud va mikro darajadagi korxona iqtisodiyoti** fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Korxona iqtisodiyotida o'rganilgan barcha mavzular makroiqtisodiy tahlilda ham o'rganiladi.

Ammo korxona iqtisodiyotida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarning mazmuni, ularning ahamiyati hamda nazariy masalalari o'rganilsa, makroiqtisodiy tahlil fanida ularning jamlangan holatiga va natijadorligiga (samaradorligiga) baho beriladi. Korxona iqtisodiyoti fanida ham boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.



1.7-rasm. Makroiqtisodiy tahlil fanining moliya va kredit fani bilan o'zaro bog'liqligi.

Buning uchun u makroiqtisodiy tahlil natijalaridan va usullaridan foydalanadi. Bundan tashqari makroiqtisodiy tahlil va korxona iqtisodiyoti fanlarida funksional qiymat tahlil, mantiqiy evristik tahlil, fikrlar hujumi kabi tahlilning shakllari va usullaridan ham foydalaniladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot o'ta murakkab iqtisodiy jarayon. Bunday sharoitdagi korxonaning ahvolini yaxshi o'rganish va odilona boshqarish uchun makroiqtisodiy tahlil usullarini ham uzluksiz takomillashtirib berish lozim. Bu esa uning mikro iqtisodiyot uchun ham noan'anaviy usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Makroiqtisodiy tahlil makro- va mikro- iqtisodiyoti uchun axborot tayyorlab berar ekan, unda shu fanning asosiy talab va tamoyillarini bilishni ham taqozo etadi. Korxona iqtisodiyoti makroiqtisodiy tahlilning faqat natijalaridan emas, balki usullaridan ham keng foylanadi. Demak, ushbu fanlar ham bir-biri bilan ikki tomonlama uzviy bog'liq. Bularning bog'liqligi quyidagicha ifodalaniladi (1.8-rasm).

Makroiqtisodiy tahlil fani **marketing** fani bilan ham bog'liq. Marketing iste'molchilar (bozor) talabidan kelib chiqib, ishlab chiqarish va sotishni yo'lga qo'yadigan tovar harakati bilan bog'liq fan. U bozorni, undagi iste'molchilar talabini o'rganish uchun makroiqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanadi.

Hatto ba'zi adabiyotlarda marketing faoliyatining makroiqtisodiy tahlilini "Markenting faoliyati tahlili" ham deb talqin qiladi. Haqiqatda esa u marketing tahlili emas, balki marketingda qo'llaniladigan makroiqtisodiy tahlilning bir qismi yoki usuli bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda "Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil" fani ham paydo bo'ldi.



1.8-rasm. *Korxona iqtisodiyoti va makroiqtisodiy tahlillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.*

Iqtisodiyot va uning tarkibiy qismi bo'lgan iqtisodiyot subyektlari (korxona) faoliyati ko'p qirrali, keng qamrovli bo'lib, mazmuni jihatidan ishlab chiqarish faoliyati, moliyaviy faoliyat, ish faoliyati, bozor faoliyati kabi faoliyatlarni qamrab oladi. Ularning hamma qirralari makroiqtisodiy tahlilda tahlil qilinadi, o'rganiladi. Bulardan ham ko'rinib turibdiki, korxonaning marketing faoliyati makroiqtisodiy tahlilning obyektiga kirar ekan.

Marketing faoliyatini makroiqtisodiy tahlil qilinar ekan, demak, tahlilchi marketing sirlarini ham bilishi, marketing bilan shug'ullanuvchilar esa o'z navbatida, makroiqtisodiy tahlil usullaridan xabardor bo'lishi lozim. Demak, makroiqtisodiy tahlil fani marketing fani bilan ham uzviy bog'liq. Bular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi (1.9-rasm).

Makroiqtisodiy tahlil fani mikroiqtisodiy tahlildek, **audit** fani bilan ham uzviy bog'liq. Auditorlik tekshiruvi va audit fani bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot sharoitiga o'tishimiz munosabati bilan kirib keldi. Shu tufayli, audit bizga yangi fan sifatida o'zimizga xos holda shakllanmoqda. Chunki dunyo tajribasi uchun audit fani yangi fan emas. U Italiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda

XIV–XVI asrlarda qo‘llanilib boshlangan. Biz ham 2020-yildan boshlab ushbu sohada ham xalqaro andozalarga o‘tishi rejalashtirlgan.



1.9-rasm. *Marketing va makroiqtisodiy tahlillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.*

Audit fani O‘zbekistonda shakllanish bosqichini o‘tib asta-sekinlik bilan takomillashib borish bosqichiga kirib, rivojlanib bormoqda. Bu borada boshlanish davrida olimlarimz o‘rtasida turli fikrlar mavjud edi. Bir guruh olimlar auditni oldingi taftish bilan tenglashtirsa, ikkinchi guruh olimlar audit bu xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish orqali unga tashxis qo‘yish deb baholamoqda. Uchinchi guruh olimlar, uni nodavlat xolisona tashkilot bo‘lib, korxonalarning moliyaviy hisobotida ifodalangan ko‘rsatkichlarning realligiga baho beradi, deb qaraydilar.

Bunday turli fikrlarga asos bor edi. Chunki juda ko‘p tashkilotlardagi taftish bo‘limlari auditor firmalariga aylantirilib, ancha vaqt taftish bilan shug‘ullanib kelmoqda edi. Ba’zi bir guruh auditorlar xo‘jalik faoliyatini batafsil tahlil qilib, uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga atroflicha baho berib, ichki imkoniyatlarini axtarib topib, samaradorlikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatib bermoqdalar. Uchinchi guruh auditorlar esa haqiqatda moliyaviy hisobotning realligini isbotlash bilangina chegaralanib qolmoqda. Yana ba’zi auditorlar borki, ular soliq va bashqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanganligini tekshirib shu bo‘yicha maslahat berish bilan cheklanib qolmoqdalar.

Ko‘rinib turibdiki, auditorlik amaliyoti ham va mos ravishda, uning nazariyasi ham birdaniga to‘liq shakllanib qolmadi. Barcha yangiliklar vaqt o‘tishi bilan asl holiga kelganidek, audit ham takomillashish bosqichini boshidan kechirdi.

Ammo shuni e’tirof etish kerakki, auditor o‘z xulosasini to‘g‘ri va asosli qilib berishi uchun har qanday holda ham xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishi lozim bo‘ladi. Tahlilchi ham o‘z navbatida audit talablarini, tamoyillarini bilishi kerak. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida ichki audit va tashqi auditorlik ishlari joriy qilindi. Chunki auditor xulosasi uchun bevosita ana shu tahlil ma’lumotlari yetarli bo‘lishi mumkin. Makroiqtisodiy tahlilda omillar ta’sirini sohalar bo‘yicha o‘zgarishni aniqlash lozim bo‘lsa, albatta, audit ma’lumotlaridan foydalanadi. Shunday qilib, audit va tahlil fanlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Ularning bog‘liqligi quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (1.10-rasm).



1.10-rasm. *Audit va makroiqtisodiy tahlillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.*

Makroiqtisodiy tahlil iqtisodiyotga oid boshqa bir qancha fanlar bilan ham bog‘liq. Lekin biz uning asosiylarigagina to‘xtaldik, xalos. Shuni e’tirof etish kerakki, makroiqtisodiy tahlil juda ko‘p hollarda fanlar o‘rtasida ko‘prik vositasini bajaradi. Masalan, buxgalteriya hisobi bilan boshqaruv o‘rtasida, statistika, tezkor hisoblar bilan boshqaruv o‘rtasida, auditorlik xulosasi bilan davlat tashkilotlari (soliq, moliya va h.k.) o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu jarayonlarning hammasida tahlil eng muhim hal qiluvchi bo‘g‘in

hisoblanadi. Shu jihatdan makroiqtisodiy tahlil boshqa iqtisodiy fanlar o'rtasida muhim hamda solmoqli o'ringa ega.

Makroiqtisodiy tahlil **iqtisodiyotga oid bo'lmagan bir qancha** nazariy va fundamental fanlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Bular o'rtasida eng yuqori o'rinda **falsafa** fani turadi. Falsafadagi qonunlar va kategoriyalar bevosita makroiqtisodiy tahlil fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Buni makroiqtisodiy tahlilning butun mazmuniga singdirilganligida ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, falsafada qarama-qarshiliklar va kurash qonuni bor. Agar uni iqtisodiyotga tatbiq etadigan bo'lsak, korxonalar, hududlar, davlatlar o'rtasidagi raqobatni qiyos qilish mumkin. Raqobat korxona mahsulotining miqdori va sifatini oshiradi, uni narxini tushiradi. Bu aholi faravonligining oshishi uchun eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Makroiqtisodiy tahlilda korxonaning raqobatbardoshligi, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligi baholanadi va o'rganiladi, bankrotga tushib qolmaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Mustaqillik yillarida rivojlanishga nazar soladigan bo'lsak, o'zimizga xos tarzda falsafaga yangi qonuniyat kirib keldi. Bu murosa falsafasidir. Chunki, ziddiyat bizning mentalitetimiz sharoitida hamisha ham samara beravermaydi. Ko'p hollarda o'zimizning sharqona, milliy qadriyatlarimizga tayanadigan bo'lsak, murosa falsafasi muvaffaqiyat kaliti sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda bir-biri bilan kurash kimningdir ustidan g'alaba qilib, uni yo'q qilish haqida emas, balki bir-biriga hamkorlik qilib, yordam berish ustida ketadi. Shu tufayli, turli birlashmalar, uyushmalar shaklidagi klasterlar, sinergetik samara kabi tushuncha va jarayonlardan foydalanmoqdamiz.

Ko'pmulkchilik sharoitida xususiy mulkka asoslangan erkin faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tom ma'noda davlat mulkiga asoslangan xo'jaliklar va o'zaro bir-biri bilan ham raqobatdadir. Ammo juda ko'p iqtisodiy jihatdan nochor korxonalarni davlat murosaga kelib ularni sanatsiya yo'li bilan moddiy, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlab turdi. Bu aynan mustaqillik yillarida xususiy mulkchilikni rivojlantirish sharoitida shakllangan iqtisodiyotdagi murosa falsafasining amal qilinganligidan dalolatdir.

Korxonaning nochorligi esa aynan shu makroiqtisodiy tahlil bilan aniqlanadi. Demak, makroiqtisodiy tahlil falsafa fani bilan ham bevosita, ham bilvosita aloqada ekan. Makroiqtisodiy tahlilni iqtisodiy fanlar falsafasi deyish mumkin, chunki makroiqtisodiy tahlilning har bir harakati, unda qilinadigan xulosalar falsafiy tafakkurga, mantiqiy usullarga asoslanadi.

Shunday qilib, makroiqtisodiy tahlil fani **mantiq** fani bilan ham o'zaro aloqada. Makroiqtisodiy tahlilning maxsus yo'nalishi mantiqiy tahlil ham mavjud. Chunki tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi barsa omillar ham hisobga olinavermaydi. Natijada unga mantiqiy nuqtayi nazardan yondashishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, natija o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning ketma-ketligi, tahlilning bosqichlari hamma-hammasi ma'lum mantiqiy yo'nalishga asoslanadi.

Shu tufayli mantiq makroiqtisodiy tahlilda ayniqsa, xulosa chiqarishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Makroiqtisodiy tahlilda mantiq usullaridan foydalanish uchun faqat bitta mantiq fani emas, balki **psixologiya** fani prinsiplaridan ham foydalanish mumkin.

Makroiqtisodiy tahlil fani **huquq** fani bilan ham bevosita bog'liq. Tahlil jarayonida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan hodisa va jarayonlarning qonuniyligiga ham e'tibor qaratiladi. Makroiqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalaridan biri sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning va ularning tegishli hujjatlarda ifodalanishining huquqiyligiga baho berishdan ham iboratdir. Shu tufayli makroiqtisodiy tahlil paytida albatta me'yoriy talablardan foydalaniladi. Huquq ham, o'z navbatida, tahlilning ko'p usullariga tayanadi.

Iqtisodiy jarayonlarning huquqiyligini ta'minlash uchun ham uni huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Jinoyatning ochilishiga esa asosiy usullardan biri mantiqiy tahlil usullaridir. Xullas, tahlil bilan huquq ham ma'lum darajada bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Makroiqtisodiy tahlil **matematika** fani bilan ham bog'liq. Hozirgi paytda bir tomondan, iqtisodiy jarayonlar o'ta murakkablashib bormoqda, ikkinchi tomondan esa, o'ta murakkab jarayonlarni ham o'rganish, ularni ma'lum tartibga solish uchun texnik imkoniyatlar ham, ayniqsa kompyuter texnologiyasi vujudga kelmoqda. Bu ikki obyektiv sharoit ham makroiqtisodiy tahlilda matematik usullardan keng foydalanishni taqozo etadi. Chunki matematika ham, makroiq-

tisodiy tahlil ham sodir bo'layotgan jarayonlarning miqdorini o'rganishga qaratilganligi bilan bir-biriga juda yaqin fanlardir.

Makroiqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar asosan tez o'zgarib turuvchi miqdorlardir. Ularning o'zgarishi, yuqorida ta'kidlanganidek, o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Ularga bir qancha obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qiladi. Aynan shu omillar ta'sirini aniqlashda matematik usullardan keng foydalaniladi.

O'z navbatida, matematika ham turli yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda. Eng avvalo, abstrakt dalillarga asoslangan mumtoz nazariy matematika bo'lsa, hozirgi paytda amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan amaliy matematika ham tez rivojlanmoqda. Shu amaliy matematika boshqa sohalar bilan birga iqtisodiyot sohasini o'rganishga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Bu, asosan, uning makroiqtisodiy tahlilda qo'llanilishida nomoyon bo'lmoqda.

Makroiqtisodiy tahlil fani iqtisodiyotga oid bo'lmagan fanlardan biri **texnologiya** fani bilan ham bog'liq. Makroiqtisodiy tahlil jarayonida ko'rsatkichlarni tahlil qilishda uning kamligi yoki ko'pligi baho berilganda, bir yo'nalish uning qanday texnologiyadan foydalanilayotganligiga bog'liqligiga ham e'tibor qaratiladi. Ayniqsa ishlab chiqarish sohasini tahlil qilish uchun, eng avvalo, uning qanday texnologiyaga asoslanganligini bilish lozim. Shu tufayli tahlilchi, texnologiya fanini va texnologik jarayonlarning sir-sinoatlarini bilishni taqozo etadi.

O'z navbatida texnologik jarayon ham uzluksiz takomillashib borishni, samaradorligining oshishini talab qiladi. Bu esa uni chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Shu tufayli, bu ikki fan ham ma'lum darajada bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan. Masalan, hozirgi paytda ko'p mamlakatlarda texnologik jarayonni tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun funksional-qiymat tahlilidan keng ko'lamda foydalanmoqdalar.

Makroiqtisodiy tahlil matematika fanining bir yo'nalishi bo'lgan **dasturlash** fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki, hozirgi paytda iqtisodiy yuksalish uchun bir xil andoza qilib bo'lmaydi. Iqtisodiy jarayonlar qanchalik ko'p va murakkab bo'lsa, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar ham shuncha ko'p va murakkabdir. Shunday sharoitda har bir korxona rahbari, menejeri ko'p variantli qarorlarni ishlab chiqara olishi va undan eng qulayini (optimalini)

tanlab olishi lozim. Bunday natijaga makroiqtisodiy tahlilga dasturlash fanini qo'llab erishish mumkin.

Dasturlash ham, o'z navbatida, miqdoriy va mantiqiy tahlil usullaridan keng foydalanadi. Shu jihatdan bu ikki fan o'rtasida ham uzviy bog'liqlik bor.

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida ko'p narsaning hajmini, maydonini, sathini, og'irligi, uzunligi, enligi kabi birliklarni o'lchashga to'g'ri keladi. Bunda albatta **geometriya** fanining usullaridan foydalaniladi. Demak, makroiqtisodiy tahlil faqat iqtisodiy fanlar bilan emas, balki iqtisodiyotga oid bo'lmagan bir qancha boshqa fanlar bilan ham uzviy aloqada.

Makroiqtisodiy tahlil boshqa fanlarning usullari, tamoyillari va maqsadlaridan foydalanish bilan birga o'zining tayyor axborotlari, usullari va yo'nalishlari bilan shu fanlarning rivojlanishiga ham ma'lum darajada ta'sir qiladi.

Olamda, tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'layotgan jarayonlar bir-biri bilan uzviy aloqa va bog'liqlikda bo'lgani kabi, ularni o'rganuvchi turli fanlar o'rtasida ham mustahkam bog'liqlik va aloqalar mavjud. Demak, hamma narsa dunyoda bir-biri bilan dialektik bog'liqlikda. Bunday konsepsiya makroiqtisodiy tahlilning nazariy asosini tashkil qiladi.

1.6. Makroiqtisodiy tahlilning iqtisodiyotni boshqarishdagi o'rni va unga raqamli iqtisodiyotni kiritish masalalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor munosabatlarining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi, modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi hamda innovatsiyalardan keng foydalanish, raqamli iqtisodiyotni amalga oshirish sharoitida har bir iqtisodiy hodisa va jarayonlarni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki, mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy subyekt sifatida ishtirok etsa, davlat uni makro darajada jamlanishini ta'minlab boradi. U o'z mulkining ko'payishidan, ko'proq foyda olishidan manfaatdor. Bunga o'z-o'zidan erishib qolmaydi. Buning uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va aql bilan ish ko'rishi lozim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, mikro- va makro- darajada mulkining holatini, ishlatilishi va saqlanishishni hamda undan samarali foydalanishni tahlil qilishni

taqozo etadi. Demak, ushbu holat ko‘rsatishicha, makroiqtisodiy tahlil, eng avvalo, mulkdor uchun o‘z mulkini oqilona boshqarish uchun kerakligi ayon bo‘ladi. Bugungi kunda mulkdor xususiy sektor bilan birga ma’lum darajada davlat ham egalik qilib turibdi.

Mulkdor o‘z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to‘g‘ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta’minlaydi. Korxona qancha ko‘p daromad qilsa, mehnat jamoasi a’zolari, shuncha ko‘p mehnat haqi oladi. Bu esa mehnat jamoasining o‘zlari ishlayotgan korxona xo‘jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo etadi. Jamiyat iqtisodiyoti xo‘jalik yurituvchi subyektlar majmuyidan iborat. Yuqoridagi tamoyil korxonadan tortib, butun iqtisodiyotga ham daxldor. Demak, makroiqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoalari uchun ham o‘z faoliyatini to‘g‘ri boshqarishda kerak bo‘lar ekan. Shuningdek, quyidan makrodarajagacha o‘rganish, ushbu tahlilning iqtisodiyotning hamma darajalarida o‘rganishini anglatadi.

Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot bir-birini turli yo‘nalishlarda to‘ldirib boradi. Xususan, har bir korxonaning xo‘jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o‘z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq tulaydilar. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxona faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor. Demak, makroiqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham, soliq tushumini to‘g‘ri boshqarish uchun ham, yuqoridan quyi bo‘g‘ingacha nazorat qilish uchun ham kerak ekan.

Ma’lumki, iqtisodiy jarayonning, ya’ni korxona yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijasidan kim manfaatdor bo‘lsa, u mazkur subyekt faoliyatini o‘rganishga, tahlil qilishga qiziqadi. Shunday qilib, makroiqtisodiy tahlil ham makro darajadagi o‘zgarishlarni tahlil qilib tegishli xulosalar chiqarib boradi. Mazkur tahlil investorlarga, hamkorlarga, birlashmalarga, uyushmalarga, sug‘urta, bank, moliya kabi idoralariga ham kerakdir.

Odatda kimga nima kerak bo‘lsa, o‘sha shu ish bilan shug‘ullanadi. Ammo har bir korxonada maxsus mutasaddi shaxslar borki, ularga xo‘jalikni boshqarishda u yoki bu soha topshirilgan bo‘ladi.

Makro darajada iqtisodiyotni prognozlashtirishdan tortib, uning haqiqiy holati bilan Iqtisodiyot va sanoat vazirligi shug'ullanadi. Qolgan iqtisodiyotga oid vazirliklar o'z sohasini makro darajada tahlil qilib boradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida makroiqtisodiy tahlil bilan iqtisodiyotda band bo'lgan boshqaruv bilan shug'ullanadigan deyarli hamma mutaxassislar shug'ullanishlari lozim. Ammo hammasi ham iqtisodiyot va uning turli yo'nalishlari haqida jamlangan batafsil axborotga ega bo'lmaydi. Hamma o'zi bajarayotgan u yoki bu soha bo'yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o'zining sohasini muntazam tahlil qilib boradigan bo'lishlari lozim. Mutaxassislar o'zlarining faoliyatini o'zlari tahlil qilmaguncha katta muvaffaqiyatga erishishi qiyin. Shu tufayli har qanday tahlil, o'zini o'rganishdan tortib, makro- darajagacha tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Lekin shuni e'tirof etish kerakki, xo'jalik faoliyati to'g'risida butun faoliyatni o'zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada moliyaviy hisobotlarda to'planadi va qayta ishlanadi. Shu tufayli korxonaning kompleks makroiqtisodiy tahlili bilan buxgalteriya xodimlari, bevosita bosh buxgalterlar, menejerlar ham shug'ullanadilar. Chunki unda korxonaning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlari mavjud. Ular asosan moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topganlar. Makroiqtisodiy tahlil uchun asosiy ma'lumot manbayi bo'lib moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlarda ifoda etilgan ko'rsatkichlarning mamlakat miqyosida jamlangan ma'lumotlari hisoblanadi. Ularning kompleks tahlili bilan quyida bosh buxgalterlar shug'ullansa, makrodarajada mazkur sohaga maxsus belgilangan mutasaddi xodimlar shug'ullanadi. Bunda har bir kishi o'zlarining funksional vazifasidan kelib chiqib amalga oshiradi. Ammo alohida sohalari bo'yicha tahlil kimga kerak bo'lsa, o'shalar shug'ullanadi. Tahlil qilish uchun emas, balki kerakli sohani o'rganish uchun, uni o'nglashda tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qilinadi. Demak, mikro va makro darajada mutaxassislarga nima kerak bo'lsa, u shu sohani tahlil qilish bilan shug'ullanar ekan. Bu ham makroiqtisodiy tahlilni zamonaga mos holda uzluksiz takomillashtirib, unga yondashuvlarni va ko'rsatkichlarni ham zamonaviylashtirib borishni taqozo etadi.

Makroiqtisodiy tahlilni tashkil qilishda uning natijalarini rasmiylashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli tahlil natijalarini

rasmiylashtirish, xulosa qilish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish yo'llarini ko'rsatib berish ham hozirgi kundagi muhim muammolardan biridir.

Makroiqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo'jalik faoliyatini to'liq ifoda etishi lozim. Shuningdek, jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo'linmalarida bir vaqtning o'zida yagona kelishilgan shaklda tuzilishi lozim. Bunday yondashuv ko'rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Jadvallarda ko'rsatkichlarning nomi, uning qaysi davrga to'g'ri kelishi, ularning farqi, o'zgarish sur'atlari kabi ifodalar ko'rsatiladi. Jadvallar natija o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash jarayonida ham tuziladi. Bu holda jadvalning egasida ta'sir qiluvchi omillar bilan birga natija ko'rsatkichining nomi ifodalanadi. Uning kesimida esa qaysi davr natijalari tahlil qilinayotganligi, shu davrda yuz bergan o'zgarishlar va ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun hisob-kitob qilinadigan usullarning aloqadorligi ko'rsatiladi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari asosan kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Buning imkoniyati juda katta. Shu tufayli tahlilda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari jadvallar bilan birgalikda turli chizmalar va diagrammalarda ham ifoda etilmoqda. Bu esa korxona xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni juda tez ilg'ash imkonini beradi. Mazkur usullar makroiqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini aniqlashda qo'llaniladi. Masalan, chizmalar (grafiklar) ko'rsatkichlarining dinamikasini ifodalashda juda qulay. Korxona xo'jalik faoliyatidagi tarkibiy tuzilmalar, ularning o'zgarishi diagrammalarda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chizma va diagrammalarning qulayligi shundaki, u korxona xo'jalik faoliyati natijasini ham, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ham har qanday kishi uchun tez va tushunarli tarzda ifoda etadi. Masalan, korxonada beshta bo'linma bo'lsa, ularning o'tgan yilga nisbatan birorta ko'rsatkichning o'sishini ustunli diagramma qilinsa, eng yuqori natijaga erishganligi eng baland ustun sifatida yaqqol ko'rinib turadi. Bu har bir bo'linma xodimlarining aqliy-ruhiy kayfiyatiga ham ta'sir qiladi. Xuddi shunday holatni iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga

ham qo‘llash mumkin. Eng yuqori ustunga erishgan tarmoq yoki bo‘linma xodimlarida faxrlanish, mag‘rurlik hissi tug‘ilsa, eng past ustunga ega bo‘lgan bo‘linma xodimlarida o‘z jamoasi uchun iztirob hissi bo‘lishi mumkin. Unisi ham bunisi ham ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun kurashish tuyg‘usini o‘yg‘otishi tabiiy. Bu ichki omillar o‘ta muhim, ortiqcha mablag‘ talab qilmaydigan, ammo butun iqtisodiyot, xususan har bir korxona xo‘jalik faoliyatiga ijobiy ta’sir qilib, uni yaxshilaydigan omillardir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohotlarning chuqurlashuvi iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlarida, shu jumladan, korxonalar o‘rtasida erkin raqobat muhitini tug‘dirmoqda. Bu esa o‘z navbatida, korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor tarzda kundalik natijalarni o‘rganib borishni taqozo etadi. Bu ham hisob-kitoblarga kompyuterlarni qo‘llash natijasida ancha osonlashadi. Muhimi, kompyuterda bir marta terish bilan ushbu raqamlar markazga ham tushib turadi. Shu paytning o‘zida uni umumlashtirish ham mumkin. Har kuni ish kunining oxirida xo‘jalik faoliyatining bir kunlik natijasi qanday bo‘lganligini aniqlash mumkin. Bu esa yutuq va kamchiliklarni juda tez anglash, yutuqlarni ko‘paytirish, kamchiliklarni bartaraf etishga asos bo‘ladi. Tahlilning ushbu shakli boshqaruvni ham tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Kunlik natijalar har kuni jamlanib borilsa hisobot davrining xohlagan kunida qanday natijaga erishganligini butun iqtisodiyot miqyosida va uning har bir bo‘g‘inlarida bilib olish mumkin. Masalan, bir oyning o‘n oltinchi kuni qanday natijaga erishganligini kunlik hisobotni jamlab borish orqali aniqlash mumkin. Shu, 16-nchi kuni qanday natijaga erishdik va o‘tgan 16 kun mobaynida erishgan umumiy ahvolimiz qanday degan xulosani chiqarish uchun ham tegishli axborot mazkur kompyuterda mavjud bo‘ladi. Bu esa korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor boshqarish, kamchiliklarni o‘z vaqtida, hisobot davri tugamasdan bartaraf qilish imkonini beradi. Bu boshqarishda tahlil ma’lumotlaridan foydalanishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

Agar korxonaning barcha bo‘linmalarida kompyuterlar o‘rnatilgan va ular yagona tarmoqqa (setga) ulangan bo‘lsa boshqarishda yangi usulni, ya’ni **qog‘ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usulini** joriy qilish mumkin. Vazirlik mutaxassisi yoki korxona menejeri har bir bo‘linmadan tegishli axborotlarni olib, bir joyda umum-

lashtiradi va xulosa chiqaradi. Xulosa natijasida ishlab chiqarilgan chora-tadbirlar va tegishli topshiriqlarni ham kompyuter tarmog'i orqali jo'natish mumkin. Bu mutaxassis va bo'linma rahbarlarining turli majlislarga, yig'ilishlarga ketadigan vaqtini ham tejaydi.

Odatda, ish ketmagan joyda majlis ko'proq bo'ladi. Majlis davrida majlisda bemalol o'tirish evaziga ish to'xtaydi. Qilish kerak bo'lgan ishni qilish uchun esa, vaqt majlisda o'tirganligimiz evaziga o'tgan bo'ladi. Natijada bugungi ish ertaga qoladi, bajarilmagan ishlar shu tarzda to'planib boraveradi. Shu tufayli tezkor tahlil qilib, tezkor qarorlarni qabul qilish, uning ijrosini vaqtni o'tkazib qo'ymasdan nazorat qilib borish evaziga ishlarning samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi. Buning uchun qog'ozsiz, majlissiz, faqat axborotlar va raqamlar almashish evaziga faoliyat ko'rsatishni boshqarish lozimdir. Chunki 2020-yildan boshlab raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bosqichiga kiriladi.

Agar faoliyatimizga raqamli iqtisodiyot joriy qilinsa, barcha majlislar hisobot davri tugagach tahlil natijasi asosida tezkor tarzda o'tkaziladi. Ma'lumotlar jadvallarda, chizmalarda, turli diagrammalarda tuzilib qog'ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko'rsatiladi. Ayniqsa, yo'l qo'yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko'rsatilishi lozim. Chunki, bu tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi. Qolgan tadbirlarning hammasi majlissiz amalga oshirilishi lozim. Raqamli iqtisodiyotning asl mohiyati ham shunda.

Makroiqtisodiy tahlilning natijalari bo'yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib vazirliklar va korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda bir qancha mutaxassislarni, bo'linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o'ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga erishiladi. Mana shu holat raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishini taqozo etadi.

Agar iqtisodiyot tarmoqlarida axborotlar ko'p bo'lsa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda «Fikrlar hujumi» usulidan ham foydalanishi

mumkin[4]. Buning uchun mazkur vazirlik yoki korxonada ijodiy guruh tashkil qilingan bo'lishi lozim. Mazkur ijodiy guruhning vazifasi iqtisodiyot tarmog'i yoki korxona xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Makroiqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv qarorlari bilan birga, auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek taftish bilan emas, endilikda tahlil bilan shug'ullanishlari lozim. Shu tufayli tahlil usullarini, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki karra ko'p va puxta bilishlari shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin, xolos.

Xulosa qilib aytganda, tahlil bilan boshqaruv bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi. Tahlil natijasisiz iqtisodiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkin emas. Boshqaruv qarorlarining bajarilishini nazorat qilish ham tahlilsiz amalga oshirilsa, turli chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

1.7. Makroiqtisodiy tahlil fanining metodi

Metod qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usulini anglatadi. Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va aloqadordir. Shu tufayli, ularning qaysi jihati o'rganilishidan qat'i nazar, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar bir-biri bilan bog'liqlikda, aloqada deb qarash lozim bo'ladi. Bunday qarashni ta'minlash uchun ularni o'rganishga dialektik usul bilan tizimli ravishda yondashish lozimdir. Bu esa o'z navbatida, o'rganilayotgan barcha hodisa va jarayonlarni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, aloqada va doim o'zgarishda, deb qarashni taqozo qiladi.

Oldinlari alohida korxonalar xo'jalik faoliyati tahlil, hududlar tahlili va butun iqtisodiyotni o'rganadigan makroiqtisodiy tahlil mavjud edi. Shu an'ana hozirgacha saqlanib qolmoqda. Ammo bugungi kunda iqtisodiy tahlil makro darajani ham, mezo darajani

[4] Mazkur masala muallifning «Funksional qiymat tahlili» nomli risolasida (Samarqand, SamKI, 1999). atroflicha yoritilgan.

ham makroiqtisodiyotni ham o‘rganadigan bo‘lishi lozim. Ularga bir xil metodologik yondashuv, iqtisodiyotning pog‘onasiga qarab turli ayrim xususiyatlarni inobatga oladigan yaxlit tahlil fani bo‘lishi lozim. Bugungi kunda bunga to‘liq imkoniyatlar yaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu masala umuman qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Xuddi shu nazariy xulosadan kelib chiqqan holda makroiqtisodiy tahlil fani metodining mohiyatini ochish lozim. Ammo ushbu fan metodining mohiyati nazariy jihatdan hamon to‘g‘ri hal qilingan emas. Bunga turli olimlarning turli davrlarda turlicha yondashganligini asos qilib olish mumkin. Birinchi guruh olimlar makroiqtisodiy tahlil metodini turli usul va uslublar majmuyidan iborat, deb baholaydi. Ikkinchi guruh olimlar esa, iqtisodiy tahlil metodini korxonalar samaradorligini oshirish maqsadida ularning faoliyatini tizimli, kompleks o‘rganish, baholash va umumlashtirish, deb tushunadi. Uchinchi guruh olimlar makroiqtisodiy tahlil metodi, korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy va xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda kompleks o‘rganish, o‘lchash va umumlashtirish hamda foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ishga solish yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish tushuniladi, deb uqtiradi. Ko‘rinib turibdiki, bitta kategoriyaning ta’rifiga turli olimlar turlicha yondashgan.

Iqtisodiy tahlil fani metodining shunday ta’rifini yaratish lozimki, u obyektning yoki tuzumning o‘zgarishi bilan o‘zgarmaydigan bo‘lsin, chunki har qanday fan, xususan, xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani ham qaysi tuzumdan qat’i nazar, o‘zining nazariy jihatdan asoslangan metodiga ega bo‘lishi lozim.

Bundan kelib chiqib, uzoq yillar o‘tkazgan tadqiqotlarimiz natijasida xo‘jalik faoliyati tahlili metodining ta’rifini ishlab chiqishda, uning bir qancha talablarga javob berishi lozim degan xulosaga keldik. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin. Birinchidan, har qanday fan singari makroiqtisodiy tahlil fanining ham metodining nazariy asosi bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, ushbu fanda nimani o‘rganishi va uning qayerda qanday ifodalanishi ham ko‘rinib turmog‘i lozim. Uchinchidan, tahlil jarayonida qayerni, qaysi obyektni va qaysi davrni o‘rganilayotganligi aniq bo‘lishi lozim. To‘rtinchidan, tahlilning nima maqsadda amalga oshirilishi aniq ko‘rinib turishi kerak.

Beshinchidan, iqtisodiy tahlilning shu maqsadni amalga oshirish uchun nimalar qilinishi alohida ta'kidlanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga javob beradigan ta'rif, fikrimizga, xo'jalik faoliyati, hudud va butun iqtisodiyotning makroiqtisodiy tahlili darajasiga mos bo'lishi kerak. Bu nazariy xulosadan kelib chiqib, biz makroiqtisodiy tahlil fanining metodiga quyidagicha ta'rif berishni lozim, deb topdik. **"Makroiqtisodiy tahlilning metodi dialektik metodga asoslangan bo'lib, uning predmetini makon va zamonda, axborotlar manbayida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimi asosida har tomonlama kompleks o'rganish, mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlash, obyektning samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, boshqarishni takomillashtirish maqsadida qo'llaniladigan usullar majmuyidan iboratdir"**. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etish sharoitida makroiqtisodiy tahlilga quyiladigan barcha nazariy va amaliy talablarga javob beradi.

Makroiqtisodiy tahlil fanining metodini quyidagicha asoslash mumkin. Birinchidan, u dialektik metodga asoslanganligidir. Bu bir qancha falsafiy qonunlar va kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, uning predmetini mokon va zamonda, axborotlar manbayida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimi asosida har tomonlama kompleks o'rganish ko'zda tutilgan. Aniq ko'rsatkichlar tizimi, aniq va asosli xulosalar chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladi. Uchinchidan, xo'jalik faoliyati tahlili natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarda mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlash masalasi ham usuvorlikni tashkil qiladi. To'rtinchidan, o'rganilayotgan obyektning samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasiga qaratilganligi ham masalaning muhim jihatini tashkil qiladi. Beshinchidan, boshqarishni takomillashtirish maqsadida bitta yoki ikkita emas, balki tahlil jarayonida qo'llaniladigan barcha usullar majmuyidan iboratligi qayd etilgan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida makroiqtisodiy tahlilga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

1.8. Makroiqtisodiy tahlil fanining metodologiyasi va ularning tasnifi

Makroiqtisodiy tahlilning metodi va metodologiyasini farqlamoq lozim. **Metod** deganda, asosan, shu fanning predmetini o'rganish usuli tushuniladi. **Metodologiya** deganda, sodda qilib aytganda, shu fanning predmetini o'rgatish usuli bilan birga, unda qo'llaniladigan yondashuvlar, barcha usullar majmuyi tushuniladi.

Makroiqtisodiy tahlilning metodologik asosi, ya'ni uni o'rgatishda qo'llaniladigan yondashuvlar turli yo'nalishda bo'lishi tabiiy. Shu tufayli ularni, eng avvalo, to'g'ri tasniflash lozim bo'ladi. Fikrimizcha, ularni o'rganishda qanday yondashishiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. O'rganilayotgan obyektga dialektika nuqtayi nazaridan yondashish.

2. O'rganilayotgan obyektga tizimli uzluksizlikni ta'minlagan holda yondashish.

Birinchi yondashish bo'yicha tahlil qilinsa barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, harakatda va doim o'zgarishda, deb qarash lozim bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan bo'lsa shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko'rsatkichlar ham bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va o'zgarishda deb qaraladi. Bu yondashuv, ayniqsa, natijaviy ko'rsatkichlarning (mamlakat miqyosida YaIMning) omilli tahlilda qo'llaniladi. Ushbu yondashuv natija ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda keng qo'llaniladi.

Ikkinchi yondashuv bo'yicha tahlil qilinganda o'rganilayotgan obyektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o'rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan hodisalarga uzluksiz ravishda sistemali tarzda yondashish lozimligini taqozo etadi. Bunga o'rganilayotgan obyektni detallashtirish, tizimlashtirish (tartiblashtirish) va umumlashtirish orqali erishish mumkin.

O'rganilayotgan obyektni **detallashtirish** deganda, murakkab iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish va ulardan to'g'ri hamda yaxlit xulosa qilish uchun ularni alohida bo'laklarga bo'lib o'rganish

tushuniladi. Alohida bo'laklarga bo'lish natijasida amalga oshiriladigan jarayon tahlildan iboratdir. Chunki u yaxlit predmet yoki jarayon (hodisa)larni detallashtirish orqali amalga oshiradi. Bunga makroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotimizning umumlashtirilgan ko'rsatkichi YaIM bo'lsa, uni tarmoqlar va, sohalar bo'yicha o'rganish tushuniladi.

Tizimlashtirish (tartiblashtirish) deganda, o'rganilayotgan obyektni o'rganish uchun unga mantiqan ketma-ketlikni ta'minlagan holda tartibga solish tushuniladi. Chunki har qanday iqtisodiy jarayonlar o'ta murakkab bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va aloqada sodir bo'ladi. Shu tufayli ularni har tomonlama, chuqur o'rganish uchun ketma-ket ravishda tartiblashtirib, batafsil tahlil qilish lozim bo'ladi. Masalan, natija ko'rsatkichi o'zgarsa juda ko'p omillar ta'sir qilgan bo'ladi. Barcha omillar natijaga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bularning ta'siri ketma-ket ravishda hisoblab chiqiladi va batafsil tahlil qilinadi. Aynan shu holat iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni, ularning o'zgarishlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Bunda ko'p hollarda induksiya va deduksiya metodlaridan foydalaniladi. Chunki har bir jarayonni batafsil o'rganish va to'g'ri xulosa chiqarish uchun uni umumiylikdan xususiylik sari yoki xususiylikdan, umumiylik sari o'rganishni taqozo etadi. Aynan shu holat tartiblashtirishni tashkil qiladi.

O'rganilayotgan obyektni tahlil qilganda umumlashtirish usulidan ham foydalaniladi. **Umumlashtirish** deganda, obyekt yoki jarayonning barcha jihatlarini atroflicha o'rganib, yaxlit xulosaga kelish tushuniladi. Bu xulosalar o'rganilayotgan obyektni rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Bular esa, tahlilning boshqaruv funksiyasidan kelib chiqadi. Boshqaruv uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishda tahlil ma'lumotlaridan foydalaniladi. Yaxshi natijani ifodalaydigan ko'rsatkichlar darajasini qanday saqlab qolish yo'llari, salbiy ta'sir qilgan omillarni qanday ijobiy holatga aylantirish masalasi qarab chiqiladi. Shular orqali o'rganilayotgan obyekt haqida tegishli va asosli xulosa qilib, boshqaruv qarorldari qabul qilinadi.

Makroiqtisodiy tahlilning metodologik asoslarining tasnifi quyidagi chizmada keltirilgan (1.11-rasm).



1.11-rasm. Makroiqtisodiy tahlil metodologiyasi tasnifi.

Ushbu rasmda birinchi yo'nalish bo'yicha keltirilgan kategoriyalarning qisqacha mazmuni shundaki, o'rganilayotgan barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqligda, harakatda va o'zgarishda deb qaraladi. Bular tarkibiga induksiya va deduksiya, sabab va oqibat, shakl va mazmun, miqdor hamda sifat kabi bilish nazariyasida qo'llaniladigan kategoriyalar kiradi.

Bundagi ikkinchi yo'nalish, bevosita o'rganilayotgan obyektga uzluksizlikni ta'minlagan holda tizimli yondashishdan iboratdir. O'rganilayotgan obyektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuyidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o'rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan hodisalar makroiqtisodiy tahlilning tizimli yondashish metodologiyasini tashkil qiladi. Bu detallashtirish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan iborat.

Mazkur yondashuvlar tahlil jarayonida quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: obyektni o'rganish uchun axborotlar to'plash, axborotlarni turli yondashuvlar bo'yicha qayta ishlash, ijobiy va salbiy xulosalarga kelish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va bularning ijrosini ta'minlash bo'yicha nazoratni amalga oshirish. Mazkur holatning barcha bosqichlarida axborotlardan foydalaniladi. Shu tufayli tahlilning to'g'ri amalga oshirilishida haqqoniy axborotlarning ahamiyati katta.

Xulosa qilib aytganda, makroiqtisodiy tahlilning metodologiyasi, unda amal qiladigan bilish nazariyasiga tayangan holda makroiqtisodiyot darajasida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan

jarayonlar va hodisalarni tizimlashtirish, detallashtirish va umumlashtirish orqali yaxlit xulosaga kelinadi va shular asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

1.9. Makroiqtisodiy tahlil fani metodologiyasi tavsifi

Induksiya va deduksiya kategoriyalari makroiqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kategoriyalar makroiqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta'minlaydi. Masalan, induksiya deganda, o'rganilayotgan obyektning xususiylikdan umumiylikka qarab o'rganilishi tushuniladi. Bunga misol qilib mehnat unumdorligi tahlilini olish mumkin. Unga vaqt nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, uni bir soatlik mehnat unimdorligi, bir kunlik, o'n kunlik, bir oylik, bir choralik, yarim yillik, to'qqiz oylik, bir yillik mehnat unimdorligi darajasigacha umumlashtirish mumkin. Yoki aynan ushbu ko'rsatkichni makon nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, oldin bir kishining mehnat unimdorligi, bir bo'linmaning mehnat unumdorligi va butun mehnat jamoasining umumiy mehnat unumdorligi darajasigacha o'rganish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan obyekt umumiylikdan xususiylik sari, ya'ni umumiy ko'rsatkichlardan xususiy (kichik) ko'rsatkichlarga qarab o'rganish tushuniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada foyda rejasining bajarilishini olish mumkin. Ushbu ko'rsatkich oldin butun birlashma bo'yicha o'rganiladi, so'ngra uning alohida korxonalari (firmalari) bo'yicha, ularning alohida bo'linmalari bo'yicha ketma-ketlikda o'rganilib, umumiy natijaga qaysi bug'in va bo'linmalarning ijobiy yoki salbiy ta'sir qilganligi to'g'risida xulosa qilinadi.

Induksiya va deduksiya usullarining bir-biri va amaliyot bilan bog'liqligini quyidagi chizmada ifodalash mumkin:

Induksiya	Deduksiya
Obyektni xususiylikdan umumiylik sari o'rganish	Obyektni umumiylikdan xususiylik sari o'rganish

Makon va zamon kategoriyalari ham makroiqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jara-

yonlar makonda (xo'jalik yurituvchi subyektda) ma'lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bo'ladi. Shu tufayli zamonning o'tishi bilan makondagi natija o'zgaradi va uning teskarisi, ya'ni makonning o'zgarishi bilan zamon o'tgandan keyin natija boshqacha bo'lishi mumkin.

Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo'jalik yurituvchi subyektlarni misol keltirish mumkin. Bular tahlilining obyekti. Zamon deganda esa ularning ma'lum bir hisobot davri tushuniladi. Makonda sodir bo'lgan jarayonlar ma'lum bir hisobot davri (zamon) o'tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma'lumot manbayi bo'lib hisoblanadi.

Makon va zamon o'rtasidagi hamda ularning amaliyot bilan bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

MAKON	ZAMON
Korxonalar, firmalar kabi xo'jalik yurituvchi subyektlar	Hisobot davri (oy, chorak, yarim yillik va yillik)

Analiz va sintez. (Tahlil va umumlashtirish) kategoriyasi ham makroiqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo'laklarga bo'lib o'rganish tushiniladi. Umumlashtirish (sintez) esa o'rganilayotgan obyekt to'g'risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi. Unda obyektning barcha bo'laklari bo'yicha qilingan xulosa umumlashtiriladi.

O'rganilayotgan obyekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelishi uchun u tahlil qilinadi hamda barcha xulosalar umumlashtiriladi. Tahlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli, ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda qaraladi.

Ammo shuni e'tirof etish lozimki, tahlilning turi juda ko'p. U tabiatda, jamiyatda va inson tafakkurida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganadi. Biz o'rganadigan tahlil makroiqtisodiy tahlilning faqat mikroiqtisod darajasiga mansub xolos. Demak, ko'rinib turibdiki, tahlil keng ma'noda qaralar ekan. Lekin bozorli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy tahlil, tahlillar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Tahlil bilan umumlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikning makroiqtisodiy tahlilga tegishli qismini quyidagicha ifoda etish mumkin:

Tahlil (analiz)	Umumlashtirish (sintez)
Hisobot yilining natijasi xususiylik sari: choraklari, oylari bo‘yicha o‘rganiladi.	Hisobot yilining umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi.
Korxona faoliyati va uning alohida bo‘linmalari, bo‘limlarning ham qismlari bo‘yicha o‘rganiladi.	Korxonaning umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi

Sabab va oqibat kategoriyasi ham bevosita makroiqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Makroiqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko‘rsatkich natija ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak oqibatdir. Ammo shu oqibat o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Uning zamirida bir qancha sabablar bor. Bu sabablarni makroiqtisodiy tahlilda omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) bir qancha omillarga, ya’ni xodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unumdorligi, qo‘llanilayotgan texnologik jarayoni, xomashyoning o‘z vaqtida sifatli ta’minoti kabi omllarga (sabablarga) bog‘liq.

Makroiqtisodiy tahlilda natija o‘zgarishiga omillar ta’siri aniq ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Demak, sababning oqibatga ta’siri o‘rganiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

SABAB	OQIBAT
OMILLAR	NATIJA
Xodimlar soni, mehnat unumdorligi, asosiy vositalar va ular samaradorligi va h.k.	Mahsulot hajmi

Sabab oqibatga olib kelganidek, omillar ta’siri ham biror natijaga olib keladi. Ijobiy sabab yaxshi oqibat, ijobiy omil yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta’siri natijaning pasayishiga olib keladi.

Shakl va mazmun kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, makroiqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o‘zgarishi

mazmun o‘zgarishiga, mazmunning o‘zgarishi shakl o‘zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog‘liqlik juda yorqin nomoyon bo‘ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroylik va chidamlik bo‘lishi uchun, unga qimmatbaho materiallar, turli bezaklar ishlatiladi. Natijada uning mazmuni chidamliligi, narxining nisbatan qimmatliligi bilan o‘zgaradi. Yoki oddiy material o‘rniga sifatli material ishlatib uning mazmunini boyitish kerak bo‘lsa, albatta, shakli ham o‘zgaradi.

Shu jihatdan makroiqtisodiy tahlilda shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy dialektik aloqada bo‘lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo‘llaniladi. Masalan, biror birlashma tarkibida korxonalar soni uning shaklini tashkil qilsa, ularning nima bilan shug‘ullanishi, qanday texnologiya ishlatilishi, qanaqa kadrlar bilan ta’minlanganligi kabi jihatlar uning mazmunini tashkil qiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

Shakl	Mazmun
Mahsulot turi	Uning sifati, tarkibi va h.k.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham makroiqtisodiy tahlilda ayniqsa, iqtisodiy jarayonlar natijasini ko‘rsatkichlarda ifodalashda keng qo‘llaniladi. Ko‘rsatkichlar mazmuni bo‘yicha miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga bo‘linadi. Masalan, korxonada band bo‘lgan xodimlar soni miqdor ko‘rsatkichi bo‘lsa, ularning mehnat unumdorligi sifat ko‘rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko‘rsatkich. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko‘rsatkichi bo‘lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko‘rsatkichidir. Yana boshqa bir misol. Jamoa xo‘jaligining bir yilda yetishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdor ko‘rsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi to‘rtinchi navga qabul qilindi. Bular paxtaning sifat ko‘rsatkichlari. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat ko‘rsatkichlariga misol bo‘ladi.

Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Miqdor	Sifat
Foyda	Rentabellik
Paxta hajmi	Tolaning chiqish darajasi

Ushbu bobda makroiqtisodiy tahlilning ayrim metodologik asoslariga to‘xtaldik. Falsafiy kategoriyalar hayot in’ikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ijtimoiy hayotning bir bo‘lagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga bag‘ishlangan makroiqtisodiy tahlil shu falsafiy kategoriyalarga asoslanadi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, jamiyat hayotida erkin bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanish makroiqtisodiy tahlil bilan bog‘liq yangi-yangi muammolarni vujudga keltirdi. Ushbu muammolarning bir qismi hal qilindi, ammo hal bo‘lishi lozim bo‘lgan bir qancha guruh muammolar ham saqlanib qolmoqda.

Har bir muammoning mazmun-mohiyati va uni hal qilish yo‘llarini ko‘rib chiqish bugungi kunda o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanishda o‘ziga xos iqtisodiy dastaklar va shunga mos fanlarning shakllanishini ham taqozo etadi. Bunday fanlardan biri «Makroiqtisodiy tahlil» fani bo‘lib, uning tarkibi va mazmuni ma’lum darajada o‘zgartirilib, zamonaviylashtirilib, takomillashtirishni taqozo etadi.

Endigi «Makroiqtisodiy tahlil» fani, eng avvalo, hech qanday mafkuraga tobe bo‘lmasdan, davlat manfaatini inkor qilmagan holda turli mulk egalarining (ish kuchi egasi, mehnat jamoasi, tarmoq, butun iqtisodiyot, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, korxona va tashkilotlarning) manfaatlarini o‘zida aks ettirgan holda ifoda etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat mazkur fanning maqsadi, vazifalari, tarkibi, unda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimini, eng muhimi, uning mazmunini ham o‘zgartirishni taqozo etadi.

Makroiqtisodiy tahlil fanining predmeti tom ma’noda obyektni o‘rganishga qaratilgan iqtisodiy va huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq xo‘jalik faoliyatidir. Ammo buxgalteriya hisobi, statistika, moliya va kredit, audit, marketing, menejment kabi fanlarning ham predmeti keng ma’noda xo‘jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo‘jalik

faoliyatida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o‘rgatadi.

Shunday qilib, makroiqtisodiy tahlilning predmeti va obyekti bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitiga mos holda rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, makroiqtisodiy tahlil fanining o‘rni va vazifasi ham erkin iqtisodiyot sharoitiga mos tarzda nazariy jihatdan hamon yetarli darajada talqin qilingan emas. Bu esa mazkur muammoni ham tadqiq qilishni taqozo etadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Makroiqtisodiy tahlilning obyektiv zarurligi, iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, davlat va nodavlat sektori, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyot, makroiqtisodiy tahlil fanining obyekti, harakatlar strategiyasi, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy salohiyati, texnika va texnologiya, moddiy-mehnat va moliyaviy resurslarning samaradorligi, iqtisodiyotning yo‘nalishlari, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, makroiqtisodiy tahlil fanining iqtisodiyotga oid bo‘lgan fanlar bilan bog‘liqligi, makroiqtisodiy tahlil fanining iqtisodiyotga oid bo‘lmagan fanlar bilan bog‘liqligi, ko‘p-mulkchilik, makroiqtisodiy tahlilning iqtisodiyotni boshqarishdagi o‘rni, makrodarajada iqtisodiyotni prognozlashtirish, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohotlarning chuqurlashuvi, qog‘ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usuli, raqamli iqtisodiyot, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda “Fikrlar hujumi” usuli, makroiqtisodiy tahlil fanining metodi, makroiqtisodiy tahlil fanining metodologiyasi, detallashtirish, tizimlashtirish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya, makon va zamon, analiz hamda sintez, sabab va oqibat, shakl va mazmun, miqdor va sifat.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Makroiqtisodiy tahlil fanining obyektiv zarurligini ifodalab bering.

2. Makroiqtisodiy tahlil fani predmetining ta'rifini tushuntiring.

3. Makroiqtisodiy tahlil fanining obyektini ifodalab bering.

4. Makroiqtisodiy tahlil fanining vazifalari nimalardan iborat.

5. Makroiqtisodiy tahlil fanining metodi nimalarni o'z ichiga oladi?

6. Makroiqtisodiy tahlil fanining metodologik asoslari qanday?

7. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida makroiqtisodiy tahlilning vazifalarini sanab bering.

8. Makroiqtisodiy tahlil fanining iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini tushuntirib bering.

9. Makroiqtisodiy tahlil fanining iqtisodiyotga oid bo'lmagan fanlar bilan bog'liqligini tushuntirib bering.

10. Makroiqtisodiy tahlilning iqtisodiyotni boshqarishdagi o'rni va unga raqamli iqtisodiyotni kiritish masalalarini tushuntirib bering.

11. Obyektni detallashtirish deganda nimani tushunasiz?

12. Obyektni tizimlashtirish deganda nimani tushunasiz?

13. Obyektni umumlashtirish deganda nimani tushunasiz?

14. Induksiya va deduksiya kategoriyalarining mohiyati nimalardan iborat?

15. Makon va zamon kategoriyalarining mohiyati nimalardan iborat?

16. Analiz va sintez kategoriyalarining mohiyati nimalardan iborat?

17. Sabab va oqibat kategoriyalarining mohiyati nimalardan iborat?

18. Shakl va mazmun kategoriyalarining mohiyati nimalardan iborat?

19. Miqdor va sifat kategoriyalarining mohiyati nimalardan iborat?

Bob bo'yicha testlar

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida tadbirkorlikka asoslangan ... mulki shaklidagi korxonalar vujudga keldi.

A. *Davlat

B. Xususiy

C. Aralash
D. Barcha javoblar to‘g‘ri

2. Fanning ... deganda, odatda, shu fanda nima o‘rganilishi tushuniladi

A. *Predmeti
B. Obyekti
C. Maqsadi
D. Vazifasi

3. Makroiqtisodiy tahlil fanining obyekti deganda nimani tushunasiz?

A. *Uning qaysi makonda amalga oshirilishi
B. Uning qaysi zamonda amalga oshirilishi
C. Uning qanday holatda amalga oshirilishi
D. To‘g‘ri javob yo‘q

4. Makroiqtisodiy tahlilning iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish sharoitida asosiy vazifalari nechta?

A. *8
B. 7
C. 6
D. 5

5. Tahlilning birinchi vazifasi, bevosita qanday darajada uning biznes-reja bilan bog‘liqligidan kelib chiqadi

A. *Mikro
B. Makro
C. Mega
D. Mezo

6. Makroiqtisodiy tahlilning ikkinchi vazifasi, bevosita qanday darajada hudud va mamlakat miqyosida ishlab chiqilgan davsturlarning bajarilishi o‘rganadi

A. *Makro
B. Mikro

C. Mezo
D. Oplimal

7. Tahlilning nechanchi vazifasi makro va mikro darajada ham shu omillarni aniqlash va har birining ta'sirini hisoblashdan iboratdir

A. *Uchinchi
B. Ikkinchi
C. Birinchi
D. Hamma javob to'g'ri

8. Tahlilning nechanchi vazifasi iqtisodiy jarayonlarning dialektik bog'liqligidan kelib chiqadi

A. *To'rtinchi
B. Uchinchi
C. Ikkinchi
D. Birinchi

9. Tahlilning qaysi vazifasi, korxonalarning erkin raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatayotganligidan kelib chiqadi

A. *Beshinchi
B. To'rtinchi
C. Uchinchi
D. Ikkinchi

10.Tahlilning oltinchi vazifasi ham qanday munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotning shakllanishi bilan vujudga keldi

A. *Bozor
B. Bank
C. Korxona
D. Fabrika

11.Makroiqtisodiy tahlil fani, eng avvalo, qaysi fan bilan bog'liq?

A. *Iqtisodiy nazariya
B. Sotsiologiya
C. Matematika
D. To'g'ri javob yo'q

12.Makroiqtisodiy tahlil bevosita qaysi fan bilan bog‘liq?

A. *Makroiqtisodiyot
B. Mikroiqtisodiyot
C. Menejment
D. Statistika

13.Makroiqtisodiy tahlil fani qaysi fan bilan uzviy bog‘liq

A. *Buxgalteriya hisobi
B. Matematika
C. Biologiya
D. Kimyo

14.Buxgalteriya hisobining ... buxgalteriya hisobotini tuzish, axborotlarini umumlashtirish bilan tugaydi

A. *Vazifasi
B. Predmeti
C. Obyekti
D. Tarixi

15.... yirik bir to‘plamlar, guruhlar, murakkab iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rgansa, makroiqtisodiy tahlil asosan yakka yaxlit olingan ko‘rsatkichlar guruhini, tarmoqlar, sohalar kesimida va tematik tarzda o‘rganish bilan cheklanadi

A. *Statistika
B. Matematika
C. Axborot texnologiyalari
D. Fizika

2-BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISH BO‘YICHA ASOSIY USTUVOR VAZIFALAR MAKROIQTISODIYOT FANINING METODOLOGIK ASOSI

2.1. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi bosqichi, uning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Mazkur Farmon mamlakatimizni 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasini tasdiqlashga bag‘ishlandi.

Bunday harakatlar strategiyasini qabul qilishga qanday zaruriyat tug‘ildi, chunki mamlakat taraqqiyotining o‘ziga xos “O‘zbek modeli” mavjud edi-ku, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Agar uning mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borilsa, ushbu harakatlar strategiyasining paydo bo‘lishiga obyektiv zaruriyat tug‘ildi. Zero, ushbu harakatlar strategiyasi dunyo tan olgan “O‘zbek modeli”ning, bugungi kun talabidan, taraqqiyot tajribasidan kelib chiqqan, to‘ldirilgan mantiqiy davomi, deyish mumkin. Chunki, ushbu harakat strategiyasida ham o‘zimizga xoslik barcha bandlarida sezilib turibdi. Ushbu holatlar quyidagilar bilan izohlanadi.

Birinchidan, mamlakatimizda mustaqillik yillarida xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Chunki, mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab, har yili mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari belgilanib, ularni amalga oshirib kelindi. Bunga sabab yangi jamiyatni qurish, uning muammolarini birdaniga hal qilish bizga meros bo‘lib qolgan qoloq iqtisodiyot bilan imkoni yo‘q edi. Shu tufayli muammolarimizni bosqichma-bosqich hal qilib kelishga majbur edik. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatmoqdaki, shu o‘tgan 25 yil davomida 60 ga yaqin ustuvor yo‘nalishlar belgilangan va ularning bajarilishi ta’minlangan. Bu birgina iqtisodiyotni oladigan bo‘lsak, mulkni xususiylashtirishdan tortib, uni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishgacha, iqtisodiyotda oddiy tartib o‘rnatishdan

tortib, unga innovatsion omillarni tatbiq etishgacha bo'lgan jarayonlarni boshimizdan kechirdik. Shu davrda rivojlanishning huquqiy asosi yaratildi, jamiyatni isloh qilishning o'zimizga xos yo'llari ishlab chiqildi.

Ikkinchidan, dunyo miqyosida globallashuv jarayonining kuchayishi natijasida xalqaro raqobatning keskinlashib borishi ro'y berayotgan hozirgi sharoitda, birdaniga bir qancha muammolarni hal qilish zarurati tug'ildi va mos ravishda unga iqtisodiy, intellektual va ma'naviy imkoniyatlarimiz yetarli darajada shakllandi. Ushbu imkoniyat ham mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichda davom ettirish mumkinligi uchun zamin bo'ldi.

Uchinchidan, hozirgi sharoitda mamlakatimizning ichki imkoniyati va tashqi dunyo bilan hamnafasligi davlatimizni har tomonlama (siyosiy jihatdan, qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlikni ta'minlash) jadal rivojlantirish zaruratini tug'dirdi. Endi eskicha yashab bo'lmaydi, chunki muammolarning asosiy qismi yechilib, taraqqiyot uchun zamin yaratilgan bir pallada, taraqqiyotni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish vaqti keldi.

To'rtinchidan, yuqoridagi imkoniyatlarning hammasi mamlakatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun taraqqiyotning yangicha tamoyillarini va yondashuvlarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni ham taqozo qildi. Pirovardida taraqqiyot yo'limizni kengaytirish imkoniyati tug'ildi va shunga mos ravishda 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi.

Bularning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

1. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish.

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.

3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish.

5. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib borish.

Xullas, mazkur strategiyada barcha sohalar bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan hamma tomonlarini to'liq qamrab olgan chora-tadbirlar

belgilandi. Ushbu ko‘zda tutilgan tadbirlar mamlakatimizning bugungi, ertangi va kelajak istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniq belgilab beradigan bo‘ldi. Shunday qilib, 2017-yildan boshlab jamiyatimiz taraqqiyotida yangi keng qamravli rivojlanish bosqichi boshlandi.

Ushbu keng qamravqli taraqqiyot yo‘nalishlari quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda.

Birinchidan, oldingi taraqqiyotimizni ta’minlashga qaratilgan vazifalarimizda taraqqiyotning ayrim ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lsa, endilikda rivojlanish darajasi shu holatga yetdiki, jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan keng qamravli muammolarimizni birdaniga hal qilish imkoniyati tug‘ildi va shu jihatdan 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida jamiyatni jadal va barqaror rivojlantirishning hamma qirralari inobatga olindi.

Ikkinchidan, endigi rivojlanish iqtisodiy taraqqiyotimizning ijtimoiylashganligini yaqqol o‘zida namoyon qilmoqda. Mamlakatimizda tom ma’noda ijtimoiy yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lgan iqtisodiyot va uni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar harakatlar strategiyasining ma’no-mazmunini tashkil qilmoqda. Bularni kam ta’minlangan va yosh oilalarga arzon uy-joylar bilan ta’minlashdan tortib, pensionerlarga va nogironlarga ijtimoiy ko‘maklashish darajasigacha ahamiyat beriladigan ishlarning amalga oshirilayotganligida ko‘rish mumkin.

Uchinchidan, bajarilishi lozim bo‘lgan dasturlarga kiritilgan masalalar asosan xalq bilan muloqot orqali aniqlanmoqda, ularning dardu-tashvishlarini hal qilish, ularni rozi qilishga qaratilgan bo‘lib, ushbu vazifalarning bajarilishi bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilanmoqda va ularning bajarilishi qattiq nazoratga olingan. Mamlakat taraqqiyotini belgilovchi chora-tadbirlarning bajarilishi bevosita inson manfaatlariga xizmat qilishi bilan xarakterlidir.

To‘rtinchidan, harakatlar strategiyasida mamlakatimizning barcha hududlarida mutanosib rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning belgilanganligi ham taraqqiyotimizning yangi bosqichini o‘zida ifoda etadi. Bugungi kunda uzoq qishloqlarga ham mahalliy xomashyoni qayta ishlaydigan korxonalarning barpo qilinishi evaziga yangi ish o‘rinlarini yaratadigan choralarning ko‘rilishi ko‘zda tutilganligi taraqqiyotning barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilganligi bilan ham yangi mazmunga ega.

Beshinchidan, davlat rahbarlari quyidan to yuqorigacha xalq bilan bevosita muloqotga kirishib, ular o‘rtasidagi devor olinib tashlandi, endi xalq o‘z dardini bemalol rahbarlarga aytadigan va uni joylarda o‘z vaqtida hal qiladigan bo‘ldi. Bu ham taraqqiyotning yangi yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Oltinchidan, barcha ko‘zda tutilgan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar uchun mablag‘larning manbasi (davlat budjeti mablag‘lari, mahalliy budjet mablag‘lari, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlari mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari, xorijiy investorlar mablag‘lari) aniq belgilanganligi, keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishning ijrosi to‘liq ta’minlanishiga kafolatdir. Investitsiyasiz taraqqiyotni ta’minlab bo‘lmaydi va mos ravishda, har qanday taraqqiyot o‘ziga sarflangan mablag‘ni oqlashga qaratilgan bo‘lishligini ham taqozo etadi. Shu tufayli, bugungi kunda taraqqiyotimizni tegishli mablag‘lar bilan ta’minlasak, ertangi istiqbolda, ularning qaytimi sarflangan xarajatlarni bir necha barobar qoplashi tayin.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi jamiyat taraqqiyotida yangi bosqichda amalga oshirilmoqda. Muhimi, mazkur keng qamravli islohotlarda ko‘zda tutilgan barcha chora-tadbirlar aholining farovonligini ta’minlashga, ularning yashash darajasi va sifatini oshirish orqali davlatdan, davlat idoralari xodimlaridan rozi bo‘lishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mos ravishda, islohotlar har bir fuqaro hayotiga daxldor ekan, fuqarolarimiz ham ushbu islohotlarning amalga oshirilishida oddiy tamoshabin emas, balki faol ishtirokchi, shaxsan mas’ulligini his qilib yashaydigan ruhiyatga ega bo‘lishligi kerak. Ushbu holat taraqqiyotning yangi bosqichida parvoz qiladigan qushning ikkita qanoti, ya’ni iqtisodiy omillar bilan birga ma’naviy yuksalishni birga olib borishni taqozo etadi.

2.2. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolishning ustuvor yo‘nalishlari

Harakatlar strategiyasida Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishla-

rida iqtisodiyotni rivojlantirishning beshta sohaga xos ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Bu yo‘nalishlarda:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish masalasi.

2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadbirlar.

3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishga erishish.

4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish.

5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanishni yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘zda tutilgan.

Mazkur masala, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarining birinchi yo‘nalishi sifatida belgilangan. Ushbu ustuvor yo‘nalish mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ham yettita kichik yo‘nalishlar ko‘zda tutilgan.

Mustaqillik yillarida nochor iqtisodiyotni barqaror taraqqiy etadigan holatdagi iqtisodiyot darajasiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldik. Oxirgi o‘n yilda mamlakat YaIM yuqori sur’atlar bilan o‘sishi ta’minlanib, o‘rtacha 8 foizdan ziyod o‘sishga erishildi. Endigi vazifa – “makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash”[5]ga qaratilgan. Ushbu o‘sish sur’atini saqlab qolish unchalik oson ish emas, chunki 2008-yildagi bir foiz o‘sish sur’atining salmog‘iga nisbatan 2007-yildagi YaIMning bir foiz o‘sish sur’atining salmog‘i juda katta. Shu tufayli ushbu vazifani

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

bajarish uchun katta tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni amalga oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va iqtisodiyotni innovatsion omillar evaziga modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri ijtimoiylashtirilgan iqtisodiyotni shakllantirish va shu yo'nalishda taraqqiyotimizni ta'minlashga qaratilganligi bilan o'ziga xos xususiyatga ega edi. Shu tufayli Davlat budjetining o'rta hisobda 60 foizi ushbu maqsadlarga sarflanib kelinmoqda. Kelgusi istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturida ham "xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish"[6] masalasi ham ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Yangi davrdagi ushbu sohadagi muhim o'zgarish va katta e'tibor qaratilish lozim bo'lgan soha – mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Chunki iqtisodiyotimizning rivojlanishi hududlar bo'yicha tahlil qilinsa, ularning hamma joyda bir xilda emasligiga guvoh bo'linadi. Ayrim tumanlar o'zini-o'zi bemalol qoplab foyda bilan ishlayotgan bir pallada, ayrimlari hamon datatsiya sharoitida faoliyat ko'rsatmoqda. Shu tufayli Prezidentimiz 2017-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Agar hududlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarini solishtirsak, ular **kun va tundek bir-biridan farq qiladi**"[7], deb ta'kidlagan edi. Bu esa, har bir joyning o'zining budjetini tiklash bilan birga, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish masalasiga ham diqqatni qaratishga da'vat qiladi. Endigi yo'nalish, har bir hudud o'z aholisini shu joyda ish bilan ta'minlashi, o'zining mahalliy budjetini o'zi datatsiyalarsiz shakllantirishga erishishi lozimligini taqozo etadi. Bunga esa hududlarni mutanosib ravishda barqaror rivojlantirish orqali erishiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri "soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish

---

[6] O'sha joyda

[7] Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'i tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: 2017, – 49 bet.

siyosatini davom ettirish"[8] bilan bog'liq. Mustaqillik yillarida soliq yukini qisqatirish bo'ycha juda katta ishlar qilindi. Birgina misol, kichik biznes subyektlari to'laydigan soliq stavkasi bir yilga 25,0 %dan atigi 5 %gacha kamayganligi ham ko'p narsadan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida, "soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish"ni[9] taqozo etadi. Mazkur tadbir kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishini ta'minlaydi, chunki soliqdan tejalgan mablag'lar bevosita shu subyektlarning moddiy-texnika bazasini takomillashtirishga, faoliyatini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashga sarflanadi.

Mamlakatimizda pul-kredit tizimini takomillashtirish hayotiy zaruriyat, chunki uning holati bevosita iqtisodiyotning o'sish darajasiga va shunga mos ravishda, aholining daromadlariga bog'liq. Bu borada ancha kamchiliklarimiz ham yo'q emas. Bunga yaqqol misol valyuta bozoridagi nomuvofiqlikda ham namoyon bo'lib turibdi. Buni inobatga olib, harakatlar strategiyasida "ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish"[10] masalasini ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yildi. Ushbu vazifani bajarilishi bevosita "valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash" orqali amalga oshiriladi. Bu ancha murakkab jarayon. Shu tufayli mazkur sohani takomillashtirish borasida ham aniq chora-tadbirlar belgilangan va bu borada tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, bank tizimini isloh qilishni boshlagan edik. Bu borada juda katta natijalarga erishildi. Banklar o'rtasida raqobat muhiti shakllandi, ularning turli mulk shaklidagi subyektlari shakllandi va shu asosda jadal rivojlanish imkoniyatlari ham yaratildi. Shunga qaramasdan, mazkur masala harakatlar strategiyasida: "bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik

[8] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

[9] O'sha joyda.

[10] O'sha joyda.

biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish"ga[11] qaratilgan ustuvor vazifalar ham belgilangan. Bugungi kunda banklar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun barcha choralarni ko'rmoqda, ular taraqqiyotimizning investorlariga aylanmoqda.

Iqtisodiyotning rivojlanishida moliya institutlaridan "sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini, ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish"[12] masalasi qo'yilgan. Shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish, masalasi ham ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Hozirgi kunda aholi bo'sh mablag'larini bank tizimiga joylashtirishga juda ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda. Chunki, aholi o'z mablag'larini naqd pul shaklida topshirib, kerak pallada ololmagan hollari ko'p uchradi. Mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida banklarga topshirilgan pullarning qadrsizlanish darajasi ming marotabaga kamayib ketishi ham aholini banklar bilan ancha ehtiyotkor holda munosabat qilishga majbur qildi. Shu tufayli, ushbu soha o'z faoliyatini aholining ishonchini qozonishga qaratilgan tadbirlarni takomillashtirish masalasiga ham qaratmog'i lozim.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ta'minlanishida "xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish"[13] masalasi ham iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalari sirasiga kiradi. Bu borada ham ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu soha bilan oldinlari ayrim mutasaddi vazirliklargina shug'ullangan bo'lsa, hozirgi paytda barchа vazirlik idoralarga o'zining sohasi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy kompaniyalar bilan bevosita shartnomalar asosida qo'shma korxonalarni tashkil etish, xorijda joylashgan diplomatik vakolatxonalarimiz ham bu borada tegishli tarzda o'z hissalarini qo'shish masalasi ustuvorlikni tashkil qilmoqda.

---

[11] O'sha joyda.
[12] O'sha joyda.
[13] O'sha joyda.

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish uchun asosiy e’tibor pul-kredit siyosatini takomillashtirishga va turli manbalardan investitsiyalarni kiritish masalalariga qaratilgan. Chunki iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun, eng avvalo, mablag‘ va turli shakllardagi investitsiyalarni jalb qilish lozimdir.

2.3. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkni himoya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Unda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish uchun aniq chora-tadbirlar, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirishga qaratilgan ishlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish masalalari aniq ko‘rsatib berilgan.

Mazkur strategiyada asosiy e’tibor xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashga qaratilmoqda. Buning uchun xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish va unga to‘liq erkinlik berishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda o‘z mohiyati jihatidan o‘zimizga xos bo‘lgan «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan tamoyilni amalga oshirish borasida ham ta’sirchan choralar ko‘rilishi ko‘zda tutilgan. Buni amalga oshirish uchun mamlakatimizning barcha soha, tarmoqlari va hududlari bo‘yicha aniq dasturlar asosida ish olib borilmoqda.

Mazkur sohadagi belgilangan vazifalar o‘z-o‘zidan amalga oshib qolmaydi. Har qanday kishi ham tadbirkor bo‘lib ketavermaydi. Shuning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish maqsadida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga doir ishlar ham iqtisodiyotni liberallashtirishning tarkibiy qismidan o‘rin egallagan. Bunda tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’i oldini olish choralari ham belgilangan va bular qattiq

nazorat ostida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda "Xalq qabulxona"lariga kelib tushgan arizalar tarkibida tadbirkorlikka to'siq bo'layotgan faktlar ham yo'q emas. Ammo ular o'z vaqtida va o'z joyida hal qilinmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omillaridan biri, davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-takomillarini soddalashtirish bilan bog'liqdir. Shu tufayli ushbu masala ham strategiyamizning yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirishga ham yetarli darajada e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida ham tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularga bekor turgan obyektlarni "nol" qiymatda sotishdan tortib, imtiyozli kreditlar berishgacha bo'lgan tadbirlardan keng foydalanilmoqda.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya muhitini takomillashtirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish masalasi bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish dasturi tuzildi. Hozirgi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha yangidan tashkil qilingan Investitsiya vazirligi bilan birga deyarli barcha vazirlik va idoralar, Tashqi ishlar vazirligi, diplomatik korpus vakillari, bizning xorijdagi vakolatxonalarimiz xodimlari, hokimlar, tadbirkorlar shug'ullanmoqdalar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida korporativ boshqaruv bo'yicha ma'lum tajrib to'plangan. Uning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish borasida ham belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish masalasi ham har bir soha, hudud va tarmoqlar bo'yicha aniq qilib belgilangan.

Hozirgi sharoitda tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish masalasi ham iqtisodiy taraqqiyotimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Shu nuqtayi nazardan belgilangan chora-tadbirlar ham tegishli nazorat

ostiga olinganki, ushbu omil ham iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘siq bo‘lmasin.

Ma’lumki, davlatimiz bosh islohotchi sifatida tegishli yo‘nalishlarni belgilab beradi va bir vaqtning o‘zida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirishni ham ko‘zda tutadi. Bunda davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ichki ishlariga deyarli aralashmaydi. Buning uchun davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish lozimligi ham strategiyada belgilangan. Ushbu tadbir bevosita iqtisodiyotni demokratlashtirishni ta’minlaydi. Bunda asosiy vazifa davlat xususiy sheriklikni kengaytirish bilan birga, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirib boradi. Ushbu tadbirlar iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida yana bir qutlug‘ qadam bo‘lib xizmat qiladi. Erkinlik bor joyda yuksalish bo‘ladi. Ammo erkinlikni o‘zboshimchalik deb tushunmaslik kerak va tartib tamoyillardan toymasdan faoliyat ko‘rsatishni ta’minlash lozim bo‘ladi.

2.4. Hududlarni kompleks rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari

Hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish yo‘llarini amalga oshirish iqtisodiyotni rivojlantirishning beshinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bunda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun, ularning mavjud salohiyatidan va ichki imkoniyatlaridan samarali va optimal foydalanish yo‘llari belgilangan.

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida har bir hudud iqtisodiyotini va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishni taqozo qilmoqda. Chunki hududlar o‘rtasidagi tofovut anchagina katta. Ayrim tumanlar hamon datatsiya sharoitidan chiqa olgan emas. Natijada xalqning turmush darajasi va daromadlari ham shunga yarasha. Shuning uchun aholining va hududlarning daromadlarini oshirish uchun har birining “tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va

samarali foydalanishni ta'minlash"[14] masalasi ustuvorlik tashkil qilmoqda. Chunki juda ko'p hududlarimizdagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotganligi ayon. Masalan, Jizzax viloyatining Baxmal tumanini olaylik. Undagi tabiiy resurslarning o'zi ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat, ammo mazkur sohadan deyarli foydalanilmasdan kelinmoqda. Mana shu joyning o'zida ichki turizmni rivojlantirishning o'zi ham yetarli. Xuddi shu joyda agroturizmni, rekreatsion turizmlarni ham rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Xuddi shunday holatni Samarqand viloyatining Urgut va Samarqand tumanlari bo'yicha ham aytish mumkin.

Ushbu holatni inobatga olib, harakatlar strategiyasida "hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish"[15] masalasi ustuvor qilib belgilangan. Rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tumanlardagi bor imkoniyatlarni ishga solish uchun, u yerga mos sohalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Samarqand viloyatining Qo'shrabod tumanida suv tanqisligi sezilganligi tufayli u yerda xohlagan ishni qilib bo'lmaydi. Keng dalani yaylov sifatida foydalanish, u yerdagi adrlarda suvni kam talab qiladigan yong'oq daraxtini ekish, agar yer osti suvini chiqarish imkoniyati bo'lgan joylarda intensiv bog'larni ko'paytirish mumkin. Mazkur tuman etnografik turizmni rivojlantirish uchun ham juda qulay hudud. U yerda etnografik milliy an'analarni o'zida ifoda etadigan ansambllarni tashkil qilish, unda milliy kiyimlarimiz bilan birga milliy qo'shiqlarimiz, turli milliy o'yinlarimizni ham namoyish qilishimiz mumkin. Bularning hammasi tuman iqtisodiy-ijtimoiy hayotida o'ziga xos o'ringa ega bo'ladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun "yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni

[14] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
[15] O'sha joyda.

jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish"[16] masalasi ham ustuvor vazifalar sifatida harakatlar strategiyasida o'z aksini topgan. Rivojlanishing hozirgi bosqichida mahalliy xomashyoni qayta ishlaydigan kichik korxonalarni barpo etish hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Buning uchun har bir hududda yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish mumkin. Hozirgi kuzatuvlarimiz ko'rsatmoqdaki, uzoq qishloqlarimiz aholisida ham avtomashinalar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Ammo joylarda ularga xizmat qiladigan servis markazlarining yo'qligi tufayli, katta masofani bosib va vaqtni yo'qotib, shaharlarga yoki tuman markazlariga kelishga majbur bo'lmoqda. Albatta, iqtisodiyoti va dehqonchiligi rivojlanmagan hududlar qishloq aholisining iqtisodiy ahvoli joylarda tegishli korxonalarni qurish imkoniyatiga ega emas. Shu tufayli, u yerlarga ham yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Harakatlar strategiyasida hududlarni rivojlantirishga qaratilgan eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri "sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish hamda mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish"ga[17] qaratilgan. Hududlarda sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, birinchidan, aholini ish bilan bandligini ta'minlasa, ikkinchidan, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish evaziga mahalliy budjetning daromad bazasini kengaytirish imkoniyatini ham yaratadi. Bunday tadbirlar o'z navbatida, subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirishga olib keladi.

2017–2021-yillarga mo'ljallangan mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini

[16] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

[17] O'sha joyda.

yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish[18] masalasi ham ustuvor vazifalar qatoridan o'rin olgan. Zero, hududlarda sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi ham unchalik oson ish emas. Chunki sanoat korxonalari uchun tegishli infratuzilma yetarli darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Qishloq joylarda kommunal xizmatlarni tubdan yaxshilash, sanoat korxonalari uchun kadrlar tayyorlash, ularni xomashyo va materiallar bilan ta'minlash, tizimli ravishda modernizatsiya qilib borish evaziga texnologiyalarni takomillashtirishga erishish kabi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Bu tadbirlar shunchaki odamlarning xohishi bilan amalga oshib qolmaydi. Bunga erishish uchun juda katta tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishga solish lozim bo'ladi.

Bularning barchasi pirovardida aholining faravonligini, yashash darajasi va sifatini oshirish imkonini ham beradi. Bu esa, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadiga mosdir.

2.5. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali makroiqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari

Iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ikkinchi ustuvor yo'nalish – tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Chunki, mamlakat milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlamasdan turib, integratsion jarayonlarda o'z mavqeimiz va o'rnimizni topishimiz biroz murakkab bo'lib qoladi.

Ushbu ustuvor yo'nalishlardan biri bevosita "milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish"[19] masalasiga qaratilgan.

---

[18] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

[19] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda

Investitsiyaning asosiy maqsadi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki iqtisodiyotning hamma tomonlarini modernizatsiya qilmasdan turib, hozirgi tez rivojlanayotgan iqtisodiy jarayonlardan orqada qolib ketishi hech gap emas. Hozirgi paytda mamlakatimizda "ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati"[20] olib borilmoqda. Ushbu siyosat bevosita iqtisodiyotni modernizatsiya qilish siyosati bilan bevosita bog'liqligi tufayli, bir-birini to'ldirib boradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning yana bir yo'nalishi "yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan"[21]. Chunki mamlakatimizning iqtisodiyoti dastlabki yillarda paxta yakkahokimligi hukm surgan iqtisodiyot bo'lishi bilan birga, asosiy eksportimiz xomashyodan iborat bo'lgan. Mustaqillik yillarida ushbu holat o'nglanib kelinmoqda. Bugungi kunda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga iqtisodiyotimizni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi. Bu esa o'z navbatida, ta'kidlanganidek, sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik, investitsiyaviy muhit bilan birga, raqobatbardoshlik muhitini ham shakllantirish borasida tahsinga loyiq ishlar amalga oshirildi. Ularning huquqiy, iqtisodiy mexanizmlari yaratildi. Kelajakda ham iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham belgilangan.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan birga har bir mahsulotning ham raqobatbardoshligini ta'minlash lozim. Chunki, xalqaro bozorda har bir mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini

---

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi". // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

[20] O'sha joyda.

[21] O'sha joyda.

o‘zlashtirish lozim bo‘ladi. Shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarimizning raqobatbardoshligi ta’minlanadi. Raqobatbardoshlikni ta’minlash ham o‘ta murakkab jarayon. Buning uchun har bir tovar sifat jihatidan yuqori, narx jihatidan optimal, eng muhimi iste’molchilarning talablariga mos bo‘lishligi lozimdir. Bunga erishish uchun tejamkor texnologiya, malakali kadrlar, yuqori texnologiyani ta’minlaydigan moddiy-texnika bazasini shakllantirish lozim bo‘ladi.

Mahsulotlarning sifatini oshirib, ularning eksportini ko‘paytirish singari tadbirlarga tenglashtiriladigan ishlardan biri, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Buning uchun harakatlar strategiyasida “ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish”[22] vazifasi ham belgilangan.

Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan biri, “iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish”ga[23] qaratilgan. Mavjud texnologiyalar iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirishni taqozo qilmoqda. Chunki, mahsulotlar tannarxida energiya va resurslar ulushi ancha qismini tashkil qiladi. Ularni kamaytirmasdan turib, tovarlar narxini pasaytirib bo‘lmaydi, yuqori narx bilan tovarlarning raqobatbardoshligini ham ta’minlab bo‘lmaydi. Shu tufayli, ushbu vazifa ham muhim va katta e’tiborni talab qiladi. Energiya tejamkorligiga erishishning yo‘llaridan biri, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishdan iboratdir. Shu tufayli, mazkur masalaga ham alohida e’tiborni qaratishni taqozo etadi. Iqtisodiyotning yuksalishida, uning barcha tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta’minlashni yo‘lga qo‘yish va ularning mehnat unumdorligini oshirishga erishish masalasi ham kelgusi iqtisodiyotimizdagi muhim masalalardan biridir.

Zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish orqali ishlab chiqarish va xizmat

[22] O‘sha joyda.
[23] O‘sha joyda.

ko‘rsatish sohasini xorijiy tadbirkorlar ishtirokchilari bilan birga jadal rivojlantirishga qaratilgandir. Buning uchun faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etishni taqozo etadi. Ushbu masalani amalga oshirish borasida ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016–2017-yillarda qator farmon va qarorlar qabul qilindi va ularni amalga oshirish borasida tegishli dasturlar tuzilib, bugungi kunda ularning ijrosi ta’minlanmoqda.

2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida “xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish”[24] masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Chunki, xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishdagi o‘rni va ulushini oshirib bo‘lmaydi. Xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushining oshishi, aholining hayot darajasi va sifatining oshganligidan dalolat beradi. Chunki odamlarning qorni to‘ymasdan, xizmatlarga ehtiyoji kam bo‘ladi va zarur xizmatlarni o‘zlari bajarib qo‘ya qoladi. Xizmatlarning ko‘payishining birinchi belgisi aholining farovonligini oshayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi sharoitda ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibi ham takomillashib bormoqda. Shunga mos ravishda xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlarini joriy qilish hisobiga tubdan o‘zgartirish masalasi ham strategiyada belgilangan ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Endigi ahamiyat beriladigan muhim masalalardan biri “turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish”[25]dan iboratdir. Chunki, juda katta turistik salohiyatga ega bo‘lgan mamlakatimizda turizmning mamlakat YaIMdagi ulushining atigi 2,0 %ni tashkil qilishi, ushbu sohadagi mavjud imkoniyatlarimizning hali ishga solinmaganligidan dalolat berib turibdi. Bu borada mazkur risolaning 1.8 bobida batafsil yoritilgan.

Iqtisodiyotni yuksaltirishning muhim omillaridan biri, tovar va xizmatlar eksportini rivojlantirishdan iboratdir. Shu tufayli, Harakatlar

[24] O‘sha joyda.
[25] O‘sha joyda.

strategiyasida "eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish"[26] masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Endi mazkur vazifaning bajarilishi eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilishni taqozo etadi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish masalasi turibdi. Bu borada muvofiqlikni ta'minlash masalasi ustuvorlikni tashkil qilishi lozim. Aks holda, bir tarmoq yoki hudud rivojlanib, ikkinchisi, davlat budjetidan subsidiya evaziga yashashga ko'nikib qoladi. Bunday bo'lmaslik uchun har bir hududda tegishli imkoniyatlar mavjud. Faqat ularni ishga solish choralarini ko'rish va hududning barcha imkoniyatlarini safarbar qilish lozim bo'ladi.

Mamlakatimizning mustaqillik yillarida muhim natijalarga erishish bilan ayrim kamchiliklar ham yo'q emas edi. Chunki, milliy trassamizning egasi boshqa kishi, shaharlararo yo'nalishdagilarning egasi yana boshqa kishi, shahar va qishloqlar ichdagi yo'llarning egasi ham boshqalar edi. Bunga barham berish maqsadida yo'l egalik bo'ldi va yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish masalasi bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Muhim masalalardan biri bo'lgan iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasi ham harakatlar strategiyasida alohida qayd etilgan.

Xullas, iqtisodiyotni rivojlantirishda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirishga, balki aholining farovonligining oshishiga, hayot darajasi va sifatining yuksalishiga xizmat qiladi.

2.6. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va jadal rivojlantirishning strategik yo'nalishlari

Qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish, sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va jadal rivojlantirish iqtisodiyotni rivojlantirishning uchinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bugungi kunda iqtisodiyotni, uning tarkibiy qismi bo'lgan qishloq xo'jaligini

[26] O'sha joyda.

modernizatsiya qilmasdan, sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, uni jadal rivojlantirishga erishish qiyin. Shu tufayli, ushbu masalaga Harakatlar strategiyasida alohida ahamiyat berilgan.

2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida qishloq xo'jaligida "tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish"[27] masalasi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Chunki, shu darajaga yetdikki, endi qishloq xo'jaligida ham tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirmasdan turib katta muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Zero, mazkur soha zimmasiga hamma aholini turli noz-ne'matlar bilan ta'minlash bilan birga, sanoatni ham eng qimmatli xomashyo bilan ta'minlash yuklangan. Sohada tarkibiy o'zgarish asosan, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish evaziga amalga oshiriladi. Shundagina qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirishga erishish mumkin. Qishloq xo'jaligining muhim vazifalaridan biri, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashga qaratilgandir. Bu borada ham izchillik, tadbirkorlik va oqilona yondashuvni talab qiladi. Shu o'rinda, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish barobarida, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishga ham erishish mumkin. Hozirgi bosqichda barcha sohalarda yetishtirilgan va ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar xalqaro andozalar darajasida bo'lishligini va ularning eksport qilinishini ta'minlashga qaratilgandir.

Harakatlar strategiyasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan yana bir yo'nalish, bevosita "paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish"[28]ga qaratilgan. Ushbu band ham bevosita yuqoridagi belgilangan ustuvor vazifalarning mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi. Masalan, paxta va boshoqli don ekiladigan

[27]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

[28] O'sha joyda.

maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish masalasi, bevosita soha asosini tarkibiy o‘zgarishlarga yo‘naltirishga qaratilgan. Endigi sharoitda qishloq xo‘jaligida faqat paxta yetishtirish bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham asosiy e’tibor boshqa xalqaro bozorga mos mahsulotlar yetishtirishga qaratilgan. Shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishga erishilsa, ikkinchidan, ekin maydonlarini yanada optimallashtirish masalasi ham hal bo‘lib boradi.

Hozirgi sharoitda qishloq xo‘jaligida asosiy hal qiluvchi rolni fermer xo‘jaliklari o‘ynamoqda. Shu tufayli endilikda “fermer xo‘jaliklari, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish”[29] masalasi ham bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Hozirgi sharoitda fermer xo‘jaliklari faqat oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish bilan cheklanib qolishi yetarli emas. Ular, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish ishlari bilan ham shug‘ullanishlari lozimligini hayotning o‘zi taqozo qilmoqda. Ushbu jarayonda klaster usulidan foydalangan holda hamma jarayonlarni bir joyda amalga oshirish nafaqat iqtisodiy, balki yuqori ijtimoiy samara ham berishi mumkin. Bugungi fermerlar qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari bo‘lishligini taqozo qilmoqda. Shu tufayli, endilikda fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi ham ustuvor vazifa sifatida mamlakat rahbariyatining nazoratiga olingan tadbirlardandir.

Hozirgi holat “qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish”ni[30] taqozo etadi. Chunki,

[29] O‘sha joyda.
[30] O‘sha joyda.

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohada qo'shimcha qiymatni ko'paytirib, fermerlar iqtisodiy ahvolining o'nglanishiga katta turtki bo'ladi. Mazkur mahsulotlarni qayta ishlash va qadaqlash yo'li bilan qishloq joylarda sanoatni barpo qilishga erishiladi. Xarakterli jihati shundaki, ushbu sohada eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi korxonalar paydo bo'ladi. Endilikda qishloq joylarda qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalasi ham ustuvor vazifa sifatida belgilanishi qishloqlarning qiyofasini, mazmuni va mohiyatini tubdan o'zgartirish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgacha qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotning to'rtdan biri, ayrimlari bo'yicha uchdan biri aholi dasturxoniga yetguncha nobud bo'lar edi. Bunga barham berish uchun Harakatlar strategiyasida "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish"[31] masalasiga ham alohida ahamiyat berilgan. Bularni inobatga olib, ta'kidlash joizki, oldin qishloqda yetishtirilgan mahsulotning deyarli hammasi shaharda saqlanar, qayta ishlanar va sotilar edi. Endilikda ular bevosita qishloqlarga ko'chdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish masalasini o'sha joyning o'zida tashkil qilish qishloq aholisini ish bilan ta'minlash imkoniyatini ham yaratadi. Harakatlar strategiyasida agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish masalasi ham qishloq joylarning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloqda kasanachilikni rivojlantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda. Chunki, kasanachilik birinchidan, aholini ish bilan ta'minlash imkonini bersa, ikkinchidan, ko'p bolali oilalar uchun qulayligi bilan ham ajralib turadi. Chunki mehnat faoliyati uyda amalga oshiriladi. Uchinchidan, ushbu yo'nalishga bir qancha imtiyozlar ham berilgan.

Qishloq xo'jaligida yerning, ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning tanqisligi, ulardan samarali foydalanishni, bu esa, o'z navbatida, ularning meliorativ holatini yaxshilashni taqozo etadi. Shu tufayli Harakatlar strategiyasida "sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini

[31] O'sha joyda.

yanada yaxshilash"[32] masalasini ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifa, o'z navbatida, sohada "melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish"ni[33] taqozo etadi. Shuningdek, Harakatlar strategiyasida "qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish"[34] masalasini ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish borasida juda katta tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bir qancha qonunlar, qonunosti hujjatlari qabul qilindi, xorijiy mamlakatlar investorlari bilan kelishilib, ilg'or texnologiyalarni jalb qilish masalasi ham bosqichma-bosqich hal qilinmoqda.

Mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, harakatlar strategiyasida "kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish"[35] masalasiga ham alohida ahamiyat berilgan. Shuni inobatga olish joizki, oxirgi paytlarda, global ekologik omillar ta'sirida, qishloq xo'jaligi sohasida turli zararkunandalar ko'payib bormoqda. Shu tufayli, harakatlar strategiyasida zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarini ko'paytirishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Buning uchun yangi serhosil va chidamli seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bularning barchasiga erishish, fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish masalasi ham ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu yo'l bilan qishloq xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqarishini ko'paytirishga, sifatining oshirilishiga, narxining arzonlashuviga erishiladi. Bu esa o'z navbatida, soha raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning rivojlanishiga ichki omillar bilan birga, tashqi omillarning (ekologik

[32] O'sha joyda.
[33] O'sha joyda.
[34] O'sha joyda.
[35] O'sha joyda.

o‘zgarishlar, iqlim sharoiti, ob-havoning o‘zgarishi kabilar) ham ta’siri katta. Hozirgi kunda tashki omillardan global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizining qurishi oqibatida ham qishloq xo‘jaligi ancha talofatlarni boshidan kechirmoqda. Shu tufayli, harakatlar strategiyasida “global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish” masalasi ham ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Chunki, hozirgi paytda, dunyo miqyosida global iqlim o‘zgarishlari planetamizda havo haroratining oshishi bilan, muz zaxiralarining erishi bilan, turli zararkunandalarning dunyo miqyosida tarqalishi kabi omillar bilan izhlanmoqda. Bulardan tashqari, o‘zimizning mintaqamiz uchun juda katta ta’siri sezilayotgan Orol dengizi qurishining ham qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga salbiy ta’sir qilmoqda. Bularning ta’siri tabiat bilan birga aholining ham hayot faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi muqarrar. Shu tufayli, ushbu ta’sirlarni bir oz bo‘lsada, yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish belgilanmoqda va ular amalga oshirilmoqda. Bu albatta, global muammo, bunga dunyo ahli e’tiborini qaratish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch so‘z va iboralar

Strategiya, harakatlar strategiyasi, reja, metodologik asos, islohot, modernizatsiya, diversifikatsiya, innovatsiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, makroiqtisodiy tahlil, tadbirkorlik, investitsiyaviy muhit, milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik, hududlarni kompleks rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi bosqichining mazmunini qanday tushunasiz?
2. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?

4. Iqtisodiyotda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolishning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?

5. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish uchun qanday choralar ko‘rish kerak?

6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘llari nimalardan iborat?

7. Hududlarni kompleks rivojlantirish uchun nima qilish kerak?

8. Hududlarning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari nimalardan iborat?

9. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

10. Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni qanday saqlab turish mumkin?

11. Mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning qanday yo‘llari mavjud?

12. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish qanday amalga oshiriladi?

13. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar qanday amalga oshiriladi?

14. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari nimalardan iborat?

TESTLAR

1. Mamlakatni rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida nechta ustuvor yo‘nalish belgilangan?

1. 5
2. 7
3. 4
4. 6

2. Mamlakatni rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish nechinchi ustuvor yo‘nalish?

1. 1
2. 2
3. 4
4. 5

3. Mamlakatni rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasida xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib borish nechinchi ustuvor yo'nalish?

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

4. Mamlakatni rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish nechinchi ustuvor yo'nalish?

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

5. Mamlakatni rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nechinchi ustuvor yo'nalish?

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

6. Mamlakatni rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish nechinchi ustuvor yo'nalish?

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

7. Mustaqillik yillarida soliq yukini qisqatirish bo'ycha juda katta ishlar qilinishi natijasida kichik biznes subyektlari to'laydigan soliq stavkasi bir yilga 25,0 %dan qanchaga kamaydi?

1. 10

2. 5
3. 8
4. 15

8. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkni himoya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi iqtisodiyotni rivojlantirishda nechinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan?

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

9. Qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish, sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va jadal rivojlantirish iqtisodiyotni rivojlantirishning nechanchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan?

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

10. Iqtisodiyotni rivojlantirishda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish nechanchi ustuvor yo'nalish?

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

11. Hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali hamda optimal foydalanish yo'llarini amalga oshirish iqtisodiyotni rivojlantirishning beshinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

1. 3
2. 2
3. 4
4. 5

3-BOB. MAKROIQTISODIY TAHLIL FANINING EKONOMETRIK MODELLARI

3.1. Makroiqtisodiy tahlilning miqdoriy usullari

Model iqtisodiy tahlilning, tadqiqot qilinayotgan jarayonlarni ilmiy jihatdan bilish dastaklardan biri hisoblanadi. Modellashtirish jarayonining mazmuniga obyekt yoki jarayonni dastlab o'rganib olish, uning muhim tafsilotlarini yoki belgilarini aniqlash asosida modellarni tuzish, modellarni nazariy va sinovli tahlil qilish, modellashtirish natijalarni obyekt yoki jarayon to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslash, modelni to'g'rilash va aniqlashtirish kabilar kiradi.

Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganish vositasi iqtisodiy-matematik modeli hisoblanadi. Iqtisodiy-matematik modeli o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy tizimni hosil qiluvchi elementlarining asosiy o'zaro aloqasini izohlab beruvchi rasmiylashgan nisbatlar tizimini ifodalaydi[36].

Makroiqtisodiy tahlil modellarining ayrim turlari optimallashtirish mezoni yoki eng yaxshi kutilayotgan natijaga qarab tasniflanishi mumkin. Xususan, iqtisodiy-matematik modellarga (unda xarajatlar minimallashtiriladi) imkon qadar ko'p mahsulot olishga qaratilgan modellar ajratiladi.

Vaqt omilini hisobga olgan holda modellar statistik (ya'ni modelda rejali davr mobaynida muayyan bir vaqt kesimi uchun chegaralar qo'yilgan va bu sharoitlarda xarajatlar minimallashtiriladigan yoki yakuniy natija maksimallashtiriladigan holatlar mavjud) yoki dinamik (bu holatda chegaralar butun rejali davr uchun samarani xuddi shunday minimallashtirish yoki maksimallashtirish sharoitida bir nechta vaqt kesimi uchun o'rnatilgan).

Chiziqli, nochiziqli turdagi ko'p omilli modellar tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning darajasi va dinamikasiga bir vaqtning o'zida bir nechta omillarning ta'sir etishini hisobga olishga imkon beradi. Ushbu modellar jumlasiga makroiqtisodiy ishlab chiqarish funksiyalarni tavsiflovchi modellar, aholi daromadlari, narx, to'yinganlik darajasi, unumli iste'mol me'yorlari va h.k. ga qarab alohida iste'mol buyum uchun talabni tahlil qilish modellari kirishi mumkin.

[36] E. Wayne Nafziger. Economic Development. 2006 by cambridge university press Cambridge University press 222-230 p.

Nazariyada miqdoriy tahlil ham qo'llaniladi, ammo bu yo'l bilan olingan ma'lumotlar nazariy xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Masalan, miqdoriy tahlil ishsizlar sonining kamayishini ko'rsatsa, iqtisodiyotda bandlik oshayapti degan, bordi-yu bu tahlil inflyatsiya pasayishini ko'rsatsa, pul muomalasi barqarorlashib borayapti degan xulosalarga kelamiz. Miqdoriy tahlil o'tkazilganda turli formulalar qo'llaniladi, ular vositasida iqtisodiyotga oid hisob-kitob ishlari olib boriladi. Bular yordamida iqtisodiy qonun-qoidalarning naqadar amal qilishi, iqtisodiyotda xos bo'lgan tendensiyalar bilib olinadi. Miqdoriy tahlil natijalari turli illyustratsiyalar – chizmalar, rasmlar, egri chiziqlar yordamida tasvirlanadi. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar o'zgaruvchan qiymatlardan iborat bo'lib, bunda bir qiymat ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga va hokazo bog'liq bo'ladi. Masalan, resurslar narxining o'zgarishi xarajatlar o'zgarishini, o'z navbatida bu narxning, binobarin, chiqarilgan tovarga talabning o'zgarishini yuzaga keltiradi. Bunday o'zaro bog'liqlik chizmalarda aks ettiriladi. Bular yordamida nazariy g'oya atroflicha, ya'ni tasvir vositasida ham ifoda etiladi, shuningdek, o'zgaruvchan qiymatlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Chizmalar doirasimon bo'lganda, u bo'laklarga ajratiladi, ya'ni hissa - ulush tasvirlanadi. Masalan, davlatning daromadlardagi ulushi 25 foiz bo'lsa, bu doiraning 1/4 qismi shaklida bo'ladi[37].

Chizmalar miqdoriy o'zgarishlarni, masalan, narxni yoki mahsulot miqdoridagi o'zgarishlarni bildiradi. Ikki o'zgaruvchan qiymatning o'zaro ta'sirini anglash uchun koordinatlarga asoslangan chizma hosil bo'ladi. Bunda abssissa o'qiga bir ko'rsatkich qo'yilsa, ordinata o'qiga boshqasi qo'yiladi. Bir qiymat miqdorining o'zgarishi boshqasining qanchaga o'zgartirishiga qarab vertikal va gorizontal chiziqlar hosil bo'ladi, ular kesishgan nuqtalar egri chiziq bilan birlashtirilganda iqtisodiy o'zgarishlar qandayligi aniqlanadi.

Nazariyada sifatli tahlil usuli birlamchi, u mantiqqa asoslangan abstraksiyalash usulidan iborat bo'lib, nazariy xulosalar chiqarishga va qonun-qoidalarni ilmiy ta'riflashga xizmat qiladi. Ammo bu miqdoriy tahlilga tayanadi, chunki mazkur usul kuzatish ma'lumotlarini jamlash, ularni umumlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, miqdoriy tahlil yordamida nazariy qonun-qoidalar iqtisodiyotda

[37] Sh.R.Qobilov Iqtisodiyot nazariyasi Toshkent-2013.

naqadar amal qilayotganligi bilib olinadi. Masalan, inflyatsiya darajasini miqdordan aniqlash orqali pul muomalasi qonunining amal qilishi ko‘rsatiladi. Nazariy tahlilda qo‘llanadigan turli-tuman usullar bir-biridan ajratib olib alohida ishlatilmaydi, ular birgalikda, lekin turli kombinatsiyada (nisbatda) ishlatiladi. Bu tahlil darajasi va maqsadiga bog‘liq bo‘ladi.

3.2. Ekonometrik modellar

Quyidagi ekonometrik modellarni ajratib olish mumkin: omilli, tarkibli va kombinatsion. Bitta model turi turli iqtisodiy obyektlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Agregirlashgan darajasiga qarab iqtisodiyotni rivojlanishining ko‘rsatkichlari makroiqtisodiy, tarmoqlararo, hududlararo, tarmoqli, hududiy modellarga bo‘linadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish jihatlari bo‘yicha asosiy fondlarni, mehnat resurslarni takror ishlab chiqarish, moliya tizimi va narx shakllantirish hamda boshqa modellar ajralib turadi.

Ekonometrik modellarning o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlari ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) modellarga bo‘linadi. Masalan, modeldagi ekzogen omillar korxona uchun yetkazib berishlarning jo‘shqinligini, endogen omillar esa korxonada mehnat resurslarning mavjudligini ko‘rsatib berishi mumkin.

Omilli modellar o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlarning turli miqdorini va ularga mos ravishda o‘lchamlarini o‘z tarkibiga olishi mumkin. Omilli modelning sodda turi bir omilli model hisoblanadi. Unda omil sifatida biron bir vaqt ko‘rsatkichi xizmat qiladi. Bu holatda u yoki bu ko‘rsatkichni tahlil qilish vaqtning xronologik qatoriga nisbatan bog‘liqlikda amalga oshiriladi va shu yo‘l bilan trendlar (u yoki bu dinamik qatori o‘zgarishining umumiy tendensiyani tavsiflovchi bog‘liqlik) aniqlanadi.[38]

Tarkibiy modellar bir butun yoki agregatni shakllantiruvchi alohida unsurlar o‘rtasidagi nisbatlarni, aloqalarni izohlab beradi. Ushbu modellar tarkibiy-balans turdagi modellar sirasiga kiradi, ya’ni unda u yoki bu agregatni tarkibiy qismlarga bo‘lish bilan bir vaqtda ushbu unsurlarning o‘zaro aloqalari ko‘rib chiqiladi. Bunday modellar

[38] Michael Wickens Macroeconomic Theory A Dynamic General Equilibrium Approach, Princeton University Press Princeton and Oxford. Copyright 2008 by Princeton University Press 167-170 p.

matritsali shaklga ega va tarmoqlararo hamda hududlararo aloqalarni tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Ular yordamida oqimlarning, o'zaro aloqalari masalan, mahsulotni sohalararo yetkazib berish izohlanadi. Tarkibiy-balans modelining eng keng tarqalgan shakli ishlab chiqarishning tarmoqlararo balansi va mahsulotlarni taqsimlash hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilish turmush darajasi, ekonometrik (normativlar, cheklanishlar), tashqi iqtisodiy talablarini hisobga oladi.

U yoki bu darajadagi barqaror iqtisodiy tizimga ega ko'pchilik davlatlarda iqtisodiy o'sishni prognozlashda quyidagi turdagi ko'p omilli ekonometrik modellar keng tarqalgan:

$$Y=f(X_1,X_2,...,X_n)$$

Bir omilli modellar ham keng qo'llaniladi. Masalan, iqtisodiy o'sishning vaqtga bog'likligini ifodalovchi modellar yoki o'tgan davrga nisbatan ishlab chiqarish fondlari yoki kapital (K) o'zgarishi kam bo'lgan qisqa muddatli davrda tahlil va prognozlashtirishda iqtisodiy o'sish va mehnat resurslari (L) orasidagi bog'liqlik modeli.

Ishlab chiqarish funksiyasi shaklidagi model eng keng tarqalgan:

$$Y = A_0 K^{\alpha} L^{\beta}$$

α va βni miqdoriga qarab iqtisodiy o'sishning 3 turi mavjud:

Agar $(\alpha+\beta)=1$ bo'lganda milliy mahsulot (daromad) ishlab chiqarish omillari (kapital va mehnat) sarfiga mutanosib ravishda oshadi, umumiy iqtisodiy samaradorlik o'zgarishsiz qoladi, ishlab chiqarish faqat ekstensiv kengayib, kapitalning past samaradorligi mehnat resurslari oshishi hisobiga qoplanadi.

Agar $(\alpha+\beta)>1$ bo'lsa, ishlab chiqarish omillari n marta oshganda, ishlab chiqarish n martadan ko'proq oshadi, ya'ni ishlab chiqarishning o'sishi omillar umumiy xarajatini aks ettiradi. Lekin bu FTT yutuqlarini, ya'ni yangi texnika va texnologiyalarni kiritib, ishlab chiqarish fondlari samaradorligi oshadi yoki fondlarning o'zgarmas samaradorligida MU oshadi. Birinchi holatda $\alpha>\beta$ va o'sish fondlarni tejaydi, ikkinchisida $\alpha<\beta$ va o'sish mehnatni tejaydi.

Agar $(\alpha+\beta)<1$ bo'lsa, ishlab chiqarish o'sishi ishlab chiqarish omillari o'sishiga nisbatan sekinroqdir. Bunda umumiy samaradorlik pasayadi, o'sish deintefikatsiyasi ro'y beradi.

Ishlab chiqarish funksiyasi $(\alpha+\beta)=1$ bo'lgan holatni tasvirlash Kobba-Duglas funksiyasi deb ataladi va uni «Makroiqtisodiyot» kursida ko'rib chiqish kerak.

Ikkinchi holda, FTTning tasviri ostida IChFda $(\alpha+\beta)>1$da bu tasvirni aks ettiruvchi miqdorni topish kerak. Agar FTT notekis bo'lsa, IChF quyidagi qo'rinishda bo'ladi:

$$Y = AK^{\alpha}L^{\beta}e^{\lambda t}.$$

Umumiy samaradorlik o'zgarishida ishlab chiqarish fondlari va jonli mehnatning samaradorlik o'zgarishini alohida ko'rib chiqish mumkin:

$$\lambda = \lambda_K + \lambda_L.$$

IChFning yuqorida qurilgan turidan tashqari ishlab chiqarish natijasi (Y) bevosita ishlab chiqarish omillari miqdori orqali emas, balki omillar miqdoriga hamda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar orqali bilvosita bog'liqlikni ko'rib chiqish mumkin.

Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, FTT) birlamchi omillar sifatida, ularga ta'sir etuvchi omillar esa ikkilamchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkilamchi omillarni 2 tomonlama qarab chiqish mumkin.

Bir tomondan, ular global omillarning miqdoriga, ikkinchi tomondan, ularning samaradorligiga ta'sir etishadi. Omillarni tasniflashda quyidagi misolni keltiramiz:

Ishlab chiqarish sohasida jonli mehnat:

1. Mahsulot miqdorga ta'sir etuvchi omillar:

a) ish kuni, haftasi, yilining davomi;

b) ishchi kuchining yosh tarkibi;

d) ishchi kuchining jins bo'yicha tarkibi.

2. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar:

a) umumiy ta'lim darajasi;

b) kasbiy ta'lim darajasi

d) ko'nikma darajasi (kasb bo'yicha ishlagan vaqt);

e) mehnatga haq to‘lash darajasi va tizimi.

Ishlab chiqarish fondlari (moddiylashgan mehnat):

1. Kapital miqdoriga ta’sir etuvchi omillar:

a) fondlarning qancha vaqt ishlatilishi va potensial quvvatlardan foydalanish darajasi;

b) fondlarning aylanma tezligi.

2. Ishlab chiqarish fondlari baholanishiga ta’sir etuvchi omillar:

a) fondlar texnologik darajasi va ma’naviy eskirish darajasi;

b) fondlarning tarmoqlararo taqsimlanishi;

d) fondlarning hududiy taqsimlanishi;

e) ishlab chiqarish ko‘lami.

Omilli yondashuvning rivoji ishlab chiqarish funksiyasi usuli takomillashuvidan ko‘ra, iqtisodiy va statistik ishlar chuqurlashuvini ko‘zda tutadi.

Omilli tahlil va prognozlashda tarmoqlararo nuqtayi nazarlarga yondashish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, tarmoqlarning omillar va xususiyatlari roli kuchayadi, oraliq xarajatlar (xomashyo, yoqilg‘i, elektr-energiya, yarimfabrikatlar) muhim ahamiyat kasb etadi[39].

Ikkinchidan, jonli mehnat va ishlab chiqarish fondlarini differensiatsiyalash imkoni paydo bo‘ladi (masalan, ish kuchini kasblar va malaka darajasiga qarab guruhlash). Uchinchidan bir tarmoq o‘sishi boshqa tarmoq o‘sishiga asos bo‘lgani uchun, omilli tahlil tarkibiy tahlil bilan birikib ketadi.

Yalpi talab – bu, barcha xo‘jalik subyektlari (hukumat, uy xo‘jaliklari, firmalar), tovar va xizmatlar iste’molchilari sifatida turli narx darajalarida bu subyektlar qancha tovar va xizmatlar sotib olishlarini ko‘rsatuvchi modeldir.

«Makroiqtisodiyot» kursida yalpi talabning narx va narxdan boshqa omillari mavjudligi ma’lum. YaMMni xarajat bo‘yicha aniqlovchi va yalpi talab- AD ni hisobga oluvchi bahodan tashqari omillar ko‘rsatkichlari o‘xshashligiga e’tiborni tortadi:

$$YaIMqS+J_g+G+X_n,$$

bu yerda, S–shaxsiy iste’mol xarajatlari;

[39]Michael Wickens Macroeconomic Theory A Dynamic General Equilibrium Approach, Princeton University Press Princeton and Oxford. Copyright 2008 by Princeton University Press 167-170 p.

J_g–yalpi ichki xususiy investitsiyalar;

G– hukumatni tovar va xizmatlar xaridi;

X_n–sof eksport.

Yalpi talab iste'mol, investitsiya, davlat xarajatlari va sof eksport yig'indisidan iborat. Agar bu narxsiz omillarni qo'shsa, narxlardagi (o'rtacha tortilgan narx) tovar va xizmatlarga yalpi talabni topamiz. YaMM va AD orasida farq nima? Gap shundaki, iste'mol xarajatlari (S)- YaMM elementi sifatida qaralganda, sotilgan, ya'ni talab qilingan tovar va xizmatlar tushuniladi. Bu holda tahlil va prognozlaganda shaxsiy iste'mol xarajatlari va iste'mol xarajatlari kabi tushunchalardan foydalanish mumkin. YaMMning iste'molchisini topmagan qismi YaMM hisobida yalpi ichki xususiy investitsiyalarga tovar va xizmatlar zaxiralari o'zgarishi investitsiyasi sifatida kiradi. Zaxira oshishi ishlab chiqarish (taklif) sotuvdan (talab) oshganini bildiradi va bu farq YaMM hisob - kitobida hisobga olinishi kerak.

Agar zaxiralar kamaysa, bu yil ishlab chiqarish sotuv hajmidan kamligini, ya'ni o'tgan yil zaxiralari sotilganini bildiradi. Bunda YaMMni zaxiralar kamayishi miqdoriga kamaytirish lozim. Bundan tashqari, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarajatlariga faqat ularning amortizatsiyasi kiritiladi. Bu ham shu yilda, ham o'tgan davrlarda sotib olingan tovarlarga tegishli. Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarning sotilmagan qismi zaxiralarga investitsiya sifatida kiritiladi.

Makrodarajada qisqa va o'rta muddatli prognozlashda iste'mol talabi (IT)ni modellashtirish ustuvor o'rin egallaydi. Chunki, IT YaIMning katta qismini belgilaydi, ishlab chiqarish strukturasiga, narxlarning umumiy darajasi (inflyatsiya)ga, iqtisodiyotning turli sektorlaridagi narxlarning dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi. ITning makroiqtisodiy funksiyasi aholi talab qiluvchi tovar va xizmatlar hajmining talabini belgilovchi asosiy omillarga (aholining sof-ixtiyoridagi daromadi, narxlar darajasi, jismoniy shaxslarga soliqning darajasi, kredit stavkalarining o'zgarishi) bog'liqligini ko'rsatadi.

ITning funksiyasi umumiy holda quyidagicha bo'ladi:

$$C_n k\ (\ \Delta S, D_0, D_{-1}, D_{+1}, KR, I, \Delta PR),$$

bu yerda,

ΔS – boylik (yoki real kassa qoldiqlari), import xaridi, % stavkasi samarasi orqali talabga ta'sir etuvchi narxlar darajasining o'zgarishi;

D_0–joriy shaxsiy ixtiyoridagi daromad (ish haqi, renta, % dividend, transport to'lovlari va boshqalar),%;

D_{-1}–o'tgan yilgi daromad (shaxsiy boylik hajmi, likvidli qoldiqlar hajmi, yashash joylari bilan ta'minlanganlik);

D_{K1}–kelgusida kutilayotgan daromadlar (kutilayotgan inflyatsiya yoki deflyatsiyani hisobga olgan holda real daromadlar);

KR–iste'molchilarning kredit qarzlari;

I–jismoniy shaxslarga soliqning darajasi;

ΔPR–kredit % stavkalarining o'zgarishi.

Uzoq muddatli modellarga aholi sonining, jinsiy yoki strukturasining o'zgarishi omilini qo'shish mumkin.

Qisqa muddatli prognozga Keynscha variantdan foydalanish mumkin:

$$C_n kf(D_0),$$

Ya'ni o'zgarmas narxlarda qisqa muddatli davrda IT faqat joriy yildagi shaxsiy ixtiyoridagi daromadga bog'liq bo'ladi.

Turli davlatlarda milliy iqtisodiyot ko'rinishiga va boshqaruvda qo'llaniladigan nazariy tamoyillarga qarab bir-biridan omillarning to'plami bilan farqlanuvchi shaxsiy iste'mol xarajatlari (shaxsiy iste'mol) modeli yoki IT modeli ishlab chiqiladi.

Misol sifatida AQSHda ishlab chiqilgan makroiqtisodiy chiziqli modelni ko'rish mumkin:

$$Sq0,47+0,999S_{-1}+0,17U_{-1}-7,134\Delta RS,$$

bu yerda, S–shaxsiy iste'mol, mlrd. dollar (o'zgarmas narxlarda);

S_{-1}–o'tgan (bazis) yildagi shaxsiy iste'mol;

U_{-1}–bazis yildagi MD;

ΔRS–shaxsiy iste'mol tovarlarining narxlar indeksi.

AQSHning deyarli barqaror yuqori rivojlangan tizimida MDning o'sishi oddiy ekstropolyatsiya usuli orqali MD trendidan foydalanishi bilan aniqlanadi va u yetarlicha mavjud omil bo'lib chiqadi.

Resurslarni taqsimlashning strukturaviy xususiyatlari ehtiyojlarning strukturaviy xususiyatlari kabi ko'p tarmoqli tuzilmalar orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishida ifodalanadi.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyot strukturasi prognozining roli alohida natijalarni olish kabi umumiqtisodiy va tarmoq prognozlari orasidagi, shuningdek, resurslar va ehtiyojlar prognozining tarmoqdagi bo'lagi bilan milliy iqtisodiyot rivojlanishi umumiy prognozi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib berishidan iborat.

Strukturaviy prognozlashda turli usullaridan foydalaniladi: kombinatsiyalashgan prognozlash, ekspert baholash, ekonometrik modellar, ssenariy usuli, IMM, shu jumladan, TABni ishlab chiqish usuli.

«Makroiqtisodiyot» kursidan ma'lumki, TAB asosida V.V.Leontyev ishlab chiqqan «Xarajatlar–ishlab chiqarish» usuli yotadi.

«Xarajatlar – ishlab chiqarish» usuli istiqboliga prognozni mamlakat SES umumiy muvozanati tenglamalar sistemasi sonli yechimining natijasi ko'rinishida ifodalanishidan kelib chiqadi.

Bu tenglamalar sistemasi har bir tarmoqning ishlab chiqarilgan oraliq mahsuloti va belgilangan hajmdagi yakuniy mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun ketgan xarajatlarni aniqlash imkonini beradi.

Tenglamalar quyidagi ko'rinishga ega:

$x_i = a_{i1}x_1 + a_{i2}x_2 + ... + a_{in}x_n + Y_i$

Yoki umumiy ko'rinishda:

$$x_i = \sum_{i,j=1}^{n} a_{ij}x_j + Y_i ,$$

bu yerda, x_i–berilgan tarmoqning (i-) yalpi ishlab chiqarish hajmi;

a_{ij}–to'g'ri xarajatlar koeffitsiyentlari, ya'ni (j) tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (i) tarmoq oraliq mahsulotlarining xarajat me'yorlari;

Y_i–berilgan (i-) tarmoq mahsulotining yakuniy noishlab chiqarish iste'moli (talab).

Agar barcha tarmoqlarning mahsulotlariga talab aniqlangan (prognozlangan) bo'lsa, retrospektiv tahlil asosida olingan bevosita xarajatlar koeffitsiyentlari (texnologik koeffitsiyentlar)dan foydalanib,

tarmoqlarning oraliq mahsuloti va mos ravishda yalpi mahsuloti hajmini hisoblash mumkin. Lekin, texnologiyalarning rivojlanishi ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga yoqilg'i-energetika va material resurslar xarajatini pasaytirishi va progressiv xomashyo va materiallarga, jamlovchilarga sxema va uzellarga o'tishga imkon berishini ko'zda tutib, prognoz hisob - kitoblarda turli variantlardagi FTT prognozi natijalarini hisobga olish zarur.

Ma'lumki, TAB natural va qiymat ko'rinishida ishlab chiqiladi. Qiymat ko'rinishidagi TAB va qiymat ko'rinishidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlikni belgilashda, ya'ni tarmoqlarning ishlab chiqarish hajmi ma'lumotlari bilan quyidagi ko'rsatkichlar o'rtasida obyektiv qiyinchiliklar mavjud:

- tarmoqlar daromad va xarajatlarining prognoz balansi;
- aholi daromadlari va xarajatlarining prognoz balansi;
- iqtisodiy tizimda normal takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun zarur pul massasi hajmi;
- davlat budjeti.

Asosiy qiyinchiliklar shundaki, prognozni shakllantirishning asosi bo'lgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari har xil turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jalik tarmoqlari bo'yicha tuziladi, TAB esa «sof» tarmoq prinsipiga ko'ra, ya'ni matritsa ustunining har bir qatorida bir turdagi mahsulot bo'yicha tuzilgan. «Sof» tarmoq bo'yicha bog'liqliklarni aniqlash juda muhim, chunki u ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ta'minlanganligini va aniq turdagi resurslarning takror ishlab chiqarishligini baholash, budjet va aholi uchun resursni ishlab chiqarishdan daromadni baholash imkonini beradi.

Inflyatsiya – bu, milliy valyuta qadrsizlanishi. Buning natijasida tovar va xizmatlar narxining yoppasiga o'sishi ro'y beradi (ochiq inflyatsiya). Ammo davlat narxlarini «muzlatib» qo'ysa va shu bilan birga inflyatsion omillar amal qilsa, inflyatsiya potensiali o'sadi (siqilgan inflyatsiya) va agar narxlar «qo'yib yuborilsa», narxlarning ko'chkisimon o'sishi ro'y beradi. Inflyatsiyaga narxlarning o'sishi olib keladi, lekin har qanday narxning o'sishi inflyatsiya bilan bog'lanmagan.

Narxlar o'sishining inflyatsion sabablarini ko'rib chiqamiz.

Avvalo, bu, davlat budjet defitsitida aksini topuvchi davlat xarajatlari va daromadlarining nomutanosibligi, balanslashmaganligidir.

Agar bu defitsit mamlakat markaziy emission bankida zayomlar hisobiga, boshqacha aytganda «bosma uskunasidan» faol foydalanish hisobiga moliyalashtirilsa, muomaladagi pul massasining oshishiga olib keladi, o'z navbatida narxlar darajasining o'sishi ro'y beradi.

Agar analogik usullar bilan investitsiyalarni moliyalashtirish amalga oshirilsa, narxlarning inflyatsion o'sishi ro'y berishi mumkin. Ayniqsa, iqtisodiyotni militarizatsiyalash bilan bog'liq investitsiyalar inflyatsion xavfli hisoblanadi. MDni harbiy maqsadlarga noishlab chiqarish iste'moli nafaqat milliy boylikni yo'qotishini anglatadi, bir vaqtning o'zida harbiy assignatsiya qo'shimcha to'lovga qobil talabni shakllantiradi, bu esa pul massasining tovar ta'minotisiz osilishiga olib keladi. Harbiy xarajatlarning o'sishi davlat budjeti surunkali defitsitining va davlatning boshqa davlatlardagi qarzlari ko'payishining sabablaridan biri va u davlatni pul massasini ko'paytirishga majbur qiladi.

Narxlar darajasining umumiy ko'tarilishi zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining turli maktablari va XX asr o'rtasi va oxirida bozor strukturasining o'zgarishi bilan bog'liq. Bozorda ko'plab ishlab chiqaruvchilar faoliyat ko'rsatsa va kapital qo'yilishi oson bo'lganda bu struktura raqobat shartlari haqida tobora kamroq eslatadi. Zamonaviy bozor – bu, ma'lum darajada oligopolistik bozordir. Oligopoliya esa baho (narx) ustidan ma'lum hokimiyatga ega. Barqaror narxlarni saqlab qolishga intilib, oligopoliyalar ularning mahsulotiga talabning pasayganida, odatda, narxlarni pasaytirmaydilar, balki defitsitni vujudga keltirib, ishlab chiqarishni qisqartiradilar. Bundan tashqari, oligopoliya asosida kuchli kasaba uyushmalarning faoliyati tufayli «narxlar-ish haqi-narxlar» inflyatsion spirali shakllanadi.

U yoki bu davlat iqtisodiyoti «ochiqligi»ning o'sishi bilan, uning jahon xo'jalik aloqalariga kirib borishi bilan import inflyatsiyasi xavfi ortib boradi. Shunday holda, 1973-yilda energotashuvchilar narxining o'sishi («energetik krizis») import qilinuvchi neft narxining o'sishiga va texnologik zanjir bo'yicha boshqa tovarlarning narxining o'sishiga olib keldi. O'zgarmas valyuta kursi sharoitida mamlakat har gal import tovarlari narxlari ko'tarilishiga «tashqi» ta'sirni boshdan kechiradi.

Inflyatsion kutishlar natijasida inflyatsiya o'zini - o'zi quvvatlovchi xarakter kasb etadi. G'arb mamlakatlari va mamlakatimizdagi

olimlarning ko‘pchiligi bu omilga alohida qaraydilar. Ular ishlab chiqaruvchilar va aholining inflyatsion kutishlarini yengib o‘tish – antiinflyatsion siyosatning eng muhim (agarda bosh bo‘lmasa) vazifasi deya urg‘u beradilar.

Inflyatsion kutishlarning iqtisodiyotga ta’sir mexanizm qanday? Gap shundaki, aholi uzoq vaqt davomida narxlarning o‘sishini ko‘rib va ularning pasayishiga umidni yo‘qotib, o‘zining joriy ehtiyojlaridan ortiq tovarlar sotib ola boshlydi. Bir vaqtning o‘zida odamlar nominal ish haqini oshirishni talab qiladilar va shu bilan joriy iste’mol talabining ko‘payishiga turtki beradilar. Ishlab chiqaruvchi yaqin orada xomashyo, material va jamlovchi mahsulotlar qimmatlashishini kutib, mahsulotiga yuqoriroq narx qo‘ya boshlaydi. Puldan qochish boshlanadi.

Inflyatsiya va uning omillari orasidagi vaqtli bog‘lanishni belgilash muhim, bu inflyatsion jarayonlarni prognozlash va boshqarishga imkon beradi. Inflyatsiyaning yangi kurtagi chiqishi – bu, omillarning vaqt orasidagi dinamikasi bilan bog‘liq. Pul massasining o‘sishi va uning tovar bilan ta’minlanishi o‘rtasidagi nisbatni topish uchun ishlab chiqarish va narxlar darajasi dinamikasini tahlil qilish zarur. Aynan indeks inflyatsiyadan darak beradi. Narxlar indeksini hisoblash uchun ma’lum vaqtdagi «bozor savati» tovar va xizmatlarning jami narxlari o‘rtasidagi munosabat olinadi. Odatda, «bozor savati» tovarlari tarkibiga barcha aholi xarid qiladigan ko‘proq tovarlar kiritiladi. Indeks, odatda, %da ifodalanadi:

$$Z = S/\ C \bullet 100\%$$

bu yerda, Z–berilgan davrdagi narxlar indeksi, %;

S–berilgan davrdagi «bozor savati» narxi;

S–bazis davrdagi «bozor savati» narxi.

Biroq, bu indeks quyidagi qator sabablarga ko‘ra, inflyatsiyaning real darajasidan past bo‘lib chiqadi:

1. Avvalo, odatda, «savat» tarkibiga kirmaydigan, yangi turdagi mahsulotlarning narxi oshiriladi. Shuning uchun«savat» bo‘yicha hisoblangan narxlarning o‘sish indeksi savdodagi barcha tovarlar guruhi bo‘yicha hisoblangan indeksdan ancha past chiqadi.

2. Xalq iste'moli tovarlarining chakana narxi tushishi o'rniga ularning sifati pasayishi mumkin. Alohida tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, 1987–1989-yillarda sovet korxonalari ishlab chiqargan xalq iste'moli tovarlarining sifati har yili o'rtacha 2%ga, chakana narxlarni saqlagan holda, pasayishi kuzatilgan. Sifatning pasayishi bu tovarning iste'mol xususiyati, foydaliligi pasayishiga olib keladi, shu bilan bog'liq holda u foydalilik xususiyati birligidan ancha yuqori narxda sotiladi. Shunday qilib, sifat pasayishini narxlar indeksining adekvat o'sishi sifatida ko'rishga barcha asos mavjud.

3. Ko'rsatilgan 2 omil qatorida uchinchi, yetarlicha qudratli, iqtisodiyot defitsitida namoyon bo'luvchi omil ham ta'sir qiladi. Xalq iste'moli tovarlarining defitsiti inflyatsiyalarning manbayi hisoblanadi. Defitsit bilan bog'liq inflyatsiyaning namoyon bo'lishi shunday narxlarning o'sishida kuzatiladiki, agar tovarni ochiq bozordan xarid qilish imkoni bo'lmasa, iste'molchi uni shu narxlarda norasmiy, «qora bozor»dan sotib olishga majbur bo'ladi.

4. Iste'mol narxlarining o'sishi ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishi (ulgurji narxlarning o'sishi) bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Qazib oluvchi tarmoqlarda, ayniqsa, yoqilg'i-energetika majmualarida narxlarning o'sishi ma'lum vaqtdan keyin xalq xo'jaligining barcha sektorlaridagi xarajatlar darajasida «domino» prinsipi bo'yicha aksini topadi.

Iste'mol tovar va xizmatlarining qimmatlashuvi va oqibatda ish haqi va ijtimoiy to'lovlarning ko'payishi ro'y beradi.

Demak, narxlar indeksining o'zgarishi va uning kattaligini prognozlash turli xil omillarga bog'liq: «bozor savati»ning tarkibi, mahsulot sifati, ishlab chiqarish xarajatlari va xalq iste'moli tovarlari defitsitining kattaligi. Shuning uchun bu indeksni qo'llash inflyatsiya sur'atlarini prognozlash uchun yetarli emas.

Iste'mol narxlari o'sishi ko'rsatkichini YaIM deflyatorining o'sish ko'rsatkichlariga o'zgartirish kerak, degan fikr bor.

$$D = N_n / N_p,$$

bu yerda, D–YaIM deflyatori;

N_n–nominal YaIM;

N_p–real YaIM.

Ma'lumki, bu ko'rsatkichlarning ustunlik va kamchiliklari bor. Narxlar indeksi (va mos ravishda o'sish sur'atlari) nisbatan soddaligi va hisob - kitoblarning operativligi bilan YaIM deflyatori indeksi oldida ustunlikka ega. Katta xarajatlarsiz narxlar indeksini nafaqat yillik, balki oylik, hatto haftalik oraliqlar uchun aniqlash mumkin. Aynan shuning uchun undan turli maqsadlarda keng foydalaniladi – aholi daromadlari indeksatsiyasini nazariy tahlilidan to amaliy hisob - kitoblarigacha.

YaIM deflyatsiyasi hisob-kitoblarining keng ko'lamliligi tufayli u chorakda bir marta, odatda, bir yilda bir marta nominal va real YaIMning yillik hajmi aniqlanishi bilan bir vaqtda o'tkaziladi. YaIM tarkibini hisob - kitoblaridagi doimiy to'g'rilashlar tufayli uning hajmi, o'z navbatida YaIM deflyatorining hajmi bir necha marta qayta ko'rib chiqiladi (ba'zida yillar o'tib). Bu holat nafaqat o'tish davridagi mamlakatlarga, balki nisbatan mukammalroq statistikaga ega rivojlangan davlatlar uchun ham xarakterlidir. Shuning uchun YaIM deflyatoridan amaliy maqsadlarda kam foydalaniladi. Shunga qaramay, deflyatorning iste'mol narxlari indeksi oldida bir muhim ustunligi bor, chunki deflyator YaIMning barcha komponentlari uchun hisoblanadi (xususiy va davlat iste'moli, investitsiyalar, tashqi savdo), shuning uchun unda investitsion jarayonlar, kamida nazariy, unda to'liqroq hisobga olinishi kerak.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida iste'mol narxlari indeksi va YaIM deflyatori mohiyatiga ko'ra, bir xil hodisani xarakterlashi isbotlangan. Ular orasida farq katta emas. Shuning uchun omilli tahlilda bir o'zgaruvchini boshqasiga almashtirishi uning natijalariga statistik ahamiyatli ta'sir etmaydi. O'z navbatida, iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichini YaIM deflyatori indeksi ko'rsatkichi bilan almashtirish va aksincha, inflyatsiya sur'atlarini boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkich bilan bog'lab turuvchi hollarda sifatli o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin emas.

Biroq ko'pchilik iqtisodchilar inflyatsiya sur'atlarini tahlil qilish va prognozlashda 1 ta ko'rsatkichni o'rganishi yetarli emasligini, turli ko'rsatkichlarning kompleks tahlili kerakligini ta'kidlaydilar.

Inflyatsiya dinamikasini prognozlash uchun iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni va mos ravishdagi vaqt oralig'ini belgilash kerak.

Odatda esa, masalani o'rganish pul massasi dinamikasi va iste'mol narxlari indeksi tahlili bilan cheklaniladi. Turli davlatlarda milliy iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga oluvchi inflyatsiya darajasini prognozlashning turli modellari ishlab chiqilmoqda. Masalan, AQSHda ishlab chiqilgan inflyatsiya darajasini hisoblashning MODJS modeli. Bu ekonometrik modelda quyidagi omillar - argumentlar qo'llanilgan:

– hukumat ko'zda tutayotgan egri soliqlarning o'zgarishi (narx ichidagi soliqlarning);

– davlat subsidiyalari (subvensiya va dotatsiyalari)ning taxminiy o'zgarishi;

– davlat nazoratidagi ba'zi tovar va xizmatlar guruhi narxining taxminiy o'zgarishi;

– hukumat va fermer uyushmalari o'rtasida qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi bo'yicha mehnat bitimlari va kelishuvlarining ma'lum holati;

– transfert to'lovlari.

Yuqorida keltirilgan barcha omillar boshqaruvchi (instrumental), chunki hukumat qarorlariga bog'liq va shu ma'noda ular endogen hisoblanadi.

Modelda omillar sifatida ba'zi ekzogen o'zgaruvchilar ham qo'llanilgan:

– import mahsulotga prognoz narxlar;

– bandlik darajasi prognozi va boshqalar.

Imitatsion model analitik modeldan farqli o'laroq, o'rganilayotgan obyektning xatti-harakati va ichki strukturasigacha ko'rsatuvchi yoyilgan sxemani bildiradi. Modelda ifodalanuvchi hodisalarni, ularning mantiqiy strukturasini saqlagan holda, vaqt bo'yicha ketma-ketligini, o'rganilayotgan tizimning o'zgaruvchilari va parametrlari o'rtasidagi aloqalarni saqlagan holda qayta ishlash imitatsion model uchun xarakterlidir. Imitatsion modellar modellashtirilayotgan tizim haqida axborot olish va keyin, qarorlarni shakllantirish uchun yaroqli bahoni ishlab chiqish uchun mo'ljallangan. Misol o'rnida ko'p

tarmoqli iqtisodiyotda ishlab chiqarish va iste'molni muvofiqlashtirishning imitatsion modelini ko'rib chiqamiz.

Sistema 2ta formallashgan blokka ega: moddiy ishlab chiqarish imitatsiyasi va iste'mol muhiti imitatsiyasi. Sistemada bir qancha boshqarish parametrlaridan foydalanuvchi eksperimentator ko'zda tutilgan: tarmoqlar o'rtasida kapital qo'yilmalarining taqsimlanishi, jamg'arish sur'atlari, ish haqi – mahsulot birligining ish haqi sig'imi, ulgurji va chakana narxlar.

Eksperimentator EHM bilan faol muloqotni amalga oshiradi. Mahsulot turiga hisoblangan talabning to'g'rilanuvchi ko'rsatkichlari va uning tarmoqda yakuniy ishlab chiqarilishi haqida axborotdan foydalaniladi. Agar ko'rsatkich birlikdan yuqori bo'lsa, talab taklifdan yuqori, agar birlikdan kam bo'lsa, aksincha bo'ladi. To'g'rilanuvchi ko'rsatkichlar va yalpi mahsulotning tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'ati eksperimentator tomondan yo'l qo'yish mumkin bo'lgan daraja pozitsiyasidan tahlil qilinadi. Agar ular o'zgarishi kerak bo'lsa, eksperimentator u yoki bu boshqaruv parametrini o'zgartirishi mumkin. Masalan, kapital qo'yilmalarning taqsimlanishi yoki aholining yalpi daromadi yoxud narxlar masshtabi o'zgartiriladi. Bloklar yangi to'g'rilanuvchi ko'rsatkichlarni aniqlaydilar. Eksperimentator ishlab chiqarish va iste'molning qoniqarli mutanosiblikka kelgani haqida xulosa chiqarishi bilanoq sistemani kelgusi yilning hisob-kitoblariga o'tkazadi.

Shunday qilib, inson-mashina imitatsion sistemasi aholi pul daromadlari va taklif qilinayotgan tovar va xizmatlar orasidagi eng yaxshi nisbatni ta'minlovchi prognoz variantlarini topishga imkon beradi. Boshqaruv parametrlarini ajratish, oraliq qarorlarni baholash va yakuniy qarorlarni tanlash eksperimentatorga yuklanadi, mumkin bo'lgan ko'pchilik yechim variantlari EHMda yechiladi.

Imitatsion biznes o'yin imitatsion sistemani yanada rivojlantirishni ko'zda tutadi va o'z ichiga asosiy elementlar bilan birga (imitatsion model va imitatsiya natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash vositalari) maxsus instruktiv va modellashtirilayotgan tizimning kelgusidagi faoliyatida eng katta natijalarga erishishidan manfaatdor hamda qaror qabul qiluvchi ekspert eksperimentatorning ta'sirini chegaralovchi boshqa vositalarni o'z ichiga oladi.

O‘yinchilarga hal qiluvchi daqiqalarda axborot olish imkoniyati berilishi kerak. Imitatsion o‘yin modelini yaratishda, avvalo, o‘yinchilarning motivatsiya tizimi va o‘yin ssenariysini ishlab chiqish lozim. Bunday modellarning bir qismi kompyuterdan foydalanishga, boshqa qismi – mashinasiz imitatsiyaga moslashgan. Imitatsion o‘yin modellari istalgan darajadagi obyektlar uchun ko‘rilishi mumkin: sex bo‘limidan tortib, umuman, xalq xo‘jaligigacha. Yaxshi modelni yaratish katta vaqt sarfini talab qiladi (bir necha yilgacha) va arzon tushmaydi, uning yordamida prognozlash, ya’ni o‘yin o‘tkazish, shuningdek, jiddiy urinishlarni talab qiladi, chunki o‘yin qatnashchilari soni bir necha yuzga yetishi mumkin. Biroq, bu xarajatlar o‘zini oqlagan, zero, bunday modellar boshqa modellar ishlamaydigan joyda prognoz olish imkonini beradi.

Imitatsion modellar bir qator ustunliklarga ega:

– adekvat modellarni real obyektlar qo‘llash va turli yo‘l qo‘yishlarda model bilan chegaralanmagan tajribalar o‘tkazish imkoniyati;

– modelga noaniqlik omillarini, o‘zgaruvchilarning tasodifiy xarakterini nisbatan osonroq kiritish;

– jarayonlar,vaqt parametrlari, muddatlar, kechikishlar dinamikasining nisbatan osonroq ifodalanishi.

Imitatsion modelning strukturaviy sxemasi



Iqtisodiy modellar prognozlanayotgan tizimning tavsifini ham, formallashmagan aloqalarini ham hisobga olgani uchun ular uning

rivojlanishini adekvat ifodalashga qodir. Lekin aynan shunday formallashmagan tavsiflarni ta'riflash iqtisodiy modellarni tuzishning asosiy qiyinchiligi hisoblanadi.

Dinamik iqtisodiy modellar boshlang'ich shartlarga bog'liq bo'lmagan tizimning asosiy rivojlanish qirralari haqida xulosa qilish imkonini beradi. Bu xulosalar, albatta, prognozlashning boshqa usullari yordamida keyin detallashtiriladi.

Bir vaqtning o'zida iqtisodiy modellarni EHM uchun ishlab chiqish va dasturlash, odatda, ko'p mehnat va vaqt sarflari bilan bog'liq. Chunki ularning har biri o'zicha ajoyibdir. Iqtisodiy modellar asosida prognozlash o'z ichiga bir qancha asosiy bosqichlarni oladi:

– tadqiqot vazifasini belgilash, prognozlanayotgan tizimni o'rganish, empirik axborotlarni to'plash, modellashning asosiy muammolarini ajratish;

– iqtisodiy modellarni shakllantirish; model va uning ostki modellarini ifodalashning strukturasi va prinsiplarini tanlash, shuningdek, yo'l qo'yiladigan soddalashtirishni tanlash, o'lchanadigan parametrlar va model sifati mezonlarini tanlash;

– kiritilgan ma'lumotlar bilan iqtisodiy modelning adekvatligini va modellashtiruvchi algoritmning nazorat tajribalari natijalari muvofiqligi va chegaraviyligi darajasiga ko'ra, aniqlik va yaroqliligini baholash;

– ko'p variantli tajribalarni rejalashtirish, tadqiqot uchun prognozlanayotgan tizimning funksional tavsifini tanlash, tajriba natijalarini qayta ishlash usullarini belgilash;

– model bilan ishlash, hisob - kitoblar va imitatsion tajribalar o'tkazish; natijalar tahlili, modellash ma'lumotlari bo'yicha xulosalarni shakllantirish, yakuniy prognoz ishlab chiqish.

Aytish kerakki, imitatsion sistemadan foydalanish rejimini imitatsion biznes o'yin shakliga o'tkazish mumkin. Buning uchun, birinchidan, imitatsion tajribada ekspert-eksperimentatorlar guruhi ishtirok etishi, ikkinchidan esa, ishtirokchilarning faoliyati alohida o'yin qoidalari ko'rinishida aks etgan va chegaralangan bo'lishi zarur. Imitatsion tajribada har bir ishtirokchining asosiy vazifasi mavjud variantlardan uning fikricha yaxshi natijalarga erishishini ta'minlovchi qandaydir strategiyani shakllantirishi lozim.

Iqtisodiy tizimning murakkablashuvi, tasodifiy kattaliklar va noaniqlik omillarini hisobga olish zaruriyati, joriy natijalar va kelgusi hodisalarning o'zaro bog'liqligi dinamikligi, o'rganilayotgan ko'pchilik hodisalar o'rtasida kompleks bog'liqlik tufayli bunday murakkab tizimga adekvat bo'lgan an'anaviy IMMni tuzish murakkabroqdir.

Odatda, murakkab tizimlarni modellash vazifaning yirik o'lchamliligiga, ichki o'zaro bog'lanishlar soniga, turli xil ehtimolli tavsiflarga duch keladi.

Aralash axborot asosidagi usullar kombinatsiyalashganligi davlat «SES»i kabi murakkab tizimlarni prognozlashda qo'llaniladigan quyidagi usullarni kiritish mumkin:

- tarixiy o'xshatish usuli;
- ssenariy tuzish usuli;
- ekonometrik modellar;
- imitatsion modellar.

3.3. Makroiqtisodiy modellar

Tarmoqlararo modellar majmuasi yiriklashgan dinamik va kengaytirilgan tabiiy-qiymatli modellarni o'zi ichiga oladi. Tizimning hamjihatligi milliy daromad, uni taqsimlash tuzilmasi hamda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining sarmoya qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyojlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va boshqalar kabi yiriklashgan dinamik modelining asosiy ko'rsatkichlarning tabiiy-qiymatli tarmoqlararo balansini tuzish uchun qo'llanilishi bilan ta'minlanadi.

Zamonaviy dinamik tarmoqlararo modellar iqtisodiy rivojlanishning sur'atlari va nisbatlarini aniqlovchi uchta asosiy omillar guruhi bo'yicha iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini bashoratlashga imkon beradi. Xususan, ular quyidagilar: rejali davr boshiga yig'ilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarni miqyosi va tarkibi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy salohiyatning boshlang'ich darajasi; mehnat resurslaridan unumli foydalanish ko'rsatkichlar o'zgarishining istiqbolli tendensiyalar; jamiyatning yakuniy ehtiyojlarining istiqbolli tarkibi.

Makroiqtisodiy tahlilda asosiy tadqiqot usuli makroiqtisodiy jarayonlarni agregat ko'rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiy matematik modellashtirishdir. Makroiqtisodiy modellar iqtisodiy ko'rsatkichlar va jarayonlar o'rtasidagi miqdoriy, sabab-oqibat bog'la-

nishlarini matematik formula, grafik va rasmlar ko‘rinishida ifodalaydi.

Bunga yalpi talab-yalpi taklif (AD-AS) modelini, Keynsxochini, Fillipsegri chizig‘ini, IS-LM modelini, iqtisodiy o‘sishning Domar, Harrod va Solou modellarini keltirish mumkin. Bu modellarni bir vaqtning o‘zida ham grafik ko‘rinishda, ham algebraik formula ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Algebraik formulalar kabi makroiqtisodiy modellar ham ikki, uch yoki bundan ko‘p o‘zgaruvchili bo‘lishi mumkin[40].

AD-AS modelida yalpi talab va yalpi taklif hajmlarining baholarning umumiy darajasi dinamikasi ta’sirida o‘zgarishi va makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi o‘rganilsa, Fillips egri chizig‘i yordamida ishsizlik va inflyatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq qilinadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan modellar barcha mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilishda qo‘llanaveradi. Ammo ularda keltirilgan empirik koeffitsiyentlar, turli iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi xususiyati bir mamlakatda ikkinchisidan farq qilishi mumkin. Har qanday makroiqtisodiy modelda, qanchalik sodda yoki murakkab bo‘lmasin, ma’lum darajada mavhumlikka yo‘l qo‘yiladi.

Masalan, makroiqtisodiy tahlil davomida milliy iqtisodiyot ba’zan yopiq iqtisodiy tizim, ya’ni tashqi iqtisodiy aloqalari mavjud bo‘lmagan — yopiq iqtisodiyot deb qaraladi. Amalda esa barcha mamlakatlar tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarga ega, ya’ni — ochiq iqtisodiyotga ega. Hech bir model iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni to‘la-to‘kis qamrab olmaydi. Shunga qaramasdan makroiqtisodiy modellardan foydalanish eng muhim iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash, qabul qilinadigan turli iqtisodiy qarorlarning olinishi mumkin bo‘lgan ko‘p variantli natijalarini oldindan aniqlab olish, makroiqtisodiy siyosatning turli yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Makroiqtisodiy modellarda tashqaridan belgilanadigan, ya’ni modelda tayyor kattalik sifatida qabul qilinadigan ekzogen o‘zgaruvchilar hamda modelni yechish natijasida topiladigan ichki-endogen o‘zgaruvchilar farqlanadi. Bir modelda ekzogen hisoblangan o‘zga-

[40] *Makroiqtisodiyot o‘quv-uslubiy majmua Toshkent-2018 M.T.Asqarova va boshqalar.*

ruvchi (ko‘rsatkich) ikkinchi model uchun endogen hisoblanishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning doiraviy oqimi modellik urinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya’ni davlat ishtiroki mavjud bo‘lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqimi firmalar va uy xo‘jaliklari o‘rtasida amalga oshiriladi.

Uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so‘ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beradilar. Ayni paytda—resurslar-tovarlar va xizmatlar oqimiga qarama-qarshi yo‘nalishda — daromadlar – xarajatlarning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Ya’ni uy xo‘jaliklari o‘zlari yetkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste’mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha, korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko‘rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo‘lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o‘zaro teng bo‘lishi firmalarning yalpi sotuvi yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo‘jaliklarining yalpi daromadlariga teng bo‘lishi shaklida namoyon bo‘ladi.

Bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko‘tarilib ketishiga sabab bo‘ladi.

Davlat aralashuvi mavjud bo‘lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko‘rinish oladi.

Bunday iqtisodiyotda resurslar-tovarlar va xizmatlar, daromadlar-xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta’minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi.

Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga, korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi.

Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdorlari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida doiraviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to'rtinchi makroiqtisodiy subyekt-tashqi dunyo ham paydo bo'ladi. Chet el investitsiyalarining kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari shu jumladan, moliyaviy bozor orqali jamg'armalarning investitsiyalarga oqib o'tishi va moliyaviy mablag'larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko'rib o'tilgan model mukammal emasligiga iqror bo'lamiz. Ammo shu ko'rinishda ham bu model makro iqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur qilishga imkon beradi. Doiraviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo'jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari (ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o'zaro teng bo'lishining asosiy shartidir. Yalpi xarajatlar hajmining oshishi ishlab chiqarish hajmlari va ish bilan bandlilik darajasining o'sishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi. Kattaroq - hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Sabab oqibat bog'lanishlari o'rin almashishi tufayli doiraviy oqimlar modeli doiraviy aylanish ko'rinishini oladi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to'xtovsiz o'sib borishi shart. Bu vazifa budjet-soliq siyosati vositalari bo'lgan soliqlarni hamda davlat xarajatlarini o'zgartirish hamda pul-kredit siyosati vositalari yordamida massasini o'zgartirish orqali bajariladi.

3.4. Iqtisodiyotni rivojlantirish modellari

Iqtisodiy-matematik modeli masalan quyidagicha ifodalanilishi mumkin $Z = aX$. Bu model misol tariqasida u yoki bu buyumni

tayyorlash uchun talab qilinadigan materiallarga bo‘lgan prognoz talablarini aniqlashda qo‘llanilishi mumkin. Bu holatda X – buyumlar soni, a– bitta buyum uchun material sarflanish me’yori, Z–materiallarga bo‘lgan umumiy ehtiyoji.

Iqtisodiy-matematik modeli, agar bir nechta tur buyumlarni tayyorlash uchun materiallarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash kerak bo‘lsa, murakkab ko‘rinishga ega bo‘ladi: $Z = a_1X_1 + a_2X_2 + a_3X_3 + \cdots + a_nX_n$yoki $Z = \sum_{i=1}^{n} a_i X_i$, bu yerda $n = 1, 2, 3,...n$. Ushbu model materiallarga bo‘lgan ehtiyojning ikki guruh omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatib turibdi: tayyorlanayotgan buyumlar soni va buyum uchun materiallar sarflanish me’yori. Bunday model deskriptiv (lotincha “desckribo”)deb ataladi.[41]

Bir mahsulotli model nafaqat bir mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarda, balki bir qator holatlarda agar ishlab chiqariladigan mahsulotlar iste’mol qilinishda bir-birini o‘rnini bosadigan bo‘lsa yoki ularni mutlaq ko‘rsatkichlar qo‘llanilishi mumkin. Ko‘p mahsulotli modellarda butun tarmoq ishlab chiqarayotgan mahsulotga va xomashyo yoki boshqa qandaydir resurslarni iste’mol qilishga bo‘lgan talab bo‘yicha ikkita yoki undan ham ko‘p chegaralar ko‘rib chiqiladi. Ushbu modellarda turli mahsulotlarni iste’molida o‘rnini bosadigan xususiyatini hisobga olgan holda turdosh mahsulotga keltirish imkoniyatidan unumli foydalanilishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning barqaror va oqilona nisbatlarda rivojlanishini ta’minlash, bozor talablari asosida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish darajasi innovatsion iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini o‘zgartirish hamda uni takomillashtirishga bog‘liqdir. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, uning barqaror o‘sish sur’atlariga erishishining yana bir muhim omili – innovatsion iqtisodiyotda risklarni samarali boshqarish, ulardan raqobat sharoitida risklarga to‘g‘ri baho berib, sodir bo‘lish darajasi hamda kutilajak xavfni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim. Biroq, mazkur jarayon turli davlatlarda turlicha bo‘lib, O‘zbekistonda ushbu omildan samarali foydalanish borasida ayrim muammolar mavjud.

[41]БарроР.Дж., ХавьиерСала-и-МартинЭкономическийрост. пер. сангл. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. – 120-130 с.

Mazkur muammoning hal etilishi respublikamizda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlar va hududlar iqtisodiyoti hamda istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun, eng avvalo, innovatsion tizimni qanday ko'rinishda shakllantirish, innovatsion faoliyatni qanday tashkil etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash lozimligi, shu bilan birga arisk menejmentining eng zarur xususiyatlaridan keng foydalanish haqida aniq tasavvur va yo'nalishga ega bo'lish maqsadga muvofiq.

Innovatsion iqtisodiyotda risk menejmenti jahon iqtisodiyotining barcha sohalarida zamonaviy rivojlanish mazmuniga aylanib ulgurgani barchaga ayon. Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishga risk menejmentidan samarali foydalanish orqali erishilishini hisobga olsak, innovatsion faoliyatda risk menejmentining mazmun-mohiyatini bilish nechog'li zarurligini anglash mumkin.

Innovatsion faoliyatning bugungi kunda hayotimiz mazmuniga aylanib borayotganligi va o'z kelajagimizni qurishda maqsad va strategiyalarimizni amalga oshirish jarayoniga tobora chuqur kirib borayotganligi, shu bilan birga, yangidan-yangi imkoniyatlarni taqdim etayotganligi mazkur atamaning mazmunini yoritishga bo'lgan qiziqish va intilishlarni yanada kuchaytirmoqda. Fikrimizcha, har qanday mamlakatda innovatsion faoliyatning tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va bajarilishi talab etiladi:

– davlat innovatsiya siyosati – davlat hokimiyati organlari tomonidan mamlakatning innovatsion strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovatsion dasturlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi va bajarilishi;

– investitsion salohiyati (davlat, tarmoq, korxona va tashkilotning) – turli ko'rinishdagi resurslar yig'indisi (moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va boshqalarni qamrab olgan holda);

– innovatsion soha – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o'z ichiga qamrab oluvchi innovatsion mahsulot (ish, xizmat)larini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning faoliyat sohalari;

– innovatsion infratuzilma – innovatsion faoliyatning amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta'sir ko'rsatuvchi turli muassasalar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texno-

parklar, o‘quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa maxsus tashkil etilgan muassasalar);

- innovatsion dastur (korxona, tarmoq, hudud, davlat, mintaqa, davlatlararo) – innovatsion loyihalar resurslari, ijrochilari va ularni amalga oshirish muddatlari bo‘yicha kelishilgan hamda yangi turdagi mahsulot (texnologiya)larni o‘zlashtirish va joylashtirish bo‘yicha vazifalarning samarali hal etilishini ta’minlovchi innovatsion loyihalar va tadbirlar kompleksi.

Innovatsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagi vazifalar ta’minlanishi lozim: strategik innovatsion prinsipni ishlab chiqish; innovatsion loyihalar va dasturlarni shakllantirish va faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash; tashkilot tizimi hamda innovatsiyalarni boshqarish tizimini ishlab chiqish; ishlab chiqarish jarayonlari va innovatsion mahsulotlar sotilishini rejalashtirish; ishlarni kalendar reja bo‘yicha taqsimlash va ularning bajarilishini nazorat qilish; ijod qilish muhitini yaratish va intellektual mehnatning yuqori motivatsiyasini ta’minlash.

Iqtisodiy munosabatlarga kirishayotgan subyektlarning yetarli tajribaga, bilimga ega emasligi ularning bu jarayonda katta risklarga uchrashiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, ilm-fan, texnika taraqqiyoti yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan hozirgi paytda maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lmagan subyekt biror ishga qo‘l urgani bilan ko‘zlagan maqsadiga erishishi juda qiyin kechishi mumkin. Bunga aynan risk mavjudligi sabab bo‘ladi. Innovatsion iqtisodiyotdagi riskning o‘ziga xos xususiyatlari bu – noaniqlik, kutilmagan holat, ishonchsizlik va taxmin. Siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida risk darajasi oshadi. Riskning ikkita funksiyasi mavjud: rag‘batlantiruvchi va himoyalovchi.

Rag‘batlanturuvchi funksiyasining ikkita, ya’ni konstruktiv va destruktiv jihati bor. Konstruktiv jihati shunday bir holatda yuzaga keladiki, bunda risk iqtisodiy qarorlarni hal qilishda katalizator vazifasini bajaradi (ayniqsa, innovatsion qarorlarni qabul qilish jarayonida). Destruktiv ko‘rinishi esa asoslanmagan risk bilan qabul qilingan va amalga oshirilgan qarorlar natijasida yuzaga keladi. Riskning himoyalovchi funksiyasi ham ikki jihatga ega: tarixiy-genetik va ijtimoiy-huquqiy. Bularning barchasi innovatsion iqtisodiyotda risk

menejmenti bo'yicha ishlab chiqish lozim bo'lgan ham nazariy, ham amaliy tavsiyalarga bo'lgan zaruratini ifoda etadi.

Umumiy tasnifda risklarni quyidagi 3 yirik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Umumiy ta'sir tarkibi bo'yicha: iqtisodiy risk; bozor riski; inflyatsiya riski; valyuta riski; siyosiy risk; ijtimoiy risk; ekologik risk; texnologik risk; marketing riski; moliyaviy risk; kredit riski; bankrotlik riski; ilm-texnika riski; informatsion risk va boshqalar.

2.Muddati bo'yicha: qisqa muddatli risklar; uzoq muddatli risklar.

3. Olinadigan natijaga qarab: spekulyativ risk (ular ta'sirida katta zarar yoki foyda olish imkoniyati bor); sof risklar (ular ta'sirida nolga teng bo'lgan zarar(foyda) ko'rish mumkin).

Iqtisodiy risk deganda, umumiy yirik tizim va uning tarkibiy rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanati va uning YaIMning o'sish sur'atini jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish orqali o'rnatish maqsadi qo'yilgan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg'unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmuyi tushuniladi. Davlatning antisiklik usullar va boshqalardan foydalanib samarali chora-tadbirlar o'tkazishini taqozo etadi. Ijtimoiy-siyosiy risk deganda, umuman yirik tizim va uning tarkibiy rivojlanishida, shu jumladan, davlatning narxni shakllantirish siyosatiga, shuningdek, mulk va intellektual boylik jamg'armalarining manbalarini, jumladan: aholining barcha guruhini umumiy tavsifdagi risklardan ijtimoiy himoyasini ta'minlash; daromadlarning adolatli taqsimoti; ishsizlikni qisqartirish; taklif yoki talabning jismoniy hajmlarini narx va boshqalar orqali tartibga solishga safarbar etish va jamlash bo'yicha masalalarni yechishga aralashuvida yuzaga keladigan risklar majmuyi tushuniladi.

Siyosiy risk – bu korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga siyosiy ahvoldagi o'zgarishlar ta'siridir, bunga chegaralarning yopilishi, boshqa davlatlarga mahsulot, xomashyo olib chiqishning taqiqlanishi va aksincha boshqa davlatlardan mahsulot, xomashyolarni olib kirilishiga cheklovlarni o'rnatilishi tushuniladi. Fiskal-monetar risk davlat o'tkazayotgan moliyaviy va budjet siyosati yordamida, narxlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me'yorlarini, pul massasining

ta'minoti va konyunkturasini tartibga solish bo'yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda yuzaga keladigan risklar majmuyidan iboratdir.

Ta'sir muddatiga ko'ra risklarni: retrospektiv, joriy yoki istiqboldagi risklarga ajratish mumkin. Retrospektiv risklar – bank faoliyatining o'tgan davrdagi turli risklarga bog'liqligini ifodalaydi va joriy hamda istiqboldagi risklarni baholashga yordam beradi. Banklarda ko'pincha mijoz tanlashga nomunosib yondashuv natijasida balanslashmagan likvidlilik riski paydo bo'lib, u beqaror iqtisodiy vaziyatdagi tashkilotlarni kreditlashga ustunlik berilganda kelib chiqadi. Strukturaviy risk xossasidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, bankning butun balansi bo'yicha risk bo'lib, pul bozoridagi foiz stavkasining tebranishi natijasida yuzaga keladi.

Shu bois foiz stavkasi ham foiz ko'rinishidagi foydaga ham butun balansga ta'sir qiladi.

Foiz stavkasi xarakteridan kelib chiqib risklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

– qat'i foiz riski;

– o'zgaruvchi foiz riski;

– hisobdan chiqarish riski (qimmatli qog'ozlar kursi o'zgarishi bilan bog'liq foiz riskini xedjerlash) – bu riskni moliyaviy instrumentlarni sotib olgan yoki sotgan holda boshqa tomonga o'tkazish hisoblanadi. Riskni o'tkazish moliyaviy bozorlarda (birjalar, elektron savdo tizimlari) yoki ikki tomonlama shartnomalarda amalga oshiriladi. Foiz riskidan bevosita xedjerlash yo'llari moliyaviy instrumentlarni, foizli fyucherslar, foizli opsionlar yoki foiz svoplari orqali amalga oshiriladi. Xedjerlash riskini ikki turga ajratish mumkin. Ikkala turdagi xedjerlash (makro yoki mikro) ham yuqorida aytilgan moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mikroxedjerlash – bankning alohida yirik pozitsiya va shartnomalarini xedjerlash uchun qulay.

Makroxedjerlash majburiyat va talablar tarkibini boshqarish metodiga yordamchi ravishda ishlatilishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda bank xedjerlash orqali o'ziga yana qo'shimcha riskni qabul qiladi. AQSH moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha kengashning (Financial Accounting Standarts Board)

tavsiyalari bo‘yicha moliyaviy fyucherslar bilan xedjerlashda foydalanish ma’lum bir aniq talab va majburiyatlar yoki ularning kombinatsiyasi bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

Ayrim davlatlarda monetar risklar bo‘yicha chet el tijorat banklari, jumladan, Britaniya banklari risklarni 5 toifaga ajratadi.

Bugungi kunda, innovatsion iqtisodiyotda o‘ziga xos bo‘lgan shunday risk turi mavjudki, u «tarmoqlar riski» deb atalib, bunda ma’lum bir tarmoqning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatidagi boshqa tarmoqlarga nisbatan o‘zgarib turish darajasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq jarayonlar o‘rganilib, chuqur tahlil etiladi. Tarmoq riskini boshqarishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak bo‘ladi: alternativ tarmoqlar faoliyati qay darajada, tarmoqlar natijalari va rivojlanish darajalari o‘rtasidagi farq, o‘zgarish sabablari; samarali faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoqdagi keskin o‘zgarishlar sabablari; bank yoki boshqa moliyaviy institutlarning mablag‘idan foydalanmoqchi bo‘lgan korxonaning moliyaviy natijasi bilan o‘z tarmog‘i ichidagi o‘xshash korxonalar moliyaviy natijalari o‘rtasidagi farq va boshqalar. Bizningcha, bugungi innovatsion iqtisodisodiyotni shakllantirish jarayonida jahon amaliyotidagi risklarni yana quydagicha guruhlash maqsadga muvofiq.

Biz innovatsion iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi risk menejmentida qo‘llash mumkin bo‘lgan risklarni baholashning “IRBU” usulini tavsiya etamiz.

3.5. Tarmoqlararo dinamik balans modeli

Tarmoqlararo balans modellari iqtisodiyotni va uning tarmoqlarini tahlil qilishni ta’minlash, ularni miqdoriy bog‘liqligini ta’minlash, iqtisodiy tahlil qilish va shular asosida prognozlashtirish hamda rejalashtirish uchun asosiy vositalardan bo‘lib hisoblanadi.

Tarmoqlararo balans ishlab chiqarishni va barcha tarmoqlar hamda mahsulotlarning aniq belgilangan turlarini prognozlashda, rejalashtirishda investitsiyalarni, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tahlil qilish mehnat miqdorini rejalashtirishda, ishlab chiqarishni hududlar bo‘yicha tashkil qilishda keng qo‘llanilmoqda.

Tarmoqlararo balanslar modelining amalda keng qo'llanilishi makroiqtisodiy tahlil yanada ilmiy asosli o'tkazilishi, prognozlarni ilmiyligini va real rejalashtirishni ta'minlaydi.

Tarmoqlararo balans kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishning o'zaro aloqalar tizimi va proporsiyalarini o'rganishda, tahlil qilishda, prognozlashda eng ixcham, amalda keng qo'llash mumkin bo'lgan vositalardan, mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu balans yordamida makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan hisoblangan yalpi ichki mahsulot pirovard, ya'ni yakuniy mahsulot va milliy daromad tuzilishini, mahsulotlarni takror ishlab chiqarish fondlari o'rtasida taqsimlanish strukturasini va ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini tuzilishini har tomonlama tahlil qilish va tegishli xulosalar asosda samarali boshqaruv yechimini qabul qilish mumkin.[42]

Tarmoqlararo balansning oddiy ko'rinishi statistik model asosida ifodalanib, ma'lum davrdagi resurslar va ehtiyojlarning miqdoriy jihatdan o'zaro moslashishini ta'minlaydi, ishlab chiqarish resurslarining cheklanganlik shartlari, ishlab chiqarish bilan mahsulotlardan foydalanishning balans munosabatlari, zarur texnik texnologik shartlar va boshqalarni bajarilgan holda prognozlash va uning asosida rejaning mumkin bo'lgan variantlarini topishga imkon yaratadi.

Tarmoqlararo balansning statik modeli bir yillik davr uchun tuziladi, bir yillik holatdan tashqaridagi o'zgarishlar inobatga olinmaydi. Amalda esa ishlab chiqarish doim rivojlanib, kengayib boradi. Ushbu holat statik tarmoqlararo balansda o'z aksini topmaydi. Bu kamchilikni yo'qotishning obyektiv yo'li doimiy harakatdagi o'zgarishlarni inobatga oluvchi, kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishni ifodalovchi dinamik tarmoqlararo balans tuzishdir.

Tahlil bu o'tgan, bugun va kelajakni, harakatdagi xatosini baholash, shuning uchun makroiqtisodiy jarayonlarni, tarmoqlarni o'zaro aloqadagi holatlarini tahlil qilishda ko'proq dinamik tarmoqlararo balans modellardan foydalanish maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

Tahlil, natijalarning sifatini oshirish uchun tahlil obyektning xususiyatlarini chuqur o'rganib, uning har bir elementini vaqt birligida o'zgarishini chuqur o'rganish, tadqiqot qilish zarur. Iqtisodiyotning makrodarajasi o'ta murakkab tizim hisoblanadi. Chunki barcha tarmoqlar bir-biri bilan bevosita ajralmas holda bog'liqdir. Alohida bir

[42]Леонтьев В.В. Экономические эссе. Теории, исследования, факты и политика. – М.: Политиздат, 1990, 80-85 с.

tarmoqning rivojlanishini tahlil qilmoqchi bo‘lsak, uning boshqa tarmoqlar bilan bog‘liqlik darajasini inobatga olmaslik tahlil natijalarini talablariga to‘liq javob bermaydi.

Tahlil asosida makrodarajada shakllantirilgan rejani amalda bajarilishini ta’minlash, tarmoqlar o‘rtasida disproporsiya bo‘lmasligi, tarmoqlararo materiallar xarajatlari qanday bo‘lishi kerakligi, yakuniy, yalpi va materiallar xarajatlari o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlikni aniqlash faqat tarmoqlararo balans modellari asosida amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin (shartli bir yillik holat).



3.1-rasm. Oddiy ishlab chiqarish jarayoni[43].

Oddiy ishlab chiqarish jarayonida ni miqdordagi ishlab chiqarish resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga kiritildi va j-turdagi N miqdorli mahsulot ishlab chiqarildi. Ushbu jarayon iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini o‘zaro bog‘liqlikda va bevosita o‘zaro aloqada bo‘lgan holda amalga oshiriladi. Tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish xarajatlari harakatini, natijada yakuniy va yalpi ichki mahsulotlar ishlab chiqarish holatini quyidagi statik tarmoqlararo balans orqali ifodalash mumkin.

Statik tarmoqlararo balans ustunlarida moddiy xarajatlar tuzilmasi va har bir tarmoqning sof daromadi aks ettirilgan.

Moddiy xarajatlar va sof daromad jami tarmoqning yalpi mahsulotiga teng. Birinchi iste’molchi tarmoqning yalpi mahsuloti quyidagicha bo‘ladi[44]:

$$X_1 = X_{11} + X_{21} + X_{31} \ldots + X_{n1} + V_1 + m_1 = \sum_{i=1}^{n} x_{i1} + V_1 + m_1$$

[43] Леонтьев В.В. Экономические эссе. Теории, исследования, факты и политика. – М.: Политиздат, 1990, 220-225 с.
[44] Леонтьев В.В. Экономические эссе. Теории, исследования, факты и политика. – М.: Политиздат, 1990, 300-315 с.

Barcha tarmoqlar uchun ham quyidagi tenglik o‘rinli.

$$X_j = \sum_{i=1}^{n} x_{ij} + V_j + m_i, \quad \text{bu yerda} \quad j=1,n$$

Statik tarmoqlararo balans qatorlarida har bir moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i bir yillik mahsulotining taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

N-jadval bo‘yicha birinchi qator quyidagi tenglama orqali ifodalanishi mumkin, ya’ni:

$$X_1 = X_{11} + X_{12} + X_{13} \ldots + X_{1n} + Y_1 = \sum_{j=1}^{n} x_{ij} + Y_1$$

Shuningdek, boshqa tarmoqlar bo‘yicha quyidagi umumiy tenglamani asos qilib olish mumkin.

$$X_i = \sum_{d=1}^{n} X_{ij} + y_i, \ (i=1,2,3\ldots,n)$$

Tarmoqlararo balans parametrlari o‘rtasidagi bevosita aloqalarni iqtisodiy baholash uchun turli ko‘rinishdagi koeffitsiyentlardan foydalanish mumkin. Hisobot davridagi tarmoqlararo balans ma’lumotlaridan foydalanib bevosita moddiy xarajatlar koeffitsiyentlarini (aij) tarmoqlararo material oqimlari miqdorini iste’mol qiluvchi tarmoqlar yalpi ichki mahsuloti nisbati orqali hisoblash mumkin, ya’ni

$$a_{ij} = \frac{X_{ij}}{X_j}$$

Bevosita xarajatlar koeffitsiyentlari kvadrat matritsani tashkil etadi.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11}a_{12}a_{13}\ldots a_{1n} \\ a_{21}a_{22}a_{23}\ldots a_{2n} \\ a_{31}a_{32}a_{33}\ldots a_{34} \\ \ldots\ldots\ldots\ldots \\ a_{n1}a_{n2}a_{n3}\ldots a_{nn} \end{pmatrix}$$

Agar aij ning qiymati aniq bo‘lsa, tarmoqlararo xarajatlar oqimi quyidagicha topiladi.

$$X_{ij}=a_{ij}X_j$$

Yuqoridagi formuladan qator bo‘yicha tarmoqning yalpi ichki mahsulotini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$X_i=\sum_{i=1}^{n}a_{ij}X_j+Y_i$$

3.6. Makroiqtisodiy tahlilda korrelyatsiya, regressiya modellarini qo‘llashning mohiyati

Hayotimizda va turmush tarzimizda uchraydigan har qanday tasodifiy hodisalar ma’lum bir qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bunday hodisalarning ro‘y berishi yoki ro‘y bermasligi aniq hisobga olingan omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning sonli ko‘rsatkichlari ma’lum bir aniq xususiyatga ega bo‘ladi. Masalan, biz iqtisodiy-statistik tekshiruvlar olib borganimizda iqtisodiy-texnik ko‘rsatkichlar ko‘rinishidagi axborotlarga duch kelamiz. Bunda ishlab chiqarishga kirish axboroti o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi[45].

Amaliyotda ikkita x va u o‘zgaruvchan miqdorlar o‘rtasidagi munosabatlarning funksional, statistik va korrelyatsion bog‘lanishlarini kuzatish mumkii. Agar x miqdorning D sohaga tegishli har bir qiymatiga biror usul yoki qonun bo‘yicha u miqdorning biror E sohadagi aniq bir qiymati mos qo‘yilsa, unda u o‘zgaruvchi miqdor, x o‘zgaruvchi miqdorning funksiyasi deyiladi. x va u miqdorlarning orasidagi ushbu bir qiymatlik moslanishi simvolik tarzda u=f(x) ko‘rinishida yoziladi. Bunday bog‘lanishga funksional bog‘lanish deb ataladi. Funksional bog‘lanish jadval, analitik va grafik ko‘rinishda berilishi mumkin.

Statistik bog‘lanishda tasodifiy miqdorlardan birining o‘zgarishi ikkinchi tasodifiy miqdor ehtimollari taqsimoti qonunining o‘zgarishiga olib keladi. Iqtisodiy-statistik tadqiqotlarda eng dolzarb masalalardan biri ikkita x va u tasodifiy miqdorlar orasidagi statistik bog‘lanishni topishdir.

[45] X.Berkinov, Iqtisodiy masalalarda korrelyatsion-regression tahlil modellari tatbiqi, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, T. 2008

Tasodifiy miqdorlar orasidagi statistik bog‘lanishlar korrelyatsion-regression tahlil usullari yordamida o‘rganiladi.

U tasodifiy miqdor qiymatlarining x-ning X=x qiymatiga mos keluvchi o‘rtacha arifmetik qiymatiga shartli o‘rtacha ux qiymat deyiladi. Ushbu ux qiymat shartli matematik kutilma bilan ifodalaladi:

$$\bar{y}_x = M[Y/X = x] = f(x) \qquad (1)$$

Ushbu shartli o‘rtacha $\bar{y}_x$qiymatining x bilan funksional bog‘lanishiga u va x tasodifiy miqdorlar orasidagi korrelyatsion bog‘lanish deyiladi. Bunda (1) tenglama u ning x ga regressiya tenglamasi deb ataladi. $f(x)$ funksiyaning shakli u ning x ga regressiya chizig‘i deyiladi.

Yuqorida zikr qilingan mulohazalarni x va u tasodifiy miqdorlar tartibiga nisbatan takror qo‘llab, x ning Y=y qiymatga mos keluvchi shartli o‘rtacha x_u qiymatini va x ning u ga regressiya tenglamasini hosil qilamiz:

$$\bar{x}_y = M[X/Y = y] = \varphi(y) \qquad (2)$$

Regressiya – bu bitta tasodifiy miqdorning ikkinchi tasodifiy miqdor qiymatlari bilan bog‘langan shartli matematik kutilmasining o‘zgarish qonunidir. Shunday qilib, u tasodifiy miqdorning x tasodifiy miqdorga regressiyasi, shuningdek, x ning u ga regressiya tenglamalari mos ravishda $\bar{y}_x = f(x)$ va $\bar{x}_y = \varphi(y)$shartli o‘rtacha qiymatlar orqali ifodalanadi.

Agar, $\bar{y}_x$va $\bar{x}_y$ regressiya funksiyalari chiziqli bo‘lsa, unda x va u tasodifiy miqdorlar chiziqli korrelyatsiyalangan, ya’ni chiziqli bog‘langan deyiladi. Tabiiyki, o‘rganilayotgan tasodifiy hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar har xil: to‘g‘ri chiziqli va egri chiziqli shakllarda bo‘lishi mumkin.

Korrelyatsion-regression tahlil nazariyasi tajribada kuzatilgan ma’lumotlardan foydalanib, qaralayotgan ikki yoki undan ko‘p tasodifiy omillar orasidagi bog‘lanishlar shaklini va zichligini aniqlashdan iboratdir.

Iqtisodiy ma’lumotlar har doim jadvallar shaklida taqdim etiladi. Jadvallarda keltirilgan sonli ma’lumotlar, odatda, o‘zaro ochiq (ma’lum) yoki (maxfiy) bog‘lanishlarga egadir.

Ochiq turdagi bog'langan ko'rsatkichlar, masalan, rejaning bajarilish foizi, darajalar, tegishli salmoqlar, yig'indida chetlanish, o'sish darajasi, indekslar va hokazolar ma'lum formulalar yordamida oldindan hisoblanishi mumkin.

Ikkinchi turdagi bog'lanishlar oldindan ma'lum emas. Lekin inson murakkab hodisalarni va jarayonlarni boshqarishi uchun ularga xos maxfiy bog'lanishlarni tushuntira olishi va bashoratlashi kerak. Shu sababli, mutaxassislar kuzatuvlar yordamida maxfiy bog'lanishlarni ochishga va ularni formulalar orqali ifodalashga, ya'ni hodisalarni va jarayonlarni matematik tarzda modellashtirishga intilmoqdalar. Shunday imkoniyatlardan birini korrelyatsion-regression tahlil taqdim etadi.

Iqtisodchilar matematik modellarni uch xil umumiy maqsadda: tushuntirish, bashoratlash, boshqarish uchun tuzadilar va foydalanadilar.

Hozirgi vaqtda kompyuterdagi elektron jadvallarning korrelyatsion-regression tahlil vositalari bilan ta'minlanishi tufayli eng murakkab guruhga tegishli, chuqur ilmiy va shu sababli kam foydalaniladigan, deyarli ekzotik usullardan biri bo'lmish korrelyatsion-regression tahlil mutaxassis uchun kundalik, samarali va operativ analitik qurolga aylandi.

Korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanib, analitiklar korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini o'lchamoqda. Bunda har xil turdagi (kuchsiz, o'rtacha zichroq, eng kuchli va hokazo) bog'lanishlar kuzatiladi. Agar bog'lanishlar o'ta muhim bo'lsa, unda maqsadga muvofiq ularning pegression modeli tarzda matematik ifodasini topish va modelning statistik qiymatini baholash lozim. Iqtisodiyotda regressiya tenglamasining qiymatidan o'rganilayotgan hodisani yoki ko'rsatkichni bashoratlashda foydalaniladi. Shu sababli, regression tahlil kuzatuvlar natijasida hosil qilingan ma'lumotlar o'rtasidagi yashirin bog'lanishlarni ochishda zamonaviy matematik statistikaning asosiy usuli deb hisoblanadi.

Regression hisoblashlar va eng yaxshi tenglamalarni tanlash – bu har xil tarmoqlarda (marketingda, savdo-sotiqda, tibbiyotda, ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini optimal modellashtirish va bashoratlashda va hokazo) olib borilayotgan tadbirkorlikda hamda ilmiy tadqiqotlarda bebaho, universal qurol hisoblanadi.

Marketingda bir omilli va to'plam regression modellar keng qo'llaniladi. Marketingda optimizatsion hisoblashlar hamda trendlarni

matematik va grafik modellashtirish bilan bir qatorda korrelyatsion-regression tahlil eng muhim usullardan biri deb sanaladi.

Korrelyatsion-regression tahlilning samaradorligi ko'pgina iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, eng avvalo, o'rganilayotgan hodisalar (omillar, ko'rsatkichlar) o'rtasidagi bog'lanish har tomonlama sinchiklab tahlil qilinishi lozim. Haqiqatan ham bog'lanish mavjud bo'lsa, unda korrelyatsion-regression tahlil usulidan foydalanib, real ahamiyatga ega bo'lgan natijalarni olish mumkin.

Korrelyatsion tahlilning birinchi vazifasi, korrelyatsion bog'lanish shakllarini, ya'ni regressiya funksiyasi ko'rinishlarini (chiziqli, darajali, logarifmik, ko'rsatkichli va hokazolar) aniqlashdan iborat. Bog'lanish shakllarini tanlash regression tahlil va tanlanayotgan funksiya haqidagi ma'lum bashoratlarni ishlab chiqish hamda tahlil qilishdan boshlanadi.

Iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarning murakkabligi tufayli ularni regression tahlil yordamida modellashtirishda bog'lanish shakli modelini tanlay olish muhim hisoblanadi.

Korrelyatsion tahlilning ikkinchi vazifasi hodisalar (o'zgaruvchilar) o'rtasidagi bog'lanish zichligini (kuchini) aniqlashdan iboratdir. Bu korrelyatsion indeksi $|R| \leq 1$ va chiziqli korrelyatsion koeffitsiyent $|r| \leq 1$larning sonli qiymatlarini hisoblash yo'li bilan tekshiriladi. Agar R=1 (r=1) bo'lsa, unda o'rganilayotgan omillar o'rtasida funksional bog'lanishlar mavjud bo'ladi. Agar R=0 (r=0) bo'lsa, bu holda omillar o'zaro bog'lanmagan bo'ladi.

Bog'lanish zichligi R va r larning sonli qiymatlari bo'yicha baholashda quyidagi shartli tasniflash qo'llaniladi:

0,1 dan 0,3 gacha – kuchsiz bog'lanish;

0,3 dan 0,65 – o'rtacha zich bog'lanish;

0,65 dan 0,80 – o'rtachadan zichroq bog'lanish;

0,80 dan 0,99 – zich bog'lanish.

Korrelyatsion indeks R juftli omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini baholashda qo'llaniladi. Chiziqli bog'lanishlar zichligini aniqlashda korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Korrelyatsiya koeffisiyentining manfiy qiymati hodisalar o'rtasida teskari bog'lanish mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Endi oddiy korrelyatsiya va regressiyani qaraylik. Ikkita x va u tasodifiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya oddiy (xususiy) korrelyatsiya deyiladi. Xususiy korrelyatsiya usuli bilan tahlil qilishdan maqsad, ikki o‘zgaruvchi (hodisa) o‘rtasidagi bog‘lanishning mavjudligi va zichligini aniqlashdan iborat.

Faraz qilaylik, ikkita tasodifiy: bog‘liqmas o‘zgaruvchi x va bog‘liq, o‘zgaruvchi u - natijaviy ko‘rsatkich bir xil n hajmli (n – kuzatuvlar soni) miqdoriy qiymatlaridan tuzilgan tanlanma to‘plamlari jadvali bilan berilgan bo‘lsin:

X	x_1	x_2	...	x_n
Y	y_1	y_2	...	y_n

(3)

Ushbu jadvaldagi qiymatlardan tuzilgan (x_1, y_1), (x_2, y_2), ... (x_n, y_n) nuqtalarni tekislikda koordinatalar tizimida yasab, tarqoqlik diagrammasi hosil qilinadi.

x va u tasodifiy o‘zgaruvchilarning birgalikda taqsimoti (korrelyatsion bog‘lanishi) quyidagi parametrlar bilan tasvirlanadi:

1. Taqsimot markazi (M(x), M(u)) vaziyatini aniqlovchi x va u tasodifiy miqdorlarning matematik kutilmalari (o‘rtacha qiymatlari):

$$\begin{cases} M(x) = \bar{x} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} x_i \\ M(y) = \bar{y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} y_i \end{cases} \quad (4)$$

2. Markazga nisbatan taqsimot tarqoqligini aniqlovchi **o) va a** dispersiyalar:

$$\begin{cases} \sigma\frac{2}{x} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})^2 \\ \sigma\frac{2}{y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(y_i - \bar{y})^2 \end{cases} \quad (5)$$

3. (3) ma’lumotlar to‘plami bilan berilgan ikkita x va u tasodifiy miqdorlar o‘rtasidagi statistik bog‘lanishlar darajasini ifoda qiluvchi kovariatsiya (korrelyatsion moment) koeffitsiyenti:

$$cov(x,y) = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(x_i - M(x))(y_i - M(y)) \qquad (6)$$

Agar x tasodifiy miqdorning katta qiymatlari u tasodifiy miqdorning katta qiymatlariga mos kelsa, ya'ni ular orasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro zich bog'liqlik mavjud bo'lsa, unda kovariatsiyaning musbat qiymati kuzatiladi.

3.7. Kobba-Duglas funksiyasi asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish

Amerikalik iqtisodchi olimlar P. Duglas va D. Kobba tadqiqotida statistik ma'lumotlar asosida, qayta ishlash sanoatidagi ishlab chiqarilgan mahsulot va unga ta'sir etuvchi kapital va mehnat xarajatlarining bog'lanishini aks ettiruvchi matematik modelni topish masalasi hal qilingan[46].

Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda, ular ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi Y, asosiy kapital hajmi K va mehnat xarajatlari L orasidagi bog'lanishni ushbu

$$Y = \alpha K^{\alpha} L^{\beta}$$

ko'rinishda taklif etganlar. Bu yerda $a>0$, $\alpha,\beta>0, \alpha+\beta=1 a,\alpha,\beta$ parametrlarning sonli qiymatlarini Y, K va L ning o'rganilayotgan yillar mobaynida kuzatilgan qiymatlari bo'yicha EKK usuli yordamida topilib,

$$Y=1{,}01 \cdot K^{0{,}25} L^{0{,}75}$$

ekanligi aniqlangan. Ushbu topilgan munosabatning amaldagi bog'lanishdan katta farq qilmasligi tekshirilgan.

Hozirgi vaqtda Kobba-Duglas tadqiqotiga asoslangan holda, iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish funksiyalar nazariyasi yaratilgan.

Makroiqtisodiy tadqiqotlarda (3) ko'rinishdagi darajali funksiyalar keng qo'llaniladi. Ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi

[46] X.Berkinov va boshqalar. Iqtisodiy masalalarda korrelyatsion-regression tahlil modellari tatbiqi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent "Iqtisod-moliya" 2008.

qonuniyatlarini bashoratlashda, kuzatuvlar natijasida tuzilgan statistik ma'lumotlarga asoslangan holda: ikki omilli ishlab chiqarish funksiyasi (3) ko'rinishda izlanadi. Bunda noma'lum parametrlar a,α,β ning sonli qiymatlarini EKK usuli bilan topiladi. Masalani soddalashtirish uchun (3) ning har ikki tomonlarini logarifmlab, hosil qilamiz:

$$\ln Y=\ln a+\alpha\ln K+\beta\ln L$$

Agar $\ln Y=Z$, $\ln a=a_0$, $\ln K=x_1$, $\ln L=x_2$ deb belgilasak, (4) quyidagi chiziqli funksiya ko'rinishga keladi:

$$Z=a_0+\alpha x_1+\beta x_2$$

Endi a_0,α,β ni topish uchun EKK usulini qo'llasak, ular jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida (5) tenglamalar tizimi bo'yicha aniqlanadi. Ikki omilli $Y=F(K,L)$ $(K>0,\ L>0)$ ishlab chiqarish funksiyasining K va L o'zgaruvchilar bo'yicha birinchi tartibli xususiy hosilalari quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases}\dfrac{\partial Y}{\partial K}=\alpha\cdot\dfrac{Y}{K},\\[2ex] \dfrac{\partial Y}{\partial L}=\beta\cdot\dfrac{Y}{L}.\end{cases}$$

Kobba-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi uchun elastiklik koeffitsiyentlari quyidagicha qiymatlarga teng:

$$\begin{cases}E_K=\dfrac{\partial Y}{\partial K}:\dfrac{Y}{K}=\left(\alpha\cdot\dfrac{Y}{K}\right):\dfrac{Y}{K}=\alpha,\\[2ex] E_L=\dfrac{\partial Y}{\partial L}:\dfrac{Y}{L}=\left(\beta\cdot\dfrac{Y}{L}\right):\dfrac{Y}{L}=\beta,\\[2ex] E_K+E_L\le 1.\end{cases}$$

Ma'lumki, ushbu tenglama

$$F(X,\ Y)=C \qquad (7)$$

X0U tekislikda bir S parametrli egri chiziqlar oilasini ifodalaydi. S ga har xil C_1, C_2, …, C_n qiymatlar berib, har xil egri chiziqlar hosil qilinadi.

Ushbu ma'lumotga asoslanib, (2.1) Kobba-Duglas ishlab chiqarish funksiyasida

$$\alpha \cdot K^{\alpha} \cdot L^{\beta} = X = const$$

deb faraz qilsak, unda geometrik jihatdan tekislikda koordinatalar tizimida izokvantalar (doimiy X-yalpi mahsulotlar chizig'i) deb ataluvchi egri chiziqlar oilasini hosil qilamiz (1-shakl).

Izokostalar (S lar uchun doimiy xarajatlar chizig'i) deb ataluvchi to'g'ri chiziqlar quyidagi tenglama bilan ifodalanadi (3.1-shakl):

$$AK + BL = C = const$$



3.1-shakl.

Y=F (K, L) funksiyaning maksimal qiymati vektor - *grad F* bo'yicha yo'nalgan. Vektor gradiyent va uning sonli qiymati quyidagi formulalar bilan ifodalanadi:

$$gradF = \frac{\partial F}{\partial K} \cdot i + \frac{\partial F}{\partial L} \cdot j$$

Gradiyentning son qiymati

$$|gradF| = \sqrt{\left(\frac{\partial F}{\partial K}\right)^2 + \left(\frac{\partial F}{\partial L}\right)^2}$$

Masalada quyidagi ma'lumotlar berilgan:

N	$x_1=lnK$	$x_2=lnL$	$Z=lnY$
1	6,1	5,7	2,9
2	6,3	5,9	2,8
3	6,4	6,1	3,1
4	6,5	6,1	3,3
5	6,6	6,0	3,3
6	6,8	6,0	3,1
7	7,0	6,2	3,2
8	7,1	6,3	3,5
9	6,9	6,1	3,6
10	7,1	6,5	3,7
11	7,3	6,5	3,9
12	7,5	6,8	4.0
13	7,5	6,9	4.0
14	7,6	7,0	4,1
15	7,7	7,0	4,2
Σ	105,3	95,3	47

Aniqlansin:
– ishlab chiqarish funksiyasining ko'rinishi;
– elastiklik koeffitsiyentlari.

Yechish. Noma'lum ishlab chiqarish funksiyasini $Y=aK^{\alpha}L^{\beta}$ ko'rinishida qidiramiz va (5) chiziqli funksiya $Z=a_0+\alpha x_1+\beta x_2$ - dan foydalanamiz. Noma'lum parametrlar $a_0=\ln a$, α, β ni topish uchun tenglamalar tizimini tuzamiz. Masalada:

$\Sigma \ln K=105,3$; $\Sigma \ln L=95,3$; $\Sigma \ln Y=47$,
$\Sigma \ln^2 K=730,18$; $\Sigma \ln^2 L=612,41$; $\Sigma \ln K \ln L=644,7$,
$\Sigma \ln K \ln Y=370,01$; $\Sigma \ln L \ln Y=337,64$; $\Sigma \ln^2 Y=269,05$.

Ushbu qiymatlarni (7) tenglamaga qo'yib, hosil qilamiz:

$$\begin{cases} 15a_0+105,3\alpha+95,3\beta=47, \\ 105,3a_0+730,18\alpha+644,7\beta=370,01 \\ 95,3a_0+644,7\alpha+612,41\beta=337,64. \end{cases}$$

Ushbu tenglamalar tizimini yechib, topamiz:

$$a_0=0,908;\ \alpha=0,64;\ \beta=0,48;$$
$$\ln a=a_0;\ a=e^{a_0}=e^{0,908}\approx 2,72.$$

Endi (4) formuladan foydalanamiz:

$$\ln Y=\ln a+\alpha \ln K+\beta \ln L$$

yoki

$$\ln Y=\ln 0,908+0,64 \ln K+0,48 \ln L.$$

Bu yerdan potensirlash usuliga asosan istalgan ishlab chiqarish funksiyasini hosil qilamiz:

$$Y=2.72K^{0,64}L^{0,48}.$$

Elastiklik koeffitsiyentlarini (7) formula bo'yicha topamiz:

$$E_K=\alpha=0,64;\ E_L=\beta=0,48.$$

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Makroiqtisodiy tahlil modellariga qanday talablar qo'yiladi?

2. Makroiqtisodiy tahlil modellarining qanday turlari mavjud?

3. Tarmoqlararo balans nima? Uni tuzishda qanaqa talablar mavjud?

4. Tarmoqlararo balans necha qismdan iborat?

5. Kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?

6. Dinamik tarmoqlararo balans makroiqtisodiy tahlilda qanday qo'llaniladi?

Tayanch so'z va iboralar

Makroiqtisodiy tahlil modellarining klassifikatsiyasi. Ekonometrik modelllar. Makroiqtisodiy modellar. Iqtisodiyotni rivojlantirish modellari. Tarmoqlararo dinamik balans modeli. Tarmoqlar va hududlar rivojlanishidagi iqtisodiy modellar. Tarmoqlararo balansda sanoat, kapital qo'yilmalar, mehnat resurslari balansi. Tarmoqlar orasidagi o'zaro bog'liqliklar. Hisobga olingan davr uchun qator yillarda mahsulot ishlab chiqarilishi va taqsimlanishi ko'rsatkichlarini hisoblash. Makroiqtisodiy tahlilni mukammallashtirishning muhim yo'nalishlari. Iqtisodiy o'sishning asosiy parametrlarini makroiqtisodiy tahlil qilishda verifikatsion-statistik yondashish. Dinamik vaqt qatori ma'lumotlaridan maksimal foydalanishga asoslangan holda ularning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan moslangan chiziqli va chiziqsiz tipdagi ko'p omilli modellari. Tarkibiy modellar. Mahsulot xomashyo nomenklaturasiga asoslangan modellar. Mahsulot talabiga ko'ra ikki yoki undan ortiq modellar, tarmoqli va optimal rejalashtirish modellari. Milliy daromadni taqsimlash modellari. Aholi turmush darajasi modeli. Iste'mol tarkibi modeli. Ekosiyosat modeli. Ish haqi va daromadlarni hisoblaydigan modellar.

Bob bo'yicha xulosalar

Model makroiqtisodiy tahlilning, tadqiqot qilinayotgan jarayonlarni ilmiy jihatdan bilish dastaklardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganish vositasi iqtisodiy-matematik modeli hisoblanadi. Iqtisodiy-matematik modeli o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy tizimni hosil

qiluvchi elementlarining asosiy o‘zaro aloqasini izohlab beruvchi rasmiylashgan nisbatlar tizimini ifodalaydi.

Ekonometrik modellarning o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlari ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) modellarga bo‘linadi.

Tarmoqlararo modellar majmuasi yiriklashgan dinamik va kengaytirilgan tabiiy-qiymatli modellarni o‘zi ichiga oladi.

Iqtisodiy-matematik modeli, masalan, quyidagicha ifodalanilishi mumkin $Z = aX$. Bu model misol tariqasida u yoki bu buyumni tayyorlash uchun talab qilinadigan materiallarga bo‘lgan talablarini aniqlashda qo‘llanilishi mumkin.

Tarmoqlararo balans modellari iqtisodiyotni va uning tarmoqlarini makroiqtisodiy tahlilni ta’minlash, ularni miqdoriy bog‘liqligini ta’minlash, iqtisodiy tahlil qilish va shular asosida prognozlashtirish hamda rejalashtirish uchun asosiy vositalardan bo‘lib hisoblanadi.

Bob bo‘yicha testlar

1. “Model” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

A) Oldindan aytish

B)*Namuna

V) Qo‘shin tortish;

G) To‘g‘ri javob yo‘q

2. Iqtisodiy o‘sish modellarining maqsadi – bu ...

A) *Ishlab chiqarish dinamikasi va hajmi o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganishdan iborat

B) Bozor va mahsulot yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishdan iborat

V) Asosiy va aylanma mablag‘larning mutanosibligi

G) To‘g‘ri javob yo‘q

3. Iqtisodiy o‘sish modellarini 2 ta yirik qaysi guruhlarga bo‘lish mumkin

A) Neoklassik va liberalistik

B) Liberalistik va neoliberalistik

V) *Neokeynscha va neoklassik

G) Neokeynscha va liberalistik

4. O‘zgaruvchan makroiqtisodiy modellar qanday turga bo‘linadi?

A) Chiziqli va nochiziqli

B) Omilli va tarkibiy

V) *Egzogen va endogen

G) Hamma javob to‘g‘ri

5. Yangi iqtisodiy o‘sish nazariyalarida klassik Kobba-Duglas va Solou modellari qanday omil bilan to‘ldiriladi?

A) Kapital omili

B) Mehnat omili

V) *Investitsiya omili

G) Bilim omili

6. R&D sektori modellari qanday funksiya hisoblanadi ?

A) Kapital ishlab chiqarish funksiyasi

B) Mehnatni ishlab chiqarish funksiyasi

V) *Yangi bilimlarni ishlab chiqarish funksiyasi

G) Resurs ishlab chiqarish funksiyasi

7. Tarmoqlararo balansning 1-kvadrantida nima aks ettiriladi?

A) *Tarmoqlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish bog‘lanishlari va proporsiyalarini

B) Barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so‘nggi mahsuloti ko‘rinadi

V) Milliy daromadni xususiyatlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi, ya’ni barcha tarmoqlarda mehnatga to‘langan haq va sof daromad yig‘indisi sifatida qaraladi

G) Yerda milliy daromadning so‘nggi taqsimlanishi va foydalanishi o‘z aksini topadi

8. Tarmoqlararo balansning 2-kvadrantida nima aks ettiriladi?

A) Tarmoqlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish bog‘lanishlari va proporsiyalarini

B) *Barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so‘nggi mahsuloti ko‘rinadi

V) Milliy daromadni izohlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi, ya'ni barcha tarmoqlarda mehnatga to'langan haq va sof daromad yig'indisi sifatida qaraladi

G) Yerda milliy daromadning so'nggi taqsimlanishi va foydalanishi o'z aksini topadi

9. Tarmoqlararo balansning 3-kvadrantida nima aks ettiriladi?

A) Tarmoqlar o'rtasidagi ishlab chiqarish bog'lanishlari va proporsiyalarini

B) Barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so'nggi mahsuloti ko'rinadi

V) *Milliy daromadni xarakterlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi ya'ni barcha tarmoqlarda mehnatga to'langan haq va sof daromad yig'indisi sifatida qaraladi

G) Yerda milliy daromadning so'nggi taqsimlanishi va foydalanishi o'z aksini topadi

10. Tarmoqlararo balansning 4-kvadrantida nima aks ettiriladi?

A) Tarmoqlar o'rtasidagi ishlab chiqarish bog'lanishlari va proporsiyalarini

B) Barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so'nggi mahsuloti ko'rinadi

V) Milliy daromadni izohlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi, ya'ni barcha tarmoqlarda mehnatga to'langan haq va sof daromad yig'indisi sifatida qaraladi

G) *Yerda milliy daromadning so'nggi taqsimlanishi va foydalanishi o'z aksini topadi.

4-BOB. MAKROIQTISODIY TAHLILDA MILLIY HISOBLAR TIZIMI, AXBOROT BAZASI SIFATIDA

4.1. O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlari

Mamlakatimizda ma’muriy tartibotlardan o‘tishni soddalashtirish, aholi turmushi sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan elektron hukumatni, shu jumladan, davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish borasida izchil choralar ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirishni ta’minlashga va raqamli iqtisodiyotga o‘tishga to‘sqinlik qilayotgan qator hal qilinmagan muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, davlat axborot tizimlarini rivojlantirishning yagona prinsiplari ishlab chiqilmagan, ushbu sohadagi tadbirlar esa o‘zaro va boshqa axborot tizimlari bilan uzviy bog‘lanmagan holda amalga oshirilmoqda.

«Elektron hukumat» tizimi infratuzilmasi lozim darajada rivojlanmayapti, bu davlat xizmatlarini ko‘rsatishda va idoralararo elektron hamkorlik qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llashga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

«Elektron hukumat» tizimini joriy etishda ta’sirchan muvofiqlashtiruv va yagona texnologik yondashuvning mavjud emasligi resurslarning nooqilona foydalanilishiga olib kelmoqda hamda tadbirlarning samaradorligini pasaytirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimining joriy etilishini ta’minlash, aholi, biznes va davlat o‘rtasida samarali o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-sharoit yaratish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) raqamli iqtisodiyotni joriy

etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilindi[47].

2. «Elektron hukumat» tizimini joriy etish raqamli iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi:

agentlik elektron hukumat sohasidagi hamda davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etishda vakolatli organ hisoblanadi, ushbu sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'uldir;

agentlikning elektron hukumat sohasida, shuningdek, davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari ijrosini ta'minlash respublikaning barcha vazirliklari, idoralari va tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi;

davlat boshqaruvida axborot tizimlari, resurslari va boshqa dasturiy mahsulotlarini yaratish hamda joriy etish bo'yicha loyihalar, shuningdek, bunday loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari agentlikda ekspertizadan o'tkazilishi shart;

agentlik raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish doirasida xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy hukumat moliyaviy tashkilotlar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilish huquqiga ega.

3. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi manfaatdor idoralar bilan birgalikda:

hozirgi kunda «Elektron hukumat» tizimi doirasida amalga oshirilayotgan idoralararo va idoraviy axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, dasturiy mahsulotlarni yaratish va joriy etish loyihalarining hamda axborot-kommunikatsiya sohasidagi boshqa loyihalarning amalga oshirilishi va moliyalashtirilishini to'xtatib qo'ydi;

bir oy muddatda loyihalar to'liq xatlovdan o'tkaziladi va yakuniy natijalari bo'yicha agentlikka axborot kiritiladi.

4. Agentlik:

a) amalga oshirilayotgan loyihalarning tanqidiy ko'rib chiqilishini hamda maqsadga muvofiq, dolzarb, respublikada raqamli

[47] www lex.uz

iqtisodiyotni rivojlantirish maqsad va vazifalariga mos keladigan loyihalarning davom ettirilishini ta'minlaydi;

b) quyidagilarni nazarda tutadigan «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish konsepsiyasi loyihasining ishlab chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilishini ta'minlaydi:

elektron hukumatning davlat, aholi va biznesning samarali o'zaro hamkorligini, shuningdek, jahonning raqamli makoniga integratsiyalashuvini ta'minlash bo'yicha yagona milliy tizim sifatidagi maqsadli ahamiyatini belgilashni;

«Elektron hukumat» tizimining tarkibi va tuzilmasini, uni yaratish shartlari va arxitekturasining konseptual asoslarini, jumladan, tashkiliy, funksional, texnik tuzilmasini, shuningdek, asosiy raqamli aktivlar ro'yxatini aniq belgilashni;

elektron hukumatni yaratishning asosiy prinsiplari va funksional vazifalarini, elektron hukumat imkoniyatlaridan foydalangan holda raqamli transformatsiyaga erishishning aniq ko'rsatkich va indikatorlarini belgilashni;

elektron hukumatni yaratishning huquqiy va tashkiliy-texnik choralarini, jumladan, raqamli transformatsiya jarayonlarini tadqiq etish metodologiyasiga, ularning o'zaro muvofiqligiga, axborot sohasida birgalikdagi hamkorlik, ma'lumotlar almashish protokollari va formatining o'zaro mosligiga doir talablarni belgilashni;

shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha talablarni hisobga olgan holda axborotni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash va uzatishda axborot xavfsizligini ta'minlashni;

«Elektron hukumat» tizimini yaratish va joriy etish bo'yicha loyihani amalga oshirish mexanizmlari va bosqichlarini nazarda tutishni;

«Elektron hukumat» tizimini joriy etishda uning samaradorligi va shaffofligini oshirishni ta'minlaydigan, jumladan loyihalar bo'yicha yagona milliy distribyutorni tashkil etish orqali yaxlit jarayonni (ishlab chiqish, loyihalashtirish, kelishish, loyihalar bo'yicha tovarlar, ishlar, xizmatlar xarid qilish, shuningdek, ularni foydalanishga topshirishning yagona tizimini) barpo etishni;

agentlik negizida boshlang'ich loyiha sifatida elektron raqamli imzo infratuzilmasining namunaviy elementini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni nazarda tutadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-son qaroriga muvofiq agentlik tomonidan «Raqamli ishonch» raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi bilan birgalikda barcha davlat xizmatlari faqatgina operatorning ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari orqali ko‘rsatilishini ta’minlashni nazarda tutadigan 2019 — 2021-yillarda «Universal Mobile Systems» MChJni rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda[48].

Agentlik manfaatdor idoralar bilan birgalikda ma’lumotlarga ishlov berish markazlariga bo‘lgan ehtiyoj va ularning joylashuvi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovatsion loyihalarni amalga oshirish va idoraviy axborot tizimlarini jadal integratsiyalashuvining tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 18-apreldagi PQ-3673-son Qaroriga muvofiq agentlik tomonidan aloqaning, shu jumladan, xorijda bo‘lish vaqtida, maxfiyligi, tezkorligi, xavfsizligi va telekommunikatsiya xizmatlariga sarflanadigan budjet mablag‘larining tejalishini ta’minlaydigan hukumat mobil aloqasi tizimini ishga tushirish, sinash va undan tajriba tariqasida foydalanish ishlari bajarildi[49].

Ushbu tizim davlat organlari, tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari xodimlari uchun o‘z xizmat vazifalarini bajarishda foydalanilishi majburiy hisoblanadi.

7. Agentlik Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat organlari, tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishda tizimdan foydalanishi majburiy bo‘lgan xodimlari ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritadi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari

[48] www.lex.uz
[49] www.lex.uz

to‘g‘risida» 2017-yil 24-iyuldagi PF-5120-son Farmoniga muvofiq yaratiladigan Loyiha boshqaruvining yagona milliy axborot tizimi agentlik tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha ushbu tizimning barcha ishtirokchilari tomonidan foydalanilishi majburiy hisoblanadi[50].

Ro‘yxatga kiritilgan vazirlik va idoralar huquq egalarining tegishli litsenziyalarisiz dasturiy mahsulotlardan foydalanishga yo‘l qo‘ymasdan, ma’lumotlarning belgilangan protokol bo‘yicha platforma formatida taqdim etilishi va tizimga kiritilishini ta’minlaydi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining aloqa bilan ta’minlashga 2018-yilgi va 2019-yilga mo‘ljallangan xarajatlari to‘g‘risida vazirlik va idoralar kesimidagi axborotni agentlikka taqdim etadi;

ushbu farmondan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining xalqaro aloqa uchun 2019-yilga mo‘ljallangan xarajatlarining qayta ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida ushbu farmonni amalga oshirish doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirishga mablag‘ ajratilishini nazarda tutmoqda.

10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi agentlik bilan birgalikda:

bir hafta muddatda — «Elektron hukumat» tizimidan foydalanish maqsadida foydalanuvchilarning majburiy tartibda identifikatsiya qilinishini nazarda tutgan holda Internet tarmog‘idan simsiz foydalanish bo‘yicha ommaviy nuqtalar to‘g‘risidagi nizom loyihasini;

bir oy muddatda — ushbu farmon talablarini hisobga olgan holda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining elektron hukumat sohasidagi vakolatlarini, shuningdek, uning tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi ikki oy muddatda «Elektron hukumat» tizimini joriy etish doirasida tovarlar kiritish uchun alohida bojxona ombori tashkil etilishini ta’minlaydi.

12. Agentlik Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu farmondan

[50] www.lex.uz

kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi.

4.2. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning shakllanishi va ularning turlari

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy sohasi – mamlakatda ishlab chiqarishning umumiy hajmi, inflyatsiya sur’atlari, ishsizlik darajasi, to‘lov balansi saldosi, ayirboshlash kursi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – umumiy ko‘rsatkichlar ma’lumotlarining o‘zgarishini izohlash va davlat organlariga hamda jamoat tashkilotlariga iqtisodiy vazifalarni hal etishda va iqtisodiy vaziyatdagi kutilmagan o‘zgarishlarga munosabat bildirishda yo‘l ko‘rsatishdan iborat.

Quyida eng muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning asosiy turlarini, shuningdek, bozor va o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda inflyatsiya, bandlik, ishsizlik, real ish haqi darajasini o‘lchash va tahlil qilish usullarini ko‘rib chiqamiz. Ushbular esa ayni paytda axborot obyektlari hisoblanadi[51].

Milliy iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq sektorlar va tarmoqlarning murakkab yig‘indisini o‘zida namoyon etadi. Uning eng muhim tavsiflari – tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda iste’mol qilish hajmi, inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish sur’atlari, bandlik, ishsizlik va daromad darajalari. Ushbu makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularning o‘zgarishi haqidagi axborot milliy hisob varaqlar tizimida to‘liq aks ettirilgan. Makroko‘rsatkichlar tahlil uchun asosiy axborot obyekti hisoblanadi.

HARAKATLAR STRATEGIYASI
2017-2021

[51] N.M.Maxmudov. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash fanidan o‘quv uslubiy majmua. T., TDIU, 2017-yil.

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida turli xil axborotlar hamda ma'lumotlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning to'g'ri, aniq, ishonchli bo'lishi hamda o'z vaqtida olinishi tahlil natijalarining samaradorligini oshiradi.

Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muayyan shakl va mazmunga ega iqtisodiy hodisa, voqea va xo'jalik jarayonlarini qayd etish yoki qayta hisoblab tegishli manbalarda darak yoki ko'rsatkich ko'rinishida aks ettirish makroiqtisodiy tahlil uchun ma'lumotlar hisoblanadi.

Makroiqtisodiy tahlilda foydalanuvchilarga uzatiladigan xabar tavsifiga ega ma'lumotlar yoki ularning to'plami axborot tushunchasini beradi.

Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlar hamda axborotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

– iqtisodiy ma'lumotlar;
– huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar;
– ilmiy-texnik ma'lumotlar;
– tabiiy-ekologik ma'lumotlar;
– benchmarking ma'lumotlari;
– boshqa ma'lumotlar.

Iqtisodiy ma'lumotlar ko'lami kengligi jihatidan ikki yirik guruhga bo'linadi. Birinchisi – ichki iqtisodiy ma'lumotlar. Ularni biznes-reja, hisob tizimi, budjet hisob-kitoblari, korxona dasturi ma'lumotlari, turli xil texnologik ma'lumotlar va shu kabilar tashkil etadi. Ikkinchisi – tashqi iqtisodiy ma'lumotlar. Misol uchun, tovar-xomashyo bozoridagi ma'lumotlar, qimmatli qog'ozlar bozoridagi ma'lumotlar, raqobatdosh korxona ma'lumotlari, tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichlar va shu kabilar. Bu manbalar tahlilda eng ko'p foydalaniladi.

Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar xalqaro va mamlakatda amal qilayotgan barcha qonunlar, hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar hamda aktlarda rasmiylashtirilgan axborotlar, korxona pasporti, ustavi, korxona a'zo bo'lgan turli uyushmalardagi shartnomalar va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Ilmiy-texnik ma'lumotlar esa eng yangi taraqqiyot, ilm-fandagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy-ekologik ma'lumotlar tabiat, yer, suv, havo, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamlashtirgan axborotlardan iborat bo'ladi.

Benchmarking ma'lumotlari ro'y berishi mumkin bo'lgan, biroq ehtimoliy ma'lumotlardir. Mazkur ma'lumotlar barcha ma'lumot va axborotlarni qayta ishlash yo'li bilan yoki voqealar rivoji bilan evristik usulda shakllantiriladi.

Boshqa ma'lumotlarga esa, iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-texnikaviy, tabiiy-ekologik, benchmarking kabi manbalarda aks etmagan ma'lumotlar tushunilib, ularga ommaviy-axborot vositalari, gazeta va jurnallardagi, radio va televideniedagi keltirilgan axborotlar kiradi.

Turli axborot va ma'lumotlarni tahlil jarayonlarida qo'llash natijalarning mazmunini boyitishga, boshqaruv qarorlarining xolisona bo'lishiga asos sanaladi.

Iqtisodiy axborotlar boshqa turdagi axborotlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1) Hujjatlashganligi. Barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich hujjatlarda qayd etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi.

2) Turli xil bo'lishi. Hodisa va voqealar ko'p manbalarda qayd etilishi, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir-biridan farqlanadi.

3) Ommaviyligi va hajmining kengligi. Ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori organlar tomonidan tasdiqlanganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.

4) Davr oralig'ida takrorlanib turishi. Tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar muntazam to'lg'azilib tegishli yuqori tashkilotlarga belgilangan davrda topshiriladi. Hisobot davrlari – choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo'linib axborotlar tuziladi.

5) Qonunlashganligi va chegaralanganligi. Barcha yuqori organga topshiriladigan yoki ochiq e'lon qilinadigan iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan talab hamda shakllarga asoslanib tuziladi. Bozor munosabatlarida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma'lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo'lib, faqat egasining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin.

6) Ko‘p qirraliligi va sermazmunligi. Iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o‘lchamlarida ko‘rsatiladi, boshlang‘ich hujjatlarda korxona nomi, imzo chekuvchilarning naslnomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko‘rsatilgan holda rasmiylashadi.

Iqtisodiy ma’lumotlarning aksariyat qismini hisob tizimi axborotlari tashkil etadi. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari esa makroiqtisodiy tahlilning axborotlari tarkibida yirik salmoqni egallaydi.

Axborot va ma’lumotlar mazmuniga ko‘ra turli xil bo‘lishi, ularning manbalariga ham ta’sir etadi. Chunki har bir ma’lumot miqdor va mazmunini shakllantirib beraoladigan manbadan olinadi. Demak, manbalar tasnifi ham mazmun tasnifiga o‘xshashdir.

Tahlil uchun kerakli manbalar quyidagi talablarni bajarishi lozim:

1. Haqqoniy va xolis bo‘lishi.

2. Manbalar tahlil maqsadlari uchun moslashtirilgan hamda keng imkoniyatli bo‘lishi, ya’ni reja, hisob va statistik ma’lumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to‘liq yoritishi kerak.

3. Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o‘lchamlarda aks ettirilishi lozim.

4. Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog‘liqligi saqlaniladi hamda ulardagi axborotlar bir-birini to‘ldirib turilishi taqozo etiladi.

5. Manbalardagi ko‘rsatkichlarni aniqlanish tamoyillari va aks ettiriladigan davrlari mosligi ta’minlanishi zarur.

Ushbu talablarga javob beruvchi barcha axborot manbalari va ulardan foydalanish tahlil natijalarining aniq va sermazmun bo‘lishiga imkon yaratadi.

Makroiqtisodiy tahlilda foydalaniladigan barcha manbalarning ishonchliligini, aniqliligini va to‘g‘riligini tekshirish natijalarining samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. Barcha yig‘ma ma’lumotlarni har tomonlama to‘g‘riligi texnik va mazmunan turlari ajratilib tekshiriladi.

Texnik tekshirish – axborot manbalarini arifmetik jihatidan to‘g‘riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko‘rsatkichlarni bir-biriga o‘zaro mos kelishini e’tiborga olgan holda o‘rganishdir.

Shunday tartibda debitorlik va kreditorlik qarzlarni, pul mablag‘-lar harakatini va boshqa ma’lumotlarni miqdoran to‘g‘riligini tekshirish mumkin.

Mazmun jihatidan tekshirish – ma’lumotlarning haqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan ko‘rsatkichlarning haqiqatda mavjudligini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bunday tekshirish buxgalteriya hisobi hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlarni inventarizatsiya o‘tkazish orqali taqqoslash, sanab ko‘rish va o‘lchash yo‘li bilan to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishdir.

Tahlil uchun kerakli ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish va ularni tez muddatda foydalanishga tayyorlash hamda qayta ishlashni samarali yo‘li kompyuterlarni tahlil jarayoniga joriy qilishdir.

4.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar axborot obyekti sifatida

Mamlakatni makroiqtisodiy tahlil qilish, iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolarni hamda uni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun milliy hisoblar tizimida hisoblanadigan bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkichlarning asosiylaridan biri bo‘lib yalpi milliy mahsulot yoki uning modifikatsiyasi bo‘lgan yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.

YaMMni hisoblash usullarini o‘rganishdan oldin makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichlarga to‘xtalib o‘tamiz. Bu ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– YaMM, YaIM, sof milliy mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad, ixtiyoridagi daromad;

– davlat budjeti taqchilligi, deflyator, iste’mol narx indeksi, inflyatsiyaning o‘sish sur’atlari;

– ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;

– aholining moddiy ne’matlar va xizmatlar iste’moli hajmi, ularning jamg‘armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar kiradi.

Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini turli tomondan ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishda barcha qatnashuvchilar, ya’ni korxona, tarmoq, mintaqa, davlat va uy xo‘jaligi faoliyatlari natijalari asosida aniqlanadi.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) makroiqtisodiy ma'lumotlarga ishlov berish va ularni makroiqtisodiy tahlil maqsadlari uchun tizimlashtirilgan ko'rinishda taqdim etish imkonini beruvchi buxgalteriya hisobi sifatida ishlab chiqilgan. U milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlarini tahlil qilish, baholash va monitoringini amalga oshirishda zarur bo'lgan axborotning uzluksiz oqimini tashkil etish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan bazani o'zida namoyon etadi[52].

Milliy hisoblar tizimi – muayyan davrda real ishlab chiqarish hajmini va barcha asosiy sektorlar va ishlab chiqarish omillarining mamlakatning umumiy ishlab chiqarishiga qo'shgan hissasini ko'rsatuvchi turli faoliyat turlarini hisobga oluvchi statistika tizimi.

Ta'kidlash lozimki, MHTning makroiqtisodiy tahlil uchun o'ta muhim ahamiyatga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, MHT makroiqtisodiy tahlil uchun zarur baza hisoblanib, o'zining ancha moslashuvchanligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Rivojlanishning turli bosqichlarida turgan mamlakatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun manba bo'lib xizmat qiladi hamda tahlil uchun axborot bazasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, MHT nafaqat muayyan davrda, balki dinamikada ham (muayyan vaqt qatori mobaynida) eng muhim makroiqtisodiy o'rtacha ko'rsatkichlar (masalan, ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasi) harakatini kuzatish imkonini beruvchi tizimni o'zida namoyon etadi.

Uchinchidan, MHT – xalqaro taqqoslashlar uchun eng muhim axborot manbayi hisoblanadi, chunki xalqaro tashkilotlarga milliy hisobvaraqlar bo'yicha ma'lumotlarni, xalqaro standartlarga mos keluvchi ta'riflar va tasniflarni taqdim etishda foydalaniladi. Ushbu ma'lumotlar ko'plab holatlarda, masalan, imtiyozli yordam olish huquqini belgilashda, XVFga a'zo mamlakatlar kvotalarini hisoblab chiqishda, shuningdek, turli mamlakatlar milliy hisoblarini taqqoslashni amalga oshirish imkonini beradi[53].

Milliy hisobchilik tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni izohlash asosi makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga

[52] N.M.Maxmudov. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash fanidan o'quv uslubiy majmua. T., TDIU, 2017-yil.
[53] N.M.Maxmudov va boshqalar, Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash, Darslik, Toshkent 2014-yil.

xalq xo'jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarini oladi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi. YaIMni uning harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

Muayyan mamlakat iqtisodiy holatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar deb yuritiladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar miqdor va sifat ko'rsatkichlariga guruhlanadi. Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlari muayyan mamlakatlar iqtisodiyotini ifodalasa, sifat ko'rsatkichlari mazkur mamlakatlar iqtisodiyotini nisbiy jihatdan aks ettiradi. Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi: Yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof ichki mahsulot (SIM), milliy daromad (MD), shaxsiy daromad (ShD), ixtiyordagi daromad (ID) va boshqalar. Makroiqtisodiy sifat ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi: inflyatsiyaning o'sish sur'atlari, ishsizlik darajasi, aholining ish bilan bandlik darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot va boshqalar[54].

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha qatnashuvchilarning (korxona, tarmoq, mintaqa, davlat) faoliyatlari natijasida aniqlanadi. Ular mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini narxlashi uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan mamlakatlarda ijtimoiy ishlab chiqarishning kengaytirilgan tushunchasiga amal qilinadi. Shu ma'noda, ijtimoiy ishlab chiqarish – iqtisodiyotning daromad yaratuvchi barcha sohalarining ishlab chiqarishidir. Bu yerda moddiy ishlab chiqarish sohalaridan tashqari,

[54] O'sha joyda.

pullik xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlar (moliya, sug'urta, sog'liqni saqlash, maorif va boshqalar) ham ijtimoiy ishlab chiqarishga kiradi. Shu sababli, bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda yaratilgan ijtimoiy mahsulot tarkibiga tovarlar ham, xizmatlar ham, milliy daromadda esa, tovarlarni sotishdan, xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlar hisobga olinadi, ijtimoiy ishlab chiqarishdan chetda faqat bepul xizmatlar ko'rsatish jarayonlari qoladi. Chunki bepul xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarda daromad yaratilmaydi va har qanday mamlakatda bu tarmoqlar davlat hisobiga faoliyat ko'rsatadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasidagi farq natijasida, mamlakatlar o'zlarining mazmuniga ko'ra ajratib turuvchi ko'rsatkichlardan foydalanadi, ularni hisoblashning turli uslublari qo'llaniladi.

Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni milliy hisoblar tizimi orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

1) Barcha tarmoqlarning yalpi ishlab chiqarishi - oraliq iste'mol – yalpi ichki mahsulot.

2) Yalpi ichki mahsulot – amortizatsiya = sof ichki mahsulot.

3) Sof ichki mahsulot – biznesga egri soliqlar = milliy daromad

4) Milliy daromad – ijtimoiy sug'urtaga badallar – korporatsiya foydasiga soliqlar – korporatsiyani taqsimlanmagan foydasi + transfert to'lovlari = shaxsiy daromad.

5) Shaxsiy daromad – yakka tartibdagi soliqlar = ixtiyordagi daromad.

Milliy daromad – bu, milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir.

Yalpi milliy daromad quyidagicha hisoblanadi:

YaMD= YaIM + xorijdan olingan omilli daromadlar – xorijliklarning ushbu mamlakat hududidan olgan omilli daromadlari.

Shaxsiy daromad va milliy daromadning bir-biridan shunisi bilan farq qiladiki, ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi (ijtimoiy sug'urtalar to'lovlari, korporatsiya foydasiga soliq va korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi) amalda bevosita uy xo'jaligiga tushmaydi. Uy xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadlarning bir qismi. Masalan, transfert to'lovlari mehnat natijalarini bildirmaydi. Transfert to'lovlariga – sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan, ya'ni qarilikda va baxtsiz hodisalarga

shuningdek, ijtimoiy dasturlarga asoslangan holda ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, nogironlarga to'lanadigan har xil to'lovlar, ishsizlarga va pensionerlarga to'lanadigan nafaqalar. Iste'molchilar va davlat tomonidan to'lanadigan foiz to'lovlari va boshqa to'lovlar kiradi.

Shaxsiy ixtiyordagi daromad deb individual soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlarga aytiladi. Individual soliqlar – daromad solig'i, xususiy mol-mulklarga va meros qolgan mulklarga solinadigan soliqlardan iborat.

4.4. Makroiqtisodiy tahlilda axborot texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari

Avtomatik boshqarish tizimining kompleks tahlildagi o'rni va roli. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining (ABT) paydo bo'lishi xalq xo'jaligi boshqaruvining takomillashtirish yo'llaridan biri hisoblanadi. ABT boshqaruvning barcha darajalaridan ishlab chiqiladi: KABT–korxonalari, ABT–tarmoqlari, ATDT–markazlashgan boshqaruv organlari va boshqalar. Eng ommabop turlaridan biri KABT hisoblanadi. U korxonaning xo'jalik faoliyati boshqarishning asosiy masalalarini yechish uchun zamonaviy axborot-texnikasi va iqtisodiy-matematik usullar qo'llaydigan boshqaruv tizimidir.

ABT yaratilishiga quyidagi avtomatik boshqarish tizimining funksional bo'g'ini ishlab chiqildi:

birinchidan, ishlab chiqarishning texnik tayyorgarligini boshqarish;

ikkinchidan, xomashyo texnik ta'minot boshqaruvi;

uchinchidan, asosiy ishlab chiqarishning operatsion boshqaruvi;

to'rtinchidan, sotishni boshqarish;

beshinchidan, sifatni boshqarish;

oltinchidan, moliyani boshqarish;

yettinchidan, me'yoriy xo'jalikni boshqarish.

Endi esa shu bo'g'inning ayrim masalalarni va ularning vazifalarini ko'rib chiqamiz. Texnik iqtisodiy reja bo'g'ini masalalarning vazifasi korxonaning xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarning hisob-kitob rejasining o'tkazilishini ta'minlash. Unda quyidagi masalalar yechiladi:

birinchidan, ishlab chiqarishni rejalashtirish;

ikkinchidan, mahsulot realizatsiyasi;
uchinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini rejalashtirish;
to'rtinchidan, kapital qo'yilmalarni rejalashtirish;
beshinchidan, foyda va rentabellikni rejalashirish;
oltinchidan, tannarxni rejalashtirish;
ettinchidan, moliyaviy rejani tuzish.

KABT dagi buxgalteriya hisobi bo'g'ini zamonaviy hisoblash texnika bazasi asosida hisob jarayonlarini takomillashtirishni ta'minlashi kerak. Bu esa axborot sifatini oshirishga, mehnat xarajatlarini kamaytirishga, axborot olish vaqti va uni qayta ishlashga yordam beradi.

Xalq xo'jaligi bo'g'inida EHM yordamida har xil me'yoriy axborotlarni olish va saqlashni tashkil etishi mumkin.

KABT bo'g'inida makroiqtisodiy tahlilda qaror qabul qiladigan baza ma'lum o'ringa ega. Hozirgi vaqtda KABTda alohida iqisodiy tizim yo'q. Makroiqtisodiy tahlilda faqat uchta masala mustaqil berilgan:

1) tannarx, rentabellik va mahsulot narxi tahlili (sexlar bo'yicha bir oy uchun);

2) xomashyo hisobi va tahlili (sexlar bo'yicha bir oy uchun);

3) ishchilarning ishlab chiqarish normasi bajarilishini hisobi va tahlili (sexlar bo'yicha bir oy uchun);

Bu shartlarda kompleks boshqaruv haqida gapirib bo'lmaydi, chunki makroiqtisodiy tahlil kabi boshqaruv jarayonining asosiy bosqichida uyg'unlik yo'qoladi. Buning oqibatida optimizatsiyalash masalalar yechimi qiyin, chunki bu maqsadlarni amalga oshirish uchun axborotni birlamchi hujjatlarda qo'lda qilish kerak, o'z navbatida, ko'pgina mehnat xarajatlarini o'z ichiga oladi. Bank ma'lumotlariga asoslanib avtomatlashtirilgan tizim ishlashga shart-sharoitlar yaratilib, u zamonaviy ABT yordamida yagona EHM va kichik hisoblash mashina oilasini hozirgi vaqtda texnik ta'minlash sifatida ma'lumotlar banki (MB) deb, u ABT axborot ta'minlash tashkilotining kompleks vositasidir[55].

Axborotni qulay saqlash uchun ma'lumotlar bazasi aniq prinsiplar asosida fayllarga guruhlanadi. Fayl–bu ma'lumotlar to'plashni

[55] A E.Ishmuhamedov va boshqalar, Makroiqtisodiyot, Toshkent 2005.

(axborot massivi) ifodalaydi, u klassifikatsiya belgisiga ko‘ra guruhlanadi.

Shunday mexanizatsiyada mikro va mini EHM vositalari qo‘llanishi analitik ishga hech qanaqa ta’sir ko‘rsatmaydi. Bu yerda avtomatlashtirishga faqat hisoblash jarayoniga duch keladi, bu esa o‘z navbatida, analitik ishni kamaytiradi.

KABTda shu kabi bo‘g‘inning yaratilishi quyidagi sabablarga chorlaydi:

1) makroiqtisodiy tahlilning kompleksliligi;

2) korxona faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari hisobining yagonaligi;

3) korxona ish natijasining umumiyligi;

4) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zaxirani aniqlash va mobilizatsiya qilish.

Agar xo‘jalik faoliyati tahlili (XFT) masalalari har xil KABT bo‘g‘inlarida yechilsa, makroiqtisodiy tahlil kompleksiga erishish qiyin. Bu holda masalalar ko‘rib chiqilmaydi, o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’siri bir ko‘rsatkichlarning boshqa ko‘rsatkichlariga o‘rnatilgan, ya’ni umumiylik bo‘lib ko‘rsatiladigan ko‘rsatkichlar tizimiga kiritiladi. Buning barchasi korxona iqtisodiyotini boshqarishini qiyinlashtiradi, xo‘jalik yurgizish samaradorligini tushiradi. Kompleks makroiqtisodiy tahlilda KABT ga qarashli mustaqil tizimning yaratilishi, korxonalar faoliyati tahlilining metodikasi mavjudligi bilan osonlashadi.

Bu metodikalarda analitik masalalar yechimi mavjud bo‘lib, ular oson shakllanadi, algoritmlanadi va EHM da amalga oshirilishi oson kechadi.

Elektron hisoblash mashinalari yordamida makroiqtisodiy tahlilni tashkil etish KABT dagi bo‘g‘in makroiqtisodiy tahlilda tizimning yaratilishi ko‘pgina tashkiliy savollarning axborot, matematik, texnik vositalar yordamida ta’minlanib, yechimini talab qiladi. Quyidagi asosiy bosqichlarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

1) axborot tizimining o‘rganilishi;

2) xo‘jalik faoliyatining kompleks tahlili metodikasini ishlab chiqish;

3) EHMda yechish uchun makroiqtisodiy tahlil masalalarini tanlab olish;

4) tanlab olingan tahlildagi masalalarning model va algoritmning ishlab chiqilishi;

5) tanlab olingan masalalar yechimi uchun qo'shimcha axborotni ishlab chiqish.

Birinchi bosqichda korxonadagi dastalabki hujjatlar ko'rib chiqiladi, hujjat yuritilishining tizimi o'rganiladi. Ikkinchi bosqichning vazifasi korxonada qabul qilingan iqtisodiy usullarning o'rganishi.

Bu metodika kompleks makroiqtisodiy tahlil prinsiplariga asoslangan. Kompleks makroiqtisodiy tahlilini o'tish sekin-astalik bilan boshlanadi. Avvalambor, EHMda masalalarning yechimi o'tkaziladi.

Xo'jalik faoliyatining kompleks makroiqtisodiy tahlil metodikasida umumiy masalalar birinchidan EHMda tatbiq etish kerak bo'ladigan masalalar tanlanib olinadi. Bu tanlov quyidagi prinsiplarga asosan o'tkaziladi:

– masalalar muhimliligi (asosiy iqtisodiyot ko'rsatkichlar tahlil qilinadigan masalalar tanlab olinadi);

– boshqaruv darajasida (korxona faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari – yillik, chorak, oylik hisobotlari, buxgalteriya, statistik, tezkor hisobot ma'lumotlari, dastlabki hujjatlar va hokazo).

Analitik masalalar yechish uchun ularning matematik yozuvi algoritmlashtirishi kerak, bu o'z navbatida to'rtinchi bosqichni o'z ichiga oladi. Kompleks iqtisodiy tahlil masalalarni yechish uchun hujjatlardagi ma'lumotlar yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun savol-javob ma'lumotlari, vizual kuzatish, hujjatlarning yangi shakllarini kiritishga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shuning bilan, beshinchi bosqichda kompleks iqtisodiy tahlil uchun yangi axborot tizimi yaratiladi.

Oltinchi bosqichda EHM da analitik misollarni yechish uchun dasturlar ishlab chiqiladi.

Dasturlar mashina kodi tilida, xohlagan algoritmlash tilida tuzilishi mumkin. Bu esa ABT texnik bazasiga bog'liq.

Oxirigi bosqich – EHM yordamida kompleks iqtisodiy tizim metodikasini kirgizish. Shuni aytib o'tish joizki, EHMda tahlil masalalarini yechimini belgilangan dasturlar o'zi-o'zidan doimiy kompleks makroiqtisodiy tahlil o'tkazilishini ta'minlaydi. Kompleks makroiqtisodiy tahlil bo'g'inini administrativ-huquqiy jihatdan ta'minlashi kerak, ya'ni korxona bo'limi va ma'lum odamlar, funksio-

nal tizimga javob berishini aniqlaydi (axborot hisoblash markaziga javob beradilar).

Bunday bo'limga axborot hisoblash markazi kiradi.

Qiyin tashkiliy savollarning biri ABT sharoitida kompleks makroiqtisodiy tahlilning axborot bilan ta'minlanishini, shuning axborot hisoblash mazkazida KABTdagi bo'g'in yagona ma'lumotlar bazasini yaratishi kerak. Shunga o'xshash masalalarni yechish uchun ma'lumotlarni qo'lda ishlab chiqarish maqsadga muvofiq emas, bu holda uning qiyinligidan EHM natijasi yaxshi bo'lmaydi.

Barcha muhim axborot EHMning tashqi xotirasida saqlanishi kerak, chunki umumiy hisoblash mashinasi magnit lentalarida, diskda, barabanda katta tashqi xotiraga ega. Bu paytda doimiy axborot, ya'ni har xil normativlar, narxlar, ta'riflar va rejali ma'lumotlar, yil davomida o'zgarmaydigan, almashuvi va EHMning tashqi xotirasida saqlanishi kerak. Keyinchalik doimiy axborotga o'zgartirishlar kiritilishini ko'rib chiqish kerak, iqtisodiy axborotning kodlamoq tizimini ishlab chiqishi kerak. Har xil shakldagi hujjatlarning qattiq unifikatsiyalash va standartlashtirish kerak. EHM da axborotni avtomatlashtirishni ishlab chiqish asosiy bank ma'lumotlarini yaratib berolmaydi. ABTdagi kompleks iqtisodiy tizim axborot bilan ta'minlashini, chiqish hujjatlarning shakllarini ishlab chiqishini ifodalaydi, standartlar o'lchami, tuzilishi bo'yicha oson, EHMda avtomatik to'ldirish ishlab chiqilishi kerak. ABTdagi kompleks makroiqtisodiy tahlilga qarashli tizimni matematik ta'minlanishi quyidagi savollar yechimini tug'diradi:

1) matematik usullarni tanlash, shunga o'xshash masalalarga qarashli tizimni ko'zda tutmoq;

2) tizimga qarashli dasturlarni EHMda masalalarni yechish;

3) standart jadvallar, klassik shaklga ega analitik hisoblar o'tkazish.

Barcha dastlabki ma'lumotlar, oxirgi natijalar, hisoblash usullari jadvallarga kirgiziladi.

Iqtisodiy xo'jalik faoliyati ishining rasmiylashtirish usuli hisobini, qo'lda yoki mexanizatsiyalashning kichik darajasida tashkil topgan. Tahlilda EHMdan qo'llanish usullari, hisoblar jadvali usullaridan foydalanishdan voz kechish kerak. Keyin esa formulalar yordamida EHMda misollarni amalga oshirish uchun ularni yechish

algoritmini tuzish kerak. EHM faqat formulalar tilini tushunadi. Shuning uchun ham analitik masalalarni yechishning matematik usuli formulalar yordamida yozilishi kerak. Keyin esa formulalar yordamida EHMda masalalarni amalga oshirish uchun, ularni yechish, algoritmni tuzish kerak.

Elektron hisoblash mashinalarida kompleks makroiqtisodiy tahlil masalalarini yechish.

EHM da masalalarni yechish uchun quyidagilar belgilanilishi kerak:

– maslalarning iqtisodiy mohiyati, masala nomini, uning yechimi maqsadini, boshqaruv organlari ro'yxati;

– kirish axborot, o'z ichiga hujjatlar shakli belgilanadigan operativ axborotni oladigan, me'yoriy axborot;

– chiqish hujjati hamda chiqish hujjatlarini shaklini o'z ichiga oladigan, EHMda olinadigan mashinnogrammalar;

– boshqa masalalar uchun saqlanadigan ma'lumot;

– masalalarning keyingi yig'imi uchun yig'iladigan axborot;

– masala yechimi algoritmi, o'z ichiga kerakli izohlarni bazasidan oladi (blok sxema tuzilishi mumkin).

Misol uchun keyingi masalani ko'rib chiqamiz. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish va jo'natish rejasini bajarilishi tahlili. Bu tahlil zavod bo'yicha o'tkaziladi va sexlarda yig'iladi. Qiymat va natural o'lchovlarda masalalar yechiladi. Bu masalani yechish maqsadi–ishlab chiqarishning va tayyor mahsulot sotishning o'z vaqtida va ritmlik operativ tahlil. Masalani yechish uchun mahsulot ishlab chiqrish bo'yicha birlamchi axborot, mahsulotni jo'natishga yuk xati, yig'im sexi rejalari, yig'ilgan bir dasta hujjat zavodning AHMga yetkazib oboriladi, mashina sohiblariga ma'lumotlar o'tkaziladi. Masalalar yechimi natijalari mashinagramma shaklida bo'lishi mumkin, bular, o'z navbatida, mahsulotni sotishga va eksport qilib byuroga jo'natiladi. Bu masala har dekada va har oyda yechiladi.

Masala yechimini algoritmi:

1) dastlabki hujjatlardan axborot mashina tashuvchilarga o'tkaziladi. Natijada transport yuk xati massivlari paydo bo'ladi;

2) sex yuk xati, buyurtma raqami va mahsulot shifri massivlari bo'yicha taxlanadi. Mahsulotni nomer va shifri bo'yicha mahsulot massivi taxlanib dekada uchun yuk xatini olamiz;

3) Formulada ishlab chiqarilgan mahsulot shifri, sex nomeri va buyurtma nomeri bo'yicha qo'shilib chiqiladi. Kompleks makroiqtisodiy tahlilini masalalarni barcha yechimlari EHMga o'tkazilishi, uning tezligini va sifatini oshiradi hamda xo'jaligining boshqaruvida yaxshi qurol bo'lib xizmat qiladi.

Demak, korxonalarda ishni avtomatlashtirilgan tarzda olib borilishi iqtisodiy samaradorlikni oshishiga olib keladi.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda makroiqtisodiy tahlilda kompyuter texnologiyalardan keng foydalaniladi. Hozirgi kunda texnika rivojlanishi natijasida, ko'plab murakkab va ko'plab insonlar mehnatini qiluvchi jarayonlarni birgina dastur orqali amalga oshirish imkoni mavjud bo'lmoqda. Odatda, iqisodiy tahlilda matematik amaliy paketlardan foydalanib, bular quyidagilar: MS Excel, Stata, Eviews, Statistics va boshqalar[56].

Amaliyotda MS Excel, Stata va Eviews dasturiy paketlardan keng foydalaniladi. MS Excel oqali ma'lumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash va statistik baholashda foydalaniladi. Ma'lumotlarni statistik baholash, tahlil qilish va ko'rsatgichlarni o'zaro bog'liqligini baholashda Stata dasturiy paketidan foydalaniladi. Bir qancha kuzatuv vaqt ma'lumotlari asosida iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik baholash va prognoz qilishda Eviews dasturiy paketdan foydalanish qulay bo'lib hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlarni bajarish lozim:

– MS Excelda mavjud ma'lumotlarni yangi MS Excelga ko'chirib ushbu faylni —soxranit kak buyrug'i yordamida MS Excel 5.0/95 shaklida saqlashimiz kerak;

– kompyuterda o'rnatilgan Eviews dasturini ishga tushirib quyidagi jarayonni amalga oshirish kerak: —File → —New → —Workfile, so'ngra sizda ma'lumotlar yillik, yarim yillik, choraklik, oylik, haftalik haqidagi buyruqni tanlashingiz kerak bo'ladi, keyin ma'lumotlarning boshlanish muddati va tugash muddati haqidagi ma'lumotni kiritasiz —enterl tugmasini bosgandan so'ng, yangi ish sahifsi ochiladi;

– mavjud ma'lumotlarni Eviews dasturiga ko'chirish uchun quyidagi jarayonni amalga oshirish kerak: —File → —Import → —Read Text-Lotus-Excel va Excel 5.0/95 shaklida saqlangan faylni

[56] N.M.Maxmudov. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash fanidan o'quv uslubiy majmua. T., TDIU, 2017-yil.

tanlab —otkrit buyrug'i beriladi. So'ngra har bir ko'rsatgich nomi yozilib —okl buyrug'i beriladi (eslatib o'tamiz, Excelda saqlangan ma'lumotlarda vergul o'rniga nuqta ishlatiladi, ko'rsatgichlarning nomi lotin alifbosida yoziladi);

– ko'rsatgichlarni o'zgarish tendensiyalari asosida holat qaysi funksiya qonuniyatiga tegishligi aniqlanib, funksiyaning parametrlari quyidagi buyruqlar orqali topiladi: —Quick → —Equition Estimation. Olingan natijalar asosida jarayon prognozlashtiriladi[7].

Tayanch so'z va iboralar

Makroiqtisodiy tahlilda axborotning zarurligi va uning mohiyati. Axborot turlari, iqtisodiy axborotlarning shakllanishi. Makroiqtisodiy tahlilning axborot bazasi – makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Axborotning sifati va ishonchliligi. Tahlil obyektlarining faoliyatini ifodalovchi axborot statistik ma'lumotlar. Makroiqtisodiy tahlil uchun axborotlar yig'ish, qayta ishlash, uzatishda informatsion texnologiyalardan keng foydalanish. Tahlilda axborotlarning mohiyati, tahlil natijalarining ishonchliligiga axborot sifatining ahamiyati, iqtisodiy mohiyati. Tahlildagi axborot yetishmovchiligi muammosi va uni hal qilish yo'llari. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni shakllanishi va turlari. Axborotlarning o'lchov birliklari, ularning makroiqtisodiy tahlil modellarida ifodalanish talablari va tamoyillari.

Xulosalar

1. Ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ularning o'zgarishi haqidagi axborot milliy hisob varaqlar tizimida to'liq aks ettirilgan. Makroko'rsatgichlar tahlil uchun asosiy axborot obyekti hisoblanadi.

2. MHT makroiqtisodiy tahlil uchun o'ta muhim ahamiyatga ega.

3. Ko'rsatgichlarni o'zgarish tendensiyalari asosida holat qaysi funksiya qonuniyatiga tegishligi aniqlanib, funksiyaning parametrlari quyidagi buyruqlar orqali topiladi: — Quick → —Equition Estimation. Olingan natijalar asosida jarayon tahlil qilinar ekan.

4. MHT milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlarini tahlil qilish, baholash va monitoringini amalga oshirishda zarur bo'lgan axborotning

uzluksiz oqimini tashkil etish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan bazani o‘zida namoyon etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Axborot texnologiyalarini makroiqtisodiy tahlilda qo‘llash haqida fikringiz nimalardan iborat?
2. Makroiqtisodiy tahlilda MHTning zarurati nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. YaIMni qo‘shilgan qiymatlar bo‘yicha hisoblashni tushuntirib bering.
4. Investitsiyalar sof hajmi nima va u qanday aniqlanadi?
5. Transfert to‘lovlar deganda nimani tushunasiz va u mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Nominal YaIM, real YaIM va defilyator tushunchalariga ta’rif bering.
7. YaIM qanday hisoblash usullari mavjud?
8. Axborot ishonchliligi deganda nimani tushunasiz?
9. Kompyuter dasturi nima?
10. Nima uchun XXI asrni axborot asri deyildi?

TESTLAR

1. Makroiqtisodiy tahlilning asosiy sohasi – mamlakatda ishlab chiqarishning qaysi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridir.

A. Umumiy hajmi, inflyatsiya sur’atlari, ishsizlik darajasi, to‘lov balansi saldosi, ayirboshlash kursi
B. Umumiy hajmi, inflyatsiya sur’atlari
C. Ishsizlik darajasi, to‘lov balansi saldosi
D. Ayirboshlash kursi

2. Milliy iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq sektorlar va tarmoqlarning qanday yig‘indisini o‘zida namoyon etadi.

A. Oddiy
B. Samarali
C. Hamma javob to‘g‘ri
D. Murakkab

3. Nima tahlil va prognozlash uchun asosiy axborot obyekti hisoblanadi.

A. Makroko‘rsatgichlar
B. Mikroko‘rsatkichlar
C. YaMM
D. YaIM

4. ... milliy iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, baholash va monitoringini amalga oshirishda zarur bo‘lgan axborotning uzluksiz oqimini tashkil etish uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan bazani o‘zida namoyon etadi.

A. MHT
B. YaMM
C. YaIM
D. To‘g‘ri javob yo‘q

5. ... – muayyan davrda real ishlab chiqarish hajmini va barcha asosiy sektorlar va ishlab chiqarish omillarining mamlakatni umumiy ishlab chiqarishiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatuvchi turli faoliyat turlarini hisobga oluvchi statistika tizimi.

A. MHT
B. YaIM
C. YaMM
D. MDH

6. ... – xalqaro taqqoslashlar uchun eng muhim axborot manbayi hisoblanadi, chunki xalqaro tashkilotlarga milliy hisobvaraqlar bo‘yicha ma’lumotlarni, xalqaro standartlarga mos keluvchi ta’riflar va tasniflarni taqdim etishda foydalaniladi.

A. MHT
B. YaIM
C. YaMM
D. MDH

7. ... o‘zaro bog‘liq sektorlar va tarmoqlarning murakkab yig‘indisini o‘zida namoyon etadi.

A. Milliy iqtisodiyot
B. Bank

C. Tadbirkor
D. Madaniyat

8. Milliy hisoblar tizimi qisqa harflarda ...
A. MHT
B. YaIM
C. YaMM
D. To‘g‘ri javob yo‘q

9. Milliy hisoblar tizimining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga qanday ahamiyati bor
A. O‘ta muhim
B. Muhim emas
C. Ahamiyatsiz
D. Hamma javob to‘g‘ri

10. Eng muhim makroiqtisodiy o‘rtacha ko‘rsatkichlar
A. Ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasi
B. Bank va bozor
C. Tadbirkorlik
D. To‘g‘ri javob yo‘q

5-BOB. MAKROIQTISODIY TAHLIL KO‘RSATKICHLARINI BOSHQARUV VA TASHKILIY TUZILMADA FOYDALANISH YO‘LLARI

5.1. Makroiqtisodiy darajadagi boshqaruv tizimi va uning tashkiliy tuzilmasi

Boshqaruv tuzilmasi, boshqaruvni tarkibiy tuzilishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Menejment tarkibiy tuzilishi deganda, menejment bo‘g‘inlari va bosqichlari miqdori va tarkibi tushuniladi. Kompaniya boshqaruvida tashkiliy tuzilishining oddiy va tushunarli bo‘lishi tizimning ish qobiliyati yuqori bo‘lishini kafolatlaydi, ya’ni boshqaruv tashkiliy tuzilmasida bosqich va bo‘g‘inlar qancha kam bo‘lsa, boshqaruv shunchalik samarali bo‘ladi.

Struktura – lotincha so‘z bo‘lib, narsalar tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq ravishda joylashishi, tuzilishini bildiradi. Boshqarish strukturasi deganda, boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarini bajaruvchi bir-biri bilan bog‘langan turi boshqaruv organlari va bo‘g‘inlarining majmuasi tushuniladi.

Boshqarishning u yoki bu vazifalarini hal qilish uchun muayyan organlar tuziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarining yuqori organlariga bo‘ysunish va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqa boshqarish strukturasi tushunchasini tashkil qiladi. Bunday struktura odatda oliy boshqaruv apparati strukturasi deb yuritiladi. U biron-bir boshqaruv organining, masalan, vazirlikning boshqaruv apparati, korxonaning boshqaruv apparati bo‘limlari tarkibini bildiradi[57].

Boshqarish strukturasi ishlab chiqarish strukturasi bilan ham ifodalanadi. Bunda boshqarishni tashkil etishning dastlabki va belgilovchi omili ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. U o‘zaro bog‘langan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi jarayonlardan iborat bo‘lib, bu jarayonlar bo‘limlar va xodimlar o‘rtasida mehnat taqsimotini talab qiladi. Shu maqsadda ishlab chiqarish bo‘limlari va ularga xos bo‘lgan boshqaruv apparati tuziladi.

Bo‘linmalar yig‘indisi, ularning tarkibi va o‘zaro aloqa shakllari korxonalarning ishlab chiqarish strukturasini tashkil etadi. Har bir korxona o‘ziga xos ishlab chiqarish tuzilishiga egadir. Shunday qilib,

[57] N.Rahmatullayeva, A.Kamalov. Ijtimoiy menejment Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2017 l.

boshqarishning maqsadlari, funksiyalari, vazifalari, obyektlari va organlari uning tashkiliy strukturasini belgilab beradi. Tashkiliy strukturalarni hosil qiladigan boshqarish organlari boshqaruv bo‘g‘inlari va boshqaruv bosqichlari shaklida bo‘ladi.

Boshqarish bo‘g‘ini – bu boshqaruvchining ayrim yoki qator funksiyalarini bajaruvchi mustaqil strukturali bo‘limlardir, bu bo‘limlar o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqalar gorizontal xarakterga ega. Boshqarish bosqichi – bu ierarxiyaning muayyan darajasida amal qiladigan bo‘g‘indir. Boshqarish bosqichlari bir boshqarish bo‘g‘ining ikkinchisiga, odatda, quyi bo‘g‘inning yuqori bo‘g‘inga izchillik bilan bo‘ysunishni ko‘rsatadi. Bu vertikal bo‘yicha bo‘linishdir. Barcha bo‘g‘in va bosqichlarning tarkibi va ularning o‘zaro bo‘ysunish tartibi, ular bir boshqaruv organi va bo‘g‘inining huquqi va burchlari, shuningdek, ular o‘rtasidagi munosabatlar tartibi, axborot kabi boshqarishning tashkiliy unsurlari boshqarish tizimini tashkil qiladi[58].

Boshqarish strukturasini guruhlash belgilari vositasida yaqqollashtirish mumkin. Quyidagi belgilar boshqarish strukturasini aniqlovchi belgilar hisoblanadi. Strukturani aniqlovchi belgilar: boshqarish maqsadi, boshqarish funksiyalari va vazifalari, xizmat qilinadigan regionlar va iste’molchilar guruhi, ish vaqti rejimi hamda intervali va boshqalar. Strukturaga ta’sir qiluvchi omillar: tashqi muhit, texnologiya, korxonaning katta-kichikligi, biznes strategiyasi, xodimlar soni, qabul qilinadigan qarorlar tizimi, shakllangan struktura va b. Strukturani optimallashtiruvchi belgilar, yuqori malakali xodimlarga ega bo‘lgan, uncha katta bo‘lmagan bo‘limlar va bo‘g‘inlar, ko‘p bo‘lmagan boshqaruv bo‘g‘inlari, o‘zgarishlarga nisbatan sezgirlik va hozirjavoblik, yuqori darajadagi unumdorlik, past darajadagi xarajatlar, ish grafigining bevosita iste’molchilarga moslashganligi va boshqalar.

Ko‘rinib turibdiki, boshqarish maqsadi, funksiyalari va vazifalari boshqarish strukturasini aniqlovchi eng dastlabki belgilardan hisoblanadi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, ko‘pgina hollarda yangi korxona yoki muassasalarni tuzish paytida avval boshqarish bosqichlari va bo‘g‘inlarining tarkibi, boshqarish apparati shtatlari belgilanadi, so‘ngra ular o‘rtasida funksiyalar taqsimlanadi. Holbuki, bu jarayon aksincha bo‘lishi kerak, ya’ni dastlab maqsadga binoan

[58] N.Rahmatullayeva, A.Kamalov Ijtimoiy menejment Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2017

funksiyalar soni aniqlanishi, shundan so‘ng boshqarish strukturasini tashkil qilishga kirishish kerak. Masalan, agar funksiya miqyosi uncha katta bo‘lmasa, u holda mazkur korxonada biron-bir bo‘linmani tashkil qilishga yoki qo‘shimcha lavozimni kiritishga hojat bo‘lmaydi.

Boshqarishning tashkiliy strukturasi boshqarish oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradigan qilib tuzilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, bu struktura quyidagi talablarga javob berishi lozim: boshqarish strukturasida bo‘g‘in va bosqichlar soni optimal bo‘lishi kerak. Bo‘g‘in va bosqichlar sonining asossiz ko‘payib ketishi: boshqaruv apparatini saqlash xarajatlarining ortib ketishiga, axborotlarning o‘tish yo‘li va vaqtining cho‘zilib ketishiga boshqarishda parallellik va takrorlanishlarning vujudga kelishiga, boshqarishda mas’uliyatsizlik unsurlarining tug‘ilishiga va pirovardda boshqaruv samarasining pasayishiga olib keladi. Boshqarish strukturasi boshqarish apparatining tezkor ishlashini ta’minlashi lozim. Bu faoliyat joriy vazifalarning o‘z vaqtida va mohirlik bilan tez hal qilishda namoyon bo‘ladi. Bunga ishlab chiqarishning miqyosi, murakkabligi, boshqarish obyektlarining joylashuvi ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, boshqarish strukturasi qanchalik mukammal bo‘lsa, ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir o‘tkazish shunchalik samarali amalga oshiriladi. Boshqarishning quyidagi asosiy tashkiliy strukturalari turlari ma’lum: chiziqli struktura, funksional struktura, chiziqli funksional struktura, dasturli maqsadli struktura, boshqarishning matritsali strukturasi.

Chiziqli struktura boshqarish strukturasining eng sodda turi bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega. Bunda boshqarishning hamma funksiyalari korxona rahbari maqomida to‘planib, barcha quyi rahbarlar va ishlab chiqarish yacheykalari unga bo‘ysunadi.

Har bir rahbar o‘ziga ishonib topshirilgan bo‘linma faoliyatini yakkaboshchilik asosida boshqaradi va hamma zarur qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi. Bo‘sunuvchi xodimlar faqat o‘zlarining bevosita rahbarlarining farmoyishlarini bajaradilar. Yuqori turuvchi rahbar xodimlarga ularning bevosita boshlig‘ini chetlab murojaat qilmasligi kerak. Masalan, korxona direktori sex boshlig‘ini chetlab masterga buyruq bermasligi kerak. Shu tariqa rahbarlikning vertikal liniyasi va bo‘ysunuvchilarga ta’sir ko‘rsatishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘li ochiladi.

Boshqarishning chiziqli strukturasi uncha murakkab bo'lmagan ishlab chiqarish sharoitida ijrochilarning vazifalari oddiy, buyruq va axborotlar hajmi kam bo'lganda o'zini oqlashi mumkin, ishlab chiqarishning tobora murakkablashib, ko'lamining kengayib borishi boshqarish funksiyalarining tabaqalashtirishini talab qiladi, chiziqli strukturaning o'ziga chiziqli-shtabli strukturaning vujudga kelishini taqozo etadi[59].

Chiziqli-shtabli struktura har bir chiziqli rahbar qoshida ixtisoslashgan xizmatlar, maslahatchilar kengashi, ya'ni shtablar tuzish orqali tashkil etiladi.

Shtablarning vazifasi har xil muammolarni o'rganish orqali rahbariyatga qaror qabul qilishda yordam berishdan iborat. Bunday shtablarga ehtiyojning paydo bo'lishiga asosiy sabab – bu tashkilotlardagi funksiyalarning murakkablashuvidir.

Bu yerda mehnat taqsimoti ikki turdagi maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Chiziqli rahbarlar korxonaning bosh maqsadiga erishish yo'lidagi birlamchi vazifalarning bajarishiga javobgar bo'lsalar, shtabdagilar esa birlamchi vazifalarga tobe bo'lgan ikkilamchi vazifalarning bajarilishiga javobgardirlar. Ular maslahat berish funksiyasini bajaradilar. Chiziqli rahbarlarning asosiy vazifasi taklif etilgan ijobiy va salbiy maslahatlar ichidan maqsadga muvofiqligini aniqlash va uni uzil-kesil qabul qilishdan iborat. Shtablarning tashkil qilinishi va bunday yordamchilarga ega bo'lgani uchun korxona faoliyati bir tomondan, yengillashadi, boshqa tomondan esa, olinadigan maslahatlar qarama-qarshi bo'lganligi sababli murakkablashadi. Shunday hollarda har ikkala tomon o'zinikini ma'qullashga, o'z obro'larini saqlashga harakat qiladi. Natijada o'rtada nizo chiqadi. Shtabdagi menejerlar o'zlarini mutaxassis, o'z sohalarining bilimdoni ekanligini isbotlamoqchi bo'lsalar, chiziqli rahbarlar esa yakka rahbar ekanliklarini pesh qiladilar[60].

G'arb menejmentidagi ayrim nazariyotchilar bu ikki turdagi menejerlarni yaxlit tashkilot tarkibidagi qarama-qarshi sotsial guruh deb atashadi. Bu yerda shtabdagilar o'zlarini elita darajasida his etadilar. Yirik korporatsiyalardagi shtablar, ko'p hollarda, mazkur korxonaning asosiy markaziy organlariga aylanib qoladilar va chiziqli organlar

[59] N.Rahmatullayeva, A.Kamalov Ijtimoiy menejment Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2017.
[60] N.Rahmatullayeva, A.Kamalov Ijtimoiy menejment Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2017.

faoliyatini murakkablashtirishga urinadilar. Bunday vaziyatdan qutilish uchun korxonalar boshqarish strukturasiga o‘zgartirishlar kiritib shtablar sonini yoki ularning xodimlarini qisqartirishga kirishadilar. Bu strukturaning afzalligi shundan iboratki, chiziqli rahbarlar o‘z diqqatlarini ilmiy-tadqiqiy ishlarga emas, balki asosan korxonaning joriy faoliyatiga qaratadilar. Kamchiligi esa boshqaruv tizimiga ortiqcha bo‘g‘inlarning paydo bo‘lishi, natijada boshqarish tezkorligining susayishi, boshqarish xarajatlarining o‘sishidadir.

Boshqaruvning funksional strukturasi rahbarlar va struktura bo‘g‘inlarini har xil vazifalarga va aniq bo‘linmalarda boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirishga qaratilgandir. Bunda har bir boshqaruv bo‘g‘iniga muayyan funksiyalar biriktirib qo‘yiladi. Masalan, biri marketingni, ikkinchisi ishlab chiqarishni, uchinchisi esa moliyani boshqarish bilan shug‘ullanadi. Boshqarish apparatini funksional ixtisoslashtirish uning samaradorligini ancha oshiradi. Boshqarishning hamma funksiyalarni bajarishi lozim bo‘lgan universal rahbarlar o‘rniga o‘z sohasini puxta biladigan o‘z shtatiga ega bo‘lgan, o‘ziga topshirilgan ish uchastkasi uchun javob beradigan mutaxassislar apparati paydo bo‘ladi.

Albatta, funksional xizmatlar rahbarlari va mutaxassislari: o‘z sohasini chuqur hamda puxta biladigan jarayonlar hamda hodisalarni tahlil qilish va baholash qobiliyatiga ega bo‘lgan, o‘z xulosa hamda tavsiyalarini himoya qila oladigan, chiziqli struktura rahbarlarini shu tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligiga ishontira oladigan kishilar bo‘lishi kerak.

Funksional bo‘linmalar bevosita quyi struktura bo‘linmalarining (A1, A2, A3, B1, B2, B3) faoliyatini boshqaradi. Funksional boshqarish u yoki bu funksiya vakolatiga taalluqli tor doiradagi masalalar bo‘yicha quyi bosqich organlari va bo‘linmalari faoliyatiga rahbarlikni ta’minlaydi. Masalan, korxonaning reja bo‘limi sexlarning reja byurolariga rahbarlik qiladi. Bunda ham funksional bo‘limlar rahbarlarining vertikal bo‘yicha iyerarxiyasi va bo‘ysunishi mavjud. Ammo chiziqli strukturadan farqli o‘laroq, bunday bo‘ysunish ma’muriy emas, balki sof uslubiy maslahatli bo‘ysunishdir. Masalan, korxona reja bo‘limining boshlig‘i sex reja byurosi boshlig‘iga hatto aynan shu vazifaga doir masala bo‘yicha ham buyruq berish huquqiga ega bo‘lmaydi. Biror ma’muriy buyruqni korxona direktori sex

boshlig'iga buyurishi mumkin, sex boshlig'i esa sex reja byurosi boshlig'iga shunday buyruq bera oladi.

Albatta, funksional xizmatlar rahbarlari va mutaxassislari o'z sohasini chuqur va puxta biladigan jarayonlar va hodisalarni tahlil qilish va baholash qobiliyatiga ega bo'lgan, o'z xulosa va tavsiyalarini himoya qila oladigan, chiziqli struktura rahbarlarini shu tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligiga ishontira oladigan kishilar bo'lishi kerak.

Boshqaruvning chiziqli struktura sharoitida ishlaydigan rahbarlariga malakali yordam ko'rsatish uchun funksional va idoraviy tashkilotlar tashkil etiladi va bu tashkilotlarning vazifasi boshqaruv qarorlarini tayyorlash va rahbarlarga malakali yordam berishdan iborat.

Hozirgi zamon korxonalari faoliyatidagi ko'pgina muammolarni hal etish gorizontal bo'yicha kelishib olish va muvofiqlashni talab etadi. Bu funksiyalarni turli xizmatlar bajaradi, ularni mazmuni va muddatlariga ko'ra kelishib olish, ishlab chiqarishning ko'pgina unsurlarini tutashtirish lozim. Goho funksional xizmatlar o'rtasidagi bu gorizontal aloqalar juda cho'zilib ketadi, ular bahs va nizolar bilan amalga oshiriladi. Chiziqli struktura rahbari esa ko'p sonli bo'linmalar ishini muvofiqlashtirishga juda qiynaladi.

Chiziqli-funksional boshqaruv strukturasida asosiy boshqaruv chiziqli boshqaruv hisoblanadi, bo'linma boshqaruv bosqichlarida va mustaqil uchastkalarni boshqarish faoliyatida chiziqli rahbarlar ajratiladi. Ularga ishlab chiqarishni xo'jalik faoliyatini yakkaboshchilik boshqarish huquqi berilgan bo'lib, u olingan natijalarga to'liq javob beradi.

Hozirgi zamon korxonalari faoliyatidagi ko'pgina muammolarni hal qilish gorizontal bo'yicha kelishib olishni va muvofiqlashni talab etadi. Masalan, korxona yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishga o'tadigan bo'lsa materiallarni sarflashning yangi normasini ishlab chiqish mehnat normalarini qayta ko'rib chiqish, turli kasblardagi ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, yangi materiallarga ehtiyojni aniqlash, yetkazib beruvchilar bilan aloqa o'rnatish, yangi texnologiya va texnikani joriy etish va hokazolar talab qilinadi.

Boshqaruvning murakkab tizimlari egiluvchanligini ta'minlash uchun chiziqli-funksional tuzilmalarga matritsali tuzilma ko'rinishidagi boshqaruvning dasturiy-maqsadli shakllari kiritiladi: loyiha

bo‘yicha boshqarish, mahsulot bo‘yicha boshqarish, tekshiruv komissiyalari va h.k.

Mexanik tarzda tashkil etilgan strukturani ko‘nikma hosil qilingan struktura bilan almashtirish usuli. Mexanik tarzda tashkil etilgan strukturaga quyidagi salbiy tomonlar xos: gorizontal tabaqalanishdagi keskinlik, ierarxik aloqalardagi qat’ilik, me’yorlashtirilgan mas’uliyat, yuqori darajadagi rasmiyatchilik, qarorlar qabul qilinishidagi o‘ta markazlashuv va unda ko‘pchilik boshqaruvchilarning qatnasha olmasligi. Bu strukturani ko‘nikma hosil qilingan sinovdan o‘tib o‘zini oqlagan struktura bilan almashtirish ma’quldir[61].

Mexanik tarzda tashkil etilgan struktura ichida turli shakllardagi uzviy strukturani tashkil qilish. Bu degan so‘z korxona tarkibiga venchur va innovatsiya, ya’ni biznesga tavakkalchilik bo‘limlari, biznes markazlar, ekspert guruhlari, ishchi, brigadalar guruhlarini tashkil qilishni bildiradi. Venchur va innovatsiya bo‘limlaridagi tadbirkorlar yangi texnologiya uchun o‘zlarining kapitalini yoki olgan qarz mablag‘larini tavakkal qiladilar. “Venchur” iborasi tadbirkor, rahbar yoki menejerning tavakkalchilikdagi uddaburonligi, epchilligi, serharakatligini, quntli, matonatligini, dadilligi, jasoratligini, jo‘shqin, biznesga berilib ketishini bildiradi.

Hozirgi zamon kompaniyalar faoliyatida ko‘pgina muammolarni hal etish gorizontal bo‘yicha kelishib olishni va muvofiqlashni talab etadi. Masalan, kompaniya yangi turdagi lizing xizmatlarini ko‘rsatishga o‘tadigan bo‘lsa, xizmat ko‘rsatishning yangi normasini ishlab chiqish, mehnat normalarini qayta ko‘rib chiqish, turli kasblardagi ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, yangi materiallarga, xizmatlarga erishishni aniqlash, yetkazib beruvchilar bilan aloqa o‘rnatish, yangi texnologiya va texnikani joriy etish va hokazolar talab qilinadi. Bularni mazmun va muddatlariga ko‘ra kelishib olish, ishlab chiqarishning ko‘pgina unsurlarini tutashtirish ishlarini turli xizmatlar bajaradi. Goho funksional xizmatlar o‘rtasidagi bu gorizontal aloqalar juda cho‘zilib ketadi, bahs va nizolar bilan amalga oshiriladi. Chiziqli struktura rahbari esa ko‘p sonli bo‘linmalar ishini muvofiqlashtirishga juda qiynaladi. Bu muammolarni yangi tashkiliy boshqaruv strukturalarni tuzish yo‘li bilan, aniqrog‘i, chiziqli-funksional boshqaruv strukturalarini tugatishlar kiritish yo‘li bilan hal etadi.

[61] N.Rahmatullayeva, A.Kamalov Ijtimoiy menejment Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2017.

Matritsaviy struktura boyicha boshqarish ancha murakkab bo‘lib, u mahsuloti nisbatan qisqa "umr" ko‘radigan va tez-tez o‘zgarib turadigan korxonalar tomonidan qo‘llaniladi. Bu struktura korxonada gorizontal aloqalarni yo‘lga qo‘yishga va ularni zamonaviy kompyuterlar yordamida murakkab buyurtmalarni bajaruvchi turli xil korxonalar faoliyati bilan bog‘lashga, texnika sohasida yuqori malakali xizmat ko‘rsatishga va ekspertizani ta’minlashga qaratilgan. Ushbu strukturani "To‘r" ko‘rinishda tasavvur etish mumkin. U ikki turdagi strukturaning, ya’ni funksional struktura, mahsulot bo‘yicha strukturalarning kombinatsiyasini ifodalaydi. Ko‘rib turibmizki, gorizontaliga funksional vazifalar (ishlab chiqarish, sotish, reklama va h.k.), vertikaliga esa texnologiya va boshqaruv sohasida yangiliklarni joriy etish bilan shug‘ullanuvchi maxsus guruhlar joylashgan. Mazkur strukturaga binoan bir vaqtning o‘zida to‘rtta yangi mahsulot bo‘yicha loyiha tuziladi. Har bir loyiha uchun alohida rahbar javob beradi. Guruhlarning to‘rttasi ham mahsulotni loyihalashdan to sotishgacha bo‘lgan jarayonda qatnashadi. Boshqarishning matritsali strukturasining mohiyati shundaki, unda har bir xodim ayni bir vaqtning o‘zida loyiha bo‘yicha boshqarishda, shuningdek, o‘zining funksional organida xizmatda bo‘ladi hamda ikki yoqlama bo‘ysunadi. Bu strukturaning o‘ziga yarasha afzalliklari bor. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: boshqarishi jarayonidagi gorizontal aloqalarni eng uzunligini keskin qisqartiradi va tartibga soladi, qarorlar qabul qilishni tezlashtiradi va ularning mazmuni hamda natijalari uchun mas’uliyatni oshiradi, korxonaning ichki hamda tashqi sharoitlariga ta’sir etuvchi omillarning o‘zgarishiga tezda ko‘nikma hosil qiladi, chiziqli bo‘ysunish vositasida bo‘lim ichida byurokratiyaga bo‘lgan moyillikni birqadar so‘ndiradi va h.k.

Shu bilan bir qatorda, bu strukturaga ham ayrim kamchiliklar xos. Bu uning murakkabligi va boshqaruv organlarining real vakolatga ega emasliklarida namoyon bo‘ladi. Bunday tushunmovchilik nafaqat rahbarlarni, shuningdek, ularning qo‘l ostidagi kishilarning ham noqulay holatga tushib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Oqilona boshqaruv tizimlarining shartlari yoki mezonlari sifatida quyidagilar namoyon bo‘ladi: a) boshqaruv bo‘g‘inlarining uning funksiyalariga mosligi; b) boshqaruv ierarxiyasida iloji boricha pog‘onalar sonining kamligi; d) ular bir pog‘onada barcha zarur boshqaruv funksiyalariga

diqqatni qaratish; e) funksional bo‘g‘inlarning funksional tarmoqlarga moslashishi; f) har bir funksional bo‘g‘inning yagona boshqaruv jarayonida ishtirok etish xarakterining aniq namoyon bo‘lishi; g) boshqaruvning har bir bo‘g‘inida jamoalar «kirish» va «chiqish» manbalari sonining eng kam bo‘lishi.

Menejmentning tashkiliy tuzilmasi boshqaruv tuzilmasi sxemasida, ish jadvallarida, tuzilmaviy bo‘linmalar to‘g‘risidagi holatlarda, shuningdek, bajargan ishlar uchun lavozim instruksiyalarida hujjatlashtiriladi.

5.2. Boshqaruv uslubi

Usul – bu tadqiqot qilish yoki ta’sir ko‘rsatish. Tadqiqot qilish nuqtayi nazaridan metod deganda, boshqaruv obyektini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan usullar, ya’ni sistema (tizim)li yondashuv, kompleksli yondashuv, tarkibiy yondashuv, integratsion yondashuv, modellashtirish, iqtisodiy-matematik yondashuv, kuzatish, eksperiment, sotsiologik kuzatuv kabi tahlilining ilmiy usullari tushuniladi.

Ta’sir ko‘rsatish jihatdan metod deganda esa boshqarish funksiyalarini amalga oshirish uchun boshqaruv obyektiga qanday tarzda ta’sir o‘kazish usullari tushuniladi. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

1) funksional tizimosti obyektlarni boshqarish usuli;
2) boshqarish funksiyalarini bajarish usullari;
3) boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari.

Har xil yondashuvlar, yo‘sinlar, yo‘llar yordamida amalga oshiriladigan turli-tuman boshqaruv ishlarining majmuasi boshqaruvning aniq va o‘ziga xos usullari deb yuritiladi. Boshqaruv usullari – bu xodimlarga va, umuman, ishlab chiqarish jamoalariga ta’sir ko‘rsatish usullari bo‘lib, bu usullar qo‘yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar hamda jamoalarning faoliyatini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqaruv uslubiyoti – bu boshqaruv jarayonida kelib chiqadigan muammolarni hal qilish usullari, yo‘llari majmuasidir.

Ish uslubi – bu boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish maqsadida rahbarning bo‘ysunuvchilarga aniq va nisbatan barqaror ta’sir ko‘rsatish usuli va yo‘llari majmuasidir. Masalan:

birinchidan, mamlakat boshqaruv organlarining ish uslubi;
ikkinchidan, vazirlik, qo'mita, hokimiyatlarning ish uslubi;
uchinchidan, sud, prokuraturalarning ish uslubi;
to'rtinchidan, korxona, sexlarning ish uslubi;
beshinchidan, ayrim rahbarlarning ish uslubi va h.k.

Boshqaruvning turli pog'ona va bosqichlarida turgan boshqaruv organlari va rahbarlarning ish uslublari har xildir. Shu nuqtayi nazardan ish uslubi g'oyat ko'p qirrali tushunchadir.

Rahbarning ish uslubi – boshqaruv jarayonida u yoki bu masalalarni hal qilishda uning o'ziga xos yondashishidir. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil etganda va qo'l ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda o'z vazifalariga muvofiq ish ko'radi.

Biroq har bir rahbar o'ziga xos ravishda boshqaruv jarayonida o'zi uchun mos bo'lgan o'z rahbarlik uslubini belgilaydigan usullar bilan harakat qiladi. Mutlaqo bir xil ikki kishi bo'lmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yo'q. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o'z qo'l ostidagilari bilan alohida o'zaro munosabatlarida tarkib topadi. Uslub boshqaruv organining intellektual salohiyatli sifatlari, uning individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Rahbarlik uslubi boshqarish metodlari bilan muayyan o'zaro aloqada bo'ladi. Boshqarish metodi ham boshqarish faoliyatini amalga oshirish usullari va yo'llari majmuasidan, boshqarish tizimiga samarali maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatilgan, ya'ni boshqarish funksiyalarini amalga oshirish mexanizmidan iborat. Lekin shuni e'tiborga olish lozimki, metod bu tamomila obyektiv rahbarga bog'liq bo'lmagan va mustaqil tashunchadir. Uslub ham ta'sir o'tkazish usullari majmuasidan iborat bo'lsada, metoddan farq qiladi u yoki bu rahbarning subyektiv, individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Avval ko'rib chiqilgan menejment tamoyillari turli uslublarni qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Boshqaruv uslubi – bu tashkilot qo'ygan maqsadlarga erishish uchun boshqarilayotgan obyektlarga ta'sir qilish usullari yig'indisi. «Uslub» so'zi yunoncha «method» so'zidan kelib chiqqan. Tarjimasi biror-bir maqsadga erishish usuli. Boshqaruv uslublari orqali boshqaruv faoliyatining asosiy mazmuni amalga oshiriladi. Boshqaruv uslublarini ifodalab, ularning yo'nalishi mazmuni va tashkiliy shaklini ochish kerak. Boshqaruv uslublari yo'nalishi boshqaruv tizimiga

qaratilgan bo‘lib, ta’sir qilish usullarining o‘ziga xosligidir. Tashkiliy shakli – aniq hosil bo‘lgan vaziyatga ta’sir qilish bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) yoki bilvosita ta’sir bo‘lishi mumkin. Boshqaruv amaliyotida turli uslublar va ularning qorishmasi (kombinatsiyasi)dan bir vaqtning o‘zida foydalaniladi. Barcha boshqaruv uslublari tashkiliy tomondan bir-birini to‘ldiradi, doimiy dinamik muvozanatda bo‘lishadi[62].

Boshqaruv uslublari yo‘nalishi doim bir xil – ular turli mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi odamlarga yo‘naltirilgan. Shundan kelib chiqish kerakki, boshqaruvning ma’lum uslubida ham mazmun, ham yo‘nalish, ham tashkiliy shakl ma’lum tarzda qorishtirilgan. Shuning uchun boshqaruvning quyidagi uslublarini ajratish mumkin:

– to‘g‘ridan-to‘g‘ri direktiv ko‘rsatmalarga asoslangan tashkiliy-ma’muriy uslub;

– iqtisodiy uslub;

– odamlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ko‘maklashuvchi ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik uslub;

– ijtimoiy tizimni o‘zini-o‘zi nazorat qilishi sifatliligi o‘z-o‘zini boshqarish uslubi.

Tashkiliy-ma’muriy usullar boshqarish usullari tizimida alohida o‘rin tutadi. Bu usullarga: boshqarish apparatining muayyan tuzilmasini tuzish, har bir boshqaruv bo‘g‘inining funksiyalarini belgilash, kadrlarni to‘g‘ri tanlash, buyruqlar, farmoyishlar va qo‘llanmalar chiqarish, ularning bajarilishini nazorat qilish topshiriqlar va direktiv ko‘rsatmalarni berayotgan bo‘linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarni qo‘llash kiradi.

Tashkiliy-ma’muriy usullar yuqori organlar hokimiyatiga va quyi organlarning bo‘ysunishiga asoslanadi. Shuning uchun ularni, ko‘pincha, ma’muriy usullar deb yuritiladi. Yuqori ma’muriy organlar boshqariluvchi obyektning bajarishi majburiy bo‘lgan qoidalarni ishlab chiqadilar, shuningdek, bo‘ysunuvchi organlarga farmoyishlar beradi. Shu yo‘l bilan tashkiliy usullar boshqarish tizimidagi ichki va o‘rtasida ongli aloqalarning tarkib topishiga yordam beradi. Bu metodlar boshqarish funksiyalari bajarilishining tashkiliy barqarorligini, intizomliligini, muvofiqliligini, uzluksizligini ta’minlaydi.

[62] Sh.R.Qobilov, Iqtisodiyot nazariyasi. – T., 2013.

Tashkiliy-ma'muriy usullar boshqaruv organlarining o'zaro bog'lanib ishlashini, boshqaruv munosabatlarini aks ettirib, boshqariluvchi obyektlarga ma'muriy ta'sir ko'rsatishning butun mexanizmini xarakterlaydi[63].

Shu bilan birga, ma'muriy yoki to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv metodi xo'jalik yurituvchi subyektning tanlash erkinligini cheklab qo'yadi, muayyan huquqiy doiralarini belgilaydi. Biroq rivojlangan bozor sharoitida ham boshqarishning ma'muriy usullari o'z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur bo'lganda ulardan foydalaniladi. Xususan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda ma'muriy usullar vositasida monopoliyaga qarshi siyosat amalga oshiriladi. Davlat bozorning monopollashtirilishiga to'sqinlik qiladigan ma'muriy cheklovlar tizimini belgilaydi. Monopol kompaniyalar faoliyatini direktiv yo'sinda boshqaradi.

Boshqarishning iqtisodiy usullari iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, har bir muayyan jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng avvalo, manfaatlar tarzida namoyon bo'ladi. Manfaatlar uch xilda bo'ladi: umumjamiyat manfaatlari, jamoa manfaatlari, shaxsiy manfaatlar.

Bu manfaatlarni uyg'un sur'atda bog'lab olib borish muammosi bir qator vazifalarni hal qilishni, har bir davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlar o'rnatishni talab qiladi. Masalan, bozor iqtisodiyoti sharoitida umumjamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida quyidagi iqtisodiy boshqaruv usullariga amal qilinadi: korxonalar va xo'jaliklarga faoliyat yuritishlariga erkinlik va mustaqillik berish, xo'jaliklarni pirovard natijalariga binoan moddiy rag'batlantirish, soliq imtiyozlarini berish, korxona va xo'jaliklar o'rtasidagi o'zaro shartnomalarning bajarilishi intizomini mustahkamlash va ularning rolini oshirish, moliya-kredit munosabatlarini takomillashtirish iqtisodiy boshqaruv usullarining asosiy vositasi ishlab chiqariladigan mahsulot (xizmat) birligiga sarflanadigan xarajatni kamaytirishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmlarining yangi usullarini, shuningdek, manfaatdorlik muhitini vujudga keltirish va ulardan samarali foydalanish. Bu usulda kishilarning shaxsiy va guruh manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi ta'minlanadi. Shu maqsadda qo'shimcha ish haqi to'lash, mukofotlar

[63] Sh.R.Qobilov, Iqtisodiyot nazariyasi. – T., 2013.

berish, bir yo'la katta pul bilan taqdirlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy islohotlar boshqarishning barcha islohotlari ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Har qanday darajadagi rahbar bu metodning mazmunini yaxshi bilishi va ularni to'g'ri qo'llay olish kerak.

Ijtimoiy-ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir. Bu usul ijtimoiy-ma'naviy vaziyatga ta'sir etish yo'li bilan kishilarning fe'l-atvori, ruhiyatini hisobga olib, ularning ijtimoiy (sotsial) talabini qondirish orqali boshqarishni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, sotsial-ruhiy metodlar ishlab chiqarish jamoalarini, ulardagi "psixologik iqlimni", har bir xodimning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga asoslangan usullardir.

O'z mohiyatiga ko'ra, boshqarish metodlarining bu guruhi jamoaning shakllanish va yuksalish jarayoniga kishilarning ongiga, ma'naviy manfaatlariga jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda ta'sir qiluvchi vositalarning majmuyidir.

Ijtimoiy-ruhiy metodlar "Boshqarish sotsiologiya"si va "Boshqarish psixologiyasi"ga asoslanadi.

Boshqarish sotsiologiyasi insonning ishlab chiqarish omillari bilan o'zaro aloqasi, jamoaning sotsial rivojlanishni rejalashtirish, mehnat jamoasini tarkib toptirish, xodimlarning tashabbusi va ijodiy faolligini oshirish kabi muhim muammolarni ko'rib chiqadi.

Boshqarish psixologiyasi kishilarning boshqarish faoliyatlari xususiyatlari va natijalarni aniqlashga xizmat qiladigan hodisalarni o'rganadi. U kadrlar tanlashda, ularni joy-joyiga qo'yishda, topshiriqlarni funksiyalarni taqsimlashda xodimlarni rag'batlantirishda, intizomni mustahkamlashda va hokazolarda nomlanadi.

Psixologiya insonning ruhiyatini o'rganuvchi fandir. Inson ruhiyatiga esa sezish, idrok qilish, tasavvur, tafakkur, tassarruf jarayonlari, xotira, diqqat, e'tibor, iroda, shuningdek inson shaxsining ruhiy xususiyatlari, chunonchi, qiziqish, qobiliyat, xarakter va mijoz kiradi.

Sotsial psixologiya – bu kishilar va jamoa faoliyati psixologik va sotsial omillarning o'zaro aloqasi qonunlarini, turli sotsial guruhlar xususiyatlarini, jamoa muloqoti va o'zaro ta'sir ko'rsatish shakllarini o'rganadigan psixologiya fanining sohasidir[64].

[64] Sh.R.Qobilov, Iqtisodiyot nazariyasi. – T., 2013.

Boshqarishning ijtimoiy-ruhiy usullari quyidagi muammolarni yechishga qaratilgan:

1. Kishilarning ijtimoiy-ruhiy xususiyatlari, chunonchi, qobiliyatlari, mijozlari, harakatlari va hokazolarni hisobga olgan holda mehnat jamoalarini tashkil toptirish. Buning natijasida jamoani rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida birgalikda ishlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

2. Ijtimoiy yurish-turish normalarini o'rnatish va rivojlantirish. Shu jumladan, yaxshi va namunali an'analarni qo'llab-quvvatlash va sotsialistik urf-odatlarni joriy etish jamoa ongining o'sishiga yordam beradi.

3. Sotsial rivojlantirishni va kishilarning intilishini, tashabbusini rag'batlantirish, umumiy ta'lim darajasini oshirish, madaniy, namunaviy va ma'rifiy o'sish, malaka oshirish, estetik ravnaq va mehnatga ijodiy munosabat va h.k.

4. Kishilarning madaniy va sotsial-maishiy ehtiyojlarini qondirish, chunonchi uy-joylar, bolalar bog'chalari, klublar, profilaktoriyalar sport inshootlari va hokazolarni qurish.

5. Mehnat jamoalarida talabchanlik o'zaro yordam, intizomni buzuvchilarga murosasizlikdan iborat sog'lom ijtimoiy psixologik muhitni vujudga keltirish va uni qo'llab-quvvatlash.

6. Odamlarning o'z mehnatidan tanlagan mutaxassisligi va kasbidan mamnun bo'lishlari, ishlab chiqarish samaradorligi va ish sifatini oshirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Bu muammolarning yechimi boshqarishning yanada uyushqoq samarali bo'lishini talab qiladi.

Sotsial tadqiqot usullarini o'tkazish zaruriyati shundan iboratki, buning uchun boshqarish obyektining holati to'g'risida keng axborotga ega bo'lish kerak. Bunday axborot olish uchun jamoada bevosita sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish lozim.

Umumiy holda boshqaruv ta'siri uslublarini ikki guruhga ajratish mumkin: asosiy va majmuaviy. Asosiylariga boshqaruv uslublari talablarini u yoki bu obyektiv qonunlarga mosligi belgilari bo'yicha mazmun jihatlari yaqqol ko'rinadiganlar kiradi (masalan, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik). Asosiy uslublarning qorishmasi ijtimoiy boshqaruvning majmuaviy yoki murakkab uslublariga kiradi.

Mazmuni bo'yicha ijtimoiy boshqaruv uslublari ijtimoiy rivojlanishning turli obyektiv qonunlari talablarini aks ettiradi: iqtisodiy, tashkiliy-texnik, demografik, sotsiologik, psixologik va h.k. Shuning uchun iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik boshqaruv uslublari ajratiladi.

Boshqaruvning ijtimoiy uslublari jamiyatning ijtimoiy maqsadlariga erishishning nafaqat inson xulqining iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy uslublari bilan bog'liq, balki bevosita - ijtimoiy maqsadlarni qo'yish, turmush sifatini oshirish, ijtimoiy tashkilotlarni mustahkamlash, jamiyatning ijtimoiy yetukligini oshirish bilan ham bog'liq. Ijtimoiy uslublar asosiy hisoblanib, majmuaviy tarzda ham namoyon bo'ladi.

5.3. Menejmentning ijtimoiy uslublari

Menejmentning ijtimoiy uslublari ijtimoiy me'yordagi ijtimoiy nazorat ma'naviy rag'batlantirishning keng spektrini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy me'yorlash uslublari turli ijtimoiy guruhlar, jamoalar va alohida ishlovchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga imkon beradi. Ijtimoiy-siyosiy uslublar ijtimoiy ta'lim va ishlovchilarni ijtimoiy boshqaruvda ishtirok etishga jalb qilishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy me'yorlarning aniq uslublariga ichki mehnat intizomi qoidalari, firma ichidagi axloq qoidalari kiradi. Ijtimoiy nazorat uslublari ijtimoiy munosabatlarni va manfaatlarni namoyon qilish va nazorat etish yo'li bilan tartibga solish uchun qo'llaniladi. Ma'naviy rag'batlantirish uslublari kasbiy faoliyatda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishgan jamoalar, guruhlar, alohida ishlovchilarni rag'batlantirish uchun qo'llaniladi.

Boshqaruvning ijtimoiy uslublari jamoaning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga, uning ichida sodir bo'ladigan jarayonlarga ta'sir etishning ijtimoiy-psixologik uslublaridan iborat. Mazkur uslublar tarkibida rasmiy va norasmiy guvohlar, shaxs roli va maqomi o'zaro munosabatlari tizimi ijtimoiy ehtiyojlar va boshqa ijtimoiy-psixologik jihatlari bo'lgan jamoalarda amal qiluvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmning qo'llanishiga asoslanadi. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari, birinchi navbatda, ta'sir yo'nalishini aniqlovchi tavsifi bilan farqlanadi. Rag'batlantirish usullari orasida quyidagilar ajratiladi: tushuntirish, ko'ndirish, taqlid qilish, qiziqtirish,

majburlash va boshqalar. Inson omilining o'sib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash ijtimoiy-psixologik uslublarni qo'llashning maqsadi hisoblanadi[65].

Boshqaruvning psixologik uslublari personalni oqilona tanlash va joylashtirish yo'li bilan odamlar orasidagi munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan. Ularga kichik guruhlarni to'ldirish, mehnatni yaxshilash, kasb tanlash va o'qitish uslublari kiradi. Kichik guruhlarni to'ldirish uslublari ishlovchilar o'rtasidagi maqbul miqdori va sifat munosabatlarini aniqlashga imkon beradi. Mehnatni yaxshilash uslublariga yorug'lik, musiqa psixologik ta'sirini qo'llash, ijodiy jarayonlarni kengaytirish va boshqalar kiradi.

Umuman olganda, ijtimoiy va psixologik uslublarga ijtimoiy rivojlanish qonunlari hamda psixologik qonunlariga tayanadigan boshqaruv ta'siri usullari kiradi. Bu yerda ijtimoiy va psixologik jarayonlar ta'sir obyekti hisoblanadi.

Boshqaruvning iqtisodiy uslublari iqtisodiy qonunlar talablarini amalga oshirish asosida boshqaruvning iqtisodiy maqsadlariga erishish usullaridan iborat. Zamonaviy menejmentning iqtisodiy uslublari deganda, barcha iqtisodiy qonunlar va bozor iqtisodiyoti kategoriyalari tizimidan foydalanishga asosalangan iqtisodiy hisobkitob tushuniladi.

Boshqaruvning ko'pgina iqtisodiy uslublari ichida masalan, iqtisodiy rag'batlantirish uslublarini ajratish mumkin. Iqtisodiy rag'batlantirish ishlovchilarning iqtisodiy manfaatlariga asoslangan boshqaruv uslubidan iborat. Uning asosini korxona va tashkilotlarning shuningdek, har bir ishlovchi daromadlarining shakllanishi tashkil etadi.

Iqtisodiy rag'batlantirish tizimi personal va har bir ishlovchining iloji boricha yuqori foyda olishga qiziqishining ortishiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yig'indisidir.

Iqtisodiy rag'batlantirish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan:

– iqtisodiy rag'batlantirish maqsadlarining tashkilot rivojlanishi maqsadlariga mos kelishi va o'zaro aloqasi;

– ishlab chiqarish tuzilmasida zarur o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy rag'batlantirish farqlanishi;

[65] Sh.R.Qobilov, Iqtisodiyot nazariyasi. -T., 2013.

– iqtisodiy rag‘batlantirishning boshqa rag‘batlantirish uslublari bilan qorishmasi;

– tashkilot va alohida ishlovchilar moddiy mas’uliyatini ko‘zda tutuvchi iqtisodiy sanksiyalar bilan iqtisodiy rag‘batlantirishning qorishmasi.

Tashkiliy-ma’muriy uslublar hokimiyat, intizom va mas’uliyatga asoslanadi. Tashkiliy-ma’muriy ta’sir quyidagi asosiy ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

1) majburiy xarakterga ega bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’muriy ko‘rsatma. Ular aniq boshqariluvchi obyektlarga yoki shaxslarga mo‘ljallangan, aniq hosil bo‘lgan holatga ta’sir etadi;

2) qo‘l ostidagilar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarni o‘rnatish;

3) tashkiliy-ma’muriy ta’sirga layoqatli u yoki bu jarayonlarni tashkil etish va mukammallashtirish bo‘yicha maslahatlarni ishlab chiqish va joriy etish;

4) tashkilot va alohida ishlovchilar faoliyati ustidan kuzatuv va nazorat.

Tashkiliy-ma’muriy uslublar uchta asosiy guruhga ajratiladi:

– tashkiliy-muvozanatlovchi. Mazkur uslublarga reglamentlash, me’yorlashtirish va instruksiyalash kiradi;

– ko‘rsatmali ta’sir. Ular o‘rnatilgan tashkiliy aloqalardan joriy foydalanishni va ish sharoitlari o‘zgarganda ularni qisman to‘g‘rilashni aks ettiradi. Ko‘rsatmali ta’sir asosida vakolat va majburiyatlar yotadi. Mazkur uslublarga qarorlar, buyruqlar, ko‘rsatmalar, rezolyusiyalar kiradi;

– intizomiy ta’sir. Ular tashkiliy aloqalar muvozanatini intizomiy talablar va mas’uliyatlar tizimi vositasida ushlab turishga mo‘ljallangan.

Menejmentning tashkiliy-ma’muriy uslublarining barcha uchta guruhi ham alohida, ham birgalikda bir-birini to‘ldirib ishlatiladi. Umuman olganda, boshqaruvning tashkiliy-ma’muriy uslublaridan foydalanishning obyektiv asosi boshqaruv mexanizmining bir qismini tashkil etuvchi tashkiliy munosabatlar hisoblanadi. Ular orqali boshqaruvning muhim funksiyalaridan biri – tashkil etish funksiyasi amalga oshirilgani uchun tashkiliy-ma’muriy faoliyatning vazifasi qo‘l ostidagilarga xatti-harakatlarini tartibga solishdan iborat.

Ma'muriy boshqaruv o'zining yetishmovchiliklari uchun tez-tez va ba'zan haqli ravishda tanqid qilinadi[66].

Lekin shuni esda tutish kerakki, jamoat ishining aniqligi, intizomini va tartibini ta'minlovchi tashkiliy-ma'muriy ta'sirsiz hech qanday iqtisodiy uslublar amal qila olmaydi. Tashkiliy-ma'muriy uslublar asosan rahbar hokimiyatiga asoslanadi. Bu yerda rahbar unga berilgan huquqqa tayanuvchi hokimiyat subyekti, ma'mur sifatida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy-ma'muriy uslublar boshqarilayotgan obyektga yozma yoki og'zaki beriladigan tezkor ko'rsatmalar, buyruqlar orqali to'g'-ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Ular mehnat intizomi va tashkiliy aniq-likni ta'minlashi zarur. Bu uslublar mehnat va xo'jalik qonunchiligi, ijtimoiy nazorat huquqiy aktlari bilan reglamentlanadi.

Aniq tashkilot doirasida quyidagi tashkiliy-ma'muriy ta'sir ko'r-satishni qo'llash mumkin:

1) majburiy yozuv (buyruq, taqiqlov);

2) rozilik shakllari (maslahat, kompromis);

3) istaklar, xohishlar (tushuntirish, taklif, hukm qilish).

Zamonaviy boshqaruv tizimining asosiy vazifalaridan biri boshqarilayotgan tizim imkoniyatlarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Bu imkoniyatlar turli o'z-o'zini bosh-qarish subyektlarining huquq va mas'uliyatini kengaytiruvchi bosh-qaruv ta'sirining turli uslublaridan foydalanish evaziga vujudga keladi.

Ijtimoiy-psixologik usullar. Ma'lumki, mehnat natijalari ko'p jihatdan bir qator psixologik omillarga bog'liq. Bu omillarni hisobga ola bilish va ular yordamida ayrim xodimlarga maqsadga muvofiq holda ta'sir etish rahbarga yagona maqsadni va vazifani ko'zlovchi jamoani shakllantirishda yordam beradi. Mehnat jamoalarini tashkil qilish va rivojlantirishning muhim shartlaridan biri psixofiziologik mos egiluvchanlik tamoyiliga amal qilishdir[67].

Boshqaruvda ijtimoiy va psixologik jihatlarga yetarlicha e'tibor berilmasa, jamoada nosog'lom munosabatlar vujudga keladi, bu o'z navbatida, mehnat unumdorligini pasaytiradi. Jamoaga sezilarli ta'sir o'tkazish uchun faqat ayrim ishchilarning ma'naviy va ruhiy xususi-

[66] Sh.R.Qobilov, Iqtisodiyot nazariyasi. – T., 2013.

[67] N.Rahmatullayeva, A.Kamalov Ijtimoiy menejment Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2017.

yatlarini, ayrim guruh va jamoaning ijtimoiy-sotsiologik tavsiflarini bilish bilan cheklanmay, boshqaruv ta'sirini ham amalga oshirish kerak. Bu maqsadda mehnat jamoasida yuzaga keladigan shaxsiy munosabatlar va aloqalarga, shuningdek, ularda kechadigan ijtimoiy jarayonlarga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatish majmuasidan iborat bo'lgan ijtimoiy-psixologik usullar qo'llaniladi. Ular mehnatni ma'naviy rag'batlantirishga asoslangan bo'lib, shaxsga psixologik yo'llar bilan ma'muriy topshiriqni anglangan vazifaga, insonning ichki ehtiyojiga aylantirish maqsadida ta'sir ko'rsatadi. Bunga shaxsiy xarakterga ega bo'lgan yo'llar (shaxsiy namuna, avtoritet va boshqalar) orqali erishiladi.

Bu usullarni qo'llashdan asosiy maqsad — jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish bo'lib, uning yordamida tarbiyaviy, tashkiliy va iqtisodiy masalalar hal qilinadi.

Jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim — bu jamoa a'zolari orasida ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha, shuningdek, ishlab chiqarishdan tashqarida yuzaga kelgan ma'naviy-axloqiy aloqalar tizimidir. Psixologik iqlim mojaroli holatlar yoki mojarolar soni ko'rinishidagi ko'rsatgich bilan baholanishi mumkin[68].

Mojaro — bu maqsadlar, unga erishish yo'llari va usullari to'g'risidagi, vazifalar xarakteri va ularni hal qilish yo'llari to'g'risidagi va shunga o'xshash boshqa masalalarda tasavvurlarning tark etishi tufayli tomonlarning, fikrlarning, kuchlarning ochiqchasiga to'qnashishidir.

Jamoaga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi — ishontirishdir. Rahbar ishontirayotganida inson tabiatini va birgalikda faoliyat yuritish jarayonida insoniy munosabatlarni to'la hisobga olishi kerak. Rahbar tomonidan shaxsning biologik tabiatini va ichki dunyosini tushunish unga jamoani jipslashtirish va faollashtirish shakllarining eng samaralisini tanlashga yordam beradi. Ishchilarning o'zaro munosabatlari, ularning mehnat vositalariga va atrof-muhitga munosabatlari mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik rahbarlik obyekti sanaladi.

Ijtimoiy-psixologik ta'sirning asosiy shakllari sifatida quyidagilarni qo'llash mumkin: mehnat jamoalarini ijtimoiy rivojlantirishni rejalashtirish, shaxsni tarbiyalash va shakllantirish usuli sifatida ishontirish, iqtisodiy musobaqa, tanqid va o'zini-o'zi tanqid, boshqaruv usuli sifatida va ishchilarning boshqaruvda ishtirok etish shakli

[68] Sh.R.Qobilov, Iqtisodiyot nazariyasi. -T., 2013

sifatida doimiy o'tkaziladigan ishlab chiqarish yig'ilishlari, turli marosimlar.

Ijtimoiy menejment mohiyati uning tizimi tuzilmasini aniqlaydi. U quyidagilardan iborat: boshqaruv subyektlari, boshqaruv obyektlari, boshqaruv jarayoni va boshqaruv tizimi mexanizmlari. Boshqaruv subyektlariga aholi, hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, jamiyatning fuqarolik institutlari, menejment instituti kiradi. Boshqaruv obyektlariga esa ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy resurslar kiradi[69].

Ijtimoiy menejment mexanizmlari ijtimoiy maqsadlilik, boshqaruv uslublari (iqtisodiy, ma'muriy-tashkiliy, yuridik, ilmiy va boshqalar)ga yo'naltirilgan. Ular orasida butun boshqaruv ta'sirlari tizimida birlashtiruvchi bo'lgan ijtimoiyliklar alohida ajratiladi. Ularga mehnatga munosabat, inson xulq-atvori bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisi kiradi. Boshqaruv jarayoni va ijtimoiy menejment tizimi mexanizmi ijtimoiy tashxis, axborotni yig'ish, tahlil qilish va saqlash, ularni boshqaruv subyektlariga uzatish va boshqaruvning turli darajalarida ijtimoiy me'yorlar bo'yicha boshqaruv subyektlari faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uslublaridan iborat.

Ijtimoiy maqsadlarni yanada samaraliroq amalga oshirish va ijtimoiy menejment tamoyillarini amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy uslublarni qo'llash muhim:

– ijtimoiy loyihalashtirish va dasturlash;

– zamonaviy hisoblash vositalari, birinchi navbatda, kompyuter texnikasi asosida ijtimoiy axborotni yig'ish va tahlil qilish, ularni qayta ishlash va saqlashda matematik uslublardan foydalanish;

– odamlarni mehnatga, hayotga, maqsadga muvofiq xulq-atvorga jamiyatga rag'batlantirishni yaratish. Shaxsning, shuningdek, menejerlarning hayot kuchini follashtirishga mo'ljallangan psixologik ta'sir (maxsus treninglar va o'yin uslublari).

– ijtimoiy boshqaruvning kundalik va istiqboldagi muammolariga yaroqli fundamental fanlar, kibernetika, energetika va boshqa sohalarda, tadqiqotlarda olingan bilimlardan foydalanish.

Ijtimoiy menejment tizimi doirasida yechiladigan muammolar majmuyiga faqatgina tizimli yondashuv, uning nazariyasi va amaliyotini bugungi kunda ijtimoiy boshqaruv oldida turgan vazifalar

[69]N.Rahmatullaeva, A.Kamalov Ijtimoiy menejment Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2017

darajasiga ko‘tara oladi. Aynan shuning uchun ham ijtimoiy menejment sohasidagi bo‘lajak mutaxassislar har bir o‘rganilayotgan fanda muammoni hal qilish va uni yechish uslublarini qidirishning ijtimoiy jihatlarini qidirishlari kerak.

5.4. O‘z-o‘zini boshqarish

O‘z-o‘zini boshqarish muammosini o‘rganishda qator savollar paydo bo‘ladi: o‘z-o‘zini boshqarishni qanday tushunish kerak va uni namoyon bo‘lishining ichki va tashqi shakllari qanday? Zamonaviy sharoitlarda o‘z-o‘zini boshqarishning rivojlanish darajasi qanday? Rejalashtirish tizimi, tashkiliy tuzilma, xo‘jalik hisobi munosabatlari o‘z-o‘zini boshqarishning rivojlanganlik darajasiga qanday bog‘liq?

O‘z-o‘zini boshqarish insonning, mehnat jamoasi boshqaruv faoliyatining obyektidan uning subyektiga aylanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bu boshqaruvni tashkil qilishning alohida varianti bo‘lib, bunda uning har bir ishtirokchisi unga berilgan vakolatlar doirasida masalalarini o‘zi hal qiladi.

Yangi xo‘jalik mexanizmi ijtimoiy tashkil etishning turli bosqichlarida o‘z-o‘zini boshqarishning o‘rnatilishi va rivojlanishi kafolatini ko‘zda tutadi.

Bozor tuzilmalarida o‘z-o‘zini boshqarish xarakteri uning namoyon bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z-o‘zini boshqarishning rivojlanishi va mukammallanishi uchun ko‘maklashadi. Chunki ishlab chiqarish jarayoni har bir ishtirokchisining shaxsiy iqtisodiy va ijtimoiy manfaati tashkilotni boshqarish samaradorligiga bog‘liq. Jamoaviy moddiy va ma’naviy manfaatdorlik barcha boshqaruv subyektlarini jamiyat faoliyatining barcha jabhalarida, jamoatchilik asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishda qatnashishga chorlaydi. Mehnat va iste’mol ustidan nazorat va hisob-kitobni o‘tkazishda ishtirok etish, tovar-moddiy qimmatliklarni saqlash majburiy bo‘lib qoladi. Shunday qilib, nazorat funksiyasi o‘z-o‘zini nazorat qilishga aylanadi[70].

O‘z-o‘zini boshqarish nafaqat boshqaruv subyekti tomonidan u yoki bu qarorlarni mustaqil qabul qilishni, balki ularning bajarilishini

[70] N.Rahmatullayeva, A.Kamalov Ijtimoiy menejment Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2017.

ham nazarda tutadi. Undan tashqari jamoaning har bir a'zosi qarorlarning bajarilishi yuzasidan shaxsiy mas'uliyat his qiladi.

O'z-o'zini boshqarish faqat har bir ishchi yoki mehnat jamoasi o'zini mulk subyekti sifatida iqtisodiy sharoitlardagina amalga oshirish mumkin. O'z-o'zini boshqarish sharoitlarida mehnat bilan boshqaruv mulkiy munosabatlar orqali birlashadi. Chunki ularning amalga oshishining iqtisodiy shakli bo'lib korporatizm hisoblanadi. Lekin korporativ o'z-o'zini boshqarish katta mehnat bilan amalga oshiriladi. Jarayonning sekinlashuvida, umumiy sabablari bilan bir qatorda, mehnat jamoalari ichida individual sabablar ham mavjud. Undan tashqari, amalda mustaqillik va o'z-o'zini boshqarish orasidagi munosabatni aniqlash mushkul.

Jamoa ishtirokidagi boshqaruv tahlili shuni ko'rsatdiki, ishlovchilarning bir qismi boshqaruv bilan faol shug'ullanadi, qolgan qismi (ko'pchiligi) esa sust. Mehnat jamoasi yetarlicha miqdorda axborotga ega bo'lmay turib, nafaqat boshqaruv qarorlari qabul qilish, balki ularni tayyorlash va amalga oshirishda qatnashish nazorat funksiyasini sifatli bajarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashadi, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi hukumatining xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtiradi.

O'zini o'zi boshqarish organlari hududiy prinsip bo'yicha tuziladi. Ular ish olib boradigan hududlarni fuqarolarning takliflariga ko'ra tuman, shahar hokimi belgilaydi, ushbu qaror keyinchalik tegishli xalq deputatlari kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolarning yig'ini (yig'ilishi):

– o'zini o'zi boshqarish organining faoliyat dasturi hamda xarajatlar smetasi, aholi punktlarini obodonlashtirish va sanitariya holatini yaxshilashga doir tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

– rais (oqsoqol) va uning maslahatchilari ishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi har yili ularning hisobotlarini tinglaydi;

– o‘z hududidagi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun aholining, tashkilot va muassasalarning mablag‘larini ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

– pul mablag‘lari sarflanishi ustidan nazorat qilishni tashkil etadi, zarur bo‘lganida taftish komissiyasi tuzadi va ushbu komissiya to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlaydi;

– qonunlarda tasdiqlangan tartibda o‘z hududida kichik korxonalar, kooperativlar, ustaxonalar, xalq hunarmandchiligi sohalarini tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqadi;

– yig‘inning, ma’muriy-hududiy tuzilmalarning chegaralarini o‘zgartirishga, ko‘cha, maydon va boshqa joylarning nomini o‘zgartirishga doir masalani ko‘rib chiqadi hamda tegishli davlat organlariga takliflar tayyorlaydi;

– O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Shunday qilib, bozor munosabatlariga o‘tish davrida, tashkiliy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda demokratiyalashtirish va o‘z-o‘zini boshqarish muammolari birinchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Mehnat jamoasi tashkilotning o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga kirgandagina o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyati tug‘iladi. Umuman, odamlarni majmuaviy rag‘batlantirish texnikasi uchta asosiy guruh usullaridan iborat:

1. Ishlovchilarga yo‘naltirilgan usullar. Ularga quyidagilar kiradi:

a) ishlovchi oldiga aniq maqsadlarni qo‘yish (masalan, ishlab chiqarish me’yorini oshirgan ishchilarga mukofotlar to‘lanadi);

b) xulq-atvor modifikatsiyasi (inson xulq-atvorini yaxshilash maqsadida mukofot va jazo qo‘llash);

d) qayta tayyorlash (istiqbolli mutaxassislarni tashkilot hisobidan o‘qitish).

2. Ishga yo‘naltirilgan usullar. Bular:

a) ish joylarini mukammallashtirish va ishlovchilar faoliyati sohasini kengaytirish;

b) egiluvchan ish grafigi (bunday ish rejimida ishlovchi, ish boshlash va tugatish vaqtini mustaqil rejalashtiradi);

d) uy ofislari va telekommunikatsiyani tashkil etish (ofisga ulangan telefon, kompyuter yoki faksda uyda ishlash);

e) ishdan bo‘shatishlar sonini kamaytirish uslublari sifatida ish vaqtini qisqartirish va funksional og‘irlikni bo‘lish.

3. Tashkilotga yo‘naltirilgan usullar. Ularga quyidagilar kiradi:

a) xizmatchilar vakolatlarini kengaytirish (ishlovchilarga tashkilotning kundalik ishlarida qatnashish uchun keng imkoniyatlar berish);

b) maqsadlarga erishishda ishtirok etish (jamoa ishining muvaffaqiyatli natijalari uchun muntazam pul mukofotlari olish).

Ijtimoiy menejment usullari mohiyati. Boshqaruv ta’siri usullari yig‘indisida ularning o‘rni va roli. Har xil yondashuvlar, yo‘sinlar, yo‘llar yordamida amalga oshiriladigan turli-tuman boshqaruv ishlarining majmuasi boshqaruvning aniq va o‘ziga xos usullari deb yuritiladi.

Boshqaruv usullari – bu xodimlarga va umuman ishlab chiqarish jamoalariga ta’sir ko‘rsatish usullari bo‘lib, bu usullar qo‘yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Boshqaruv uslubi – bu boshqaruv jarayonida kelib chiqadigan muammolarni hal qilish usullari, yo‘llari majmuasidir. Ish uslubi – bu boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish masqadida biror-bir organning yoki rahbarning bo‘ysunuvchilarga aniq va nisbatan barqaror ta’sir ko‘rsatish usuli va yo‘llari majmuasidir. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil etganda va qo‘l ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda u o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. O‘z-o‘zini boshqarish – ijtimoiy menejmentning eng samarali usullaridan biri. Turli usullarni birlashtirish zarurati – ijtimoiy menejment tamoyili.

Xulosalar

Tadqiqot qilish nuqtayi nazaridan metod deganda, boshqaruv obyektini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan usullar, ya’ni sistema (tizim)li yondashuv, kompleksli yondashuv, tarkibiy yondashuv, integratsion yondashuv, modellashtirish, iqtisodiy-matematik yondashuv, kuzatish, eksperiment, sotsiologik kuzatuv kabi tahlilining ilmiy usullari tushuniladi.

Boshqaruv usullari – bu xodimlarga va umuman ishlab chiqarish jamoalariga ta’sir ko‘rsatish usullari bo‘lib, bu usullar qo‘yilgan maq-

sadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqaruv uslubi – bu boshqaruv jarayonida kelib chiqadigan muammolarni hal qilish usullari, yo‘llari majmuasidir.

Boshqarish metodi ham boshqarish faoliyatini amalga oshirish usullari va yo‘llari majmuasidan, boshqarish tizimiga samarali maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatilgan, ya’ni boshqarish funksiyalarini amalga oshirish mexanizmidan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar

Usul, tadqiqot qilish, ta’sir ko‘rsatish, boshqaruv obyekti, sistema (tizim)li yondashuv, kompleksli yondashuv, tarkibiy yondashuv, integratsion yondashuv, modellashtirish, iqtisodiy-matematik yondashuv, kuzatish, eksperiment, sotsiologik kuzatuv, tashkiliy-ma’muriy usullar, boshqarish usullari, boshqarish apparati, tuzilma tuzish, boshqaruv bo‘g‘ini, kadrlarni to‘g‘ri tanlash, buyruqlar, farmoyishlar, qo‘llanmalar, direktiv ko‘rsatmalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Ijtimoiy menejment uslubi» tushunchasi mazmunini ochib bering.
2. Umumiy boshqaruv tizimida ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik uslublarning ahamiyati qanday?
3. Nima uchun turli boshqaruv uslublari yig‘indisidan foydalanish muhim?
4. Boshqaruv usullari, boshqaruv uslubi rahbarning ish uslubi deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday boshqaruv uslublarini qo‘llash orqali bugungi kunda odamlarni mehnatga rag‘batlantirish amalga oshiriladi?

TESTLAR

1. Usul – bu...

A. Tadqiqot qilish
B. Ta'sir ko'rsatish
C. Tadqiqot qilish yoki ta'sir ko'rsatish
D. To'g'ri javob yo'q

2. Boshqaruv uslubi – bu boshqaruv ... kelib chiqadigan muammolarni hal qilish usullari, yo'llari majmuasidir.

A. Jarayonida
B. Natijasida
C. A va B javoblar to'g'ri
D. To'g'ri javob yo'q.

3. Ish uslubi – bu boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish maqsadida rahbarning bo'ysinuvchilarga aniq va ... barqaror ta'sir ko'rsatish usuli va yo'llari majmuasidir.

A. Nisbatan
B. Ma'nan
C. Jismonan
D. A va B javoblar to'g'ri

4. Uslub ham ... usullari majmuasidan iborat bo'lsada, metoddan farq qiladi u yoki bu rahbarning subyektiv, individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

A. Ta'sir o'tkazish
B. Boshqarish
C. Rahbarlik qilish
D. Ishlab chiqarish

5. Ijtimoiy-ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir. Bu usul ijtimoiy-ma'naviy vaziyatga ..

A. Jamoalarga sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir
B. Jamoalarga sog'lom iqtisodiy-ruhiy muhitni yaratishdir
C. Jamoalarga sog'lom jismoniy-ruhiy muhitni yaratishdir

D. Jamoalarga sog‘lom ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratishdir.

6. Umumiy holda boshqaruv ta’siri uslublarini nechta guruhga ajratish mumkin?

A. Ikkita
B. Uchta
C. To‘rtta
D. Beshta

7. Ijtimoiy-ruhiy metodlar “...“ga asoslanadi.

A. ”Boshqarish sotsiologiyasi”
B. ”Boshqarish psixologiyasi”
C. ”Boshqarish sotsiologiyasi” va “Boshqarish psixologiyasi”
D. To‘g‘ri javob yo‘q.

8. Boshqarish psixologiyasi ... boshqarish faoliyatlari xususiyatlari va natijalarni aniqlashga xizmat qiladigan hodisalarni o‘rganadi.

A. Kishilarning
B. Korxonalarning
C. Shaharlarning
D. To‘g‘ri javob yo‘q.

9. Zamonaviy boshqaruv tizimining asosiy vazifalaridan biri boshqarilayotgan tizim imkoniyatlarini amalga oshirish uchun qulay ... yaratishdan iborat.

A. Sharoitlar
B. Imkoniyatlar
C. Muhit
D. Vaziyat

10. O‘z-o‘zini boshqarish insonning, mehnat jamoasi boshqaruv faoliyatining ... aylanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

A. Obyektiga
B. Subyektiga
C. Obyektidan uning subyektiga
D. To‘g‘ri javob yo‘q

6-BOB. MAKROIQTISODIY MUVOZANATNING KLASSIK VA KEYNSCHA MODELLARI TAHLILI

6.1. Makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi

Klassik maktab namoyondalari bozorlar va baholarning umumiy muvozanati nazariyasini yaratdilar. Ularning umumiy muvozanat konsepsiyasiga ko'ra iqtisodiyotda faqatgina to'liq bandlilik sharoitidagi muvozanat mavjud bo'lishi mumkin. Bunday xulosa J.B.Seining bozorlar qonuniga tayanadi. Bu qonunga ko'ra, mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiyotda har bir subyektning ishlab chiqarishi bir vaqtning o'zida boshqa subyektlarning ishlab chiqarish natijalariga talab hisoblanadi.

Oxir-oqibat yalpi talab yalpi taklifga teng bo'ladi. Klassik iqtisodchilar fikriga ko'ra, AD ≠ AS holati ro'y bermaydi, umumiy xarajatlar miqdori etishmay qolgan, ya'ni AD < AS holati ro'y bergan sharoitda ham baho, ish haqi hamda foiz stavkasi kabi dastaklar ishga tushadi va natijada xarajatlar miqdorining kamayishi ishlab chiqarishning real hajmi, bandlik va real daromadlar miqdorining kamayishiga olib kelmaydi.

Makroiqtisodiy muvozanatning klassik modeli ishlab chiqarish hajmi resurslarning bandliligi va ishlab chiqarish texnologiyalarining funksiyasi hisoblanadi va egiluvchan baholar mexanizmi tomonidan potensial darajada tutib turiladi degan shartlarga tayanadi. Egiluvchan baholar mexanizmi hisobiga bozor iqtisodiyoti barcha mavjud resurslarning to'liq bandligini ta'minlab turadi[71].

Klassik makroiqtisodiy muvozanat modelining o'ziga xos xususiyati pulning neytralligi prinsipini ko'zda tutishidir. Bu model pul massasi real ishlab chiqarishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi degan prinsipga asoslanib tuziladi. Klassiklar modelida pul, bozor agentlariga faqatgina bitimlarga xizmat qilishi, ya'ni oldi-sotdi jarayonida sof texnik vazifalarni bajarishi uchungina kerak. Bu asosga ko'ra klassiklar tomonidan klassik dixotomiya konsepsiyasi shakllantirilgan. Klassik dixotomiya konsepsiyasida – ikki parallel bozor, real va pul bozori alohida-alohida amal qiladi, ular o'rtasidagi muvozanat

[71] D.Q.Axmedov va boshqalar. Makroiqtisodiyot, darslik. –T., 2004.

avtomatik barqarorlashtirgichlar orqali ta'minlab turadi deb hisoblanadi.

Pul bozori investitsiya va jamg'armalar tengligini hamda to'liq bandlik sharoitini ta'minlaydi. Faqatgina, ishsizlikning tabiiy darajasida «ixtiyoriy» ishsizlik bo'lishi mumkin, deb hisoblashadi. Bu shuni bildiradiki, AD va AS ning muvozanat nuqtasida ishlab chiqarish hajmi (Y) uning potensial hajmiga esa (Y*) teng.

Iqtisodiyotda yaratilgan daromadlarning bir qismi jamg'arilishi yalpi talabning yalpi taklifni qoplashi uchun yetishmasligiga olib kelmaydi, chunki har bir jamg'arilgan so'm tadbirkorlar tomonidan investitsiyalanadi, deb ta'kidlashadi.

Agarda, tadbirkorlar uy xo'jaliklarining jamg'armalari miqdorida investitsiya qilishsa, ishlab chiqarish hamda bandlik darajalari doimiy bo'lib qoladi.

Klassik iqtisodchilar ta'kidlashlaricha, kapitalizmning o'ziga xos pul bozori mavjud va bu bozor jamg'arma va investitsiyalarning tengligini ta'minlaydi. Bunda tenglashtiruvchi omil rolini foiz stavkasi o'taydi. Shuning uchun ham to'liq bandlik mavjud bo'ladi. Bu iqtisodchilar davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qisqa muddatli samara bersada, uzoq muddatga, oxir-oqibat bozor iqtisodiyotining tabiiy harakat mexanizmiga notabiiy aralashilganligi uchun salbiy oqibatlarga olib keladi deb hisoblashadi.

1936-yili ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns kapitalizm iqtisodiyotiga yangi, ish bilan bandlik nazariyasini kiritadi. U o'zining «Pul, foiz va ish bilan bandlikning umumiy nazariyasi» asarida yangicha iqtisodiy muvozanat nazariyasini izohlab berdi.

Keyns makroiqtisodiy muvozanatga to'liq bo'lmagan bandlik sharoitida ham erishish mumkinligini, to'la ish bilan bandlik qonuniy holat emasligini, balki tartibga solinmagan iqtisodiyotda tasodifiy ro'y berishigina mumkinligini isbotlab berdi.

Shuningdek, bu nazariyada iqtisodiyotdagi tebranishlar faqat urush, tabiiy ofat va shu kabi vaziyatlargagina bog'liq emasligini, balki u tinchlik yillarida ham ichki omillarning salbiy oqibatlaridan kelib chiqishi mumkinligi asoslangan. Ishsizlik va inflyatsiyaning kelib chiqishi investitsiya va jamg'armalarga bevosita bog'liq.

Narxlarning oshishi va ish haqining pasayishi boshqa salbiy omillar bilan birga iqtisodiyotning beqarorligiga olib keladi[72].

Bunday nomutanosibliklar rejalashtirilgan investitsiyalar va jamg'armalarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli ro'y beradi.

Bunga sabab, birinchidan, jamg'arish va investitsiyalash to'g'risidagi qarorlarni har xil guruhlardagi odamlar turli maqsadlarda qabul qilishi bo'lsa. Ikkinchidan, jamg'aruvchilar va investorlarni jamg'arish va investitsiyalashga turlicha sabablar undaydi. Keynschilar fikricha, jamg'arma va investitsiyalar bitta omilga bog'liq bo'lmagan holda turli sabablar asosida amalga oshiriladi. Masalan, kishilar qiymati o'zining ish haqi miqdoridan ortiq bo'lgan mahsulotlarni sotib olish uchun, masalan, avtomobil yoki televizor xarid qilish uchun jamg'arishadi. Jamg'armalar biror shaxs yoki oilaning kelajakdagi iste'molini qondirish maqsadida, ya'ni uy xo'jaliklari oila boshlig'ining nafaqaga chiqqandan keyingi hayotini yoki bolalari kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, jamg'armalar tasodifiy vaziyatlarda foydalanish maqsadida ham amalga oshiriladi.

Investorlarni investitsiya qilishga undovchi sabablar esa foiz stavkasi bilan birga kutilayotgan sof foyda normasi hamdir.

Klassiklar nazariyasi bo'yicha jamg'arma va investitsiyalar miqdorini aniqlaydigan asosiy omil foiz stavkasi hisoblanadi. Agarda, u oshsa, uy xo'jaliklari kamroq iste'mol qilib, ko'proq jamg'arishga harakat qilishadi.

Uy xo'jaliklarida jamg'armalarning ko'payishi kredit narxlarining kamayishiga olib keladi. Bu esa o'z vaqtida investitsiyaning o'sishini ta'minlaydi.

Keynschilar fikricha esa, foiz stavkasi emas, balki aholining ixtiyoridagi daromadi iste'mol va jamg'arish dinamikasini belgilab beradi. Keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda Keyns o'zining makroiqtisodiy muvozanat modelini ishlab chiqdi.

Makroiqtisodiy muvazanat va unga erishish yo'llari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga erishishning roli va ahamiyati benihoyat katta. Makroiqtisodiy muvozanat mamlakat iqtisodiyotining to'g'ri yoki ortiqcha yo'ldan borayotganligini ko'rsatuvchi indikatorlardan biri hisoblanadi. Chunki, iqtisodiyotda

[72] D.Q.Axmedov va boshqalar. Makroiqtisodiyot, darslik. –T., 2004.

bo'layotgan doimiy o'zgarishlar har qanday mamlakatni ham iqtisodiy muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin. Ya'ni kechayotgan biror jarayon mutanosibli, muvozanatli bo'lsa, uni bir maromda faoliyat ko'rsatayotgan organizm deb tushunamiz va aksincha, undagi har qanday siljish uning muvozanatining buzilishi deb qaraladi[73].

Iqtisodiy tizimlardagi bunday barqarorlik tovarlar va xizmatlar taqchilligi yoki ortiqcha ishlab chiqarilganligi, inflyatsiya, ishsizlik va shunga o'xshash boshqa salbiy hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiyot samaradorligining pasayishiga va aholi turmush tarzi tushib ketishiga olib keladi. Shu sababli ham, iqtisodiy muvozanat muammolarini tadqiq qilish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy muvozanat milliy iqtisodiyotni shartli ravishda barcha iste'molchi va ishlab chiqaruvchi birliklarining o'zaro bog'liqligi sifatida ko'z oldimizga keltirsak, unda muvozanat shunday holatki, qachonki, ular o'rtasida qarama-qarshiliklar bo'lmaydi va resurslar, tovarlar va daromadlarning doiraviy aylanishi uzluksiz ravishda amalga oshishi ta'minlanadi. Milliy darajadagi yoki makroiqtisodiy muvozanat pulda ifodalangan jami talab va taklifni, iqtisodiyotni pulli va moddiy mutanosibligining mos kelishini ko'zda tutadi. Bu milliy xo'jalikning ideal holati bo'ladi, uni doimiy ta'minlab turish qiyin vazifa hisoblanadi.

Jahon amaliyoti iqtisodiy muvozanatga erishishning ikki asosiy usulini ishlab chiqqan:

1. Narxlar talab va takliflarni tartibga solib turuvchi bir-biriga bog'liq bo'lgan bozorlar yordamida (tovar va xizmatlar, kapital, ishchi kuchi bozorlari) muvozanatlashadi.

2. Moddiy, mehnat va moliyaviy balanslarni tuzish yo'li bilan kelajakda talab va taklifning hajmlarini, shuningdek, narxlarning o'zini ham o'rnatuvchi davlat rejalari yordamida muvozanatlashadi.

Aralash iqtisodiyot mamlakatlarida makroiqtisodiyot muvozanatga erishishda asosan bozor usullariga asoslaniladi. Shu bilan birga, davlat ham sezilarli darajada ahamiyat kasb etdi. U ma'muriy - huquqiy va iqtisodiy aralashuv chegaralaridan foydalanib, jami talab va taklifning o'zgarishiga va shu orqali makroiqtisodiy muvozanatga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi. Buni avvalam bor mamlakatda iqtisodiy barqarorlikka erishmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

[73] D.Q.Ahmedov. Makroiqtisodiyot. –T., 2004.

Shuning uchun barcha rivojlangan va iqtisodiy barqarorlashtirish islohotlarni amalga oshirayotgan barcha mamlakatlarda eng dolzarb va qiyin hal qilinadigan vazifadir.

Nazariya va jahon amaliyotida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishning ikki asosiy yondashuvi ishlab chiqilgan: monetar va tarkibiy.

Monetar yondashuv tarafdorlari iqtisodiyotda tovar-pul muvozanati buzilishining asosiy sababi bo'lgan inflyatsiyani asosan muomalada pul massasining ortiqchaligidan kelib chiqadi deb hisoblashadi. Shuning uchun ular tomonidan taklif qilinayotgan chora-tadbirlar pul taklifini cheklashga qaratilgan.

Jumladan, davlat xarajatlarini, birinchi navbatda ijtimoiy dasturlarni keskin qisqartirish, pul emissiyasiga davlat zayomlariga qat'i chegara o'rnatish, ish haqi o'sishini cheklash, tadbirkorlik faoliyatiga yanada kengroq yo'l ochib berish.

Monetaristlardan farqli ravishda tarkibiy barqarorlashtirish tarafdorlari inflyatsiyani bugun inqiroziy holatlarning bosh sababchisi deb hisoblamaydilar, shuning uchun ularning takliflari ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish yordamida narxlar o'sishining oldini olishga qaratilgan. Bunda ular davlat tomonidan tartibga solish usullariga muhim ahamiyat beradi.

6.2. «Keyns xochi». Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi

Jon Meynard Keyns (1883–1946) – hozirgi zamonning buyuk olim-iqtisodchisi. Uning dunyoqarashi o'zi oldin bilim olgan, keyin o'qituvchilik qilgan Kembridj universitetida shakllandi. U A.Marshall qo'lida ta'lim oldi. Ammo uning izidan bormadi, o'ziga xos yo'nalishda nazariya yaratdi. J.M.Keyns o'z tadqiqotlari asosida bir qator asarlarni nashr etdi. Agar umumiy daromad oshsa, unda kishilar ushbu oshgan daromadning bir qismini iste'molga sarflasalar, ikkinchi qismini jamg'aradilar.

J.M.Keynsning asosiy psixologik qonuniga muvofiq, daromadlarning o'sib borishi bilan jamg'armaga bo'lgan moyillik oshib boradi, ya'ni milliy daromadning jamg'ariladigan qismi ko'payadi.

Keyns jamg'arma va investitsiya o'rtasida bog'liqlikni aniqlab, agar jamg'arma bilan investitsiya o'rtasida katta, sezilarli uzilish paydo bo'lsa, u o'z navbatida iqtisodiy inqirozga olib kelishini isbotlab berdi. Agar investitsiyalar jamg'armalardan kam bo'lsa, u holda yalpi talab taklifdan kam va milliy daromad kamaya boradi. Agar investitsiyalar jamg'armalarga teng bo'lsa, yalpi talab taklifga teng va milliy daromad darajasi o'zgarmay qoladi.

J.M.Keyns investitsiyalarning ko'payishi bilan milliy daromadning ko'payishi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qildi.

Investitsiyalarning ko'payishi va uning natijasida milliy daromad va aholining ish bilan bandligining o'sishi maqsadga muvofiq iqtisodiy samara sifatida ko'riladi. Iqtisodiy samara multiplikator deb ataladi. Multiplikator – bu son koeffitsiyenti bo'lib, daromad o'sishi bilan ushbu o'sishni yuzaga keltirgan investitsiyalar o'sishi o'rtasidagi nisbatni ifodalab beradi. Multiplikator atamasini birinchi marta ingliz iqtisodchisi R.Kan 1931-yili ishlatgan (ish bilan bandlik sohasidagi multiplikator).

Multiplikator nazariyasiga ko'ra, kishilarning jamg'armaga bo'lgan moyilligi qancha ko'p bo'lsa, multiplikatorning ahamiyati shuncha kam bo'ladi. To'la ish bilan bandlik sharoitida multiplikator amal qilmaydi, negaki bo'sh turgan resurslarning bo'lmaganligi sababli ishlab chiqarishni ortiqcha kengaytirib bo'lmaydi[74].

Keyns bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQSHning multiplikatorini aniqladi, u 2,5 ga teng ekan. Bu daromadlar o'sishi investitsiyalar ortishidan 2,5 marta ortiq degani, ya'ni 1 dollar investitsiya 2,5 dollar daromad keltiradi (ish bilan bandlikni o'stirish – asosiy maqsad).

D.M.Keyns «likvidlik ustunligi» (odam o'zida naqd pul bo'lishini xohlash) tushunchasini kiritdi. O'z ishlarining yurishib ketishidan xavotirlanish, kelajakka ishonmaslik kishilarni naqd pul saqlashga undaydi. Kishilarning o'z uylarida naqd pul zaxiralarini ushlab turishi, J.M.Keyns buyicha, quyidagi sabab (motiv)larga bog'liq: xarid qilish zarurligi (transaksion motiv); kutilmagan vaziyat uchun (ehtiyot shartdan); olib sotarlik sababi.

Likvidlikka bo'lgan talab bilan foiz stavkasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud: foiz stavkasi qancha yuqori bo'lsa, odamlarda o'z

[74] D.Q.Axmedov va boshqalar. Makroiqtisodiyot, darslik, –T., 2004.

aktivlarini naqd shaklda saqlashga bo‘lgan xohish shuncha kam bo‘ladi va aksincha.

J.M.Keyns ta’limotidagi asosiy yutuqlardan biri shundan iboratki, unda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turishning zarurligi ko‘rsatib berildi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bo‘lgan «aralash iqtisodiyot»ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o‘rinni egallaydi.

J.M.Keyns fikriga ko‘ra, iqtisodiy jarayonlarning davlat tomonidan tartiblanishining samaradorligi davlat investitsiyalari yordamida vositalarni qidirishga, aholining to‘la ish bilan bandligiga erishishga, foiz normasini pasaytirish va belgilashga bog‘liq. Boshqacha aytganda, J.M.Keyns konsepsiyasi bo‘yicha, ssuda foizi qancha past bo‘lsa, investitsiyalarga bo‘lgan qiziqish shuncha yuqori bo‘ladi, bu o‘z navbatida, ish bilan bandlikni oshiradi, ishsizlikni tugatishga olib keladi.

XX asrning ikkinchi yarmida J.M.Keyns nazariyasi asosida yangi keynschilik shakllandi. 50-yillarda keynschilik g‘oyalari rivojlantirilib, yangi g‘oyalar ilgar surildi. Ularning asosiy mohiyati iqtisodiy o‘sish sur’atlari doimiyligini ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlash va isbotlashdan iboratdir. Oqibatda «multiplikator-akselerator» tizimini hisoblashga asoslangan va o‘ziga xos keynschilikning o‘sish nazariyalari, jamg‘arish hamda iste’mol o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish xususiyatlaridan foydalanib iqtisodiy dinamikani modellashtirish yuzaga keldi. Uning ancha ko‘zga ko‘ringan vakillari amerikalik E.Xansen (1887–1975), P.Samuelson (1915), Evsey Domar (1914), S.Harris (1897–1974), R.Solou (1924), ingliz Robert Harrod (1900–1978)lar hisoblanadi.

Yangi keynschilikning asosiy tadqiqot obyekti makroiqtisodiy miqdorlarning (yalpi talab, yalpi taklif, jamg‘arma) o‘zaro ta’siri hisoblanadi. Ular iqtisodiy o‘sish nazariyasini ishlab chiqdilar. Iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari investitsiya hisoblanadi. Yangi keynschilar multiplikator tamoyilini akseleratsiya tamoyili bilan to‘ldirdilar. Akselerator prinsipiga ko‘ra daromadlarning o‘sishi ma’lum sharoitda investitsiyaning ko‘payishiga olib kelishi ham mumkin. Buning ma’nosi shundan iboratki, daromadlarning ko‘payishi yalpi talabning oshishiga olib keladi, yalpi talabning oshishi esa, ishlab chiqarishning

kengaytirilishini taqozo etadi va yangi investitsiyalarga bo'lgan talab kelib chiqadi (Yangi investitsiyalarni ko'payishi – asosiy maqsad).

Yangi keynschilar iqtisodiyotni bilvosita va bevosita tartiblash chora-tadbirlarini ishlab chiqdilar. Bilvosita ta'sir o'tqazish usuliga soliq siyosati, budjet orqali moliyalashtirish, kredit siyosati va b. kiritdilar.

Ularning nazariyasi (modeli) iqtisodiyotning doim (mo'tadil) sur'atlarda o'sishi dinamik barqarorlik (ilgarilab borish)ning asosiy sharti sifatida maqsadga muvofiq ekanligining umumiy xulosalarini birlashtiradi. Ularning fikricha, shundagina ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat resurslaridan to'la foydalanishga erishish mumkin. Harrod-Domar modelining boshqa bir qoidasi bo'yicha ayrim parametrlar, chunonchi daromadlardagi jamg'arma hissasi va kapital qo'yilmalarning o'rtacha samaradorligi uzoq davr mobaynida doimiy deb tan olinishi hisoblanadi. Mualliflar dinamik barqarorlik va doimiy o'sishga erishish avtomatik ravishda bo'lmasligi, balki davlatning shunga muvofiq siyosati natijasida, ya'ni davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki tufayli ro'y berishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Domar va Harrod modellaridagi farq boshlang'ich pozitsiyalardagi ayrim ko'rsatkichlardir. Masalan, Harrod medelida investitsiya va jamg'armalar tengligi g'oyasi, Domarda esa pul daromadlari (talab) va ishlab chiqarish quvvatlari (taklif) teng deb qabul qilinadi. Ikkala olim shunga ishonchlari komilki, daromad o'sishini ta'minlashda investitsiyalar roli, ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi faoldir, bunda shu narsa ko'zda tutiladiki, o'sish bandlikka yordam beradi, bu esa o'z yo'lida, korxonalarning yarim quvvat bilan ishlashi va ishsizlikning oldini oladi. Bu Keynsning shu sohadagi konsepsiyasini so'zsiz tan olishdir, chunki Keyns bo'yicha, iqtisodiy jarayonlar investitsiya va jamg'armalar orasidagi proporsiyalar xususiyati hamda dinamikasiga bog'liq, aniqroq aytilsa investitsiyalarning ildam o'sishi, baholar darajasi o'sishiga sabab bo'ladi, jamg'armalar o'sishi esa korxonalarning to'la ishlamasligi va ishsizlikning sababidir.

Keyns g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati. Keyns ta'limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo'ldi, chunki favqulodda holatlar davrida davlatning roli kuchli bo'lishi kerak. Amalda esa ayniqsa, 2-jahon urushidan so'ng g'arb mamlakatlarini sotsialistik orientatsiyasi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi),

davlat budjeti qarzlari ko‘payib, ishsizlik ham o‘sgan, inflyatsiya kuchli. Bu ijtimoiy ishlarni ko‘paytirishga qaratilgan tadbirlar oqibatidir deb tan olinmoqda. Ishsizlikning ish haqini pasaytirish yo‘li bilan hal etish tarafdorlari ham mavjud, ammo pul massasini ko‘paytirish (inflyatsiyaga olib keladi), ya’ni emissiya yo‘li ko‘pchilikka oson ko‘rinadi. Bu konsepsiya ma’lum davr mobaynida inflyatsiya bo‘lmagan holda minimal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

70-yillardan boshlab Keyns ta’limotiga nisbatan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bo‘yicha neoliberalizm g‘oyalari asosiy bo‘lib qoldi, chunki bu davrda jahonning ko‘pgina mamlakatlarida inqiroz holatlari doim voqeaga aylanib qoldi. Inflyatsiya, davlat budjetining kamomadi, ishsizlik tobora kuchaydi. Neoliberallar keynschilarni tanqid qilar ekanlar, iqtisodiyotda davlat sektorining oshuvi, erkin raqobatning kamayishi, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiyalar kamayganligi ular g‘oyalarining sayozligidan dalolat beradi, deb hisoblaydilar. 70–80-yillar neoliberal g‘oyalar iqtisodiyotda tobora ustunligini egallay boshladi. Ko‘p davlatlarda iqtisodiyotni denasionalizatsiya qilish kuchaydi (nodavlat shakllariga o‘tildi). Buning oqibatida Buyuk Britaniya (Tetcherizm), Fransiya, Yaponiya, Chili (Pinochet), Ispaniya va boshqa mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimallashtirildi va iqtisodiy ahvol yaxshilandi.

Monetarizm va keynschilik konsepsiyalarining umumiy tomonlari shundan iboratki, har ikkala nazariya, eng avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida qo‘llanishga qaratilgan. Ma’lum ma’noda har ikkala nazariya bir-birini o‘zaro to‘ldirib turadi.

Agar J.M.Keyns daromadlarning xarajatlarga miqdoriy bog‘liqligini asoslab bergan bo‘lsa, M.Fridman esa daromadlarning pulga bog‘liqligini ko‘rsatib berdi.

Rejalashtirilgan daromadlar chizig‘i haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar bir-biriga teng bo‘lgan (Y=E) chiziqni qaysidir a nuqtada kesib o‘tadi. Quyida keltirilgan 6.1-rasmda tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa muddatli muvozanatga erishish mexanizmi tasvirlangan bo‘lib, u —Keyns xochi nomini olgan. Y=E chiziqda haqiqiy investitsiyalar va jamg‘armalar tengligi saqlanadi, a nuqtada esa daromadlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo‘ladi. Shuningdek, bu

yerda rejalashtirilgan hamda haqiqiy investitsiyalarning o‘zaro tengligiga erishiladi. Ya’ni makroiqtisodiy muvozanat ta’minlanadi.

Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (Y1) uning muvozanat darajasi (Y0)dan ko‘p bo‘lsa, iste’molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan kam sotib oladi (AD<AS). Sotilmagan mahsulotlar TMZ ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Zaxiralarning o‘sishi firmalarda ishlab chiqarish hamda bandlik darajalarini pasaytirishiga olib keladi. Bu esa YaIM hajmini Y_1 dan Y_0 gacha kamayishiga olib keladi va daromad hamda rejalashtirilgan xarajatlar tenglashadi.

O‘z navbatida, yalpi talab va yalpi taklifning tenglashishiga (AD = AS) erishiladi.

Aksincha, haqiqiy ishlab chiqarish (Y2) uning muvozanat darajasidan (Y0) kam bo‘lgan vaziyatda esa, firmalar iste’molchilar talabiga nisbatan kam ishlab chiqarayotganligini (AD>AS) ko‘ramiz. Talabning oshishi esa firmalar zaxirasining kamayishi hisobiga qondiriladi. Natijada, YaIM asta-sekin Y2 dan Y0 ga qarab o‘sadi va yana AD=AS tengligiga erishiladi. Bu esa ayni paytda E=Y va I=S ayniyatlarga erishilganligini anglatadi.

Milliy ishlab chiqarishning muvozanat holati (Y0), yalpi xarajatlar komponentlarining har birining (iste’mol, investitsiya, davlat xarajatlari yoki sof eksport) o‘zgarishi natijasida tebranishi mumkin. Ushbu tarkibdagi birorta omilni miqdorining o‘sishi rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig‘ini yuqoriga suradi va aksincha, kamayishi pastga surilishga olib keladi.

6.3. Avtonom xarajatlar multiplikatori

Avtonom xarajatlarning har qanday o‘sishi, ya’ni $\Delta A = \Delta (a+I+G+Xn)$ multiplikator samarasi hisobiga yalpi daromadlarning ko‘proq miqdorga (ΔY) oshishiga olib keladi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori muvozanatli YaIM o‘zgarishining avtonom xarajatlarning har qanday komponenti o‘zgarishiga nisbatini ko‘rsatadi:

$$m = \Delta Y/\Delta A:$$

Bu yerda, m – avtonom xarajatlar multiplikatori;

ΔY – muvozanatli YaIMning o'zgarishi;

ΔA – avtonom xarajatlarning Y o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan o'zgarishi.

Multiplikator – yalpi daromadlar avtonom xarajatlarning dastlabki o'sishi (kamayishi)dan necha marta ortiq o'sganligini (kamayganligi) ko'rsatadi[75].

Avtonom iste'mol ΔCA miqdorga o'ssa, bu yalpi xarajatlar va daromadlar (Y) ning o'sha miqdorda o'sishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, iste'molning ikkinchi marta (daromadlar oshishi hisobiga) MRC x ΔCA miqdorda o'sishiga olib keladi. Keyinchalik yalpi xarajatlar va daromadlar MRCxΔCA miqdorda yana o'sadi.

Shunday qilib, «daromad-xarajat» ko'rinishidagi doiraviy aylanish bo'yicha jarayon davom etaveradi.

Ushbu oddiy vaziyatdan ko'rinib turibdiki, yalpi daromadlar (Y), avtonom iste'molning dastlabki o'zgarishi ΔCA↑ ga nisbatan bir necha marta ko'p o'zgaradi.

Bu shuni bildiradiki S, I, G yoki Xn miqdorlardagi oddiy o'zgarishlar ham ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajalarida katta o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, multiplikator iqtisodiy beqarorlik omili hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatning budjet-soliq siyosatidagi asosiy vazifalaridan biri bo'lib, o'rnatilgan barqarorlashtirgichlar tizimini yaratish hisoblanadi. Bu tizim iste'molga chegaralangan moyillikni kamaytirish orqali multiplikatsiya samarasini pasaytiradi.

Multiplikator samarasi mohiyatini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Aytaylik, dastlab iqtisodiyotga investitsiyalar miqdori 5 mlrd. so'mga ko'paysin. Bu, o'z navbatida ish haqi, renta, foyda ko'rinishda uy xo'jaliklari daromadiga aylanadi. Agar iste'molga chegaralangan moyillikni 0,75 ga yoki 75 %ga teng deb olsak. Uy xo'jaliklari bu daromadning 75 foizini, ya'ni 3,75 mlrd. so'mni iste'mol xarajatlariga sarflaydi, qolgan 1,25 mlrd. so'mni jamg'aradi. Sarflangan 3,75 mlrd. so'm boshqalar uchun daromad hisoblanadi. O'z navbatida, ular ham 3,75 mlrd. so'mning 75 foizini iste'mol uchun sarflaydilar va 25 foizini jamg'aradilar. Bu jarayon oxirgi so'm jamg'arilmaguncha davom etadi.

[75] D.Q.Axmedov va boshqalar. Makroiqtisodiyot, darslik. –T., 2004



6.1-rasm. *Keyns xochi*
(Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli)[76].

Demak, iste'molga chegaralangan moyillik qancha katta bo'lsa, multiplikator samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Multiplikatorning matematik mohiyati cheksiz kamayib boruvchi geometrik progressiyani anglatadi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdorining katta yoki kichikligi budjet-soliq siyosati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat o'z xarajatlarini oshirayotganda yoki investitsiya xarajatlarini oshirish choralarini ko'rayotganda, bu xarajatlar jami talabni qancha miqdorga oshirib yuborishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

Eksport va importning harakatida ham multiplikatsiya samarasi mavjud bo'lib, bu omilni hisobga olish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada taniqli iqtisodchi olimlardan J.Keyns, R.Kan, F.Maxlup, P.Samuelson va boshqalar tashqi savdo multiplikatori to'g'risidagi nazariy asoslarni yaratishda katta hissa qo'shdilar[77]. Eksport multiplikatori ham investitsiyalar multiplikatori singari iste'mol sohasidagi ichki jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, iste'mol yoki jamg'armaga so'nggi qo'shilgan moyillik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi:

[76] N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.:Worth Publishers, 2015
[77] Iqtisodiyot nazariyasi U.V.G'afurov va boshqalar Toshkent-2013 ma'ruza matni

$$M_x = \frac{1}{MRS} = \frac{1}{1 - MRC},$$

bu yerda,

M_x– eksport multiplikatori koeffitsiyenti;

MRS – jamg‘armaga so‘nggi qo‘shilgan moyillik;

MRC – iste’molga so‘nggi qo‘shilgan moyillik.

Eksport hajmi oshishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta’sirini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$YaIM = M_p \Delta X,$$

bu yerda,

M_r – multiplikator;

ΔX – eksport hajmining o‘sishi.

Biroq, xalqaro savdo faqat eksportdan iborat bo‘lmay, balki o‘z ichiga importni ham oladi. Agar eksportda nolingan daromadning bir qismi importga sarflansa, u holda mamlakatning ichki xarid qobiliyati pasayadi.

Import jamg‘arma singari boy berilgan imkoniyat sifatida amal qiladi, shuning uchun u matematik ifodalarda manfiy ishora bilan qo‘llaniladi.

Importni jamg‘arish funksiyasiga o‘xshagan holda tahlil qilish mumkin. Buning uchun importga so‘nggi qo‘shilgan moyillik tushunchasini kiritib olamiz. Bu moyillik import hajmi o‘zgarishining daromad o‘zgarishiga nisbati orqali ifodalanishi mumkin. Natijada import multiplikatori formulasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$M_p = \frac{1}{(MRS+MRM)\Delta X},$$

bu yerda,

MRM – importga so‘nggi qo‘shilgan moyillik.

Importni hisobga olgan holda eksport hajmi o‘zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta’sirini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta ЯИМ = \frac{1}{(MRS+MRM)\Delta X}$$

Tashqi savdo multiplikatori cheksiz harakatda bo'lmaydi. Import tovarlarni iste'mol qilishga so'nggi qo'shilgan moyillikning qiymati birdan kam bo'lganligi sababli navbatdagi qo'shimcha o'sishlar miqdori muntazam qisqarib, multiplikatsiya jarayoni sekin-asta so'nib boradi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlardan tashqari yana immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliychegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan tavsifi va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Xalqaro savdoning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqarish asosiy omillarining turli mamlakatlar o'rtasida joylashuvi hamda jahon ishlab chiqarishi tuzilmasiga bog'liq. Agar bundan bir asr muqaddam xalqaro savdoda ustun ravishda xomashyo, materiallar, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ayirboshlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib sanoat tovarlari, ayniqsa mashina va asbob-uskunalarning salmog'i sezilarli darajada o'sdi. Intellektual tovarlar va xizmatlarning ulushi ham keskin ravishda oshib, umumiy savdo aylanmasining10 foiziga qadar yetdi. Shuningdek, xalqaro savdoni tashkil etish shakllari ham takomillashib bormoqda.

An'anaviy ko'rinishdagi tovar birjalari, auksionlar, savdo-sanoat yarmarkalari, savdo ko'rgazmalari bilan bir qatorda ikki tomonlama bitimlarning quyidagi shakllari ham keng qo'llanmoqda:

1) barter – tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga

ayirboshlash. Barterda pul ishtirok etmasada, tovarlarning qiymatini bir-biriga taqqoslash uchun pulning qiymat o'lchovi vazifasi orqali baholab olinadi;

2) eksport qiluvchilar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar qiymatining bir qismiga import tovarlarni xarid qilish;

3) texnikaning yangi modellarini sotishda eskirgan modellarni sotib olish;

4) import qilingan asbob-uskunalar qism va detallarini importga sotuvchi mamlakat tomonidan butlab berish;

5) kompensatsion bitimlar. Mazkur bitimlar shartiga ko'ra, texnologik asbob-uskunalar yetkazib beruvchi tomonlarning biri taqdim etgan kredit (moliyaviy, tovar ko'rinishidagi) bo'yicha to'lovlar ana shu asbob-uskunalarda tayyorlangan tayyor mahsulotlarni yetkazib berish orqali amalga oshiriladi;

6) bir mamlakatda undirilgan xomashyoni boshqa bir mamlakat ishlab chiqarish quvvatlari yordamida qayta ishlashda ushbu qayta ishlash va tashib berish xizmatlarini qo'shimcha xomashyo yetkazib berish orqali to'lash;

7) kliring operatsiyalari, ya'ni o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olish orqali naqd pulsiz hisoblashuv.

Ikki tomonlama savdo tamoyilida amalga oshiriluvchi xalqaro operatsiyalar barcha hajmida barter bitimlari 4 foiz, ikki tomonlama xarid–55 foiz, kompensatsion bitimlar– 9 foiz, kliring operatsiyalari 8 foizni tashkil etadi[78].

Xulosalar

1. To'liq bandlik sharoitida klassik iqtisodchilar mahsulotlarni sotib olish uchun xarajatlar miqdori yetishmasligi mumkin emas, yetmay qolgan taqdirda ham baho, ish haqi va foiz stavkasi kabi dastaklar ishga tushib, barcha muammolarni hal qilishadi, deb hisoblashadi.

2. Birinchilardan bo'lib, ingliz iqtisodchisi Jon Keyns o'zining "Pul, foiz va ish bilan bandlikning umumiy nazariyasi" nomli asarida klassik iqtisodchilar nazariyalarining noto'g'ri jihatlarini isbotlab berdi.

[78] www.stat.uz

3. Klassikchilar fikricha, jami talab egri chizig‘i vertikal to‘g‘ri chiziqdan iborat va ishlab chiqarishning real hajmini ifodalaydi. Keynsianlarni fikricha, mahsulotlar narxi va ish haqi egiluvchan emas, shuning uchun jami taklif egri chizig‘i gorizontal o‘qdan iborat.

4. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modelida muvozanat darajadagi ishlab chiqarishni ta’minlovchi ikkita omil umumiy xarajatlar va umumiy daromadlarning kesishuv nuqtasida ro‘y beradi. Bu modelda tovar zaxiralarini o‘zgarishi muvozanatni ta’minlovchi omil deb qaraladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Iqtisodiy muvozanat, bozor iqtisodiyoti, to‘liq bandlik, mahsulotlarni sotib olish, xarajatlar miqdori, baho, ish haqi, foiz stavkasi, real daromad, nominal daromad, kapitalizm bozorida jamg‘arma, investitsiyalarning tengligi, ishsizlik, inflyatsiya, narx, jami talab nazariyasi, makroiqtisodiy barqarorlik, tovar moddiy zaxiralar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Klassik iqtisodchilardan kimlarni bilasiz va ularning qaysi asarlarini o‘qigansiz?

2. Nima sababdan klassik iqtisodchilar nazariyalari tanqidga uchragan va birinchilardan bo‘lib, uning kamchiliklari kim tomonidan ochib tashlangan?

3. Potensial YaIM va haqiqiy YaIM ga ta’rif bering.

4. Multiplikativ samara nima sababdan ro‘y beradi?

5. Keynsning umumiy xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash usulini mohiyatini tushuntirib bering.

TESTLAR

1. Klassik maktab namoyondalari ... ning umumiy muvozanati nazariyasini yaratdilar.

A. Bozorlar
B. Baholar

C. A va V javoblar to‘g‘ri
D. To‘g‘ri javob yo‘q

2. Klassik makroiqtisodiy muvozanat modelining o‘ziga xos xususiyati pulning ... prinsipini ko‘zda tutishidir.
A. Neytralligi
B. Ko‘pligi
C. Kamligi
D. To‘g‘ri javob yo‘q

3. Klassik dixotomiya konsepsiyasida – ... parallel bozor bor
A. Ikki
B. Uch
C. To‘rt
D. Besh

4. Klassik iqtisodchilar ta’kidlashlaricha, kapitalizmning o‘ziga xos pul bozori mavjud va bu bozor ...ning tengligini ta’minlaydi.
A. Jamg‘arma va investitsiyalar
B. Jamg‘arma va fondlar
C. A va V javoblar to‘g‘ri
D. To‘g‘ri javob yo‘q

5.... yili ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns kapitalizm iqtisodiyotiga yangi, ish bilan bandlik nazariyasini kiritadi.
A. 1936
B. 1926
C. 1946
D. 1939

6. Klassiklar nazariyasi bo‘yicha ... miqdorini aniqlaydigan asosiy omil foiz stavkasi hisoblanadi.
A. Jamg‘arma va investitsiyalar
B. Daromad va xarajatlar
C. Jamg‘arma va daromad
D. Investitsiya va xarajat

7. Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (Y1) uning muvozanat darajasi(Y0)dan ko‘p bo‘lsa, iste’molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan ... sotib oladi

A. Kam
B. Ko‘p
C. Teng
D. To‘g‘ri javob yo‘q

8. Avtonom xarajatlarning har qanday o‘sishi, ya’ni $\Delta A = \Delta$ (a+I+G+Xn) multiplikator samarasi hisobiga yalpi daromadlarning ... miqdorga (ΔY) oshishiga olib keladi.

A. Ko‘proq
B. Kamroq
C. Teng
D. To‘g‘ri javob yo‘q

9. Multiplikator - ... avtonom xarajatlarning dastlabki o‘sishi (kamayishi)dan necha marta ortiq o‘sganligini (kamayganligi) ko‘rsatadi.

A. Yalpi daromadlar
B. Yalpi xarajatlar
C. Yalpi investitsiyalar
D. To‘g‘ri javob yo‘q

10. .... o‘z ichiga tovar, xizmatlar to‘lovi, mulkdan foydalanish yoki unga nisbatan egalik huquqining qo‘lga kiritish, shuningdek, amaliy xizmatlar to‘lovini oladi

A. To‘lov operatsiyasi
B. Bir yoqli operatsiyalar
C. Joriy operatsiyalar
D. Moliyaviy operatsiyalar

7-BOB. PUL-KREDIT SEKTORINING IQTISODIY TAHLILI

7.1. Pul-kredit siyosatining maqsadi, ko‘rsatkichlari, asosiy yo‘nalishlari va ularning amal qilish mexanizmi

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish zarurati sharoitlarida u yoki bu vositalarni qo‘llash samaradorligi va natijadorligi muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadlarida fiskal siyosat va boshqa mexanizmlardan foydalanish mumkin. Ammo bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning ko‘pgina iqtisodchilari e’tirof etishicha, pul-kredit siyosati – davlat barqarorlashtirish siyosatining ajralmas qismi va samarali vositasi.

Pul-kredit siyosatidan foydalanishning muhim afzalligi mamlakat iqtisodiyoti holatiga jadal va moslashuvchan ta’sir ko‘rsata olishdir. Agar tegishli fiskal siyosatni qo‘llash uchun davlat hokimiyati oliy organlarida muhokama talab etilsa, pul-kredit siyosati jadallik bilan Markaziy bankning o‘zida hal qilinishi mumkin. Mazkur siyosatni qo‘llash natijalari davlatning moliyaviy holatida juda tez aks etadi. Bu, masalan, inflyatsiyaga qarshi kurash uchun tezkor choralarni ko‘rish sharoitlarida o‘ta muhimdir.

Demak, pul-kredit siyosati to‘liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiya[79]ning ta’sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy bank[80] amalga oshiradi. Uning yordamida har qanday davlat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifasini hayotga tatbiq etadi.

---

[79] Internet ma'lumotlari:Read more: https://sputniknews-uz.com/economy/20180922/9499947/Markaziy-bank-ayta-moliyalash-stavkasi-16-foiz-etib-belgilandi.html Ajratilayotgan kredit qo‘yilmalarining qariyb yarmi davlat dasturlari doirasidagi kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelishi, shuningdek, 2018-yilning 1-oktyabridan boshlab joriy etiladigan majburiy rezervlar bo‘yicha yangi normativlar depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari oshganda ham kreditlar bo‘yicha stavkalarni oshirish zaruratini kamaytirib banklarga foiz yuklamasini pasaytirish imkonini beradi.

[80] O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida» qonuniga muvofiq, mamlakatning Davlat banki sifatida tashkil etilib, 1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga aylantirildi. Markaziy bankning faoliyati asoslari «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunida (1995-yil 21-dekabr) belgilab berilgan. Markaziy bank o‘z sarf-xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradigan, iqtisodiy jihatdan mustaqil yuridik shaxs bo‘lib, davlatning mutlaq mulki hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati – Mamlakat Markaziy banki tomonidan iqtisodiyotning barqaror, samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan kurs va barqaror pul tizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pul muomalasi va kredit sohasidagi chora-tadbirlar.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari:

- iqtisodiy o'sish;
- to'liq bandlik;
- baholar hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlash.

Bu maqsadlarga erishish uchun milliy valyutani muomaladagi pul massasi, foiz stavkasi va milliy valyuta almashinuv kursining optimal kattaliklarini ta'minlab turish zarur bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy bank qator vazifalardan foydalanadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari:

1. Pul emissiyasi.
2. Zaxira siyosati.
3. Valyuta siyosati.
4. Ochiq bozor siyosati.
5. Hisob siyosati.

Pul emissiyasi (lot. emisio, ing. emision - chiqarish) – davlat tomonidan muomalaga jami turdagi pul belgilarni chiqarish. Pul emissiyasi pul belgilarini bosib chiqarish bilan birga muomaladagi naqd va naqd bo'lmagan pul massasining ko'payishini ham bildiradi. Pul emissiyasining asosiy shakllari kredit pullar - banknotlar va depozit – cheklar emissiyasi. Ba'zi mamlakatlarda hukumat o'z xarajatlarini, budjet taqchilligini qoplash maqsadida qo'shimcha pul emissiyasini amalga oshiradi, natijada inflyatsiya kuchayadi. Ko'pgina mamlakatlarda pul emissiyasini hukumat nomidan Markaziy bank amalga oshiradi.

Zaxira siyosati – Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining (va boshqa moliyaviy institutlar) depozit hisoblariga tushuvchi mablag'larning bir qismini **majburiy zaxiraga** ajratish me'yorini belgilanishi. Ilk majburiy zaxira normalari AQSHda 1865-yilda joriy qilingan edi.

Majburiy zaxiralar kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Ular mijozlar tomonidan o'z omonatlarini talab qilib olganda zarur bo'ladi. Zaxira normasi ikki asosiy funksiyani bajaradi:

– bank likvidligini joriy tartibga solish uchun sharoit yaratadi

– kredit emissiyasini cheklaydi.



7.1 – rasm. Majburiy zaxira funksiyasi.[81]

Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo'lgan zaxiralarning eng quyi normasini o'rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta'sir etadi. Bu me'yor qanchalik yuqori bo'lsa, ortiqcha zaxiralar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo'li bilan «pullarni barpo etish» qobiliyati past bo'ladi.

Agar, Markaziy bank majburiy bank zaxirasini kamaytirsa, ortiqcha bank zaxiralari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi. Masalan, ushbu me'yor 25 % bo'lsa, unda bankka qo'yilgan 8 mln. so'mdan 2 mln. so'm majburiy bank me'yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 6 mln. so'mni qarzga berishi mumkin bo'ladi. Endi faraz qilaylik, me'yor 10 % ga tushiriladi, unda

[81] Mualliflar tomonidan ishlangan.

bank 7mln. 200 ming so‘mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi va boshlang‘ich pul taklifini 7 mln. 200 ming so‘mga oshiradi.

Majburiy bank zaxirasi me’yorini ko‘tarish yordamida pul taklifini kamaytiradi. Zero, bu banklarning ortiqcha bank zaxiralari qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o‘tkazishda bu vosita butun bank tizimining asoslariga ta’sir etadi. Turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan majburiy zaxira normalari turlichadir. Yuqori inflyatsiya darajasi sharoitida Janubiy Koreyada bu norma -100 foiz bo‘lgan bo‘lsa, Italiyada -25 foizni, Yaponiyada bor-yo‘g‘i -2.5 foizni tashkil etgan edi.

O‘zbekiston Respublikasida majburiy zaxiralash normasi keyingi o‘n yil davomida sezilarli darajada kamaydi (7.1-jadval).

Bunday pasayish pul multiplikator miqdorining kattalashishiga va albatta, iqtisodiyotda pul taklifining ko‘payishiga olib keladi. Tijorat banklari ortiqcha rezervlarining ko‘payishi ularning aktiv operatsiyalarini ko‘paytiradi va bu iqtisodiyotning real siyosati rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Valyuta siyosati – Mamlakatda pul taklifi miqdoriga bevosita ta’sir ko‘rsatish. Markaziy bank valyuta sotib pul miqdorini qisqartiradi, xarid qilib esa uning miqdorini oshiradi.

Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 7-fevralda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonning “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan bo‘limida valyuta siyosatini isloh qilish ushbu yo‘nalishdagi birinchi zaruriy qadam ekanligi ta’kidlangan va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pul-kredit, soliq-budjet va iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning samarali muvofiqlashtirilishiga bog‘liqligiga alohida urg‘u berilgan edi. Shu bois, ushbu farmon e’lon qilingan kundan boshlab mutasaddi idoralar mazkur masalani talab darajasida hal etish uchun keng ko‘lamli tayyorgarlik ishlarini olib borishdi.

7.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralash normasi[82]

Amal qilish sanasi	Muddatsiz va muddati 3 yilgacha bo‘lgan depozitlar bo‘yicha	3 yildan ortiq muddatli depozitlar bo‘yicha	Xorijiy valyutadagi depozitlar bo‘yicha
01.06.1996 y. gacha	30%	10%	0%
01.06.1996 y.dan	25%	10%	0%
01.12.1997 y.dan	20%	10%	0%
01.03.2000 y.dan	20%	20%	0%
04.07.2004 y.dan	20%	20%	0%
01.02.2015 y.dan	15%	15%	5%
01.09.2017 y.dan	13 %	13 %	13 %
01.11.2018 y.dan	15%	15%	15%

Eng avvalo, valyuta siyosatini erkinlashtirishga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Qarori loyihasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida e’lon qilindi va umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Mazkur masalaga qiziqqanlar unga nisbatan o‘z fikr va mulohazalarini bayon qilishdi. Portalga tushgan takliflar valyuta siyosatini erkinlashtirish bo‘yicha qabul qilingan farmonni boyitishga xizmat qildi.

Yurtimizda milliy valyutamizni xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq o‘ta muhim bir jihat namoyon bo‘lganligini e’tirof etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 29-yanvar kuni valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga ko‘ra, eksport tushumlari bo‘yicha majburiy sotuv talabi bor paytda eksportdan tushgan valyuta tushumlarining

[82] Экономика Узбекистана., Информационно - аналитический бюллетен за январь-март 2019., 2019.-июнь., c.13., “O‘zbekiston Iqtisodiyoti”. 2018-yil uchun axborot - tahliliy byuleteni. T.: 2019. avgust., 22- b. Ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

ichki bozorga ishlatilishi 30 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bunday cheklov va talablar olib tashlanganidan keyin ushbu ko‘rsatkich 61 foizga yetdi. Buning natijasida tashkilotlar o‘zlari uchun zarur xomashyo va asbob-uskunalarni xarid qilish, joriy va investitsiya ehtiyojlarini qoplash imkoniyatiga ega bo‘ldi, shuningdek, o‘tgan yili sanoat hajmlari 14,4 foizga, eksport tushumi 19 foizga o‘sdi va eksportyorlarning banklarga sotgan valyuta hajmi 1,9 barobar oshishiga erishildi[83]. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, raqobatbardosh ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ochiq bozor siyosati – Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog‘ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo‘yicha operatsiyalardir.

Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatli qog‘ozlarni sotib olar ekan, tijorat banklari zaxiralarini sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko‘paytiradi. Bu zaxiralar pul bazasiga kiradi, ya’ni yuqori quvvatli pullar bo‘lganligi uchun pul taklifi multiplikativ ko‘payadi. Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligatsiyalarni sotish bilan zaxiralarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalarni, ya’ni davlat qimmatli qog‘ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalanilmoqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirishga harakat qiladi. Buning uchun, o‘zida mavjud bo‘lgan o‘zining qimmatli qog‘ozlarini u ochiq bozorda aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatli qog‘ozlarini (sotish yoki xarid qilish yo‘li bilan) taklifi oshib borgan

[83] Internet ma’lumotlari: https://www.gazeta.uz/uz/2019/01/29/valyuta-siyosati/

sari, unga bo'lgan baho pasayadi, o'z navbatida, unga bo'lgan foiz (ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotib olganlarga foiz shaklida to'lanadigan haq) oshadi, bu esa unga bo'lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarni ko'proq xarid qila boshlaydi, pirovard natijada banklarning zaxiralari qisqaradi, o'z navbatida, bu hol pul taklifining bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga, shuningdek, bank zaxirasi va pul taklifining ortishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ham pul kredit siyosatini yuritishda bu vositaning rolini keskin oshirishni maqsad qilib olgan.

Pul - kredit siyosatini amalga oshirishning muhim vositalardan biri – bu, hisob stavkasi siyosatidir.

Hisob siyosati – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ssudalar berish uchun hisob stavkasi yoki qayta moliyalashtirish stavkasi belgilanishi.

Hisob stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi deb Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar. Hisob stavkasining pasayishi bilan tijorat banklarida Markaziy bankdan qo'shimcha zaxiralarni olish imkoniyatlari kengayadi. O'z navbatida, bu tijorat banklarining zaxiralardan yangi kreditlar berish bilan pul taklifini ko'paytiradi. Yana shunday hollar mavjudki, Markaziy bank hisob stavkasini ko'tara borib, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha zaxiralarni olish yo'lidagi to'siqlarni biroz ko'targanday bo'ladi va kreditlar berish bo'yicha ularning faoliyatini pasaytiradi, shu yo'l bilan pul taklifini cheklaydi. Agar ushbu stavka past bo'lsa, unda tijorat banklari ko'proq kredit olishga harakat qiladilar. Natijada banklarning ortiqcha zaxiralari ortib boradi va muomaladagi pul massasi miqdorining oshib borishiga olib keladi. Agarda hisob stavkasi miqdori yuqori bo'lsa, unda banklar kamroq kredit olishga, olganlarini esa qaytarib berishga harakat qiladilar, pirovard natijada ortiqcha bank zaxiralari qisqaradi, muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Bu ko'rsatkichlar darajasi turli mamlakatlarda iqtisodiy vaziyatga qarab turlicha maqsadda bo'ladi. Masalan, iqtisodiyotda

turg'unlik elementlari ko'ringach investitsiyalarni qo'llab- quvvatlash va umuman iqtisodiy faollikni oshirish uchun AQSH Federal zaxira tizimi hisob stavkasini 2018-yilda bir foizgacha qisqartirdi. O'zbekiston Respublikasida qayta moliyalashtirish stavkasi 2016-yilda o'rtacha 16,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda o'rtacha 14,0 foiz, 2018-yilda ham 14,0 foizni tashkil etgan (7.2-jadval). Amaliyotda, davlatlar hisob stavkasi siyosatini ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borishga harakat qiladilar.

7.2 -jadval

O'zbekiston Respublikasida foiz stavkalarining o'zgarishi (2000–2018 yy%)[84]

Yillar	Yillik qayta moliya-lash stavka-si	Qisqa mud-datli kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka	Yuridik shaxs-larning so'm-dagi muddatli depozitlari bo'-yicha o'rtacha tortilgan stavka	Jismoniy shaxslarning so'mdagi mud-datli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka
2000	32,3	25,7	12,9	32,2
2001	26,8	28,0	16,0	38,1
2013	34,5	32,2	19,2	40,2
2014	27,1	28,1	17,1	36,2
2015	18,8	21,2	11,3	34,5
2016	16,0	18,8	9,6	27,1
2017	14,0*	19,4	9,8	16,7
2018	14,0	18,5	9.4	20,3

Pul-kredit siyosati asosida iqtisodiyotga pul-kredit siyosatining ta'sir etishi jarayonlarini o'rganuvchi pul nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga ikki xil yondashuvchi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillardan beri tortishuvlar bo'lib kelmoqda. Bularga neokeynschilar nazariyasi va zamonoviy pul miqdori nazariyasi tarafdorlarini kiritamiz. Har ikki

[84] Экономика Узбекистана., Информационно - аналитический бюллетень за январь-март 2019., 2019.-июнь., с.13., "O'zbekiston Iqtisodiyoti". 2018-yil uchun axborot - tahliliy byuleteni. T.: 2019. avgust., 22- b. Pul-kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetar siyosatning 2018-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. / Bank axborotnomasi, №6, 2018-yil fevral ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

nazariya tarafdorlari ham pul taklifining nominal YaIM ga ta'sirini inkor etmaydilar, ammo bu ta'sirning ahamiyatiga har xil baho beradilar. Keynschilar fikricha, monetar siyosat yuritishda foiz stavkasi darajasiga asoslanishi, monetaristlar fikricha esa, pul taklifining darajasiga asoslanishi lozim. Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb hisoblashadi, monetaristlar esa uni ortiqcha deb hisoblaydilar.

Keynschilar pul taklifining yalpi ichki mahsalotga ta'sirini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi deb hisoblashadi:

– pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasining o'zgarishiga olib keladi;

– foiz stavkasining o'zgarishi o'z navbatida, investitsiyalarga bo'lgan talabning o'zgartiradi;

– investitsiyalarga talab o'zgarishi yalpi talab (yalpi xarajatlarning o'zgarishiga olib keladi;

– yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga (yalpi ichki mahsulotga) ta'sir etadi.

Monetaristlar esa pul miqdorining o'zgarishi bilan yalpi ichki mahsulot o'zgarishi o'rtasida yaqinroq aloqa mavjud; ya'ni, pul miqdorining o'zgarishi bevosita yalpi milliy mahsulot o'zgarishiga olib keladi deb hisoblashadi. Buni ular pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan izohlaydilar.

Ayni paytda monetaristlar pulning aylanish tezligini barqaror deb hisoblaydilar, keynschilar esa, aksincha, beqaror deydilar.

Hozirda mavjud bo'lgan monetaristik siyosatning modellari bu ikki yondashuvni sintez qilgan, ya'ni, bu yondashuvlarning ijobiy jihatlarini qo'shib, o'zida aks ettiradi. Pul kredit siyosatining uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun monetaristik yondashuv ko'proq ishlatiladi. Shu bilan birga, qisqa muddatli davrlarda esa davlat foiz stavkasiga ta'sir etish usulidan voz kechmaydi.

Markaziy bank bir vaqtning o'zida ham pul massasini, ham foiz stavkasini o'zgartirmasdan ushlab turaolmaydi. Pulga talab o'sgan holatlarda maqsad foiz stavkasining barqarorligini ta'minlash bo'lsa Markaziy bank pul taklifini oshirishga majbur bo'ladi. Bu tadbir yumshoq pul kredit siyosati deb yuritiladi.

Pul massasining ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun pul taklifini cheklash siyosatini qo‘llash foiz stavkasining ko‘tarilishiga olib keladi va bu siyosat qattiq pul kredit siyosati deb yuritiladi.

Agar pulga talab inflyatsiya ta’sirida ko‘paysa qattiq pul kredit siyosatini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mabodo pulga talab ishlab chiqarish va daromadlarning o‘sishi oqibatida oshsa yumshoq pul kredit siyosatini qo‘llash o‘rinlidir.

Pul kredit siyosatining ishlab chiqarish hajmiga ta’siri birinchi paragrafda ta’kidlanganidek, pul taklifi o‘zgarishining foiz stavkasi darajasiga, foiz stavkasi o‘zgarishining esa investitsiya xarajatlari hajmiga (bu bilan yalpi xarajatlar hajmiga ham) va yalpi xarajatlar o‘zgarishining ishlab chiqarish, ya’ni yalpi taklif hajmiga ta’siri ko‘rinishida bosqichma - bosqich ro‘y beradi. Foiz stavkasining pul taklifi o‘zgarishiga tasirchanligi, yoki investitsiya xarajatlarining foiz stavkasi o‘zgarishiga ta’sirchanligi past bo‘lishi pul kredit siyosatini amalga oshirishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Pul-kredit siyosati fiskal va savdo siyosatlari bilan chambarchas bog‘liq. Agarda Markaziy bank qayd qilingan valyuta kursini saqlab turishni maqsad qilib qo‘ysa mustaqil (ichki) pul siyosatini olib borish mumkin bo‘lmay qoladi. Chunki almashinuv kursini ta’minlab turish uchun valyuta zaxiralarini ko‘paytirib yoki kamaytirib turish iqtisodiyotda pul hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Pul-kredit va fiskal siyosatlarni muvofiqlashtirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar ham mavjud. Agarda hukumat iqtisodiyotni davlat xarajatlarini oshirish orqali qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko‘proq pul-kredit siyosatining xarakteriga bog‘liq. Chunki, bu mo‘ljallanayotgan xarajatlar qimmatli qog‘ozlar (ya’ni obligatsiyalar)ni chiqarish evaziga amalga oshsa, pulga bo‘lgan talab oshadi va natijada esa foiz stavkalari ko‘tariladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Yoki Markaziy bank hukumatning yuqoridagi siyosatini qo‘llab-quvvatlash uchun pul taklifini ma’lum miqdorda ko‘paytirsa, pul qadrsizlanishi mumkin. Umuman, barqaror pul-kredit siyosati hukumat tomonidan olib boriladigan fiskal siyosatga hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

7.2. Pulga bo‘lgan talab, pul taklifi va pul agregatlari

Pul – iqtisodiyot subyektlari mulkining bir turi bo‘lib, mulkning boshqa turlaridan ikki xususiyatiga ko‘ra farq qilad: birinchidan, pul yuqori likvidliliklar, ya’ni qisqa muddatda, sezilarsiz sarf - xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatiga ega; ikkinchidan, baholar o‘zgarmas bo‘lgan sharoitda pul yoki hech qanday daromad keltirmaydi, yoki uning daromadliligi darajasi boshqa mulk turlarinikidan ancha kam. Shunga qaramasdan kishilar nima uchun mulk sifatida pulga egalik qilishga harakat qiladilar? Bu savolga javobni pulning funksiyalaridan topamiz.

Odatda pulning uch asosiy funksiyasi mavjud deb qaraladi.

Bular:

– To‘lov vositasi (almashinuv vositasi);

– qiymat o‘lchovi vositasi;

– jamg‘arish (boylik to‘plash) vositasi.

Pulga bo‘lgan talab pul taklifi haqidagi ma’lumotlar.

Pulning miqdoriy nazariyasi pulga bo‘lgan talabni almashinuv tenglamasi yordamida aniqlaydi:

$$M \cdot V = P \cdot Y \qquad (7.1)$$

Ushbu formulada:

M – muomaladagi pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi;

P – baholar darajasi (baho indeksi);

Y – real YaIM.

Pulning aylanish tezligi, iqtisodiyotda bitimlar tarkibi nisbatan barqaror bo‘lganligi uchun ham doimiy kattalik deb qabul qilinadi. Ammo bank tizimiga hisob-kitoblarni tezlashtiruvchi texnik vositalar joriy qilinishi natijasida u o‘zgarishi mumkin. V – doimiy bo‘lgan sharoitda almashtirish tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$M \cdot V^* = P \cdot Y$ (Fisher tenglamasi), bundan: (7.2.)

$$M = \frac{P \cdot Y}{V^*} \qquad (7.3)$$

P · Y – nominal YaIM miqdorini bildirishini va doimiy miqdorligini hisobga olsak, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar miqdori va ularning bahosi o‘zgarishlariga, boshqacha aytganda, nominal YaIM o‘zgarishiga bog‘liq. Muomaladagi pul massasining o‘zgarishi, klassik nazariyaga ko‘ra, Y - sekin o‘zgarishi tufayli asosan baholar darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat “pulning neytralligi” nomini olgan.

Monetaristlar qoidasiga ko‘ra hukumat pul massasining o‘sish sur’atini, real YaMMning o‘rtacha o‘sish sur’ati darajasida ta’minlab tursalar iqtisodiyotda baholar darajasi barqaror bo‘ladi.

Fisher tenglamasidan tashqari, bu tenglamaning boshqa bir shakli Kembrij tenglamasidan ham keng foydalaniladi:

$$M=k*PY \qquad (7.4)$$

Ushbu formulada:

k= 1/V – pulning aylanish tezligiga teskari miqdor.

k – koeffitsiyentni nominal pul miqdori (M)ning daromadlar (P·Y)dagi ulushini ko‘rsatadi.

Kembrij tenglamasi turli darajada daromadli bo‘lgan turlicha moliyaviy aktivlar mavjudligini va daromadni ularning qaysi biri ko‘rinishida saqlashni tanlash imkoniyati mavjudligini ko‘zda tutadi.

Pulga real talab quyidagi ko‘rinishda hisoblanadi:

$$(M/P)\,D = k\,Y \quad . \qquad (7.5)$$

Ushbu formulada:

M/R – “real pul qoldig‘i”, “pul mablag‘larining real zaxira si” deb nomlanadi.

Pulga talabning Keyns nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi, pulni naqd ko‘rinishda saqlashga kishilarni undovchi uch sababni ajratib ko‘rsatadi:

– transaksion sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab);

– ehtiyotkorlik sababli (ko‘zda tutilmagan holatlar uchun ma’lum miqdorda naqd pullarni saqlash);

– spekulyativ sabab (foyda olish maqsadida qimmatli qog‘ozlar sotib olish uchun pulga talab).

Spekulyativ sabab foiz stavkasi bilan obligatsiyalar kursi o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikka asoslanadi. Agar foiz stavkasi ko‘tarilsa, obligatsiyalar bahosi pasayadi, ularga talab esa oshadi. Bu esa o‘z navbatida, naqd pul zaxiralarining qisqarishiga hamda naqd pullarga talabning pasayishiga olib keladi.

Pul likvidlilik xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun ham aholi uni saqlashni afzal biladi. Likvidlilikning afzalligi nazariyasi ko‘rsatadiki, pulga bo‘lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog‘liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo‘lda ushlab turishning muqobil xarajatlari miqdorini, ya’ni siz foiz olib kelmaydigan naqd pullarni qo‘lda ushlab turgan sharoitda yo‘qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta’sir qilganidek, naqd pullarni qo‘lda ushlab turish miqdori ham pul zaxiralariga talab miqdoriga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini naqd pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.

Real pul zaxiralariga talab funksiyasini quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$M/R = f(R) \qquad (7.6)$$

Bu tenglama ko‘rsatayaptiki, pulga bo‘lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiyasi ekan. Grafikda foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga talab teskari bog‘liklikka ega ekanligi ko‘rinadi. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko‘rsatadi.

Klassik va keynschilarga xos yondashuvlarni umumlashtirib, pulga talabning quyidagi omillarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– daromadlar darajasi;

– pulning aylanish tezligi;

– foiz stavkasi.

Agar klassik nazariya pulga talabni asosan, real daromad hajmi bilan bog‘lasa, keynschilarda esa pulga talab asosan, foiz stavkasiga bog‘liq deb hisoblanadi.



7.2-rasm. Pulga talab grafigi.[85]

Pulning aylanish tezligini hisobga olmaganda, real pul qoldig'iga talab formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$(M/P)\,D = f(R, Y); \qquad (7.7)$$

Ushbu formulada;

R – foiz stavkasi;

Y – real daromad.

Chiziqli bog'liqlikni e'tiborga olsak, quyidagicha formula hosil bo'ladi:

$$(M/P)D = kY - hR \qquad (7.8)$$

Ushbu formulada,

k va h – pulga talabning daromadlar va foiz stavkasiga ta'sirchanligini ifodalovchi koeffitsiyentlar;

k – foiz stavkasi (real foiz stavkasi).

Real foiz stavkasi nominal foiz stavkasidan inflyatsiya sur'atini ayirib topiladi.

Daromad darajasining o'zgarishi foiz stavkasi o'zgarmas bo'lgan sharoitda ham pulga talabning ko'payishiga olib keladi. Bu grafikda pulga talab egri chizig'ining siljishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Pul taklifi o'z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va zarur bo'lganda iqtisodiy agentlar bitimlar uchun ishlatishi mumkin bo'lgan depozitlarni oladi:

[85] Mualliflar tomonidan ishlangan.

$$M_S = S+D \qquad (7.9)$$

Ushbu formulada,

M_S – pul taklifi;

S – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar;

D – iqtisodiy agentlar bitimlar uchun ishlatishi mumkin bo'lgan depozitlar.

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishda monopol huquqqa ega. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida. " Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarish mutlaq huquqiga ega"[86]. Ammo pul taklifini ko'paytirish imkoniga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar bera borib, to'lov vositalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti 2000 (birlik)ga o'sgan bo'lsa, zaxira normasi 20 foizga teng bo'lganda (zaxira normasi – tijorat banklar depozitlarining ma'lum qismini Markaziy bankda saqlab turish normasi), u 400 (birlik)ni Markaziy bankda zaxiralab, qolgan 1600 (birlik)ni qarzga beradi. Shunday qilib, A bank pul taklifini 1600 (birlik)ga ko'paytiradi va u endi 2000+1600=3600 (birlik)ni tashkil etadi. Ya'ni omonatchilarning depozitlardagi 2000 so'mdan tashqari yana 1600 so'm qarz oluvchilar qo'lida qoladi. Agar, 1600 (birlik) yana bankka tushsa, (masalan, B bankka) unda 20 foizga teng bo'lgan zaxira normasida u 320 (birlik)ni zaxirada qoldirib, 1280 (birlik)ni kreditga beradi hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so'nggi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi. Yakuniy hisob-kitob bank depozitlari jami 10000 (birlik)ga ko'payganligini ko'rsatadi. Bu jarayonni formula ko'rinishida quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$M = (1/rr) \times D \qquad (7.10)$$

Ushbu formulada,

[86] O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida"gi Qonuni, 1995-yil. 21-dekabr / O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2003., 18-.b

M – pul taklifi hajmi;
rr – majburiy zaxiralash normasi ;
D – dastlabki depozit.

Keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, pul taklifi 1/rr koeffitsiyentiga bog'liq bo'lib, uni bank multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori, deb ataladi. U ushbu bank zaxiralar normasida ortiqcha zaxiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarining eng ko'p miqdorini bildiradi.

Pulning yuqori likvidliligi va qiymatni saqlab turishi xususiyatlar barcha turdagi to'lov vositalarida bir xil emas. Naqd pullar va muddatsiz depozitlarning likvidliligi darajasi muddatli depozitlarga yoki veksellarga qaraganda yuqoriroq. Shu sababli, pul massasi likvidlilik darajasining pasayib borishi tamoyiliga asoslangan agregatlarga bo'linadi. O'zbekistonda pul massasini aniqlashda - M0; M1; M2; M3; M4 deb belgilanadigan pul agregatlaridan foydalaniladi.



7.3 - rasm. O'zbekistonda umumiy pul miqdorini hisoblash uchun qo'llaniladigan pul agregatlari.[87]

[87] Mualliflar tomonidan ishlangan.

Pul agregatlarining tarkibi va miqdori turli mamlakatlarda o'zaro farq qilish mumkin, ya'ni rivojlangan mamlakatlarda pul massasini aniqlashda - M1; M2; M3; M4 deb belgilanadigan pul agregatlaridan foydalaniladi.

Makroiqtisodiy tahlilda M_1 va M_2 pul agregatlari eng ko'p foydalaniladi. Pul agregatlarining dinamikasi turli sabablarga bog'liq. Masalan, daromadlarning oshishi natijasida M_1ga talab tezroq o'ssa, foiz stavkasining o'sishi natijasida M_2 va M_3ga talab M_1ga nisbatan tezroq o'sadi.

7.3. Pul-kredit sektori tahlili uslubiyati

Pul-kredit masalasining asosiy maqsadi – pul-krediti tartibot organlarining ko'p miqdorda ta'sir qila olishi mumkin bo'lgan va o'zlari ham ma'lum miqdorda boshqa iqtisodiy agregatlarga ta'sir eta oluvchi, moliyaviy agregatlarning tahlilini ta'minlab berishdir. Buning uchun pul-depozit banklari va pul-kredit organlarining balans-hisobot ma'lumotlar iqtisodchi va siyosiy iqtisodni o'zlashtirishga javobgar shaxslarni qiziqtirish bir necha toifalarga ajratiladi.

Bir qancha sabablarga ko'ra, pul-kredit tekshiruvchi faqatgina yuqorida qayd etilgan moliyaviy vositalarni qamrab oladi. Birinchidan, muhlatli depozitda va naqd holda, butunlay likvid holda mamlakat iqtisodiyotidagi sarf-xarajatlaring kattaligiga, shu bilan ishlab chiqarish hamda bandlikka nisbatan qattiq va bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, bank moliyaviy vosita muassasalarining balans hisobotlari, qoidaga asosan, faqat mavjud to'xtashdan keyingina foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar, lekin ayni vaqtda pul siyosatini shakllantirishda bu ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Nihoyat, pul siyosatini tartibga soluvchi markaziy banklar tomonidan ishlatiladigan uskunalar pul-depozit banklari operatsiyalariga ko'pincha bevosita ta'sir ko'rsatadi, lekin ularning boshqa moliyaviy muassasalari operatsiyalariga ta'siri kamroq namoyon bo'ladi.

Ichki kredit (bank tizimining aktivi) bank tizimining davlat boshqaruv organlari, boshqa davlat muassasalari va xususiy sektorlar (masalan, pul-kredit xarakteriga ega bo'lmagan xususiy shaxslar korporatsiya, moliyaviy muassasalar) barcha to'lanmagan talablarni o'z ichiga oladi. Butun xalqaro bank kredit, shuningdek, Markaziy

bank tomonidan pul-depozit banki (tomoni) taklif etilgan kreditlar, korporatsiya jarayonidan istisno qilinadi.

Pul-kredit masalasida markaziy hukumat talablari bank tizimida hukumat depozitlarini ushlab qolish bilan ko'rsatiladi.

Bunday munosabat markaziy hukumat operatsiyalarining mamlakat iqtisodiyoti likvidligiga ta'sirini o'lchash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, markaziy hukumat siyosiy-iqtisodiyotga javobgardir va shuning uchun uning xarajatlari bo'yicha qarorlari, qoidaga binoan, bank depozitlari summasiga bog'liq emas, balki kengroq idrok qilish asosida qabul qilinadi. Davlat muassasalariga talablar alohida modda holida va jami hisoblab chiqilib ko'rsatiladi, chunki ular mavjud depozitlarning xarajatiga ta'sir ko'rsatilganidek hisoblanadi.

Shunga o'xshash sababga ko'ra, yalpi hisoblab chiqilganda boshqa sektorga ham talablar ko'rsatiladi.

Pul sohasidagi o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan baholashda va ularni iqtisodiyotning boshqa sektorlari bilan bog'lanishi uchun pul-kredit masalasi asos bo'lib xizmat qiladi. Pul-kredit masalasining asosiy ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

$$NFA+DS-MQ+DIN \qquad (7.11)$$

Ushbu formulada,

NFA – tashqi netto aktivlar;

DS – ichki kredit;

MQ – keng ma'nodagi pullar, ya'ni tor ma'nodagi pullar, plyus kvazi – pullar.

Pul-kredit tartibot organlarining muhim masalasi – bu, boshqa makroiqtisodiy o'zgarishlarning istalgan yoki kutilgan mohiyatga munosib, yuqorida keltirilgan o'zgaruvchilarning kelgusidagi mohiyatini ta'riflashdir. Bundagi, birinchi va asosiy qadam – bu pulga talab haqidagi ma'lumotdir.

Pulga bo'lgan ehtiyojning ikki asosiy ko'rinishi mavjud. Birinchi, nominal pulning ko'plik massasiga bo'lgan munosabatiga belgilangan, pul massasi aylanish tezligi oxirgi o'zgarishining ekstropolirovkalash.

Agar oxirgi bir necha yillar ichida aylanish tezligi ravon belgilanishga muvofiq o‘zgargan bo‘lsa, bunga asosan bashoratlanayotgan davr qiymatini baholash mumkin.

Pul massasining aylanish tezligi ma’nosi shu holda aniqlanganda, shuningdek, foiz stavkalari va inflyatsiya kutilishi o‘zgarishlarini ko‘rsatish maqsadida tuzatishlar kiritish mumkin. Pul aylanishi haqidagi ma’lumotni pulga bo‘lgan talab miqdori munosib rejalashtirilgan yoki nominal TIM ma’lumoti mazmunini oldindan bilish uchun ishlatish mumkin.

Ma’lumot berishning bunday usuli darajasi past yoki yetarli emas, ma’lumotlarning tahlil qilish qiyin, shuningdek, moliyaviy sektor tuzilishida institutsional o‘zgarishlar ahamiyatga ega bo‘lgan mamlakatlarda, ayniqsa, foydalidir.

Ikkinchi usul-elektrik usuldan foydalanishga asoslangan pulga talab miqdorini baholashdir. Taxmin qilinishicha, iqtisodiy agentlarning moliyaviy qarorlari uncha ko‘p bo‘lmagan iqtisodiy o‘zgarishlarning vazifasi sifatida va pul agregatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va tushuntirish mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar ma’lum vaqt ichida o‘zgarmasligini ko‘rish mumkin.

Modomiki, aholi o‘z xohishiga ko‘ra, ushlab turishga tayyor pul miqdori uning sotib olish qudratiga bog‘liq, pulga ehtiyojning tenglashishi real ma’noda uning ishlatish miqdori bilan yoziladi. Aynan qaysi pul ta’rifini hisob-kitob uchun ishlatish empir natijalari bilan belgilanishi kerak. Aholi tomonidan eng barqaror, talab qilinadigan pul agregatini oldindan aniqlash mumkin emas. Qoidaga binoan, pul massasini aniqlashga kirishayotgan nodavlat siyosati oldida bank tizimi majburiyatining bu tomoni qancha ko‘p bo‘lsa, bunday aniqlash pul-kredit sohasidan ma’lumot berishga shunchalik foydalidir. Biroq pul agregatining aniqlanishi qanchalik keng bo‘lsa, pul-kredit tartibot organi uning miqdorini nazorat qilishi shunchalik mushkuldir.

Iqtisodiy operatsiyalar bilan bog‘liq holda, o‘zgarish miqdorini tushuntiruvchi sifatida, pulga talab funksiyasi keng miqyosida ishlatiladi – qoidaga asosan, real va o‘zgaruvchan boshqa moliyaviy yoki real aktivlar bilan solishtirilganida pulni saqlashning nisbatan jalb qilinishi aks ettiriladi.

O‘zgaruvchi muqobil narxni tanlashda qaysidir darajada pul agregatining ishlatilayotgan ta’rifi yoki mamlakat institutsional

tuzilishiga bog'liqdir. Foizlik daromad keltirmaydigan pul aktivlarini saqlash muqobil narx eng mos keladigan o'lchovi – bu, namoyon bo'luvchi nominal foiz stavkasidir. Foizli daromad keltiruvchi pul aktivlariga foiz stavkalarining pulga va boshqa moliyaviy aktivlariga o'lchashning o'zaro farqlovchi o'zgaruvchanligi ko'proq munosibdir.

Shaxsiy sektor oldida bank tizimining moliyaviy majburiyati shaxsiy sektor moliyaviy aktivlari majmuasining ko'proq qismini o'zida aks ettiruvchi mamlakatlarda real foiz stavkalari ba'zan real aktivlarining daromadi bilan moliyaviy aktiv daromadlari o'rtasidagi o'lchov sifatida ishlatiladi. Foiz stavkalarining uzoq vaqt mobaynida o'zgarmas miqdorini aniqlash uchun bir darajada Inflyatsiya o'zgarishi haqidagi ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Tenglashtirishda barqaror o'zaro aloqa o'rnatilgandan keyin, foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi kutilayotgan yoki dasturlashtirilgan TIM ning real o'sish ma'nosini aks ettiruvchi kauzal o'zgarishlar miqdori asosida kelajakda pulga bo'lgan talab ma'lumotini olish mumkin.

Pul massasi miqdorining ma'lumoti, pul-kredit passivlarining tekshirish ma'lumotining asosiy elementidir. Aktivlarga to'xtalganimizda, sof xorijiy aktivlarning miqdori o'zgarishini umumiy tashqi saldo to'lovlari ma'lumoti yordamida aniqlash, boshqa moddalari (OIN) ma'lumoti to'liq axborot yo'q hollarda tegishli trendga asoslanishi mumkin. Boshqa moddalar xalqaro zaxiralarni tashkil qiluvchi valyuta kursini ayirboshlash natijasida sof xorijiy aktivlar miqdorining o'zgarish ekvivalentini o'z ichiga oladi.

Sof xorijiy aktivlar va boshqa moddalrning ma'lumot berish davridagi mohiyati, shuningdek, pulga bo'lgan talab ma'lumotini, tenglashtirishga munosib ichki kredit miqdorining yagona mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Sof kreditning davlat siyosatiga to'lov o'zgarishi, bank tizimida davlat siyosatining sof qarzi budjet ma'lumotiga asoslangan umumiy kredit miqdori va davlat krediti o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi shaxsiy kredit siyosati qoldiqli miqdor sifatida hisoblab chiqiladi. Shaxsiy sektorga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan kredit summasining muvofiqligiga baho berish muhimdir.

Pul-kredit tartibidagi organlarga pul siyosati oraliq yo'nalishi bo'lgan pul-kredit asosiy o'zgaruvchanlik tekshiruvning rejaviy mazmuniga erishish uchun operatsion belgilangan o'zgarishlar

ma'lumotlari ham zarur. Bunday ma'lumotlar to'planadi. Munosib o'xshashlik quyidagicha yozilishi mumkin:

$$NFA^{*}+NDJJ^{*}+SSB^{*}qRM^{*}qDIN^{*} \qquad (7.12)$$

Ushbu formulada:
NFA – pul-kredit organlarining sof xorijiy aktivlari;
NDJJ – davlatga sof ichki kredit;
SSB – tijorat banklariga talablar;
RM – zaxira pullar;
DIN – boshqa moddalar, netto.
*- pul-kredit tartibining hisob belgisidir.

Pul-kredit tekshiruvida aks etgan konsalidar bank tizimi M2 pul agregatining miqdoriy o'zgarishlari bilan quyidagi tenglik yordamida bog'liq bo'lishi mumkin:

Iqtisodiyotda mavjud pul massasi yalpi talabga ta'sir ko'rsatib, pul massasi yalpi talabni ifodalaydi. Yalpi taklifni ma'lum darajada ushlab turish Markaziy bankning vazifasi bo'lib, u muomalaga chiqaradigan pul taklifi dastagi orqali boshqarilib turadi. Bu bilan aholining iste'mol va jamg'arma hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

7.4. O'zbekistonda pul-kredit siyosati va pul-kredit sektorining tarkibi tahlili

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi sektorlar tizimi hisoblanadi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo, mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ko'pgina muhim iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida bank-moliya tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirilishini va iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning bir butun mexanizmining yaratilishini taqozo etmoqda.

Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, uni amalga oshirish huquqi faqatgina Markaziy bankka berilgan hamda bu siyosat Markaziy bankning eng asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi[88]. Pul-kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vosita (instrument)lar orqali amalga oshiriladi.

Bevosita vositalar – Moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish orqali olib boriladi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit ko‘rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmi nazorat qilinadi.

Bilvosita vositalar – Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslariga bozor mexanizmlari (majburiy zaxira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta’sir ko‘rsatishi.

Aksariyat mamlakatlarda qo‘llanilib kelayotgan pul-kredit siyosatining vositalaridan biri, bu tijorat banklarining majburiyatlariga nisbatan majburiy zaxira talablari me’yoridir. Pul-kredit siyosatining bu vositasi qo‘llanilish jihatidan sodda bo‘lib, tijorat banklarining to‘lovga qobiliyatliligi darajasiga ta’sir qiladi. Shuning uchun hozirda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda pul-kredit siyosatining bilvosita usullaridan aynan shu vositasi keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda, shu jumladan, O‘zbekistonda eng samarali vosita (instrument) ham aynan shu vositadir. Majburiy zaxira talablari bu o‘z majburiyatlariga nisbatan tijorat banklarining Markaziy bankda saqlashlari shart bo‘lgan depozitning majburiy darajasi (me’yori)dir.

[88] Internet ma’lumotlari: https://sputniknews-uz.com/economy/2018 Markaziy bank Boshqaruvi qayta moliyalash stavkasini 2018-yilning 25-sentyabridan 2 foiz bandga oshirib, yillik 16 foiz darajasida belgilash to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Majburiy zaxira me'yorini o'zgartirish orqali Markaziy bank mamlakatdagi pul massasi hajmiga va tijorat banklarining kredit berish salohiyatiga hamda tijorat banklarining to'lovga qobiliyatliligiga ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank majburiy zaxira stavkasini oshirgan taqdirda tijorat banklarining kredit berish salohiyati pasayadi, bu esa, o'z navbatida, mamlakatda pul taklifi hajmini pasaytiradi va aksincha, majburiy zaxira stavkasi kamaytirilganda banklarning kredit berish salohiyati ortadi[89].

Markaziy bank o'zi belgilagan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to'g'risida banklarga ko'rsatma beradi. Markaziy bankda depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlarning eng kam miqdori Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari bilan belgilanib, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Majburiy rezervlarning miqdorlari jalb etilgan mablag'lar va omonatlarning har bir toifasi bo'yicha barcha banklar uchun bir xildir.

Majburiy rezervlar Markaziy bankda naqd pul yoki omonatlar ko'rinishida, Markaziy bank belgilaydigan tartibda depozitga o'tkaziladi.

Majburiy rezerv talablarining normativlari yoki tarkibi belgilangani yoki o'zgartirilgani to'g'risidagi ko'rsatmalarda kamida bir oylik muddat ko'rsatiladi, rezervlarning tarkibi yoki miqdoriga doir yangi normativlarni banklar ana shu muddatgacha bajarishlari shart. O'z navbatida, Markaziy bank majburiy rezervlar bo'yicha foizlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Pul-kredit siyosatida pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozor operatsiyalaridan, ya'ni qimmatbaho davlat qog'ozlarini taklif qilish usulidan ham keng foydalaniladi. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi.

Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni bozorda sotish yoki xarid qilish yo'li bilan pul taklifiga ta'sir etadi, ya'ni pul bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi. Deylik, pul bozorida muomalada pul

[89] Internet ma'lumotlari: Read more: https://sputniknews-uz.com/economy/20180922/9499947/Markaziy-bank-avta-molivalash-stavkasi-16-foiz-etib-belgilandi.html Ajratilayotgan kredit qo'yilmalarining qariyb yarmi davlat dasturlari doirasidagi kreditlar hissasiga to'g'ri kelishi, shuningdek, 2018-yilning 1-oktyabridan boshlab joriy etiladigan majburiy rezervlar bo'yicha yangi normativlar depozitlar bo'yicha foiz stavkalari oshganda ham kreditlar bo'yicha stavkalarni oshirish zaruratini kamaytirib banklarga foiz yuklamasini pasaytirish imkonini beradi.

miqdori ortiqchaligi mavjud. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirish yoki yo‘q qilishga harakat qiladi. Buning uchun, u o‘z qimmatli qog‘ozlarini ochiq bozorda aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatbaho qog‘ozlarining (sotish yoki xarid qilish yo‘li bilan) taklifi oshib borgan sari, unga bo‘lgan bahosi pasayadi, o‘z navbatida, unga bo‘lgan foiz (ya’ni qimmatli qog‘ozlarini sotib olganlarga foiz shaklida haq to‘lanadi) oshadi, bu esa unga bo‘lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog‘ozlarni ko‘proq xarid qila boshlaydi, pirovard natijada banklarning zaxiralari qisqaradi, o‘z navbatida, bu hol pul taklifining bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga olib keladi. Bu esa bank zaxira va pul taklifming ortishiga sabab bo‘ladi.

Amalda Markaziy bank yuqoridagi uchta asosiy instrumentlardan tashqari diskont siyosati, targetirlash va boshqa usullardan ham foyda-lanishi mumkin.

Respublikamizda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari hamda Markaziy bank tomonidan qat’i monetar siyosatining yuritilishi, o‘z navbatida, mamlakatimizning pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari dinamikasida, jumladan, tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo‘yicha hamda banklararo kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarida o‘z aksini topmoqda. Xususan, 2018-yil davomida aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadining oshishi hisobiga respublikamizdagi moliya institutlari resurs bazasining kengayishi banklararo pul bozoridagi resurslar taklifming ko‘payishiga va o‘z navbatida, moliyaviy resurslar narxining arzonlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning va unga mos ravishda aholi daromadlarining yildan-yilga yuqori sur’atlar bilan o‘sishi, bank tizimiga bo‘lgan ishonchning ortib borishi hamda iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarning pasayib borishi kabi omillar ta’sirida 2018-yilda bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalarining pasayishi kuzatildi. Xususan, jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi jami depozitlari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi 2017-yildagi o‘rtacha yillik 6,0 foizdan 2018-yilda 5 foizgacha pasaydi.

Shuningdek, banklararo pul bozoridagi operatsiyalar hamda depozitlarni jalb qilish bo‘yicha foiz stavkalarining pasayishi natijasida tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bo‘yicha, jumladan,

iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlash bo'yicha foiz stavkalari ham sezilarli miqdorda pasaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati mamlakatda YaIM, bandlik va baholar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bundan keyin ham ichki va tashqi moliya bozorlaridagi o'zgarishlarni inobatga olib, monetar siyosatning tegishli bozor instrumentlarini keng qo'llagan holda qat'i pul-kredit siyosatini yuritish lozim. Bunda monetar siyosat instrumentlarining samaradorligini yanada oshirish va ko'rilayotgan chora-tadbirlarning pul bozori holatiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadli ishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakatimizda pul-kredit siyosatining samaradorligining yanada oshishiga xizmat qiladi:

– Markaziy bank tomonidan bank tizimi likvidligini doimiy ravishda monitoring qilish orqali tijorat banklarining vakillik hisobvarag'idagi va boshqa yuqori likvidli aktivlarining harakati tahlil qilib borish va ularning eng maqbul darajada bo'lishini ta'minlash;

– majburiy rezervlar normasi bank tizimining likvidlik darajasi pul massasi va tijorat banklari kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atlaridan kelib chiqqan holda belgilash hamda zarur hollarda o'zgartirib borish;

– bank tizimida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ortiqcha likvidlikning inflyatsion bosimining oldini olish hamda pul massasini tartibga solish maqsadida tijorat banklarining bo'sh turgan pul mablag'larini Markaziy bankdagi turli muddatli depozitlarga jalb qilish orqali sterilizatsiya operatsiyalarini o'tkazib borish;

– bank tizimida vaqtinchalik likvidlik yetishmovchiligi yuzaga kelgan hollarda Markaziy bank tomonidan likvidlik bilan ta'minlash instrumentlaridan, xususan, Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridan xorijiy valyutani (AQSH dollari, yevro, yapon ienasi va funt sterling), belgilangan muddat va almashinuv kursida qayta sotish sharti bilan, sotib olish operatsiyalari – valyutaviy SVOP operatsiyalaridan foydalanish;

– ichki valyuta bozoridagi barqarorlikni va so'mning almashuv kursining belgilangan koridor doirasida bo'lishini ta'minlash maqsa-

dida Markaziy bank banklararo valyuta bozorida oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish;

– bank tizimi likvidligini tartibga solish tizimini bozor tamoyillari asosida yanada takomillashtirish, foiz siyosatining samaradorligini oshirish va pul bozorida foiz xatarlarini pasaytirish.

Fikrimizcha, mamlakatimiz bank tizimini yanada rivojlantirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlashni yanada kengaytirish maqsadida qat'i va samarali pul-kredit siyosatini yuritish hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy rezervlar talablari hamda qayta moliyalashtirish stavkalaridan oqilona foydalanishni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch so'z va iboralar

Pul-kredit siyosati, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, pul vositalari, pul-kredit, pul agregatlari, pul taklifi, banklar, pulning aylanishi, pul talabi, inflyatsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul-kredit siyosatining boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro aloqasini tushuntiring.
2. Pul vositalarining oqimi deganda nimani tushunasiz?
3. Pul-kreditni tartibga soluvchi tashkilotlarni sanab o'ting.
4. Pul agregatlari nima? Ularning iqtisodiy mohiyatini ta'riflab bering.
5. Pulga bo'lgan talab qanday aniqlanadi?
6. Pul taklifi qanday aniqlanadi?
7. Pul-kredit va banklar faoliyatlari o'rtasidagi munosabatlar nimalardan iborat?
8. Pulning aylanish tezligi iqtisodiy mohiyati nimalardan iborat?
9. Pul talabi va inflyatsiya o'rtasida qanday o'zaro bog'liqlik mavjud?
10. Pul-kredit siyosatining samaradorligini oshishiga ta'sir etuvchi omillarni izohlang.

TESTLAR

1. Pul-kredit siyosati tushunchasi to‘liq izohlangan qatorni belgilang.

A. Pul-kredit siyosati – Mamlakat Markaziy banki tomonidan iqtisodiyotning barqaror, samarali amal qilishini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladigan kurs va barqaror pul tizimini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan pul muomalasi va kredit sohasidagi chora-tadbirlar

B. Pul-kredit siyosati - Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining (va boshqa moliyaviy institutlar) depozit hisoblariga tushuvchi mablag‘larning bir qismini majburiy zaxiraga ajratish me’yorini belgilanishi.

C. Pul-kredit siyosati – Mamlakatda pul taklifi miqdoriga bevosita ta’sir ko‘rsatish. Markaziy bank valyuta sotib pul miqdorini qisqartiradi, xarid qilib esa uning miqdorini oshiradi

D. Pul-kredit siyosati - Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog‘ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo‘yicha operatsiyalardir

2. Ichki va tashqi muvozanatni ta’minlash muammosi tovar, pul va valyuta bozorlarining amal qilishiga ....

A. Taalluqlidir
B. Taalluqli emas
C. Har vaqt har xil
D. To‘g‘ri javob yo‘q

3. Mandell-Fleming modeli qanaqa iqtisodiyot modeli hisoblanadi?

A. Kichik ochiq
B. Katta ochiq
C. Kichik yopiq
D. Katta yopiq

4. Pul siyosati ichki daromadlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

A. Bevosita
B. Bilvosita
C. A va V javoblar to‘g‘ri
D. To‘g‘ri javob yo‘q

5. Moliya tizimi deganda nimani tushunasiz?

A. Moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi

B. Iqtisodiyot rivojlanishiga davlatning absolyut aralashmasligi

C. Burjua davlati iqtisodiy rivojlanishi asosiy yo'naltiruvchi

D. Iqtisodiy jarayonlarda odamlarning ijtimoiy munosabatlari asosiydir

6. Valyuta bozori nima.

A. Iqtisodiyot rivojlanishiga davlatning absolyut aralashmasligi;

B. Burjua davlati iqtisodiy rivojlanishi asosiy yo'naltiruvchi;

C. Iqtisodiy jarayonlarda odamlarning ijtimoiy munosabatlari asosiydir;

7. O'zbekistonda umumiy pul miqdorini hisoblash uchun qo'llaniladigan pul agregatlari to'liq keltirgan qatorni ko'rsating?

A. M1; M2; M3; M4

B.M0; M1; M2; M3; M4

C. M1; M2; M3

D. M1; M2; M3; M4; M5

8. Pul agregatlarining tarkibi va miqdori turli mamlakatlarda o'zaro farqlanadimi?

A. Farqlanadi

B. Farqlanmaydi

C. Bilmayman

D. A va V javoblar to'g'ri

9. Pul-kredit masalasining asosiy maqsadi

A. Pul-krediti tartibot organlarining ko'p miqdorda ta'sir qila olishi mumkin bo'lgan va o'zlari ham ma'lum miqdorda boshqa iqtisodiy agregatlarga ta'sir eta oluvchi, moliyaviy agregatlarning tahlilini ta'minlab berishdir.

B. Pul-kredit organlarining balans-hisobot ma'lumotlar iqtisodchi va siyosiy iqtisodni o'zlashtirishga javobgar shaxslarni qiziqtirish bir necha toifalarga ajratiladi.

C. Bilmayman
D. A va V javoblar to‘g‘ri

10. Pulga bo‘lgan ehtiyojning asosiy ko‘rinishi keltirilgan qatorni belgilang.

A. 1. Nominal pulning ko‘plik massasiga bo‘lgan munosabati;
2. Pul massasi aylanish tezligi oxirgi o‘zgarishi.
B. Farqlanmaydi
C. Pulga bo‘lgan ehtiyojning asosiy ko‘rinishi mavjud emas
D. A va S javoblar to‘g‘ri

8-BOB. BUDJET - SOLIQ SEKTORINING IQTISODIY TAHLILI

8.1. Budjet-soliq siyosatini iqtisodiy mazmuni va tamoyillari

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari qatori fiskal siyosat orqali ham erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, budjet-soliq siyosati deb ham aytiladi.

Budjet-soliq siyosati deganda noinflyatsion YaIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Soliq-budjet siyosatiga qat'i amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hajmi, yirik investitsiya loyihalari va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni moliyalashtirish – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish",[90] shu o'rinda mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Yuqorida zikr etilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarishda davlat fiskal siyosati davlat budjeti xarajatlari va daromadlarini o'zgartirish orqali erishiladi. Iqtisodiyotda faollikni oshirish, aholi turmush farovonligini ta'minlash, aholining samarali bandligini ta'minlash hamda shu orqali barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishga harakat qiladi. Ushbu jarayonlarga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Chunki iqtisodiy tebranishlar sharoitida va jahondagi turli tarkibiy o'zgarishlar hamda qo'shni davlatlardagi tashqi iqtisodiy siyosatning o'zgarishi davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatni tubdan takomillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat - fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya'ni davlat qisqa muddatda iqtisodiyotning pasayishi

[90] Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'i tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 1b.

muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yoxud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga hal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi hamda soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o'sishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul holatga olib kelish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat-fiskal restriksiya olib boriladi.

Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliqlarni oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat. Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo'shimcha turtki bo'lishi mumkin.

Davlat budjeti siyosatini yuritishda ikki dastakka egadir. Bular davlat daromadlari va xarajatlaridir. Bularning bevosita va bilvosita usullar deb atash mumkin.

Budjet siyosatining bilvosita usullari bo'lib, soliqlar va soliqsiz to'lovlar orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish kabi tadbirlar hisoblanadi. Soliq stavkalarining o'zgarishi, soliqlar bo'yicha imtiyozlar yaratish yoxud ularni bekor qilish, turli xil to'lovlarni joriy qilish kabi bilvosita usullar orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish mumkin, bunda soliq to'lovlarning moddiy qiziqishlari budjet siyosatidagi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Budjet siyosatining bevosita usullariga esa budjetning xarajatlar qismi orqali ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish kiradi. Tarmoqlarni moliyalashtirish xarajatlari miqdorini o'zgartirish, nochor korxonalarga dotatsiyalar ajratish, subvensiyalar berish, budjet ssudalarini ajratish, ular bo'yicha imtiyozlar joriy qilish, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun kafolatlar berish kabi tadbirlar budjet siyosatining to'g'ridan-to'g'ri usullari hisoblanadi.

Barqaror budjet siyosatini yuritish, o'z navbatida, budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Budjet soliq siyosatini

muvaffaqiyatli amalga oshirish iqtisodiyot oldida turgan muhim vazifalarni xal qilishda asosiy rol uynaydi.

Davlat budjet-soliq siyosatining strategik vazifasi davlat mablag'larini tuzilmaviy qayta qurishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini ta'minlash uchun rivojlanyotgan bozor iqtisodiyoti va uning infratuzilmasiga maqsadli ta'sir ko'rsatishga yo'naltirishdan iborat. Bu yerda budjet-soliq siyosati deganda, davlatning budjet daromadlarini optimal shakllantirish va davlat xarajatlarini ratsionalizatsiya qilish uchun soliq olishni takomillashtirish sohasidagi siyosati tushuniladi.

Ayni paytda budjet-soliq siyosati ishlab chiqarishni o'stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Budjet-soliq siyosatining xususiyati shundan iboratki, u nafaqat davlatning daromadlar bazasini ta'minlash va kelib tushgan pul mablag'larini xarajat qilish, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda inflyatsiyaning past darajasini, aholining optimal bandligini ta'minlashi zarur.

Budjet-soliq siyosati tor ma'noda makroiqtisodiy barqarorlik va mustahkam iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va bosqichma-bosqich valyuta bozorini erkinlashtirish, aholining barqaror moddiy farovonligini ta'minlash hamda aholining ijtimoiy himoyasini oshirish kabi umumdavlat makroiqtisodiy vazifalarni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Budjet-soliq siyosati amaliyotda amalga oshirish nuqtayi nazaridan birlamchi vazifalar o'rtasida to'g'ri muvofiqlikni aniqlash muhim hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, budjet-soliq siyosati doirasida umumiy strategiyani ishlab chiqish bilan bir qatorda navbatdagi amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlarga faqat to'g'ri urg'u berish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tishning muayyan bosqichi vazifalariga mos ravishda budjet-soliq siyosati instrumentlari ham o'zgarib boradi. Milliy iqtisodiyotimizni isloh qilishning bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri davlat budjeti daromad va xarajatlari muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan. Budjet-soliq siyosatining strategik vazifasi davlat xarajatlarini tuzilmaviy qayta qurishni, daromadlarning

yangi manbalarini izlab topishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini ta'minlash uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga maqsadli ta'sir ko'rsatishni yo'naltirishdan iborat. Bunda budjet-soliq siyosati davlatning budjet daromadlarini budjet xarajatlari tarkibiy tuzilishining o'zgarishiga qarab shakllantirish, daromadlarni oqilona sarflash mexanizmini ishlab chiqish sohasidagi siyosat tushuniladi.

Davlat budjeti siyosati davlatning daromadlari va xarajatlarini ratsional shakllantirish, budjet bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, mahalliy budjetlar manfaatlarini muvofiqlashtirib turishni ta'minlashi lozim.

Ayni paytda, budjet-soliq siyosati ishlab chiqarishni o'stirishga va uning samaradorligini oshirishga soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlarini ko'paytirishga karatilgan bo'lishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet-soliq siyosatining asosiy vazifalari iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ya'ni ishlab chiqarishni ragbatlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun soliq siyosati sohasida soliq stavkalarini pasaytirish, yangi investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini berish, tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekistondagi budjet-soliq siyosatining xarakterli xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

– hukumat ijtimoiy-iqtisodiy va budjet-soliq siyosatining o'zaro bog'langanligi va bir-birini to'ldirishi;

– budjet-soliq siyosatining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalishni rag'batlantirishga erishish hamda uni mustahkamlashga yo'naltirishi;

– soliq yig'imini oqilona usulda tashkil etish va soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini ta'minlanishi;

– budjet xarajatlarining ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilishi.

Bir butun olganda mamlakat hukumati tomonidan o'tkazilayotgan budjet-soliq siyosati davlat g'aznasi bilan soliqlarning rag'batlantiruchi roli va budjet xarajatlarining eng maqbul tuzilmasi o'rtasidagi o'zaro nisbatning samaradorligiga erishish imkonini yaratdi. O'z navbatida, daromadlar bo'yicha budjetning barqaror va

to‘laqonli ijrosi budjetda belgilangan barcha tadbirlarni o‘z vaqtida va to‘la moliyalashtirishni ta’minlaydi.

Makroiqtisodiy jihatdan esa davlatning samarali budjet-soliq siyosati investitsiya iqlimini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik pul va moliya bozorlari rivoji, korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish va aholining real daromadlari o‘sishiga imkon beradi.

Soliq tadbirlari budjet tadbirlarini to‘ldirib turadi va ular birgalikda talab majmuasini rivojlantirishga, natijada esa ishlab chiqarishni ham rivojlantirishga olib keladi. Budjet-soliq siyosati pul-kredit siyosati kabi davlatning yaxlit tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

1.Iqtisodiy holatni ko‘tarish davrida davlat budjet-soliq va pul-kredit siyosatida qarama-qarshi tadbirlarni mujassamlashtirib turish siyosatini o‘tkazadi. Ushbu davrdagi budjet-soliq siyosati soliqlar stavkasining ko‘tarilishi, davlat xarajatlarining qisqarishi, amortizatsiya siyosatini o‘tkazish doirasida chegaralanishlar bilan xarakterlanadi.

2.Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash. Buning uchun, eng avvalo, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosi sifatida pul muomalasini barqarorlashtirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish darkor. Faqat barqaror pul tizimi yaratilgan sharoitida xo‘jalik mexanizmining barcha qatnashchilari va tashkiliy qismlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish mumkin.

3.Investitsion faollikni rivojlantirish va uning milliy daromaddagi ulushini ko‘paytirish.

4.Budjetning davlat dotatsiyalari bo‘yicha alohida moddiy ishlab chiqarish sohalariga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish. Xarajatlar orqali budjet, iqtisodiyotni boshqarish va rivojlantirishning muhim dastagi bo‘lib xizmat qiladi .

5.Budjetning daromad bazasini, soliqqa tortishni takomillashtirish va soliqlarni to‘liq to‘lanishi bo‘yicha nazoratni kuchaytirish hisobiga barqarorlashtirish. Soliqlar orqali korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish raqobatbardoshlikni oshiradi, kapital yig‘ilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda turli soliqlardan imtiyozlar berilib, iqtisodiy rivojlanish uchun zamin yaratiladi.

6.Davlat xarajatlarini maqsadli va samarali tashkil qilinishi bo‘yicha moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri – budjet daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashdan iborat. Bunda asosiy o‘rinni budjet-soliq siyosati yaxlitligiga erishish masalasi egallaydi.

8.2. Budjet-soliq siyosatining tarkibiy tuzilishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Budjet uch tarkibiy qismdan – xarajatlarlar, daromadlar qismlari va ular balansidan iborat, ya’ni daromadlarning xarajatlarga muvofiqligi qoidasiga ko‘ra tuziladi. Budjetni shakllantirish, avvalo, uning xarajatlar qismini tuzish yo‘li bilan yuz beradi, chunki davlat o‘zida mavjud moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqib, xarajatlar qilishi mumkin.

Davlat, avvalo, jamiyatni samarali rivojlantirish maqsadida uning zarur mablag‘lari hajmini belgilash va shundan keyingina o‘z qo‘lida bo‘lgan budjet daromad qismini to‘ldirishning asosiy vositasi soliq va boshqa manbalari yordamida ana shu moliyaviy resurslarni jalb etishi kerak. Budjet-soliq siyosati mablag‘lar harakatining aniq yo‘nalishlarini, milliy daromadni qayta taqsimlashni aks ettiradi, bu esa unga mamlakatda iqtisodiyotni va ijtimoiy jarayonlarni samarali boshqarishga imkon beradi.

Iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida budjet davlat siyosatini amalga oshirish quroli, mo‘ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag‘larining asosiy manbasi hisoblanadi. Oxir oqibatda u davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollarini ham hal etishdagi salohiyatni belgilaydi.

Budjet iqtisodiyotga, ishlab chiqarish jarayoniga, xo‘jalik hayotiga davlat tomonidan ta’sir o‘tkazish vositasidir, u davlat iste’molining moliyaviy asosi sifatida namoyon bo‘ladi hamda davlat tomonidan ijtimoiy siyosat olib borish uchun foydalaniladi.

Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida, hukumat organlariga o‘z vakolatlarini amalga oshrish uchun iqtisodiy imkoniyatlar berdi. Budjet davlat uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni aks ettirib, shu bilan birgalikda, mamlakat soliq siyosatini belgilaydi.

Soliq siyosatini o‘zgartirib, davlat muayyan doiralarda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishni rag‘batlantirishi va uning iqtisodiyotda paydo bo‘ladigan salbiy ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymasligi mumkin. Soliqlar yordamida tartibga solish har qanday mamlakatning xo‘jalik hayotini, ya’ni ishlab chiqarish tarkibi, sarmoya jamg‘arish shaxsiy iste’molni qamrab oladi, chunki soliq siyosatining o‘zgarishi mamlakat iqtisodiyotining ta’sirchan vositasidir. Bunday tartibga solishning asosiy maqsadi bo‘lib, korxonalarning ichki va tashqi faoliyati uchun (ayniqsa, investitsiya faoliyatini jonlantirish uchun) soliq iqlimini yaratish hamda sarmoya harakatini tarmoq va mintaqaviy yo‘nalishlarda rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash hisoblanadi. Soliq siyosati yordamida tartibga solish har doim ham samarali natijalar beravermaydi, bunga mavjud iqtisodiy vaziyatni to‘g‘ri baholamaslik uzoq muddatli strategik taxminlashtirishni noto‘g‘ri belgilash, soliq yukining taqsimlanishida nomutanosiblik sabab bo‘lishi mumkin.

Soliq siyosati asosiga budjetga soliq tushumlari hajmlarini soliq stavkalarini oshirish hisobiga emas, balki ishlab chiqarishni tegishli tarmoqlarini va mahsulotlarning ustuvor turlarini rag‘batlantirish vositasida soliq solish bazasini ko‘paytirishga imkon yaratadigan choralar hisobiga oshirish zarurligiga asosiy e’tiborni qaratish lozim.

Soliq siyosati soliqlarning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Soliqlarning ustqurma tartibning subyektiv hodisasi sifatidagi ahamiyati davlat faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu ahamiyat doimiy harakatda bo‘lib, butun xalq xo‘jaligini manfaatlari va maqsadlarini jamlama ko‘rinishda aks ettiradigan holda davlat siyosatini o‘zgarishiga bog‘liqdir.

Davlat budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta’minlashga bir qancha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bunga davlat tuzilishi, siyosiy holat, ichki va tashki siyosat yo‘nalishlari, mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlik aholining ish bilan ta’minlash darajasi, inflyatsiya, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, investorlar uchun yaratilgan qulay investitsion muhitning mavjudligi, aholining turmush darajasi va boshqalar kiradi. Yuqorida keltirib o‘tilgan omil va mezonlar budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta’minlashga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Lekin budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham mavjudki, ular ushbu

siyosatni samaradorligini belgilab berib, davlat tadbirlarining eng muhim dastaklari hisoblanadi. Fikrimizcha, budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashga bevosita ta'sir etuvchi omillar va mezonlar tarkibiga 8.1-jadvalda ko'rsatilgan omillar va mezonlar kiradi.

Ma'lumki, budjet-soliq siyosati yaxlitligiga yuqorida ko'rsatilgan ikki muhim yo'nalishdagi omillar va ularning tarkibiy elementlari jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda asosiy urinni davlat budjeti soliqli daromadlari tashkil etib, uning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi.

Davlat tomonidan o'tkazilayotgan soliq-budjet siyosati davlat g'aznasi bilan soliqlarning rag'batlantiruvchi roli va budjet xarajatlarining eng maqbul tuzilmasi o'rtasidagi o'zaro nisbatning samaradorligiga erishish imkonini yaratdi. O'z navbatida, daromadlar bo'yicha budjetning barqaror va to'laqonli ijrosi budjetda belgilangan barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'la moliyalashtirishni ta'minlaydi.

8.1-jadval

Budjet-soliq siyosati yaxlitligiga ta'sir etuvchi omillar[91]

Budjet-soliq siyosati yaxlitligiga ta'sir etuvchi omillar	**Budjet-soliq siyosati yaxlitligiga ta'sir etuvchi mezonlar**
Budjet daromadlarining tarkibi, tuzilishi va yo'nalishlariga bog'liq omillar	– budjet daromadlarida soliqli va soliqsiz to'lovlar nisbatining o'zgarishi; – yangi soliq va to'lovlarni joriy etish, samarasiz soliqlar va to'lovlarni bekor qilish, soliqsiz to'lovlarning budjetdagi rolini oshirish; – yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq yukini pasaytirish, soliq bazasini kamaytirish, soliq stavkasini pasaytirish, soliq to'lovchilar uchun imtiyozlar berish.
Budjet xarajatlarining tarkibiga bog'liq omillar	– xarajat miqdori va nisbatlarining o'zgarishi; – xarajat tarkibining o'zgarishi; – budjetdan ajratiladigan subsidiya va dotatsiyalar miqdorining o'zgarishi; – davlat budjeti takchilligi darajasi va boshqalar.

[91]**Manba:** Vahobov A.A. Kosimova G.A. va bosh. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi.-T.:«Iqtisod-moliya», 2005.248 b

Makroiqtisodiy jihatdan esa davlatning samarali soliq-budjet siyosati investitsiya iqlimini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik pul va moliya bozorlari rivoji, korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va aholining real daromadlari o'sishiga imkon beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tarqqiy etgan mamlakatlarni budjet soliq siyosati yaxlitligini ta'minlash amaliyoti bilan solishtirganda bizning davlatda ushbu sohani natijasi ularoq har yili budjetimiz profitsit bilan chiqayotganidan ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini moliyalashtirish davlat moliyasi orqali amalga oshiriladi. Davlat moliyasi o'z navbatida davlat budjeti, budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, davlat majburiyatlariga yo'naltiriladi.

Davlat moliyasi – davlat ixtiyorida pul jamg'armalarining tashkil etilishi, taqsimlanishi va sarflanishi sohasidagi moliyaviy munosabatlar. Davlat moliyasining mablag'lari umummilliy manfaatlar yo'lida sarflanadi, davlatning funksiyalarini bajarishga xizmat qiladi. Davlat moliyasi pul jamg'armalari, moliya mexanizmi, davlatning moliyaviy institutlari (idoralari) va moliya siyosatini o'zida mujassamlashtiradi. Davlat moliyasi tarkiban davlat budjeti, mahalliy (munitsipal) budjetlar, davlat korxonalarining moliyasi (ularning budjeti), hukumatga qarashli maxsus jamg'armalar, davlat krediti (davlat qarz olgan va qarzga beradigan vositalari) kabi turlarga bo'linadi.

Ilk marotaba "Davlat moliyasi" atamasi XVI-asrda Fransiyada ishlatila boshladi. O'sha davrda davlat moliyasi turli soliqlar tarzida maydonga keldi. Yirik davlatlarning vujudga kelishi va ular xarajatlarining ortib borishi bilan naqd pulga ehtiyoj o'sdi, natijada xalqdan olinadigan soliqlar, asosan, pul shaklida yig'ib olinadigan bo'ldi, majburiy soliqlar va zayomlar davlat zayomlari bilan almashtirildi. Buning oqibatida Davlat moliyasining murakkab tizimi vujudga keldi.

Hozirgi vaqtda davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini amalga oshirishda Davlat moliyasi katta ahamiyatga ega. U xalqning moddiy va ma'naviy turmush farovonligini oshirish, davlat organlarini mablag' bilan ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotini o'stirish, xalq xo'jaligini, ijtimoiy sohani moliyalashtirish, iqtisodiyotni investitsiyalash, aholini ijtimoiy himoya qilish, milliy xavfsizlikni ta'minlash, davlatni idora qilish va boshqarishda yetakchi vosita hisoblanadi.

Mavjud barcha korxonalar va xalq xo'jaligi tarmoqlari moliyasi Davlat moliyasi va moliya tizimi zaxiralarining asosiy manbayidir.

Mamlakat budjet tizimi Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, Toshkent shahar budjeti, 12 ta viloyatlar budjeti, 199 ta tuman va shaharlar budjeti va qariyb 47 mingta budjet tashkilotlarini o'zida mujassamlashtiradi.



8.1-rasm. Davlat moliyasini taqsimlanishi.[92]

Budjet shakllanishi va foydalanishiga ko'ra mahalliy budjet va davlat budjetiga bo'linadi. Mahalliy budjetlar viloyatlar miqyosida bo'lib ular mahalliy yig'imlar soliqlardan shakllantiriladi. Mahalliy budjet mablag'lari shu viloyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalaniladi (yo'l qurilish, obodonchilik va boshqalar). Davlat budjeti esa respublika miqyosida, davlat soliq yig'imlar bojxona to'lovlari va boshqa yig'imlar orqali shakllantiriladi.

Soliq kodeksining amalda qo'llanilishi respublika va mahalliy budjetlar daromadlarining shakllanishini umumdavlat va mahalliy soliqlar va yig'imlarni belgilash orqali ta'minlovchi soliq tizimini tartibga soldi. Soliq solish jarayonini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy hujjatlar tizimlashtirildi, soliq munosabatlari ishtirokchilari uchun yagona me'yoriy- huquqiy asos yaratildi.

O'zbekiston budjet tizimi rivojlanishining muhim omili O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bo'ldi.

Ushbu qonun quyidagilarni belgiladi:

[92] Mualliflar tomonidan ishlangan.

– O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;

– davlat budjeti tuzilishining asosiy prinsiplarini;

– budjet tizimi qonunchiligini;

– ijro organlarining budjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlarini;

– budjet tizimining budjetlari va davlat budjetida jamlangan davlat maqsadli jamg‘armalar budjetlarini o‘z ichiga oluvchi davlat budjeti tarkibini;

– davlat budjeti budjetlarining daromadlari va xarajatlarini guruhlovchi budjet tasnifini;

– moliyaviy yordamlar (dotatsiyalar, subvensiyalar, budjet ssudalari, boshqa o‘zaro hisob-kitoblar) turlarini;

– budjet tizimi budjetlarining daromadlar va xarajatlar vakolatlarini chegaralashni;

– turli darajadagi budjetlar o‘rtasida davlat budjeti mablag‘larini qayta taqsimlash qoidalarini;

– budjet tizimining ikkinchi darajali budjetlariga chegaralashni;

– budjet jarayoni davomida budjet faoliyatining tartibi va qoidalari[93].

Bu chora-tadbirlar davlat budjetining daromadlari va xarajatlarini boshqarish jarayoniga xalqaro standartlarning joriy etilishini, uyg‘un soliq solish tizimi yaratilishini, budjetni tasdiqlash va ijro etish jarayonlari jahon andozalariga yaqinlashtirilishini ta’minladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi qonuniga binoan budjet tizimining budjetlari davlat budjetining tashkil etuvchilari hisoblanadi, ularning daromadlari va xarajatlari davlat budjetida mujassamlashgan.

Daromad qismida budjetni to‘ldiruvchi manbalar keltirilsa, xarajat qismida uni taqsimlanishi keltirildi. Agar yil oxirida davlat budjetida daromadlar xarajatlarga teng bo‘lsa, unda mamlakat budjeti balanslashgan bo‘lib mamlakat barcha mablag‘laridan samarali foydalangan hisoblanadi.

[93] O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi Qonuni, 9-modda.



8.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti tarkibi.[94]

Agar daromad xarajatga nisbatan ortsa, unda budjet taqchilligi yoki difitsiti yuzaga keladi. Ushbu taqchillikni bartaraf etish maqsadida davlat muomalaga qimmatli qog'ozlarini chiqarib taqchillikni bartaraf etadi. Agar daromadlar xarajatlardan ortiqcha bo'lsa, budjet profitsiti yuzaga keladi va mamlakat ortiqcha pullarini qarzlarini to'lashga yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda samarali soliq – budjet siyosati natijasida davlat budjeti profitsit bilan yakunlamoqda.

8.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti 1995–2018-yy taqchilligi va profitsiti dinamikasi (% hisobida)[95]

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	1995	2000	2007	2008	2010	2018
Taqchil (-), Profitsit (+)	-2,8	-1,0	1,1	1,5	-0,1	0,1

Davlat budjetini profitsit yoki difitsit (taqchil) bo'lishi uning shakllantirishiga bog'liqdir, Ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham budjet soliqlar hisobidan shakllantiriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan samarali soliq siyosati natijasida yildan yilga soliq stavkalarining tushishi soliq tushimining umumiy miqdoriga ta'sir ko'rsatmay, ularning miqdorini oshishiga, soliq stavkasining tushishi soliqqa tortiluvchilar sonining oshishiga olib kelmoqda.

[94] Mualliflar tomonidan ishlangan.
[95] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi (1994–2019yy) ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

8.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlar tarkibi 1995–2018-yillardagi daromadlar tarkibi (% hisobida)[96]

Budjet daromadlari turlari	1995	2000	2007	2008	2010	2018
Daromadlar, maqsadli jamg‘armalarsiz, jami:	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan						
To‘g‘ri soliqlar:	33,4	28,9	29,8	29,2	28,0	27,1
– yuridik shaxslar daromadiga soliq	18,9	12,8	11,3	9,3	9,0	8,9
– tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan soliq	1,2	1,6	2,2	1,8	1,3	1,3
– jismoniy shaxslar daromadiga soliq	11,5	11,5	12,8	12,4	12,3	11,7
– kichik korxonalardan olinadigan soliq to‘lovi	0,7	1,4	1,9	2.2	3,5	3,7
– ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq	1,1	1,0	1,1	1,3	2,1	1,7
Egri soliqlar	51,1	54,0	56,7	51,8	54,6	57,8
– KKS	30,2	24,8	26,8	25,3	24,0	22,9
– aksiz solig‘i	18,9	27,7	27,4	24,0	26,4	29,6
– jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilgisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	-	-	-	-	1,3	1,6
– jismoniy shaxslardan tovarlar olib kirganlik uchun yigimlar	0,5	0,6	1,3	1,1	1,3	1,9
– Bojxona boji	1,5	0,9	1,2	1,4	1,6	1,7
Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i:	11,9	10,9	10,0	9,3	7,5	9,5
– yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq	3,0	3,1	3,2	3,1	1,8	3,0
– avtotransport vositalari egalariga soliq	-	-	-	-	-	-
– yer solig‘i	4,4	4,1	3,1	2,9	2,0	2,2
– yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1,6	1,1	1,1	0,7	1,0	1,3
– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,5	0,4	0,5	0,4	0,3	0,4
– ekologiya solig‘i	2,4	2,1	2,1	2,2	2,3	2,6
Boshqa daromadlar (soliqsiz daromadlar bilan birga)	3,6	3,4	4,4	9,1	8,7	4,7

[96] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi (1994-2019yy) ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

8.4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining 1995-2018-yillardagi xarajatlar tarkibi (% hisobida)[97]

Budjet xarajatlari turlarining ko‘rsatkichlari		1995	2000	2007	2008	2010	2018
1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari - jami:	47,6	50,2	52,3	54,4	53,7	59,1
1.1.	Ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari	40,1	42,1	43,7	47,5	45,9	48,4
-	ma’rifat	27,5	28,6	29,8	32,8	31,6	33,8
-	sog‘liqni saqlash va sport	10,3	10,9	11,5	11,9	11,6	12,9
-	fan, madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1,9	2,2	2,0	1,9	1,7	1,3
-	ijtimoiy ta’minot	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4
1.2.	Aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlariga mo‘ljallangan xarajatlar	6,9	6,6	6,9	6,9	7,9	10,4
2.	Iqtisodiyotga va markazlashgan investitsiyalarni moliyalash xarajatlari	24,3	23,2	22,1	20,7	20,6	17,5
3.	Davlat hokimiyati, boshqaruv, sud va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarini ta’minlash xarajatlari	2,5	2,7	2,7	2,9	3,3	3,5
4.	Boshqa xarajatlar	25,5	23,8	22,9	21,1	21,5	19,6
Davlat budjetining xarajatlari (maqsadli jamg‘armalarsiz), jami:		100	100	100	100	100	100

[97] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi (1994–2019yy) ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

8.5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining 2018-yillardagi xarajatlar tarkibi (mlrd.so‘mda, farqi %da)[98]

Yo‘nalish nomi	2018 yil	Farqi (%)
Xarajatlar (maqsadli jamg‘armalarsiz)	**62 170,0**	**126,6**
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	34 664,0	127,8
2. Uy-joylar qurish dasturlarini birgalikda moliyalashtirishga kredit liniyasi	370,0	358,9
3. NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	15,0	124,7
4. Iqtisodiyot xarajatlari	6 957,8	131,9
5. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	3 047,6	100,7
6. Davlat hokimiyati, boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	3 049,9	1256,1

Budjet xarajatlarining tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi:

- budjet xarajatlaridagi katta ulush ijtimoiy sohaga va aholini ijtimoiy himoyalashga to‘g‘ri keladi va u o‘sib borish tendensiyasiga ega. Bu O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modeli - ijtimoiy yo‘naltirilgan model ekanligi bilan izohlanadi va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining chuqurlashib borayotgan sharoitda uning ta’sirini yumshatish va bartaraf etish maqsadida mamlakat hukumati budjetning ijtimoiy sohaga va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan xarajatlarni oshiradi;

– ijtimoiy sohaga oid xarajatlarning asosiy qismi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlarga – ya’ni ma’rifat, sog‘liqni saqlash va sportga to‘g‘ri keladi;

– O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida aholini qo‘llab-quvvatlash aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlarning narxlari tafovutini budjetdan qoplash yo‘li bilan, shuningdek, oilalarga (bolali oilalarga ham) ijtimoiy nafaqalar to‘lash orqali amalga oshiriladi. Tahlil etilayotgan davrda aholiga qiymatlar

[98] O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi “Byudjetnoma 2018”. T-2017 24-25 bb. Ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

va narxlar orasidagi farqni budjetdan qoplash qisqarib bordi, lekin budjet xarajatlarida oilalarga beriladigan ijtimoiy nafaqalar ulushi oshib bordi. Bunga asosiy sabab, aholini ijtimoiy himoyalash tizimida budjet dotatsiyalaridan adresli moddiy himoyalashga oid ajratmalarga o'tilishidir. Bu chora-tadbirlar ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlab, aholining o'rtacha turmush darajasi o'sishiga olib keladi;

– budjet xarajatlarida iqtisodiyotga va markazlashgan investitsiyalarga oid xarajatlar ulushi tahlil etilayotgan davrda pasaydi, bu holat ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida muhim ijtimoiy dasturlari tatbiq etilishining yakunlanishi bilan boshqa xarajatlar katta ulushga ega, uning tarkibiga: mudofaga, tashqi iqtisodiy faoliyatga oid xarajatlar, eksportchilarga QQSni qoplash, statistik ishlarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasi, joriy davlat qarzini boshqarish va boshqalar kiradi.

Shakllangan budjetni taqsimlash muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Budjetning asosiy qismi qaysi sohaga yo'naltirilganligi mamlakat kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishini belgilab beradi. Mamlakatimizda budjet xarajatlari yildan yilga ijtimoiy sohaga bo'lgan xarajatlari oshib bormoqda, bu mamlakat iqtisodiyotini istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishga zamin yaratilayotganligidan dalolat beradi.

8.3. O'zbekistonda budjet-soliq sektori tahlili

Mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifasi makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, investitsiyalarni yanada ko'proq jalb etish hisobiga tarkibiy o'zgarishlarga erishish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilashdan iboratdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda budjet – soliq siyosatini yanada erkinlashtirish, aholini ish bilan ta'minlash va uning farovonligini oshirish eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, u sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarini qo'llab-quvvatlashda hamda rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tadbirlarni hayotga tatbiq etish, pirovardida, samarali natijalarga erishish mamlakat moliya tizimining markaziy bo'g'inida turgan davlat budjeti bilan bevosita bog'liq. Davlat budjetining

optimal tuzilishi va uning ijro etilishi nafaqat, mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, balki xo'jalik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etish orqali davlatning iqtisodiy yuksalishiga ham olib keladi. Keyingi yillarda yurtimizda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish natijasida iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari, inflyatsiya darajasining pasayishi va xalq farovonligining oshishi tendensiyasi mustahkamlanmoqda.

O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilgani va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz. Mamlakatimizda puxta o'ylangan budjet – soliq siyosati izchil olib borilishi tufayli keyingi yillarda davlat budjeti 2005-yildan boshlab profitsit bilan ijro etib kelinmoqda. 2018-yilda ham davlat budjeti ko'zda tutilgan taqchillik o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Defitsitni umumiy miqdorini ijobiy saldoning (daromaddan olingan transfertlar) – (xayriya xarajatlardan qarzni to'lash uchun ushlab qolinadigan kreditlar). Bu moddalar «chiziq ustida», qolgan moddalar «chiziq ostida» joylashgan, «mablag' ajratish" deb ataladi. Buni quyidagicha yozish ham mumkin: defitsitning umumiy miqdori ijobiy saldoning mablag' ajratishning (zayomlari - amortizatsiya) – (naqd pullarning toza ko'payishi).

Davlat tomonidan pulni aylanishga chiqarish va davlat o'ziga shu ko'payish va tez jamg'arma depozitlar bo'yicha mas'uliyatni olishi moliyaviy muassasasining vazifasi deb qaraladi va shu manbalardan har qanday kelayotgan mablag'lar moliyaviy muassasadan tushayotgan bo'lib hisoblanadi.

Davlat boshqaruv idoralarining mablag' ajratishi ichki mablag' ajratishga bo'linadi. Ular rezidentlardan tushadi. Tashqi mablag' ajratishi rezident emaslardan olinadi. Keyinchalik bu kategoriyalar qarz oluvchi majburiy turi qarzli vositalar turi bo'yicha klassifikatsiyalanadi.

Iqtisodiy va moliyaviy tahlilda, qarz oluvchilar majburiyatlari tasnifi ma'qul, chunki bunda qarz oluvchilar majburiyatlari talab guruhiga birlashgan iqtisodiy xarakterga ega.

Agar u yoki bu qarzli vositalar boshqa moliyaviy dasturlashtirish guruhlanishga kirsa, muayyan imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi 8.2-jadval ma’lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, mamlakatimizda davlat budjeti profitsit bilan ijro etib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti ijrosi bo‘yicha erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Ayniqsa, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Chunki yildan yilga mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari kengayib, unga mos ravishda xarajatlari ham oshib bormoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish hamda infratuzilma yaxshi rivojlanmagan hududlarda yaqqol sezilmoqda. Buning ustiga, budjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlarning roli sezilarli darajada emas, asosiy qism mahalliy budjet daromadlarini tartibga soluvchi daromadlar – budjet tizimi budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar hisobiga shakllanyapti.

Ayni paytda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Jizzax va Xorazm kabi viloyatlar hamda ko‘plab qishloq tumanlari budjetlari ham respublika budjeti hisobidan ta’minlanmoqda. Bundan tashqari, Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlarining budjetlari asosan yirik sanoat korxonalari hisobidan qoplanyapti. Masalan, Toshkent viloyatida mavjud 14 ta tumanning 7 tasi subvensiya hisobidan ta’minlansa, qolgan 7 tasi yirik korxonalar, ya’ni Olmaliq tog‘-kon kombinati, Bekobod metallurgiya kombinati, Bekobod sement zavodi, Ohangaron sement zavodi kabi korxonalar tomonidan to‘lanadigan mahalliy soliqlar hisobidan qoplanyapti. Ushbu omil esa mahalliy moliyaning tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy budjet bilan birga, xo‘jalik subyektlarining moliyasini uyg‘unlashgan holda o‘rganish va ularning daromadlarini oshirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kuchga kirgan Budjet kodeksi mamlakatimizdagi budjet tizimini rivojlangan davlatlar budjet tizimiga integratsiya qilinishiga zamin yaratadi.

Budjet kodeksiga asosan mahalliy budjetlarga kelib tushadigan mahalliy soliqlardan tashqari, ayrim umumdavlat soliqlari (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan tadbirkorlik faoliyati

ayrim turlari bo‘yicha olinadigan qat’i belgilangan soliq; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o‘simlik yog‘i uchun aksiz solig‘i) ham biriktirib qo‘yildi, ya’ni ushbu soliqlar amaldagi qonunchilikka asosan har yili belgilanadigan me’yorga asosan emas, balki bevosita mahalliy budjetlarga kelib tushadigan bo‘ldi. Ushbu omil Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya va soliq boshqarmalarida mahalliy budjetlar daromadlarini ko‘paytirishga ijobiy ta’sir etishi lozim edi. Lekin bu sohada hali kutilayotgan natijalarga erishilgani yo‘q. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yurtimizda keyingi yillarda mahalliy budjetlarni subvensiyadan chiqarish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularga misol qilib ayrim shahar va tuman budjetlarini birlashtirish, joylarda yangi korxonalarni bunyod etish va boshqalarni keltirish mumkin.

Mazkur muammoga diqqat-e’tiborini qaratgan Prezident Sh.Mirziyoyev quyidagilarni tanqidiy ravishda ta’kidlagan edi: “Chuqur tahlillar asosida har bir hududning o‘ziga xos xususiyat va imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini inobatga olgan, har bir mahallani nazarda tutgan holda, 2017–2021-yillarda tuman va shaharlarni kompleks rivojlantirish dasturlari qabul qilinadi. Bu dasturlarni amalga oshirish natijasida subvensiya oladigan 81 ta tuman moliyaviy jihatdan o‘zini to‘liq ta’minlaydigan hududga aylanadi, shuningdek, 41 ta tuman va shahar bo‘yicha subvensiya darajasi sezilarli ravishda kamayadi”[99].

Prezident Sh.Mirziyoyev 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” nomli uchinchi yo‘nalishida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta’minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexa-nizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy

[99] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek, turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda. "Har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatining barcha tumanlarini subvensiyadan chiqarishni so'zsiz ta'minlash kerak. Bu yil boshqa hokimliklar va tegishli organlar uchun ham subvensiyadan qutilish masalasida sinov yili bo'ladi" [100].

Fikrimizcha, yurtimizda mahalliy budjetlarni subvensiyadan chiqarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz:

– barcha hududlarda zamonaviy korxonalar, savdo tarmoqlari, umuman infratuzilmani rivojlantirishga mahalliy hokimiyat va tijorat banklari tomonidan e'tiborni kuchaytirish lozim;

– barcha shahar va tumanlarda mahalliy hokimiyat va tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish hamda yurtimizda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash va pirovardida yangi ish o'rinlari yaratish ko'lamlarini oshirish jarayonlarida faol ishtirok etish;

– barcha shahar va tumanlarda soliq to'lovchilarni qaytadan to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish va olingan natijalar asosida soliq to'lovchilarni to'liq qamrab olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Buning natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda, mahalliy budjetlarga qo'shimcha daromadlar tushadi.

Tayanch so'z va iboralar

Budjet, budjet-soliq siyosati, «Davlat boshqaruv organlari», daromad, transfert, moliya, ssuda, dotatsiya, subvensiya, investitsiya, infratuzilma modernizatsiya, diversifikatsiya, innovatsiya, sanoat, tadbirkorlik, investitsiyaviy muhit.

[100] O'sha manbadan.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Budjet-soliq siyosatini iqtisodiy mazmunini izohlang.
2. Budjet-soliq siyosatini tamoyilini izohlang.
3. Iqtisodiyotda to'liq bandlilik deganda nimani tushunasiz?
4. Cheklovchi fiskal siyosat nima?
5. Fiskal restriksiya nima?
6. Davlat daromadlari va transfertlarini izohlab bering.
7. Davlat budjetining tarkibiy tuzilishi.
8. O'zbekistondagi budjet-soliq siyosatining xarakterli xususiyatlarini izohlang.
9. Davlat budjetining shakllanish manbalarini aytib bering.
10. Davlat budjetining ijtimoiy sohaga sarflanishi haqida fikringiz.

TESTLAR

1. Budjet-soliq siyosati deb

A. Budjet-soliq siyosati deganda noinflyatsion YaIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar tushuniladi

B. Omillari o'rtasidagi bog'lanishlarni, iqtisodiy o'sish yo'llarini aniqlab ko'rsatadi va davlatning ichki hamda tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asoslanganligi

C. Makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilib, ko'rsatkichlari, omillari o'rtasidagi bog'lanishlardan

D. Makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilib, uning sohalari, ko'rsatkichlari, omillari o'rtasidagi bog'lanishlardan.

2. Rag'batlantuvchi fiskal siyosat - fiskal ekspansiya deganda nimani tushunasiz?

A. Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat–fiskal ekspansiya olib boriladi

B. Korxona va tashkilotlarning texnik va texnologik imkoniyatlarini yuksaltirishdir

C. Qo‘shimcha mahsulotning ko‘payib borishi
D. Qo‘shimcha mahsulotning kamayib borishi

3. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash nima?

A. Korxona va tashkilotlarning texnik hamda texnologik imkoniyatlarini yuksaltirish ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash

B. Mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va yoqilg‘i-kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati sohalariga yirik kapital qo‘yilmalar yo‘naltirilishi

C. Barcha javoblar to‘g‘ri

D. Korxona va tashkilotlarning texnik holati.

4. Iqtisodiy taraqqiyotning mezon va ko‘rsatkichlari

A.Qo‘shimcha mahsulotning ko‘payib borishi, ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi taraqqiyotning mezon ko‘rsatkichlari.

B. Ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi

C. Qo‘shimcha mahsulotning ko‘payib borishi

D. Salomatlik, ovqatlanish, turar joy, uylardagi mol-mulklar, pulli xizmatlar

5. Cheklovchi fiskal siyosat?

A. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliqlarni oshirish yoki bo‘lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o‘sishini chegaralashdan iborat

B. To‘q turmush daraja, normal daraja, kambag‘allik, qashshoqlik

C. Iqtisodiy prognozlash, to‘q turmush darajasi

D. Iqtisodiy tamoyillar majmuasi, normal daraja

6. Davlat budjeti siyosatini yuritishda ikki dastak deganda nimani tushunasiz?

A. Davlat daromadlari va xarajatlari davlat budjeti siyosatini yuritishda ikki dastak

B. To‘q turmush darajasi – normal daraja, kambag‘allik, qashshoqlik

C. Iqtisodiy prognozlash, to‘q turmush darajasi

D. Iqtisodiy tamoyillar majmuasi, normal daraja

7. Budjet-soliq siyosati pul-kredit siyosati kabi davlatning yaxlit tadbirlari keltirilgan qatorni ko‘rsating.

A. Iqtisodiy holatni ko‘tarish; moliyaviy barqarorlikni ta’minlash; investitsion faollik; davlat dotatsiyalari, daromad bazasi, davlat xarajatlari

B. Iqtisodiy prognozlash, to‘q turmush darajasi

C. Iqtisodiy tamoyillar majmuasi, normal daraja

D. Salomatlik, ovqatlanish, turar joy, uylardagi mol-mulklar

8. Budjetning tarkibiy qism keltirilgan qatorni ko‘rsating.

A. Xarajatlarlar, daromadlar qismlari va ular balansidan iborat

B. Xarajatlar

C. Daromadlar

D. Xarajat va daromadlarning balansi

9. Budjet-soliq siyosati yaxlitligiga ta’sir etuvchi omillar.

A. Budjet daromadlarining tarkibi, tuzilishi va yo‘nalishlariga bog‘liq omillar, budjet xarajatlarining tarkibiga bog‘liq omillar

B. Xarajat miqdori va nisbatlarining o‘zgarishi

C. Budjet daromadlarida soliqli va soliqsiz to‘lovlar nisbatining o‘zgarishi

D. Yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq yukini pasaytirish

10. Ilk marotaba “Davlat moliyasi” atamasi qachon fanga kiritilgan?

A. Ilk marotaba “Davlat moliyasi” atamasi XVI asrda Fransiyada ishlatila boshlandi

B. Ilk marotaba “Davlat moliyasi” atamasi XVII asrda Fransiyada ishlatila boshlandi

C. Ilk marotaba “Davlat moliyasi” atamasi XVIII asrda Fransiyada ishlatila boshlandi

D. Ilk marotaba “Davlat moliyasi” atamasi XIX asrda Fransiyada ishlatila boshlandi

9-BOB. ISHSIZLIK VA INFLYATSIYA DARAJASINING IQTISODIY TAHLILI

9.1. Aholi bandligi siyosati, usullari va yo‘nalishlari

Aholining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri aholi bandligi hisoblanadi. Aholi bandligini muayyan darajada barqaror ushlab turish har qanday mamlakat oldida turgan murakkab vazifalardan sanaladi. Bandlik sohasida bozorning o‘zini o‘zi avtomatik suratda tartibga solish jarayoniga ta’siri har doim ham sezilmaydi. Shu sababli, bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan barcha mamlakatlarda doimiy bandlik sohasiga ta’sir ko‘rsatish shakllari va vositalari jihatidan egiluvchan choralarni qo‘llash asosida bandlikni tartibga solish siyosati amalga oshirilmoqda. Aholining to‘liq va samarali bandligini ta’minlash har qanday demokratik jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Bandlik siyosati – jamiyat va uning har bir a’zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Bandlik sohasidagi davlat siyosati ikkita asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan: birinchidan, amalda investitsiyalanadigan kapitalning ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish. Jadal va foydali amal qiladigan kapital ishchi kuchidan samarali foydalanishning eng muhim dalilidir; ikkinchidan, mehnatga layoqatli aholini kishilarning me’yordagi hayot kechirishlarining muhim sharti sifatida ish joylari bilan ta’minlash[101]. Aholi farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish davlatning an’anaviy vazifasi hisoblanadi.

Davlat mehnat bozorida ikki turdagi siyosatni, ya’ni passiv va aktiv siyosatni amalga oshirishi mumkin. Passiv siyosat ish izlayotgan fuqarolarni ro‘yxatga olish, ishsizlik nafaqasini tayinlash, uni taqdim qilish tizimini tashkil etish, ishsizlar va ularning oilalarini qo‘llab-quvatlashning pulsiz shakllarini amalga oshirish bilan cheklanadi.

To‘liq bandlikni ta’minlashga qaratilgan aktiv siyosat olib borish rivojlangan mamlakatlar mehnat bozoridagi davlat siyosatining

[101] Abduraxmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti. –T: «Mehnat», 2010., 105-b.

ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Bu siyosat asosiy tadbirlariga quyidagilar kiradi:

– davlat tomonidan iqtisodiyotga investitsiyalarni rag‘batlantirish, bu yangi ish o‘rinlarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;

– tarkibiy ishsizliklarni qayta o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil etish;

– mehnat bozorida vositachilik qilayotgan mehnat birjalari va bandlikka ko‘maklashish markazlarini rivojlantirish;

– kichik va oilaviy tadbirkorlikka ko‘maklashish, bu ko‘plab mamlakatlarda aholi bandligini ta’minlashning muhim uslubi sifatida o‘rganilmoqda;

– zarurat tug‘ilganda, ish topish uchun yashash joyini o‘zgartirishda ko‘maklashish;

– davlat siyosatida – ta’lim, tibbiy xizmatlar, kommunal xo‘jaligi, jamoatchilik binolari va inshootlari qurish sohalarida ishchi o‘rinlarini yaratish va boshqalar[102].

Shu o‘rinda ish bilan bandlikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin: ish bilan bandlik – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

Iqtisodiyotning sifat jihatidan oldingisidan farq qiluvchi har bir rivojlanish bosqichi uchun ish bilan ta’minlashning muayyan modeli (konsepsiyasi) mos keladi, chunki uning asosiy xususiyatlari jamiyat faoliyatining muhim jarayonlarini ochib beradi.

Aholining ish bilan bandlik konsepsiyasi – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichidagi ish bilan ta’minlashning xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir. Bunday nazariy tushunchalar markaziga uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun xos bo‘lgan obyektiv jarayonlarini hisobga oluvchi ish bilan ta’minlashning shakllanishi qo‘yiladi. Bu o‘z navbatida, muayyan davr mobaynida qo‘yilgan maqsadlarga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichiga xos bo‘lgan turli ko‘rinishlar va shakllarda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos hodisadir.

[102] Артыкова Д.А. «Формирование занятости население Республики Узбекистан». -Т.: «Фан», 2005г., 45с.

Ish bilan bandlik siyosatiga uni qattiq tartibga solishdan voz kechish, ijtimoiy sohada mehnat qilishning majburiy emasligi, ijtimoiy foydali mehnat qilishning har qanday sohasini tanlash erkinligi va ixtiyoriyligi orqali inson manfaatlari va ehtiyojlarining namoyon bo'lishiga yordam berish asos qilib olingan.

Davlatning ish bilan bandlikka ko'maklashish tamoyili asosida mehnat qilish huquqini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan erkin ishtirokchilari iqtisodiy xulq-atvoriga bevosita usullar bilan tuzatish kiritishdan iboratdir. Bunda davlatning ish bilan bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatish choralari rag'batlantiruvchi tadbirlarining ustuvorligiga asoslanadi. Bu o'rinda mehnatkashlarning tadbirkorlar va hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini hamda erkinliklarini buzadigan vositalar bo'lmasligi kerak. Ish bilan bandlikda ko'maklashish tamoyili bir qancha jihatlarga egadir. Ish bilan bandlikka ta'sir ko'rsatishning o'zini ochib berish asosida uni (bandlikni) istalgan yo'nalishda shakllantirish jarayonini bevosita to'g'ri yo'lga solish yotadi.

9.2. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari, turlari, asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari

Iqtisodchi olimlar o'rtasida ommaviy ishsizlikning haqiqiy sabablari qandayligi to'g'risida turlicha qarashlar mavjud.

Ma'lumki, J.M.Keyns "ishsizlikning davosi sifatida ish haqini pasaytirish g'oyasini qat'i inkor etib, o'ziga investitsiyalar, davlat xarajatlari va sof eksportdan tashqari iste'mol xarajatlarini – bunda ham so'nggi – umumiy talabning asosiy qismini ham qamrab oladigan umumiy talabdan kelib chiqadi".

Fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sish tarixi aynan Keyns qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ishsizlar rasmiy ro'yxatga olingandan boshlab, ishsizlik darajasi ma'lum darajada muntazam ortib boradi, ishga joylashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Ish bilan bandlikning keskin kamayishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (davlat siyosatining kamayishi), inflyatsiya hamda xo'jalik yuritishning muqobil shakllari (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari) yetarlicha tez o'smaganligi tufayli ko'pgina korxonalarda

moliyaviy ahvol yomonlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bularning hammasi, tabiiyki, umumiy talab hajmida salbiy aks etadi: davlat ta'siri qisqaradi, investitsiya faoliyati sustlashadi, iste'mol xarajatlari esa inflyatsiya ta'sirida turmush darajasining yomonlashuvi tufayli birmuncha kamayadi.

Demak, O'zbekistonda ishsizlik o'sishining asosiy sababi – eng avvalo ishlab chiqarishning qisqarishidir. Iqtisodiy o'sish dinamikasi bilan ishsizlik o'rtasidagi aloqa uzviy bog'liq ko'rsatkichlardir.

Qoidaga ko'ra, g'arb iqtisodchilari iqtisodiy o'sish sur'atlarini aholining ish bandligini o'sish sur'atlari bilan, tanazzulni esa ishsizlik darajasining o'sishi bilan bog'laydilar. Haqiqatan ham, industrial turdagi normal ishlayotgan bozor iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish doimo tarmoqlarning rivojlanishi va kengayishini, demak, ish bilan bandlikning ortishini anglatadi. Shunday bo'lsada, rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday bog'liqlik ko'zga tashlanmaydi. Masalan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatning tez o'sishi ish bilan bandlikning muvofiq kengayishini keltirib chiqarmadi. Iqtisodchilar bu hodisani sanoatdagi o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lgan urbanizatsiya sur'atlari hamda qishloqdan shaharga ko'chib kelayotgan aholi malakasining pastligida deb izohlaydilar.

Aholining ish bilan bandlik dinamikasi, YaIM bilan ishsizlik o'rtasidagi bevosita aloqaning tasdiqlanmasligi dastlabki qarashda mantiqan zid hodisadir. Ikkita dalil kishini hayratga soladi: birinchidan, ishsizlikni YaIM ning o'sishiga qiyosan ilgarilovchi qisqarishi; ikkinchidan, ish bilan bandlikning kamayishi bilan birga ishsizlikning qisqarishi.

Fikrimizcha, bu hodisalarni faqat statistik xatoliklar va ishsizlik maqomini berish shartlarining murakkablashuvi bilan izohlab bo'lmaydi. Ko'rinishidan yaxshi bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan ish bandlikning kamayishini ikkita sabab bilan izohlash mumkin;

Birinchidan, yashirin ishsizlikning yuqori darajasi saqlanganligi, u o'z potensialini hatto ayrim barqarorlik sharoitlarida ham ochiq bozorga chiqarib turadi.

Ikkinchidan, yashirin ish bilan bandlikning ko'payishi, u ishchi kuchi va ishsizlarning sezilarli qismini ochiq mehnat bozoridan tortib turadi.

Sabablari	Oqibatlari
Ish haqining pastligi	Aholini ish bilan bandlik darajasi pasayadi
Mehnat sharoitlari qoniqarli emasligi	Mamlakatda ishsizlik darajasi oshadi
Ish joylarini yetishmasligi	Aholi turmush darajasi pasayadi
Tarkibiy o'zgarishlar tufayli ishlab chiqarishni qisqarishi	Ishlab chiqarishni kamayishi va YaIM pasayadi
Ish qidirovchi aholining malaka darajasining pastligi	Inflyatsiya darajasi oshadi
Ish qidiruvchilarni raqobatga bardosh bera olmasligi	Mamlakatga kirib kelayotgan investitsiya oqimini pasaytiradi

9.1-rasm. Ishsizlikning sabab va oqibatlari.

Respublikamizda ishsizlikning paydo bo'lish sabablariga ko'ra quyidagi asosiy turlari ko'proq uchraydi:

– ***yashirin,*** bu asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xarakterlidir va bu haqiqiy ish kuchini kamroq miqdorda talab qiladi. Amalda ishsizlikning yashirin shakli faqat iqtisodiy emas, shu bilan birga, siyosiy xususiyatga ham egadir. Yashirinishsizlik ishlab chiqarishning chuqur tanazzuli sharoitida korxonalarda ortiqcha bandlikning saqlanib qolganligidan dalolat beradi;

– ***mavsumiy,*** ma'lum bir mavsumda ish bilan bandlikni ta'minlovchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash va tayyorlash muddati bilan asoslangan. Uni normal ishsizlik jumlasiga kiritish mumkin. Mavsumiy ishsizlikning hajmi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif mavsumiy omillarining baravar ta'sir qilishi sifatida namoyon bo'ladi;

– ***texnologik,*** o'zgaruvchan, bu shakli masalan, fan – texnika yutuqlari natijasida qo'l mehnati o'rnini mashina egallashi natijasida yuzaga keladi;

– ***tarkibiy,*** iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi yoki eskisiga barham berilishi va mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan yuzaga keladi.

Ishsizlikning ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni, sabablari va turlari nazariy asoslanishi ishsizlik holatining mezonlari va ko'rsatkichlari

ochib berilishini taqozo etadi. Chunki ishsizlikning asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari mehnatga layoqatli aholi oqilona bandligini shakllantirishni tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir.

Ishsizlik holatining demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi **mezonlarda** o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; ishchi kuchi taklifini kamaytirish; ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish; kadrlar malakasi, safarbarligi va raqobatbardoshligini oshirish; aholining mehnat daromadlarini ko'paytirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ishsizlik **ko'rsatkichlari** yordamida aniqlanadi:

– mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni;

– bajarilgan ish vaqtining miqdori;

– aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning hajmi;

– mahalliy va jalb etilgan mehnat resurslarining soni;

– ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining hajmi;

– o'rtacha yillik ish haqi;

– har bir aholining uy-joy bilan ta'minlanishi;

– mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi;

– sanoat korxonalaridagi asosiy fondlardan foydalanishning smenalik koeffitsiyenti;

– ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni hamda ularning nafaqa miqdori;

– mehnatning umumiy natijalaridan va ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan qanoatlanish darajasi;

– mulkchilikning turli shakllari hamda mehnatni tashkil qilishning samaradorligi va hokazolar.

Amerikalik iqtisodchi olim A.Ouken tabiiy yoki davriy ishsizlikning salbiy ta'sirga ega ekanligini matematik holda isbotlab berdi. A. Ouken qonuniga ko'ra, ishsizlikning tabiiy darajasi 1 foizga oshganda yalpi milliy mahsulot 2,5 foizga kamayadi.

Aholini ish bilan bandligi tarkibi shakllanishida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'rni ham katta. Aholini samarali ravishda ish bilan ta'minlash tizimini rivojlanishi zamirida ishlab chiqarishining o'sishi va har bir band odamning samarali ishlashining o'sishi yotadi. Biroq

ishchilarning tajriba va mahorat darajasini oshirmay turib mehnat unumdorligini oshirib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotdagi mahoratli ishchilarning qanchalik ko'p bo'lishi, shunchalik mehnat unumdorligini va turli xizmat hamda mahsulotlarning ko'p bo'lishini anglatadi. Iqtisodiyotning rivojlanishini aniqlovchi asosiy omil bugungi kunda ishchi kuchining sifatidir.

9.3. Yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashning muhim omili

Mamlakat tarraqiyotining hozirgi bosqichida milliy iqtisodiyotni yuksaltirish va uning ichki hamda tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, nodir va noyob resurslardan unumli foydalanish asosida aholining sifatli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini to'laroq qondirish kabi o'ta muhim vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi turmush darajasini yuksaltirish nuqtayi nazaridan o'ta muhim bunday vazifalarni amalga oshirish bir necha omillarga bog'liq bo'lib, u katta kuch va resurslarni safarbar qilishni, ulardan maqsadli va tejamkorlik bilan foydalanishni taqozo etadi. Biroq, barcha omillar ichida kishilarning mehnatga bo'lgan munosabati, ularning fidoiyligi, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi faolligi alohida, aniqrog'i, bosh o'rin tutadi. Inson iste'moli uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarning deyarli hammasi inson mehnati tufayli, uning aqlu-zakovati vositasida yaratiladi.

Iqtisodiyotda band bo'lganlarning faoliyati, maqsad va intilishlari jamiyat manfaatlariga mos kelgan taqdirdagina, mehnatga layoqatli har bir kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda faol, samara bilan, astoydil ishtirok etgandagina, jamiyat oldida qo'yilgan har qanday murakkab vazifalarni hal etish mumkin. "Ertangi kunimiz uchun, bolalarimiz, farzandlarimizning baxti uchun mehnat qilish, fidoiylik ko'rsatish, - deb ta'kidlagan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, – bu barchamizning muqaddas burchimizdir".[103] Demak, aholining mehnatdagi fidoiyligi, faolligi mamlakat taraqqiyotining bosh omili hisoblanadi.

[103] O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010, - 75 b.

Tabiiyki, yangi iqtisodiy tartibot, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizim ham o'ziga xos kamchilik va nuqsonlardan butunlay xoli emas. Bu xususdagi ilmiy qarashlar iqtisodiyot sohasidagi adabiyotlarda keng e'tirof etilgan. Ularning tafsilotlariga berilmasdan, tadqiqotimiz bobidan kelib chiqqan holda, yangi iqtisodiy tizimning jamiyatning barcha a'zolari uchun, uning hayot faoliyati va mehnatining barqarorligiga ma'lum bir xavf-xatar, tahdid soladigan ishsizlik omilini ham olib kelganligini alohida ta'kidlash o'rinli. Ishsizlikning oldini olishda xizmat ko'rsatish sohasining o'rni beqiyos. Bu soha ayniqsa, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar, mehnat tajribasi yetarli bo'lmagan, yuqori malakaga ega bo'lmagan aholi qatlamlari uchun ishga joylashish uchun qulay. Ishlab chiqarish sohasida turli sabablarga ko'ra ishsiz qolganlarning aynan xizmat ko'rsatish sohasida foydali ish bilan band bo'lish imkoniga ega ekanligi ishsizlikning kundalik, amaliy muammolarini hal etishda e'tiborga olinishi, qolaversa aynan shu imkoniyatdan unumli foydalanish lozim.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi bandligini oshirish, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida bandlikdan olinadigan daromadlarni aholi daromadlarining asosiy manbayiga hamda uning turmush darajasini shakllantirishning muhim omiliga aylantirish imkoniyatlarini ishlab chiqishni talab etadi. Ushbu muammoning dolzarbligi va o'ta muhimligi mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ishga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash zaruriyati, mehnat bozorida talab va taklif o'rtasida nomutanosiblikning saqlanib turganligi bilan belgilanadi.

Mehnatga layoqatli har bir kishining ijtimoiy ishlab chiqarishda, turli-tuman noz-ne'matlar yaratishda faol ishtirok etishini to'la ta'minlay olgan, aholi faolligini oshirishning samarali mexanizmlarini yaratib, ulardan iqtisodiy yuksalishning amaliy vazifalarini hal etishda unumli foydalana olgan jamiyatgina taraqqiyotga yuz tutadi, o'z xalqining farovon hayot kechirishiga erishadi.

So'nggi yillarda erishilgan muvaffaqiyatlar iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yo'nalishlarini kuchaytirish imkoniyatini bermoqda, kishilarning turmush darajasini yaxshilash, ularni ish bilan ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, ayniqsa, davlat tomonidan

moddiy ko‘mak ko‘rsatishga muhtojlarning sonini pasaytirish uchun zarur bo‘lgan choralarni izlab topishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘nalishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatib, mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning muhim omiliga aylanib boradi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar orqali iste’mol tarkibi tobora o‘zgarib, undagi moddiy nozne’matlar iste’molining maksimallashuvi asta-sekin kishi mukammallashishi uchun zarur bo‘lgan iste’mol turlarini ko‘paytirishga zamin yaratib bermoqda. Jamiyatda butunlay boshqacha iste’mol tizimi tarkib topmoqda, uning tarkibida ijtimoiy, intellektual va madaniy iste’mollarning ahamiyati tobora kuchayib bormoqda, turmush tarzini yengillashtiradigan, uy xo‘jaligini olib borishda vaqtni tejaydigan, o‘qish, dam olish, sog‘liqni saqlash, sport, sayohat va hokazolar uchun mahsulot va xizmatlarning yana ham yuqori sifatlisiga talab kuchaymoqda, ya’ni iste’moli tizimida odamlar hayot tarzini va sifatini oshirishga ko‘mak beruvchi o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan, 2017-yil davomida sanoatni (5440 ta loyiha 131 mingta ish o‘rni bilan), qishloq xo‘jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o‘rni bilan) va xizmat ko‘rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o‘rni bilan) rivojlantirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, mehnat bozorida vaziyatning murakkabligi, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan 34 ta tumanda 46,8 mingta yangi ish o‘rni, jumladan: xizmat ko‘rsatish va servis sohasida - 8,7 mingta, 10 ming nafar bitiruvchilarga o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun kredit mablag‘lari ajratilishi, ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi yuqorida qayd etgan fikrlarimizning dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasining uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng asosiy maqsadi – ijtimoiy tengsizlikni pasaytirish va butun aholi turmush darajasini uzluksiz ko‘tarishdan iboratdir.

Umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga yaroqli, lekin moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan siqib chiqarilgan kishilarni, shuningdek, endi mehnat yoshiga yetgan o‘smirlarni ish bilan ta’minlash muammosi keskinlashadi. Bozor munosabatlari uyg‘unlashib, uning mexanizmlari to‘la kuch bilan amal qilib borgan sayin, ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash, mehnatni ilmiy

asosda tashkil etish, mehnat natijalari bilan ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish kabi omillarning ta’siri natijasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi va mehnat unumdorligi ham mos ravishda oshib boradi. Demak, bandlik muammosi bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning mahsuli, uning ajralmas qismi sifatida vujudga keladi va o‘ta muhimligi sababli, hamisha barchaning diqqat markazida turadi. Ushbu jiddiy muammoni hal etmay turib, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti, kishilarning moddiy farovon hayoti, yuqori turmush sifati haqida gapirish yoki fikr yuritish mantiqan noto‘g‘ri, siyosiy jihatdan esa kaltabinlikdir. Mehnat va uning evaziga olinadigan ish haqi aholi daromadlarining asosiy manbayi, aksariyat ko‘pchilikning yashash vositasi bo‘lib kelgan va bozor iqtisodiyoti sharoitida ham shunday bo‘lib qolaveradi.

Ma’lumki, iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida aholi bandligi va aholi farovon turmush darajasini ta’minlashga doir masalalarni hal etishda, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu imkoniyatlar, o‘z navbatida, ushbu sohaning iqtisodiyotda tobora muhim o‘rin egallashini ham talab etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning (2016-yil 16-yanvar) yil yakunlariga bag‘ishlangan ma’ruzasida mazkur soha iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiritildi.

Band bo‘lganlarning ***mehnat faolligini oshirish*** – ularni faqatgina turli omil hamda vositalar (ish haqi, mukofot va hokazolar) yordamida samarali mehnat qilishga undash bo‘lib qolmasdan, balki ana shunday mehnat qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish hamda samarali mehnat qilish salohiyatiga ega bo‘lgan ish kuchini jalb etish hamdir.

Chunki, samarali mehnat qilishga qodir, samarali mehnat qilish salohiyatiga, imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslargina samarali mehnat qilishi mumkin.

Band bo'lganlarning mehnat faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleks yondashish asosida, bir-biriga bog'lab amalga oshirilsa, katta ijobiy samara beradi.

O'zbekistonda aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, unga munosabat va farovon yashashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, birinchi navbatda, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va ishsizlar sonini keskin kamaytirishning mamlakatda puxta o'ylangan yo'nalishlarini va uni amaliyotda joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bizning nazarimizda, O'zbekistonda ishsizlik va bandlik muammosini hal etish hamda mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirishning ikki muhim yo'nalishlari, ya'ni:

– birinchi yo'nalish – moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini, ayniqsa, sanoat, qurilishni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish – xizmat ko'rsatish sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bilan bog'liqligini asos qilib olgan holda ular quyidagicha asoslandi. Birinchi yo'nalish – bu O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining (paxta yoki boshqalari) 1 million 400 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash imkoniyatiga ega ekanligi mamlakatda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar ehtiyojini to'liq qoplanadi[104].

Harakatlar strategiyasining tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan 2017-yilda umumiy qiymati qariyb 40 mlrd. dollarga teng bo'lgan mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha 649 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish mo'ljallangan.

Ushbu loyihalarning amalga oshirilish natijasida, qisqa vaqt ichki bozorni o'zimizda ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish maqsadida sanoatni jadal rivojlantirishni talab etadi. Buning natijasida ushbu tarmoqda yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Qimmatbaho va yuqori sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlaridan tashqi bozorda raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish ham sanoatni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi.

---

[104] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. "2018-yil - Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Xalq so'zi, 2017-y 23-dekabr.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda qishloq va o‘rmon xo‘jaligida band bo‘lgan aholi soni iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 26,2 foizini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Buyuk Britaniyada - 2,6 foizni, AQSHda ushbu ko‘rsatkich - 3,3 foizni, Ispaniyada - 4 foizni, Germaniyada - 5,5 foizni tashkil etadi[105]. Qishloq xo‘jaligi subyektlari (fermer va dehqon xo‘jaliklari) moddiy-texnika bazalari mustahkamlanib, texnika vositalari ko‘payib borishi natijasida qo‘l mehnatiga ehtiyoj kamayib boradi va kelajakda tarmoqda band bo‘lganlar soni ham kamayib boradi. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, agar qishloq va o‘rmon xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlardagi mehnat unumdorlik darajasiga erishilsa u holda 3395,1 ming kishi ishsiz qoladi.

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, bugungi kunda jamiyatning axborotlashuvi va globallashuv sharoitlarida hech bir aloqa turi uyali aloqaning o‘rnini bosa olmaydi. Masalan, “YYevropa komissiyasining ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa hamjamiyati yalpi ichki mahsulot va mehnat unumdorligi o‘sishining 40 foizi telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish asosida amalga oshirilgan”. Tahlilning ko‘rsatishicha, rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlari muayyan darajada telekommunikatsiya siyosatiga kiritiladigan investitsiyalar darajasi va uning raqobatdoshligi bilan izohlanadi[106].

Aytish joizki vaqtincha (sababli) bo‘sh qolgan ishchi-xizmatchilarga (korxona faoliyati vaqtincha to‘xtatilgan holat bundan istisno) ta’lim xizmatlari ko‘rsatish o‘ta muhimdir. Bunga erishish uchun bir tomondan quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi lozim, ya’ni:

– vaqtincha bo‘shab qolgan ishchi - xizmatchilarni 6 oy muddatga yangi kasbga o‘qitish va yangi kasb yo‘nalishi bo‘yicha ishga jalb etish (bunda yangidan ochilayotgan yoki ishchi xizmatchilarga ehtiyoji tug‘ilib qolgan korxonalarni kasb bo‘yicha ishga olish bo‘yicha shartnomalar bo‘lgan taqdirda). O‘qitish xarajatlari istisno tariqasida shaxs tomonidan, iste’mol yoki ta’lim kreditlari hisobidan (u ham imtiyozli bo‘lishi shart);

– shunday shaxslarni xorijiy davlatlarda o‘qishini tashkil etish, agarda xorijiy davlatlarning qo‘shimcha korxonalar ochish bo‘yicha

[105] Кушнир И.В. Мировая экономика // http: // www.be5.Biz/ekonomika/mo13/tech.htm

[106] Maxkamov.B.Sh. Globallashuv va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uyali aloqa xizmatlarini samarali rivojlantirish. Avtoreferat. - S.:- 2016 29 b.

loyihalari mavjud bo‘lgan taqdirda (xarajatlarni qoplash xorijiy davlat hisobidan amalga oshirish, o‘ziga kerakli kadrlarga ehtiyoji mavjud korxonalar nazarda tutilmoqda). Bunday tartib xorijiy hamda bizning davlatimiz uchun qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan eng muqobil bo‘lib hisoblanadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi;

– tugatilgan yoki vaqtincha to‘xtatilgan korxona ishchi xizmatchilarini o‘z ish o‘rinlariga yoki mutaxassisliklari bo‘yicha ishga joylashgan holda faoliyati yuritilishiga manfaatdor bo‘lgan subyektlar mablag‘lari hisobidan va hokazo.

Aholining ish bilan, xo‘jalik subyektlarini ishchi kuchi bilan taminlashga doir amalga oshirilayotgan tadbirlar va dasturlarning samaradorligi, ulardan olinayotgan amaliy natijalarning tahliliga ham jiddiy e’tibor berilishi kerak.

O‘zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotida bozor munosabatlari tobora mustahkamlanib borishi natijsida intensiv omillar rolining kuchayishini hisobga olgan holda mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning holatini baholash hamda uning istiqbollarini prognozlashda yangicha uslubiy yondashuvlarni qo‘llash. Mehnat bozorida kechayotgan jarayonlar to‘g‘risida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish uchun qo‘shimcha ravishda quyidagi ko‘rsatkichlarni qo‘llash zarur:

– Mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning qondirilish darajasi. Uni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$Tqd = \frac{\Sigma Б + \Sigma И}{\Sigma Б} \times 100 \qquad (9.1)$$

Ushbu formulada,

Tqd – ishchi kuchiga bo‘lgan talabning qondirilish darajasi;

$\Sigma Б$ – jami iqtisodiyotda bandlar soni;

$\Sigma И$ – jami ishsizlar soni.

Ushbu ko‘rsatkich mehnat bozoridagi raqobat darajasini ko‘rsatadi. U qanchalik yuqori bo‘lsa, ishchi kuchining taklifi talabdan shuncha yuqori bo‘ladi, ish o‘rinlari uchun ishsizlar o‘rtasidagi o‘zaro raqobat ham shuncha kuchli bo‘ladi.

- Mehnat bozorining to‘yinganlik darajasi. Uni hisoblash uchun quyidagi formulani qo‘llash mumkin:

$$MBtd = \frac{\Sigma Б}{\Sigma И} \quad (9.2)$$

Bunda, MBtd – mehnat bozorining to‘yinganlik darajasi;

$\Sigma Б$ – jami iqtisodiyotda bandlar soni;

$\Sigma И$ – jami ishsizlar soni.

Ushbu ko‘rsatkich har bir ishsizga qancha iqtisodiyotda band bo‘lgan aholi soni to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Har bir ish axtarib yurgan kishiga iqtisodiyotda band bo‘lganlarning soni ko‘p bo‘lsa, uning ish topish uchun imkoniyatlari ham shuncha yuqori bo‘ladi.

9.4. Inflyatsiyaning mohiyati, turlari va hisoblash usullari

Inflyatsiya nima? Inflyatsiyaning soddalashtirilgan ta’rifi – bu baholarning umumiy darajasining oshishi. Inflyatsiyaning to‘liq ta’rifi – bu tovar aylanmasiga zarur bo‘lgan pul massasi muomala vositalarining haddan tashqari oshib ketishi, natijada pul birligi qadrining tushishi va o‘z navbatida tovar baholarning oshishi.

Inflyatsiya deb, pul muomalasi qonunlari buzilishi bilan bog‘liq holda qog‘oz pullarning qadrsizlanishiga aytiladi.

Bu yerda qog‘oz pul miqdorining nisbatan ortib ketib, uning qadrsizlanishiga pulning ortiqcha emissiya qilinishi, pul emissiyasi o‘zgarmasdan, uning aylanish tezligining oshishi, muomaladagi pul miqdori o‘zgarmasa ham tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmining kamayib ketishi, tovarlar va xizmatlar ijtimoiy qiymati, binobarin, narxining pasayishi, nihoyat, pul qiymatining pasayishi kabi omillar ta’sir qiladi.

Qog‘oz pullar inflyatsiyaga uchraganda uch xil narsaga nisbatan qadrsizlanadi:

1) oltinga nisbatan – bu oltinning qog‘oz pullarda bozor narxining oshishida o‘z ifodasini topadi;

2) tovarlarga nisbatan – bu tovarlar narxining oshishida o‘z ifodasini topadi;

3) bardoshli chet el valyutalariga nisbatan – bu chet el valyutalariga nisbatan milliy pul kursining tushib ketishida o‘z ifodasini topadi.

Inflyatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan o‘lchanadi. Narxlar indeksi esa joriy davrdagi iste’mol narxlarini bazis davrdagi iste’mol narxlariga nisbati orqali aniqlanadi[9]:

$$Ni=TNj/TNb*100\% \quad (9.3)$$

Ushbu formulada,
Ni – narxlar indeksi;
TNj – joriy davrdagi iste’mol tovarlari narxi;
TNb – bazis davrdagi iste’mol tovarlari narxi.
Narxlar o‘zgarishini hisobga olish qamroviga ko‘ra narxlar indeksining quyidagi turlarini hisoblash mumkin:
– iste’mol narxlari indeksi;
– ulgurji narxlar indeksi;
– narxlar indeksi – YaIM deflyatori;
– eksport va import narxlar indeksi.

Narxlar indeksidan foydalangan holda Inflyatsiya sur’atini (IS) quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$IS= TNj- TNb / TNb *100\% \quad (9.4)$$

Inflyatsiyalarni kelib chiqish sabablari va o‘sish sur’atlariga qarab, Inflyatsiyaning bir qancha ko‘rinishlarini farqlash mumkin[10]

Inflyatsiya turlari. Kelib chiqish sabablariga qarab:

Administrativ inflyatsiya «administrativ» boshqariladigan baholar tufayli paydo bo‘ladi.

Talab inflyatsiyasi. Ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to‘la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovarlar bahosi o‘sadi. Kam miqdordagi tovarlarga ko‘p pul massasi to‘g‘ri keladi.

Taklif inflyatsiyasi, bunda baholarning o‘sishiga sabab sifatida garchi resurslardan to‘laligicha foydalanilmagan bo‘lsada, ishlab chiqarish xarajatlarini oshishini keltirish mumkin.

Xarajatlar inflyatsiyasi, bunda ishlab chiqarish omillari bahosi oshganda ishlab chiqarish xarajatlari ham oshadi va natijada ishlab chiqarilgan mahsulot narxi ham oshadi.

Import inflyatsiyasi, bunda tashqi omillar ta'sir qilib, mamlakatga chet el valyutasining haddan tashqari oqib kelishi va import tovarlarining bahosi oshishi tufayli yuzaga keladi.

Kredit inflyatsiyasi, ortiqcha kredit ekspansiyasi tufayli yuzaga keladi.

Ko'rinishi jihatidan:

Ochiq inflyatsiya, ya'ni tovar va xizmatlarning erkin bozordagi Inflyatsiyasi.

Yashirincha (bosilgan) inflyatsiya, bunda davlatning baholarni bir darajada majburiy ushlab turishida paydo bo'ladi. Tovar defitsiti bo'lganda tovarlar «qora bozor» ga o'tib, u yerda ularning baholari doimiy ravishda o'sib boradi.

Ko'lamiga ko'ra:

Mahalliy inflyatsiya, ayrim mamlakatlarda yuz beradigan Inflyatsiya;

Jahon inflyatsiyasi

Yuqoridagi inflyatsiya turlaridan kelib chiqqan holda to'xtalib o'tamiz.

1. Talab inflyatsiyasi . Narx darajasining an'anaviy o'zgarishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi mahsulotning real hajmini ko'paytirib, ortiqcha talabni qondira olmaydi. Chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli, bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Talab inflyatsiyasini quyidagi chizma orqali ham izohlash mumkin.

2. Taklif inflyatsiyasi. inflyatsiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning o'zgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi keltirib chiqaradigan inflyatsiya mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi.

Shuningdek, inflyatsiyaning quyidagi sabablarini ham ko'rsatish mumkin:

- monopolistik faoliyatlarning paydo bo'lishi va amal qilishi;
- noto'g'ri soliq siyosatini yuritish;
- jahon bozorlaridagi narxlarning o'sishi;
- harbiy sohadagi xarajatlarning o'sishi va hokazo.

Ish haqi o'sishi bilan kelib chiqadigan inflyatsiya. Ish haqi o'sishi bilan kelib chiqadigan inflyatsiya iqtisodiyot uchun eng xavfli inflyatsiya turidir. Kasaba uyushmalarining talablariga ko'ra yoki davlat

Inflyatsiyaning asosiy sabablari:

Milliy iqtisodiyot ayrim sohalari o'rtasidagi nomutanosibliklar.

- jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi nomutanosibliklar;
- talab va taklif orasidagi nomutanosibliklar;
- davlat daromadlari va xarajatlari orasidagi nomutanosibliklar.

Muomiladagi pul massasi va iqtisodiyotning pulga bo'lgan ehtiyoji orasidagi nomutanosibliklar.

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablariga ko'ra;

– talab va taklif inflyatsiyasiga;

– qanday borishi jihatidan erkin bozor inflyatsiyasi va davlat bostirib turadigan inflyatsiyaga;

– shiddati jihatidan o'rmalovchi, yo'rg'alovchi va tezyuguruvchi-giper inflyatsiyaga ajratiladi.

Inflyatsiya darajasini narxlarning zo'r berib o'sishi belgilaydi. Inflyatsiya me'yorida bo'lganda (yiliga 10–12 foiz) bu iqtisodiyot uchun xavf tug'dirmaydi, aksincha, pul ineksiya orqali iqtisodiyotning o'sishiga ko'mak beradi. Iqtisodiyot ishtirokchilari me'yoridagi inflyatsiyaga moslashadilar. Davlatning moslashuv tadbirlari inflyatsiyani hisobga olib foizini o'zgartirishdan, daromadlar indeksatsiyasini o'tkazishdan iborat bo'ladi. Inflyatsiya belgilangan me'yoridan chiqib ketganda, davlat inflyatsiyaga qarshi tadbirlarni qo'llaydi. Chunki inflyatsiya firmalar va fuqarolardagi mavjud pul qadrining pasayishidan turli xil yo'qotishlarga olib keladi. Giper inflyatsiya iqtisodiy tanglikni hosil etadi.

Iqtisodiyotda ortiqcha pul hosil bo'lganda, pul massasi qisqartiriladi. Narxlar pul miqdoriga bog'liq bo'lar ekan, uning qisqarishi talabni kamaytirib, narxlarning o'sishini sekinlashtiradi. Davlatning aksilinflyatsiya siyosatining muhim yo'nalishidan biri bu iqtisodiyotning real siyosatini rag'batlantirishdan iborat. Chunki iqtisodiyotning real siyosati xilma-xil mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bo'lganidan u iqtisodiyotning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Real sektorda yaratilgan barcha ne'matlar ayirboshlanadi, taqsimlanadi va iste'mol etiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Ishsizlik, iqtisodiy o‘sish, Ouken qonuni, inflyatsiya, inflyatsiyaning turlari, real, nominal, protsent, yalpi talab, yalpi taklif, davlat siyosati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholining asosiy ko‘rsatkichlarini izohlang.
2. Ishsizlikka ta’rif bering va qanday hisoblanadi?
3. Ishsizlikning qanaqa turlari mavjud?
4. Iqtisodiy o‘sishga ishsizlik qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Ouken qonuni haqida tushuncha bering.
6. O‘zbekistonda ishsizlik qanday darajada?
7. Inflyatsiyaga ta’rif bering.
8. Inflyatsiyaning qanday turlari mavjud?
9. Inflyatsion jarayonning real va nominal protsent stavkalariga ta’sirini ifodalab bering.
10. Inflyatsiyaning yalpi talab va yalpi taklifga ta’sirini ifodalab bering.

TESTLAR

1. Aholi bandligi deganda nimani tushunasiz?

A. mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati

B. Bozor talablariga muvofiq ishlab chiqarishning assortiment tuzilmasini ishlab chiqarish

C. Texnik va iste’mol parametrlari o‘zaro aloqasini o‘rganish.

D. Yangiliklar kiritish siyosati , narx siyosati , tovar qadog‘i, tovar belgisi

2. Agarda bitimlar uchun pullar yiliga o‘rtacha 5 marta aylansa, unda ayirboshlash uchun muhim bo‘lgan pul miqdori:

A. YaMMning 2 foizini tashkil qiladi

B. YaMM nominal hajmidan 5 marta ko‘p

C. Quyidagi nisbatga teng: 5% / YaMM nominal hajmi
D. Quyidagi nisbatga teng: 20% / YaMM nominal hajmi

3. Iqtisodiy faol aholini tarkibiga ...

A. Bandlar va faol ish qidirayotganlar
B. Davriy ishsizlar va mavsumiy ishsizlar kiradi
C. Ishsizligi uchun davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi ishsizlar
D. Davriy ishsizlar va mavsumiy ishsizlar, bandlar va faol ish qidirayotganlar, ishsizligi uchun davlat tomonidan moliyalash-tiriluvchi ishsizlar kiradi

4.Ishlab chiqarish sohasida jonli mehnat miqdoriga quyida keltirilingan qaysi omillar ta'sir etadi?

A. Ishchi kuchini yosh tarkibi, ishchi kuchining jins bo'yicha tarkibi
B. Ish kuni, haftasi, yilning davomi
C.Umumiy ta'lim darajasi
D.Ishchi kuchini yosh tarkibi, ishchi kuchining jins bo'yicha tarkibi, ish kuni, haftasi, yilning davomi, umumiy ta'lim darajasi

5. Yakin orada yana ish topishga umid qilayotgan kishi:

A. Ishsizlar toifasiga kiradi
B. Bandlar toifasiga kiradi
C. Ish kuchi tarkibida hisobga olinmaydi
D. To'la band emas deb hisoblanadi

6. Iqtisodning qisqarishi natijasida ish joyini yuqotgan kishi qaysi ishsizlik kategoriyasiga kiradi ?

A. Davriy ishsizlik formasi
B. Friksion ishsizlik formasi
C. Strukturaviy ishsizlik formasi
D. Permanent ishsizlik

7. To'la bandlik sharoitida friksion ishsizlik darajasi qanday bo'lishi kerak?

A. Nolga teng, bir foizdan past, davriy ishsizlik formasi darajasiga nisbatan past

B. Nolga teng
C. 1% dan past
D. Davriy ishsizlik formasi darajasiga nisbatan past

8. Ouken qonuniga asosan, haqiqiy ishsizlik darajasining uning tabiiy darajasidan 2% ga yuqori bo'lishi YaMMning haqiqiy hajmi uning real hajmidan qanchaga past ekanligini bildiradi

A. 5%
B. 2%
C. 3%
D. 4%

9. Ishchi o'z xohishi bilan ishdan bo'shagan, ishchi kuchi tarkibiga kiradi, lekin hali ish topmagan bo'lsa, qaysi kategoriyaga taalluqli?

A. Friksion ishsizlik formasi
B. Strukturaviy ishsizlik formasi
C. Davriy ishsizlik formasi
D. Permanent ishsizlik

10. Inflyatsiyaning turlari

A. Talab va taklif inflyatsiyasiga
B. Qanday borishi jihatidan erkin bozor inflyatsiyasi
C. Davlat bostirib turadigan inflyatsiyaga
D. Yo'rg'alovchi va tez yuguruvchi-giper inflyatsiyaga ajratiladi.

10-BOB. TOVAR VA PUL BOZORINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI TAHLILI

10.1. IS – LM modelining mohiyati va tenglamalari

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta’sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS – LM modeli yordamida bajariladi.

IS – LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar, ham pul bozorida birgalikda muvozanat o‘rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste’mol, ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi. Garchand iste’mol va investitsion tovarlarga talab turli omillar bilan belgilansada IS – LM modelida ular bir butun deb qaraladi.

Pul bozori – xazina veksellari va tijorat qog‘ozlari ko‘rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi-sotdi mexanizmi tushuniladi.

Bu bozorni obligatsiyalar bozoridan farqlash zarur. Pulning obligatsiyalarda ifodalangan nisbiy bahosi obligatsiyalar bo‘yicha foiz stavkasidir.

AD-AS modelida tovar va pul bozorlarining aloqasi e’tiborga olingan edi. Ya’ni tovarlar va xizmatlar baholarining ko‘tarilishi natijasida pulga bo‘lgan talabning oshishish, o‘z navbatida, foiz stavkasining ko‘tarilishiga olib kelishi va oqibatda investitsiya xarajatlari va umuman yalpi xarajatlarning kamayishi AD-AS modelida ko‘zda tutilgan edi. IS – LM modelida AD-AS modelini qisqa muddatli davrga aniqlashtiradi va bu modelda har ikkala bozor yagona makroiqtisodiy tizimning sektorlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Model bu sektorlarda tarkib topgan sharoitlarga bog‘liq tarzda foiz stavkasi R bilan daromad darajasi Y ning muvozanatli darajasini belgilaydi. Model birinchi bor 1937-yil J.Xiks tomonidan Keynsning makroiqtisodiy konsepsiyasi mohiyatini izohlash maqsadida taklif qilingan bo‘lib «Xiks xochi» deb ham yuritiladi.

IS – LM (investitsiya – jamg‘armalar, likvidlikning afzalligi – pul) modeli foiz stavkasi R bilan daromadlar Y ning bir vaqtning

o‘zida har ikkala bozorda muvozanatni ta’minlaydigan kombinatsiyalarini topish imkonini beradi.

Modelning asosiy tenglamalari quyidagilar:

1. $Y = C + I + G + Xn$ - asosiy makroiqtisodiy ayniyat.
2. $C = a + b(Y - T)$ – iste’mol funksiyasi, bu yerda $T = Ta + tY$.
3. $I = e - dR$ – investitsiya funksiyasi
4. $Xn = d - m'Y - nR$ – sof investitsiya funksiyasi
5. $M/P = kY - hR$ – pulga talab funksiyasi

IS – LM modelida ko‘rilgan barcha tenglamalar bajarilsa muvozanatga erishiladi.

Modelning endogen o‘zgaruvchilari Y, C, I, Xn va foiz stavkasi R.

Modelning ekzogen o‘zgaruvchilari G, Ms va chegaraviy soliq stavkasi G, Ms va chegaraviy soliq stavkasi t.

a, b, c, d, m, n, k va h empirik koeffitsiyentlar bo‘lib, musbat va nisbatan barqarordir.

Y haqiqiy < Y potensial bo‘lgan qisqa muddatli davrga muvozanat ko‘rib chiqilayotganda, modelda baholar darajasi o‘zgarmas, foiz stavkasi R va daromad Y o‘zgaruvchan deb olinadi.

Y haqiqiy = Y potensial bo‘lgan, ya’ni to‘la bandlik sharoitida baholar darajasi R o‘zgaruvchan, Ms nominal kattalik va boshqa barcha o‘zgaruvchilar real kattaliklardir.

10.2. IS – egri chizig‘i va uning tenglamasi

IS – egri chizig‘i tovarlar va xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o‘zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste’mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari qondiriladigan nuqtalarni xarakterlaydi. Bu egri chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg‘armalar o‘zaro teng bo‘ladi.

IS – egri chizig‘ini Keyns xochi va investitsiya funksiyasi grafigi yordamida keltirib chiqaramiz (10.1-10.2.-10.3-rasmlar).



10.1-rasm. Keyns xochi.





10.2 - rasm. Investitsiya funksiyasi.

10.3-rasm. IS – egri chizig'i grafigi.

Foiz stavkasining R_1dan R_2 ga qadar ko'tarilishi investitsiyalar miqdorini I_1 dan, I_2 ga qadar kamayishiga olib keladi. Bu haqiqiy xarajatlar egri chizig'ini E_1 dan E_2 ga qadar pastga tomon $\Delta E = \Delta I$ ga teng miqdorda surilishiga olib keladi. Oqibatda daromadlar miqdori Y_1 dan Y_2 ga qadar

$$\Delta Y = \Delta E * m \text{ miqdorga pasayadi, bu yerda } \left(m = \frac{1}{1-b\,(1-t)+m'}\right)$$

Demak, tovarlar va xizmatlar bozorida daromadlar darajasi va foiz stavkasi dinamikasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

IS – egri chizig'ini, shuningdek, jamg'arish, investitsiya funksiyalari yordamida keltirib chiqarish mumkin.

Daromadlarning Y_1 dan Y_2 ga qadar o'sishi jamg'armalarni S_1 dan S_2 ga qadar o'sishiga olib keladi. Natijada investitsiyalar I_1 dan I_2

qadar $\Delta I = \Delta S$ miqdorga ko'payadi. Bu esa foiz stavkasini R_1 dan R_2 ga qadar pasayishiga olib keladi.

R o'zgarmagan holda IS egri chizig'ining o'ngga yoki chapga silijishi quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi:

- iste'mol xarajatlari darajasi;
- davlat xaridi darajasi;
- sof soliqlar (soliqlar – subsidiyalar – transfertlar);
- investitsiyalar hajmining (R ning mavjud stavkasida) o'zgarishi.

IS tenglamasini iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari tenglamalarini asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, uni R va Y ga nisbatan yechib topiladi.

R ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$R = \frac{a+e+g}{d+n} - \frac{1-b(1-t)+m'}{d+n} Y + \frac{1}{d+n} G - \frac{b}{d+n} Ta, \text{ bu erda}$$

$$T = Ta + t * Y$$

Y ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$Y = \frac{a+e+g}{1-b(1-t)+m'} - \frac{1}{1-b(1-t)+m'} G + \frac{b}{1-b(1-t)+m'} Ta \frac{d+n}{1-b(1-t)+m'} R$$

Ushbu formulada: $T = Ta + t * Y$

$(1 - b\,(1-t) + m') / (d + n)$ IS egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini ko'rsatadi va fiskal hamda pul-kredit siyosati samaradorligining nisbiy parametrlaridan biri hisoblanadi.

10.3. LM – egri chizig'i va uning tenglamasi

LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pulga talab Md pul taklifi Ms ga teng bo'ladi. (Hiquidity Preferense = Money Supply). Pul bozorida bunday muvozanatga daromad Y ning oshishi bilan foiz stavkasi R ko'tarilsagina erishiladi. Ma'lumki, pulga talab miqdoriga foiz stavkasidan tashqari daromadlar darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Daromadlar yuqori bo'lsa, xarajatlar uchun pulga talabni oshishiga olib keladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo'lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab dinamikasi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Pulga talab funksiyasini quyidagicha yozamiz:

$M/P = f(R;Y)$

Pul bozori holatini belgilovchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bunday o'zaro munosabatlarni 10.4-rasmda tasvirlaymiz.



10.4-rasm *Pul bozoridagi muvozanat grafigi LM egri chizig'i grafigi.*

10.4-rasmdan ko'rinib turibdiki, pulga bo'lgan talab, foiz stavkasi pasayishi bilan, shuningdek, daromadlar ko'payishi natijasida ham oshadi. Daromadlarning oshishi natijasida pulga talab egri chizig'i Md1 yuqori surilib, Md2 holatini egallaydi va unda pul bozoridagi muvozanat nuqtasi R1 holatidan R2 holatiga o'tadi. Shunday qilib, yuqoriroq daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egri chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtasidagi munosabatlarni ko'rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad natijasi qancha baland bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

LM egri chizig'i o'ziga xos konfiguratsiyaga ega: gorizontal qism va vertikal qism. LM egri chizig'ining gorizontal qismi foiz stavkasi R ning minimal darajasidan pasaya olmasligini anglatsa, vertikal foiz stavkasi R ning maksimal darajasi chegarasidan tashqarida hech kim o'z mablag'larining likvid (pul) shaklida ushlab turmasligini va ularni qimmatbaho qog'ozlarga aylantirishini anglatadi. Baholarning o'zgarishi hamda pul taklifi hajmidagi o'zgarishlar LM egri chizig'ini (foiz stavkasi R o'zgarmas bo'lgan holda) siljishga olib keladi. LM egri chizig'i tenglamasi pulga talab funksiyasini R va Y ga nisbatan yechib topiladi.

R ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$R = (k/h)Y - (1/h)(M/P)$

Y ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$Y = (1/k)(M/P) + (h/k)R$

k/h koeffitsiyenti LM egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini xarakterlaydi va fiskal va pul-kredit siyosatining nisbiy samaradorligini baholaydi.

10.4. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat holatini ko'rsatadi. Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi R ni va daromad darajasi Y ni aniqlaydiki, bunda tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif hamda real pul mablag'lariga bo'lgan talab ularning taklifi o'zaro teng bo'ladi (10.5-rasm).



10.5-rasm. *IS-LM modelidagi iqtisodiy muozanat.*

Ushbu formulada: R* – muvozanatli foiz stavkasi;

Y* – muvozanatli daromad hajmi.

IS va LM egri chiziqlarining o‘zaro kesishishi pul taklifi investitsiyalar va jamg‘armalarni o‘zaro tenglashtiruvchi foiz stavkasi shakllanishi uchun yetarli ekanligini anglatadi.

IS-LM modelida ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi IS egri chizig‘ining R ga nisbatan hisoblangan tenglamasidagi kattaliklarni LM egri chizig‘i tenglamasiga qo‘yib, shu tenglamani Y ga nisbatan yechib topiladi.

$$Y=[h((a+e+g+G-bTa)/(k(d+n)+h(1-b(1-t)+m')]+[(d+n)/(k(d+n)+h(1-b(1-t)+m')]*(M/P)$$

Ushbu formulada: $T = Ta + t * Y$

Baholar darajasi R o‘zgarmas bo‘lgan holda Y ning muvozanatli darajasi yagona bo‘ladi. R ning muvozanatli darajasi Y ning muvozanatli darajasini IS yoki LM tenglamasiga qo‘yib uni R ga nisbatan yechib topiladi.

IS egri chizig‘i rejalashtirilgan xarajatlarga bog‘liq bo‘lganligi uchun uning o‘zgarishi budjet - soliq siyosatidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi. LM pul taklifiga bog‘liq bo‘lganligi uchun undagi o‘zgarish monetar siyosat tadbirlari natijasini ko‘rsatadi.

Bundan xulosa shuki, IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga birgalikda ko‘rsatadigan ta’sirini baholash imkonini beradi.

Davlat xarajatlarining o‘sishi yoki soliqlarning kamayishi IS egri chizig‘ini o‘ngga siljitadi. Davlat xarajatlarining kamayishi va soliqlarning oshishi esa bu egri chiziqni chapga siljitadi. Xuddi shuningdek, pul taklifining oshishi LM egri chizig‘ini o‘ngga, kamayishi esa chapga siljitadi. IS-LM modeli ma’lum makroiqtisodiy natijalarga erishishning turli variantlarni ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. IS-LM va AD-AS modeli o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib bering.
2. Milliy darajadagi yoki makroiqtisodiy muvozanat nimani bildiradi?
3. IS egri chizig‘ining asosiy o‘zgaruvchilari qanday? U qanday keltirib chiqariladi?
4. LM egri chizig‘ining asosiy o‘zgaruvchilari nimalardan iborat va u qanday keltirib chiqariladi?
5. IS egri chizig‘i tenglamasidagi qaysi parametr fiskal va pul-kredit siyosatining nisbiy samaradorligini belgilaydi va nima sababli?

TESTLAR

1. Pul bozori?

A. Pul bozori deganda xazina veksellari va tijorat qog‘ozlari ko‘rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi-sotdi mexanizmi tushuniladi

B. Bozor talablariga muvofiq ishlab chiqarishning assortiment tuzilmasini ishlab chiqarish tushuniladi

C. Texnik va iste’mol parametrlari o‘zaro aloqasini o‘rganish tushuniladi

D. Yangiliklar kiritish siyosati, narx siyosati, tovar qadog‘i, tovar belgisi tushuniladi

2. Real almashuv kursi

A. Real almashuv kursi-ikkala mamlakatdagi narxlar darajasining o‘zaro nisbati, munosabatini hisobga oluvchi almashuv kursi

B. Ish kuni, haftasi, yilning davomi

C. Umumiy ta’lim darajasi

D. Ishchi kuchini yosh tarkibi, ishchi kuchining jins bo‘yicha tarkibi

3. Real foiz stavkasi

A. Real foiz stavkasi – inflyatsiya sur'ati darajasiga ko'ra to'g'irlangan nominal foiz stavkasi

B. Davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliqlarni oshirish

C. To'q turmush daraja, normal daraja, kambag'allik, qashshoqlik

D. Iqtisodiy prognozlash, to'q turmush darajasi

4. Revalvatsiya

A. Revalvatsiya – mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish

B. Korxona va tashkilotlarning texnik va texnologik imkoniyatlarini yuksaltirish ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash

C. Mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va yoqilg'i-kimyo, engil va oziq-ovqat sanoati sohalariga yirik kapital qo'yilmalar yo'naltirilishi

D. Barcha javoblar to'g'ri

5. **Savdo balansi**

A.Savdo balansi – eksport va import tushumlarini o'zida aks ettiruvchi hujjat

B. To'lov balansi va uning tarkibiy tuzilishi

C. Budjet-soliq siyosati

D. Iqtisodiy prognozlash

11-BOB. TO‘LOV BALANSINING IQTISODIY TAHLILI

11.1. To‘lov balansini tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

To‘lov balansi – ma’lum bir davr mobaynida mamlakat rezidentlari va tashqi dunyo o‘rtasida bo‘ladigan bitimlar statistik qayd qilingan hujjatdir.

To‘lov balansi mamlakatning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki va iqtisodiy holatini aks ettiradi. Ayni paytda, real valyuta kursining to‘lov balansi va uning tarkibiy qismlariga ta’sirini to‘g‘ri baholash samarali pul - kredit va valyuta siyosatini amalga oshirishning zaruriy shartlaridan hisoblanadi.

Mamlakatning iqtisodiy aloqalarini aniq – lo‘nda ifodalab, valyuta, budjet – soliq, xalqaro savdo siyosati hamda davlat qarzini boshqarish yo‘nalishlarini tanlash uchun indikator vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida “PF - 4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan” 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi"ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida "makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish" belgilangan.

Ushbu ustuvor yo‘nalish doirasidagi muhim vazifalar tarkibidan xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish; ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma - bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash o‘rin olgan.

Yuqoridagi vazifalarning ijrosi bevosita mamlakat to'lov balansi holatiga ta'sir etgani holda, uni tartibga solish bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqishni ham taqozo etadi. To'lov balansi ko'rsatkichlari mamlakatning xalqaro hisob - kitoblari, valyuta-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni rag'batlantirish yoki cheklashga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullarini tanlash va foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, to'lov balansi qoldig'i tahlili iqtisodiy siyosatni aniqlash uchun zarurdir.

Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayriboshlash va valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlari orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham to'lov balansini bir tomondan, chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomondan esa, chetga chiqariladigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan hujjatdir deb qarash mumkin. Tushum faqat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin. Aksincha, xorijiy tovarlar va xizmatlarni sotib olish (import) uchun to'lovlar xorijiy valyuta xarajatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bunda tovar deganda ayriboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya'ni u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyuta bo'lishi mumkin.

To'lov balansida barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga: joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalarga bo'linadi (11.1-jadval). Shunga ko'ra, to'lov balansi strukturasi ham ikki qismdan iborat:

1. Joriy operatsiyalar hisobi;
2. Kapital harakati hisobi.

Joriy operatsiyalar hisobida mahsulotlar va xizmatlar eksporti «plyus», import esa «minus» ishoralari bilan belgilanadi. Ya'ni, joriy operatsiyalar hisobida ichki mahsulotlar eksporti kredit, aksincha mamlakatga mahsulotlar olib kelish – import esa debit sifatida ko'rsatiladi. Chunki, mahsulotlar eksporti xorijiy valyuta ishlab topib, mamlakat valyuta zaxirasini boyitsa, import esa mamlakatdan valyuta chiqib ketishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat valyuta zaxirasini kamaytiradi.

11.1-jadval

Mamlakat to‘lov balansining taxminiy ko‘rinishi (raqamlar shartli berilgan)[107]

№	Moddalar nomi	Kredit (+) yoki eksport hisobiga tushumlar	Debit (-) yoki import natija-sidagi xarajatlar	Sof kredit yoki sof debit
I	**Joriy operatsiyalar hisobi**			
1	Tovarlar	+185	-260	-75
2	Tashqi savdo balansining qoldig‘i			-75
3	Xizmatlar	+85	-97	-12
4	Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va dividendlar)	+28		+8
5	Transfert ko‘rinishidagi pul o‘tkazmalari	+10		-8
6	Joriy operatsiyalar bo‘yicha balansning qoldig‘i			-87
II	**Kapital harakatining hisobi**			
1	Investitsiyalar va boshqa o‘rta va uzoq muddatli kapital	+150	-87	+63
2	Kapital harakati balansining qoldig‘i			+63
3	Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo‘yicha balansning qoldig‘i			-24
4	Rasmiy zaxiralar (oltin, XVFdagi zaxiralar)	+24		+24

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi tashqi savdo balansining qoldig‘i deb yuritiladi. Misolimizda bu balans salbiydir, ya’ni mamlakat tovarlarni chetga chiqarishdan ko‘ra ko‘proq olib keladi (-75).

[107] Raqamlar shartli.

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi – bu xizmatlar (transport, sug‘urta, sayyohlik xizmatlari va boshqalar) eksporti va importidir. Misolimizda tovarlar bilan bo‘lgan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan bo‘lgan operatsiyalarda ham mamlakat xorijiy xizmatlarni ko‘proq oladi, ya’ni masalan, mamlakatda yashovchilar xorijga chetdan mamlakatga keladigan sayyohlarga nisbatan ko‘proq boradilar. Shuningdek, mamlakatdagi tadbirkorlarga xorijiy transport va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish hajmi xorijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sug‘urta kompaniyalari ko‘rsatadigan xizmatlar hajmiga qaraganda yuqoriroq va h.k. Bu operatsiyalar bo‘yicha ham balans salbiy qoldiqqa ega (-12).

Investitsiyalardan daromadlar - foizlar va dividendlar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Agar xorijga qo‘yilgan milliy kapital uchun chet to‘lovlari bo‘yicha tushumlar mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapital uchun to‘lanadigan to‘lovlar miqdordan ko‘p bo‘lsa, unda sof daromad musbat bo‘ladi (+8).

Transfert ko‘rinishida pul o‘tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fuqarolariga to‘lanadigan nafaqalarini, muhojirlarning xorijdagi o‘z qarindoshlariga pul o‘tkazmalari, turli ko‘rinishdagi hukumat yordamlarini o‘z ichiga oladi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijga jo‘natilayotgan pul o‘tkazishlar miqdori olinayotganiga nisbatan yuqori, ya’ni operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi (-8).

Joriy hisoblar bo‘yicha barcha operatsiyalar yig‘indisi joriy operatsiyalar balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-87). Bu esa mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valyutaga bo‘lgan talab uning eksport operatsiyalari ta’minlaydigan taklifdan ortiq bo‘lishini anglatadi. Boshqacha aytganda, ushbu holda mamlakat to‘lov balansi joriy operatsiyalar bo‘yicha kamomadga ega.

Makroiqtisodiy modellarda joriy operatsiyalar balansi qoldig‘i quyidagicha beriladi:

$$X = M = Xn + Y - (C + I + G) \qquad (11.1)$$

Ushbu formulada, X– eksport
M – import;
Xn – sof eksport.

C + I + G - YaIMning bir qismi (absorbatsiya)

Joriy operatsiyalar balansida kamomad bo'lgan sharoitda mamlakatning eksportdan olgan daromadlari importga qilgan xarajatlaridan kam bo'ladi va uni tashqaridan qarz olish hisobiga yoki mavjud aktivlarning bir qismini xorijiy investorlarga sotish orqali qoplash mumkin. Bu operatsiyalar sof xorijiy aktivlarning kamayishiga olib keladi.

Sof xorijiy aktivlar (NFA) – bu milliy rezidentlar tomonidan egallab turilgan xorij aktivlari va xorijliklar egalik qilgan mamlakat aktivlari o'rtasidagi farqni bildiradi.

Joriy operatsiyalar balansida taqchillik bo'lmagan sharoitda esa mamlakat xorijiy valyutalarni sarf qilishga nisbatan ko'proq olib keladi.

Misolimizga aksincha mamlakat joriy operatsiyalari bo'yicha balansi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi. Bunda mamlakatda chet elda ko'chmas mulkni sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ortiqcha xorijiy valyuta yuzaga keladi.

Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi.

Mamlakatda ma'lum bir vaqtda moddiy va moliyaviy aktivlarni sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalarga kapital harakati hisobi deyiladi. Kapital harakati hisobi balansida korxonalar, yer, uy-joy, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar, xazina majburiyatlari va boshqa aktivlarni olish-sotish bilan bog'liq kapitallar oqimi aks ettiriladi. Bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa xorijiy valyuta mamlakatga kiritiladi, ya'ni valyuta tushumi ko'payadi (+150). Biroq kapitalni olib kelish bilan bir vaqtda uni olib chiqish bilan bog'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakatning tadbirkorlari xorijdan aksiyalar sotib oladi, xorijliklarga kreditlar beradi va shu asosida ular xorijiy valyuta zaxiralarini sarflaydi. Bu operatsiyada debet ko'rinishida aks ettiriladi (-87). Kapital harakati balansining qoldig'i – bu uni olib kelish va olib chiqish o'rtasidagi farqdir (+63). Kapital harakati hisobida aktivlar bo'yicha barcha xalqaro operatsiyalar ko'rsatiladi.

Kapital harakati balansi = Aktivlarni sotishdan tushadigan barcha tushumlar - Xorijiy aktivlarni sotib olishga qilingan xarajatlar

Xorijga aktivlarni sotish, valyuta zaxirasini ko'paytirsa sotib olish esa uni kamaytiradi. Shuning uchun kapital harakati balansi

barcha operatsiyalardan keladigan sof valyuta tushumlarini ko‘rsatadi. Kapital harakati hisobining ijobiy qoldig‘i mamlakatda kapital ko‘payishini bildirsa, uning salbiy qoldig‘i mamlakatda kapital kamayishini bildiradi.

Avval aytib o‘tilganidek, joriy operatsiyalar bo‘yicha balans va kapital harakati balansi o‘zaro chambarchas bog‘liq. Bizning misolda birinchisining taqchilligi (-87) katta qismi (+63) kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi va aksincha, agar to‘lov balansi joriy operatsiyalar bo‘yicha musbat qoldiqqa ega bo‘lsa, kapital harakati hisobi balans bo‘yicha manfiy qoldiqqa yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi.

Shunday qilib balansning bu ikki bo‘limi bir-biri bilan tenglashib boradi.

To‘lov balansi qoldig‘i = Joriy operatsiyalar + Kapital harakati balansi

Biroq, amalda to‘lov balansining bu qismida ham ko‘pincha kamomad yoki ortiqchalik yuzaga keladi. Barcha mamlakatlarning markaziy banklari rasmiy zaxiralar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralariga ega bo‘lib, bu zaxiralar joriy operatsiyalar bo‘yicha balans va kapital harakati bo‘yicha balans nomutanosibligini bartaraf etishda qo‘llaniladi. Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki qoldiq (-24) ni tashkil etadi va rasmiy zaxiralardan tushumlar hisobiga tartibga solinadi.

Rasmiy zaxiralarning qisqarishi (+) kamomad miqdorini ifodalaydi, rasmiy zaxiralarning o‘sishi (-) esa to‘lov balansining musbat qoldig‘i miqdorini ko‘rsatadi. Natijada uning barcha uch bo‘limi summasi «0» ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valyuta taklifni va uning mamlakatda bo‘lgan talab tengligini bildiradi.

11.2. To‘lov balansining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar

Joriy operatsiyalar hisobi bilan kapital harakati hisobining o‘zaro aloqalarini umumlashtirsak, uning makroiqtisodiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$Y = C + I + G + Xn;$$

$$Y - C - G = C + I + G + Xn - (C + G);$$

$$Sn = I + Xn$$

(I-S) + Xn = O (egiluvchan valyuta kursi rejimida Markaziy bank aralashmagan sharoitda) (11.2)

Ushbu formulada: Sn – milliy jamg'arish;

(I-S) – miqdori ichki investitsiyalarning ichki jamg'armalardan ortiqchaligini ko'rsatadi va kapital harakati hisobi qoldig'ini bildiradi.

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatga ko'ra joriy operatsiyalar va kapital harakati hisoblari bir-biriga tenglashadi.

$$X - M = Xn = -(I-S) = S - I$$

Tashqi balans Ichki balans

Bu shuni bildiradiki, to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'yicha kamomadi kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi.

$Xn < O \Rightarrow X - M > O \Rightarrow X > M;$
$I - S < O \Rightarrow I < S$ – kapitalni xorijga chiqarish

Agarda investitsiyalar (I) milliy jamg'armalardan ko'p bo'lsa, (I > S), ortiqcha investitsiyalar xorijdan olinadigan qarz hisobiga moliyalashtirilishi lozim. Bu qarzlar mamlakatga tovar va xizmatlarni eksport qilishga nisbatan ko'proq import qilishini ta'minlaydi (M > X). Ya'ni sof eksport manfiy qoldiqqa (Xn < 0) ega bo'ladi. Mamlakat xalqaro jarayonga qarzdor bo'lib qatnashadi.

Joriy operatsiyalar musbat qoldiqqa ega bo'lganda ortiqcha mablag'lardan xorijga investitsiya qilishga yoki xorijdan ko'chmas mulk sotib olishda foydalaniladi.

$Xn > O \Rightarrow X - M > O \Rightarrow X > M;$
$I - S < O \Rightarrow I < S$ – kapitalni xorijga chiqarish

Davlatlar rasmiy zaxiralari va qarzlar hisobiga qoplashi qobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansini katta davriy taqchilligi bo'lgan hollarda o'z valyutalari devalvatsiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi ko'payishiga va oqibatda mamlakatda xorijiy valyuta tushumining o'sishi hamda to'lov balansi kamomadi tugatiladi.

11.3. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari

To'lov balansi muvozanatini ta'minlash uchun joriy hisoblar va kapital harakati qoldiqlari bir-birini aynan qoplashi zarur bo'ladi. Markaziy bank valyuta intervensiyasini amalga oshirish chorasini ko'rmasa va rasmiy valyuta zaxiralari miqdorini o'zgartirmasa, to'lov balansi hisoblarini valyuta kursining erkin tebranishi hisobiga o'zaro tartibga solishi amalga oshiriladi.

Bunday sharoitda kapital oqib kelishi sababli milliy valyutaning qimmatlashuvi, kapital chiqib ketishi sababli esa uning arzonlashuvi ro'y beradi. Valyuta kursining erkin tebranishi to'lov balansining joriy va kapital hisoblarini avtomatik ravishda mutanosiblashtirish mexanizmi hisoblanadi.

Erkin tebranuvchi valyuta kursi tarafdorlari ta'kidlashicha, to'lov balansining ortiqchaligi yoki taqchilligi bunday vaziyatlarda tez orada barham topadi. Buni quyidagi egri chiziq orqali tushuntirib berish mumkin.

Ushbu 11.1-rasmda ko'rsatilgan valyutalarning tengligi sharoitida to'lov balansi musbat va manfiy qoldiqlarga ega bo'lmadi. Faraz qilaylik, o'zbekistonliklarning iste'molida o'zgarishlar bo'lsin va ular ko'proq Amerika tovarlarini sotib olishsin yoki O'zbekistonda narxlar darajasiga Amerikadagiga nisbatan oshsin va foiz stavkasi esa Amerikadagiga nisbatan kamaysin. Bunday vaziyatlarning har biri yoki barchasi birgalikda o'zbekistonliklarning dollarga bo'lgan talabini DD va D1D1 gacha oshiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston to'lov balansidagi taqchillik «a,v» kenglikda mavjud bo'ladi. O'zbekistonliklarning eksport operatsiyalari «x,a» kenglikda dollar imkoniyatini beradi. Import ko'rinishdagi operatsiyalarni moliyalashtirish uchun «x,v» kenglikda dollar lozim bo'ladi. Shuni

ta'kidlab o'tish joizki, valyuta kursi o'ziga xos bahoga ega bo'lib, ichki narxlarni «s», tashqi narxlarni «v» bilan bog'laydi.



11.1-rasm. Erkin tebranuvchi valyuta kurslari sharoitidagi tenglik.

Chizmadagi «v» nuqtadan «s» nuqtaga qarab siljishi to'lov balansida tenglikni ta'minlaydi. Dollarning qiymati «a» nuqtadan «s» nuqtaga oshadi. Yuqorida ko'rsatilgan ikki vaziyatda ham, ya'ni Amerikadan O'zbekistonga importning kamayishi va aksincha, eksportning oshishi to'lov balansidagi kamomadni yo'qotish uchun olib borilgan tadbir hisoblanadi. Shunday qilib, valyuta kurslarining erkin harakati to'lov balansining ortiqchaligi yoki kamomadini yo'qotar ekan.

Erkin tebranuvchi valyuta kurslari to'lov balansini tenglashtirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, kamchiliklardan holi emas. Chunonchi, bunday valyuta birinchidan, savdoning noaniqligi va qisqarishiga, ikkinchidan, savdo sharoitining yomonlashishiga, uchinchidan, beqarorlikka va boshqalarga olib keladi.

Agar Markaziy bank rasmiy valyuta zaxiralari vositasida chet el valyutasini sotib yoki sotib olib valyuta kursini erkin tebranishiga barham bersa, valyuta kursining erkin tebranishi vositasida to'lov balansini tartibga solish zarurati yo'qoladi.

Bunda to'lov balansi taqchilligi Markaziy bank rasmiy zaxiralarini rasmiy qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Bunday vaziyatda ichki bozorda chet el valyutasi taklifi oshadi. Qayd etilgan operatsiya eksportga xos bo'lib kreditda plyus belgisi bilan (Markaziy

bankda xorijiy valyuta zaxirasi kamayishiga qaramasdan) hisobga olinadi. Ushbu tadbir natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi kamayadi, uning almashinuv kursi nisbatan ko'tariladi va natijada ham investitsiyalar hajmiga, ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'lov balansining aktiv (musbat) qoldig'i esa Markaziy bankning rasmiy valyuta zaxiralari miqdorining ortishga olib keladi. Bunda Markaziy bank valyuta zaxiralarini to'ldirish uchun chet el valyutasini sotib olishi natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi nisbatan oshadi, uning almashinuv kursi kamayadi, bu hol esa iqtisodiyotga (investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sishga) rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan bunday operatsiyalar rasmiy rezervlar bilan bo'ladigan operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalar natijasida to'lov balansi qoldig'i nolga tenglashishi kerak.

To'lov balansining aktiv qoldig'i yoki taqchilligi mamlakat iqtisodiyoti xususiyatlariga qarab turlicha baholanishi mumkin.

Valyutasi xalqaro hisob-kitoblarda, hamda boshqa mamlakatlar zaxira valyutasi sifatida foydalaniladigan mamlakatlar uchun to'lov balansi taqchil bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Bunday mamlakatlar to'lov balansini uzoq muddat makroiqtisodiy tartibga solmasligi mumkin.

Milliy valyutasi jahon iqtisodiyotida zaxira valyutasi hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy banklaridan rasmiy valyuta zaxirasi cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzoq muddatli taqchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday hollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi. Mamlakat savdo siyosati va valyuta almashinuv kursini o'zgartirish choralarini qo'llab chet ellardagi o'z xarajatlarini kamaytiradi yoki eksportdan o'z daromadlarini oshiradi.

Bunday tartibga solish natijasida baholar umumiy darajasining oshishi oqibatida aholi turmush darajasining pasayishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida bandlikning pasayish holati ro'y berishi mumkin.

Valyuta rezervlari sarflab bo'linganligi, ilgari olingan chet el kreditlarining qaytarilish grafiklari buzilganligi va bu xildagi kreditlarni yana olish imkoniyatlari yo'qqa chiqqanligi sababli mamlakat to'lov balansi taqchilligining uzoq vaqt davom etishi to'lov balansining inqirozi deyiladi.

To‘lov balansining inqirozini hal etishning yagona yo‘li makroiqtisodiy tartibga solish hisoblanadi.

O‘tish davri iqtisodiyotida xorijiy valyutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy bankni qiyin ahvolga solib qo‘yadi. Chunki rasmiy valyuta zaxiralari bir vaqtning o‘zida ham to‘lov balansi taqchilligini, ham spekulyativ talabni qondirish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Valyuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chiqishning yagona yo‘lidir.

Qisqa istiqbolda to‘lov balansi qoldig‘i jamg‘arish va investitsiyalar hajmlarini belgilovchi omillar (masalan, budjet-soliq siyosati, foiz stavkalari) ta’sirida o‘zgarishi mumkin.

Agar mamlakatda rag‘batlantiruvchi budjet - soliq siyosati yurgizilsa, bu hol milliy jamg‘armalarning pasayishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida, joriy operatsiyalar hisobi bo‘yicha musbat qoldiqqa olib keladi.

Cheklovchi byudjet soliq siyosati – milliy jamg‘armalar hajmlarini oshiradi, bu o‘z navbatida, kapital harakati hisobi bo‘yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo‘yicha musbat qoldiqqa olib

Jahon foiz stavkalarining oshishi kapital harakati hisobi bo‘yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo‘yicha musbat qoldiqqa erishishga olib kelsa, pasayishi aks natijalarga olib keladi.

O‘zbekistonda to‘lov balansini ishlab chiqish tajribasi: Ochiq iqtisodiyotda ko‘p mamlakatlar o‘z to‘lov balanslarini XVF (xalqaro valyuta fondi) tavsiya etgan ta’rif bo‘yicha ishlab chiqadilar. Bu ta’rif rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshiradi. To‘lov balansining ma’lumotlari muntazam chop etiladi va davlatning kredit qobiliyati haqidagi guvohnoma sifatida xalqaro tashkilotlar, boshqa mamlakatlarning hukumatlari hamda tadbirkorlar tomonidan kreditlash va moliyalashtirish, moliyaviy, texnika va moddiy yordam ko‘rsatish masalalarini hal etishda qo‘llaniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mamlakat to‘lov balansi necha qismdan iborat va ularda nimalar qayd etiladi?
2. To‘lov balansi tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib bering.
3. Joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalarni qanday tushunasiz?
4. To‘lov balansining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar deganda nimani tushunasiz?
5. To‘lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalarini izohlang.
6. To‘lov balansining aktiv qoldig‘ini izohlang.
7. To‘lov balansining inqirozini hal etishning yagona yo‘li.
8. Cheklovchi budjet - soliq siyosati.

TESTLAR

1. To‘lov ittifoqi

A. To‘lov ittifoqi – milliy valyutalarning o‘zaro almashinuvi va hiso-kitobda yagona pul birligining amal qilishi

B. Pul bozori deganda xazina veksellari va tijorat qog‘ozlari ko‘rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi sotdi mexanizmi tushuniladi

C. Texnik va iste’mol parametrlari o‘zaro aloqasini o‘rganish tushuniladi

D. Texnik va iste’mol parametrlari o‘zaro aloqasini o‘rganish tushuniladi

2. Umumiy bozor

A. Umumiy bozor - bunda uning qatnashchilari o‘zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o‘tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta’minlanadi

B. Pul bozori deganda xazina veksellari va tijorat qog‘ozlari ko‘rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi sotdi mexanizmi tushuniladi

C. Bozor talablariga muvofiq ishlab chiqarishning assortiment tuzilmasini ishlab chiqarish tushuniladi

D. Texnik va iste'mol parametrlari o'zaro aloqasini o'rganish tushuniladi

3. Real almashuv kursi

A.Real almashuv kursi-ikkala mamlakatdagi narxlar darajasining o'zaro nisbati, munosabatini hisobga oluvchi almashuv kursi

B. Ish kuni, haftasi, yilning davomi

C.Umumiy ta'lim darajasi

D.Ishchi kuchini yosh tarkibi, ishchi kuchining jins bo'yicha tarkibi

4. Real foiz stavkasi

A. Real foiz stavkasi – inflyatsiya sur'ati darajasiga ko'ra to'g'rilangan nominal foiz stavkasi

B.Davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliqlarni oshirish

C. To'q turmush daraja, normal daraja, kambag'allik, qashshoqlik

D. Iqtisodiy prognozlash, to'q turmush darajasi

5. Revalvasiya

A. Revalvasiya – mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish

B. Korxona va tashkilotlarning texnik va texnologik imkoniyatlarini yuksaltirish ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash

C. Mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va yoqilg'i-kimyo, engil va oziq-ovqat sanoati sohalariga yirik kapital qo'yilmalar yo'naltirilishi

D. Barcha javoblar to'g'ri

6. Savdo balansi

A.Savdo balansi – eksport va import tushumlarini o'zida aks ettiruvchi hujjat

B. To'lov balansi va uning tarkibiy tuzilishi

C. Budjet-soliq siyosati

D. Iqtisodiy prognozlash

12-BOB. OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT TAHLILI

12.1. Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rinishlari

Bundan oldingi mavzularda ko'rdikki, dunyoning hech bir mamlakati tashqi iqtisodiy aloqalar va munosabatlardan uzilgan holatda emas. Shu sababli, to'liq makroiqtisodiy model o'zida ham ichki, ham tashqi bozorlarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni mujassam etishi lozim.

Umuman olganda, iqtisodiyot ikki xil bo'ladi. Bular yopiq va ochiq iqtisodiyot. Yopiq iqtisodiyot tabiatan an'anaviy iqtisodiyot, bu bozor tizimining o'tmishdoshidir. Yopiq iqtisodiyot shunday iqtisodiyotki, u o'z qobig'iga o'ralgan bo'lib, tashqi dunyo bilan aloqaga kirishmaydi, o'zini o'zi ta'minlash qoidasiga asoslanadi. Bunday iqtisodiyot konservativ, eskilikni uzoq saqlab qoladi, modernizatsiya (yangilanish)ga moyil bo'lmaydi. Shu sababli, u istiqbolsiz hisoblanadi. Yopiq iqtisodiyot tarixiy o'tmish, lekin hozirgi sivilizatsiyadan ajralib, o'rmon, chakalakzorlarda yashab qolib ketgan qabilalarda uchraydi. Yopiq iqtisodiyotning aksi ochiq iqtisodiyotdir[108].

Ochiq iqtisodiyot – bu tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishgan, ularning ehtiyojiga tayanib, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotdir. «Ochiq iqtisodiyot» tushunchasi milliy iqtisodiyotga nisbatan qo'llaniladi. Uning ochiqlik darajasi turli mamlakatlarda bar xil, albatta. Bu turli mezonlarga qarab aniqlanadi.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligiga ochiq iqtisodiyot xosdir. Shu bois dunyoda ekstranaliyalar, ya'ni ijobiy yoki salbiy tashqi ta'sirlarga uchramagan mamlakatlar yo'q. O'zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida faol ish boshlagan. Bunda ochiq turdagi iqtisodiyotni shakllantirishning asosini mamlakatning dunyo xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi tashkil etadi.

O'zbekiston ochiq iqtisodiyot sharoitida jahon xo'jaligi sikllarining bevosita ta'siriga duch keladi. Davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz

[108] Sh.R.Qobilov Iqtisodiyot nazariyasi. darslik –T., 2013.

tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi hamda eksportining oshib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

1. Iqtisodiyotning eksport salohiyati. Agar eksport YaIMga nisbatan qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ochiqlik darajasi yuqori bo'ladi. Masalan, Gollandiyada eksport YaIMning 60% qismiga teng bo'lganidan, bu yerda ochiqlik darajasi yuqori deb aytish mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotining ham ochiqlik darajasi yuqori, chunki eksportning YaIMdagi hissasi deyarli 40 foizga yetadi.

2. Iste'molda importning hissasi. Agar bu hissa qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik iqtisodiyot ochiq hisoblanadi. Ammo buning uchun import kafolatlanishi kerak. Masalan, Yaponiya va Italiyada oziq-ovqat iste'molining 2/3 qismini import tashkil etadi, importga qarab ochiqlik darajasiga baho berilganda berilgan kafolatning bo'lishi nazarda tutiladi, chunki shunda iqtisodiy xavf-xatar yuzaga kelmaydi, aholi ta'minotida uzilishlar bo'lmaydi.

3. Iqtisodiyotga yuboriladigan investitsiyalarda xorij investitsiyalarining hissasi va chetga chiqarilgan kapitalning jami kapitaldagi hissasi. Agar ichki investitsiyalarda xorijdan kelgan mablag'lar ulushi qanchalik katta bo'lsa, kapital tashqariga qanchalik ko'p chiqsa, shunchalik iqtisodiyot ochiq hisoblanadi.

4. Mehnat resurslari tarkibida xorijdan kirib kelgan va xorijga chiqib kelgan ish kuchi hissasi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, shunchalik mamlakat iqtisodiyoti ochiq hisoblanadi.

Xullas, milliy iqtisodiyotning ochiqligi tovarlar, kapital va ish kuchining naqadar mamlakatga kirib va undan chiqib turishiga qarab belgilanadi. Biroq bular ochiqlikni ta'minlashda har xil o'rin tutadi, iqtisodiyoti kuchli mamlakatlarda ular iqtisodiyotining ochiqligini ko'p yillarda kapitalning chetga chiqishi, texnologiyalar eksporti ko'p bo'lgani yilda iste'mol tovarlari importining kattaligini belgilaydi. Aksincha, iqtisodiyoti rivjlanib ulgurmagan mamlakatlarda uning ochiqligini belgilashda xomashyo va energiya resursi hamda iste'mol tovarlari eksporti, kapital va texnologiya importining ustuvorligi asosiy hisoblanadi. Iqtisodiyotning ochiqligi ichki ziddiyatlarga ega.

Agar ochiqlik iqtisodi baquvvat mamlakatlarga ustuvorlik bersa, iqtisodi zaif mamlakatlarda chet elga qaramlik hosil etadi.

Ochiq iqtisodiyotlarning rivojlanishi jahon xo'jaligini yuzaga keltirgan (X1X–XX asrlar bo'sag'asida). Hozirgi zamon jahon xo'jaligiga ochiq iqtisodiyot xosdir. Shu bois dunyoda ekstranaliyalar, ya'ni ijobiy yoki salbiy tashqi ta'sirlarga uchramagan mamlakatlar yo'q.

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi hamda eksportining o'sib borishida, shuningdek, boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvning eng istiqbolli va maqbul bo'lgan yo'nalishini belgilash zarurati ham mavjud. Hozir ochiq milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi bilan bog'lanishi tovarlar, ish kuchi va kapitalning erkin harakati orqali amalga oshiriladi. Bozor tizimiga o'tishda iqtisodiy o'sishning tashqi manbalari ichki manbalari bilan bir qatorda turgani uchun, yosh mamlakatlar muqarrar ravishda baynalmilallashuv jarayoniga kirib borishlari kerak bo'ladi[109].

To'liq makroiqtisodiy model – ochiq iqtisodiyot modelidir. Ochiq iqtisodiyot – shunday iqtisodiyotki, u:

a) mamlakat ishlab chiqarayotgan tovarlari va xizmatlarining ma'lum bir qismini eksport va import qilishini;

b) mamlakat jahon moliya bozorlarida kredit olishi va kredit berishini anglatadi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida barcha ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ushbu mamlakat ichkarisida sotilsa hamda barcha xarajatlar uch qismga: iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlariga bo'linsa, ochiq iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan mahsulotning sezilarli qismi chet elga eksport qilinadi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga xarajatlarga to'rtinchi unsur sifatida mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning eksporti (chet elliklarning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari) ham kiritiladi.

Ko'lamiga ko'ra kichik ochiq iqtisodiyot va katta ochiq iqtisodiyot o'zaro farqlanadi.

---

[109] Sh.R.Qobilov Iqtisodiyot nazariyasi Toshkent-2013 darslik.

Kichik ochiq iqtisodiyot – katta bo‘lmagan mamlakat iqtisodiyotidir. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli kapital harakati schyoti va joriy operatsiyalar schyotini o‘z ichiga oladi. Bunday iqtisodiyot jahon bozorida katta ulushga ega emas va jahon foiz stavkasiga amalda ta’sir ko‘rsata olmaydi. Kichik ochiq iqtisodiyot jamg‘armalari va investitsiyalari jahon jamg‘armalari va investitsiyalarining juda kichik miqdorini tashkil etganligi sababli jahon moliyaviy bozorlaridagi shart-sharoitlarga ko‘ra belgilangan jahon foiz stavkasi bu iqtisodiyotda belgilab berilgan (ekzogen) ko‘rsatkich sifatida qabul qilinadi.

Katta ochiq iqtisodiyot ko‘lami yirikligi sababli foiz stavkasi mamlakatning ichida ro‘y berayotgan jarayonlarning jiddiy ta’sirida shakllanadigan iqtisodiyotdir.

Katta ochiq iqtisodiyot jahon jamg‘armalari va investitsiyalarining katta qismiga egalik qilayotgan yirik mamlakat (AQSH, XXR, Germaniya, Yaponiya, Rossiya va boshq.) iqtisodiyotidir. Bunday mamlakatlar jahon moliya stavkasiga ta’sir ko‘rsata oladi.

Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardir:

a) YalMdagi tashqi savdo kvotasi;
b) ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushi;
c) iste’mol tarkibidagi importning ulushi;
d) investitsiyalar hajmidagi xorijiy investitsiyalarning ulushi.

Iqtisodiyotning ochiqligi darajasi odatda mamlakatning tashqi savdosi hajmiga yoki hukumatning siyosiy liniyasiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Buyuk Britaniya iqtisodiyoti nisbatan ochiq hisoblanadi, chunki u tashqi savdoga juda bog‘langan.

AQSH iqtisodiyoti esa nisbatan yopiqdir, chunki tashqi savdo uning rivojlanishi uchun hal etuvchi ahamiyatga ega emas.

Ochiq iqtisodiyot xalqaro hisob-kitoblarda xorijiy valyutadan foydalanishni ko‘zda tutadi. U to‘lov balansida, xususan, joriy operatsiyalar balansi va kapital harakati balansida o‘z aksini topadi.

12.2. Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli

Ichki muvozanat inflyatsiya jarayonlari mavjud bo‘lmagan (yoki uning barqaror past darajasidagi) to‘liq bandlik sharoitida talab va taklifning balanslashganligidir.

Qisqa muddatli davrda ichki muvozanat muammosi, birinchi navbatda, budjet-soliq va pul-kredit siyosati vositasida yalpi talabni tartibga solish orqali ta'minlanadi.

Tashqi muvozanat qayd qilingan yoki suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida to'lov balansining nolga teng qoldig'ini ta'minlab turilishini anglatadi. Alohida holatlarda bu muammo ikki o'zaro mustaqil qismga bo'linadi:

a) joriy operatsiyalar balansining belgilangan holatini ta'minlab turish;

b) valyuta zaxiralarining aniq belgilangan miqdorini saqlab turish.

Tashqi va ichki muvozanatni ta'minlab turish usullari bir xil: budjet-soliq va pul-kredit siyosati. Ayrim hollarda mustaqil usul sifatida almashinuv kursi siyosati ham ajratib ko'rsatiladi.

Tashqi muvozanatni ta'minlash kapital harakatining mobilligi (mamlakatlararo kapital qo'yilishi jarayoni ichki foiz stavkasining jahon foiz stavkasiga nisbatan o'zgarishiga javoban keskinlashuvi) sababli murakkablashadi.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash muammosi tovar, pul va valyuta bozorlarining amal qilishiga taalluqlidir.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash makroiqtisodiy tartibga solishning muhim muammosi sifatida yuzaga chiqadi, chunki u ichki va tashqi o'zgaruvchilarning bir-biriga o'zaro ta'sirini va qayta ta'sirini ko'zda tutishni talab etadi.

Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy siyosat tahlili Mandell-Fleming modeliga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu model qisqa muddatda iqtisodiyotni muvozanatlashtirishni ifodalaydi va kichik ochiq iqtisodiyot uchun IS-LM modelining modifikatsiya qilingan shakli hisoblanadi. Ikkala model ham baholarning o'zgarmasligini nazarda tutadi va yalpi talab hajmining o'zgarishi sabablarini tushuntiradi. Ular o'rtasidagi asosiy farq shundaki, IS-LM modeli – yopiq iqtisodiyot modeli, Mandell-Fleming modeli esa ochiq iqtisodiyot modeli ekanligidadir.

Ichki va tashqi muvozanat muammosi, ko'pincha, IS-LM modelining modifikatsiya qilingan shakli vositasida, unga uchinchi – BB egri chizig'i qo'shilib tahlil qilinadi. BB egri chizig'i to'lov balansining muvozanatli darajasini tasvirlaydi.

Model ham qayd qilingan, ham erkin suzib yuruvchi valyuta kursi rejimlari uchun va kapital mobilligining turli darajalariga moslab tuziladi.

Bir vaqtning o'zida ichki va tashqi muvozanatga erishish muammosini quyidagi yondashuv asosida ko'rib chiqamiz.

To'lov balansining taqchilligini bartaraf etish uchun davlat cheklovchi pul-kredit siyosati vositasida kapital harakati balansining ijobiy qoldig'ini ta'minlash choralarini ko'radi. Masalan, foiz stavkasining oshirilishi mamlakatga kapital harakati balansining (joriy operatsiyalar balansining manfiy qoldig'ini qoplaydigan hajmdagi) ijobiy qoldig'ini ta'minlashga yetarli hajmda xorijiy kapitalning oqib kelishini rag'batlantiradi. Natijada to'lov balansi qoldig'i (BB egri chizig'ining S nuqtasida) nolga tenglashadi.



12.1-rasm. Tashqi muvozanatga erishish mexanizmi[110].

Aynan tashqi balansga erishish maqsadida G va R o'zgarishlarining ana shunday kombinatsiyasi mavjudligi BB egri chizig'ining ijobiy egilishini aks ettiradi.

BB egri chizig'idan pastda va o'ngda joylashgan nuqtalar to'lov balansi taqchilligini aks ettiradi. BB egri chizig'idan yuqorida va chapda joylashgan har qanday nuqta to'lov balansining, qat'i budjet-

[110]N Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.:Worth Publishers, 2015.

soliq va pul-kredit siyosati bilan ta'minlanadigan ijobiy (musbat) qoldig'ini aks ettiradi.

To'liq bandlilik, potensial ishlab chiqarish hajmi va inflyatsiya jarayonlarining mavjud emasligi bilan xarakterlanadigan ichki muvozanatni 12.2-rasm ko'rinishida tasvirlash mumkin.

Aytaylik, E nuqtada ham ichki, ham tashqi muvozanat ta'minlansin. Agar davlat xarajatlari G o'ssa, daromad multiplikativ samara bilan E dan A ga qadar ko'payadi.

Daromad muvozanat (E) nuqtasidan ortiqcha talab holatiga (A) o'sishi natijasida ortiqcha daromad inflyatsion bosimni yuzaga keltiradi. Ichki muvozanatni tiklash uchun talabni kamaytirish maqsadida foiz stavkasi R ni ko'tarish orqali pul massasini kamaytirish talab etiladi. 12.2-rasmda bu holat A nuqtadan D nuqtaga qadar siljishi ko'rinishida aks etadi. Bu nuqtada daromad resurslarning to'liq bandliligiga mos keladi, ichki muvozanat esa tiklanadi.



12.2-rasm. Ichki muvozanatga erishish mexanizmi[111].

O'z navbatida, G va R ning ichki muvozanatni ta'minlovchi kombinatsiyalari ijobiy egilishga ega YY egri chizig'ini yuzaga keltiradi.

YY egri chizig'idan o'ngda va quyida joylashgan nuqtalar ortiqcha talabni aks ettiradi. YY egri chiziqdan chapda va yuqorida joylashgan nuqtalar ortiqcha taklifni aks ettiradi. Bu nuqtalarda talab kamayadi va foiz stavkasi o'sadi.

[111] N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.:Worth Publishers, 2015.

BB egri chizig'ining tikligi kapital mobilligi bilan belgilanadi. Kapital qanchalik harakatchan bo'lsa joriy operatsiyalar schyotininng taqchilligini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan kapitalning oqib kelishini rag'batlantiruvchi foiz stavkasi R shunchalik kam miqdorga o'sadi. Bunda BB egri chizig'i yotiqroq bo'ladi.

Kapital kamroq harakatchanligi sharoitida BB egri chizig'i tikroq ko'rinishni oladi. Ammo kapitalning nisbatan kamroq mobilligi sharoitida ham BB egri chizig'i YY egri chizig'idan ko'ra tikroq bo'lmaydi. BB egri chizig'ining tikligi kapitalning mobilligi nolga teng bo'lgan sharoitda YY egri chizig'i tikligiga tenglashadi. Boshqa barcha holatlarda YY egri chizig'i BB egri chizig'iga nisbatan tik bo'ladi.

Shunday qilib, fiskal va monetar siyosatni qo'shib olib borish ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Navbatdagi muammo – fiskal va monetar siyosatning ichki va tashqi muvozanatga ta'siri darajasini aniqlashdir. Bu nazariy masalani yechishga Robert Mandell va Markus Fleming urinib ko'rishgan.

Mandell-Fleming modeli kichik ochiq iqtisodiyot modeli bo'lib qayd qilingan va suzib yuruvchi valyuta kurslari sharoitida iqtisodiy siyosatning turli ko'rinishlarini amalga oshirish natijalarini baholash maqsadida qo'llaniladi.

Mandell-Fleming modeli milliy iqtisodiyotning jahon bozoridagi hissasi kichik va shu sababli, uni rivojlantirishning asosiy parametrlari jahon bozori tomonidan, ya'ni tashqaridan belgilab beriladi degan shartga asoslanadi.

Bu model XX asrning 60-yillarida ishlab chiqilgan bo'lib, baholarning barqarorligini ko'zda tutadi va yalpi daromadning tebranishlari sabablarini tushuntirib beradi.

Bu modelga ko'ra iqtisodiyotning amal qilishi valyutalarning almashinuv kursi tizimiga bog'liq.

Mandell-Fleming modeli uchta tenglamani o'z ichiga oladi:

b. $Y+C(Y-T)+I(r)+G+Xn(e)$,IS
c. $M/P=L(r,Y)$,LM
d. $r=r^*$

Birinchi tenglama – tovar bozorini, ikkinchi tenglama – pul bozorini, uchinchi tenglama esa ichki foiz stavkasi (r) jahon foiz stavkasi (r*) darajasi bilan belgilanishi aniqlanadi.

Modelda uchta endogen o'zgaruvchilar: Y,r va e mavjud.

Modelni tasvirlash uchun ikkita grafik tuzish taklif etiladi. Har bir grafikda o'zgaruvchi miqdorlardan bittasi konstanta deb olinadi va tahlil ikki o'zgaruvchining aloqadorligi bo'yicha o'tkaziladi. Mandell-Fleming Y-r modeli 12.3-rasmda tasvirlangan. Chizmadan ko'rinib turibdiki, IS egri chizig'i quyida, LM egri chizig'i esa yuqoriga yo'nalgan. Gorizontal liniya jahon foiz stavkasini ifodalaydi.



12.3-rasm. Mandell-Flemingning Y-r modeli[112].

Grafik ikki xususiyatga ega.

1. IS egri chizig'ining holati almashinuv kursining darajasiga bog'liq, almashinuv kursining ko'tarilishi egri chiziqni chapga siljitadi.

2. Barcha uch egri chiziq bir nuqtada kesishadi.

Lekin bu uch egri chiziq bir nuqtada kesishmaydi deb tasavvur qilish mumkin (12.4-rasm).

Bunday vaziyatda ikki variant yuzaga keladi:

1. Almashinuv kursi juda past bo'lganligi sababli IS va LM egri chiziqlari jahon foiz stavkasidan yuqorida kesishadi(12.4. a rasm).

[112]N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.:Worth Publishers, 2015.

Bunday vaziyat chet ellik investorlarni mazkur mamlakat iqtisodiyotiga kapital kiritishga rag'batlantiradi. Natijada mamlakatning valyuta kursi ko'tariladi va IS egri chizig'i pastga siljiydi.



12.4-rasm. *Mandell-Flemingning Y-r modelida muvozanatga erishish mexanizmi*[113].

2. IS va LM egri chiziqlari ichki foiz stavkasi jahon foiz stavkasidan past bo'lgan nuqtada kesishadi(12.4 b-rasm). Bunday vaziyatda mazkur mamlakat investorlari kapitallarini xorijga olib chiqib ketishdan manfaatdor bo'lishadi. Natijada milliy valyutaning almashinuv kursi pasayadi va IS egri chizig'i yuqoriga siljiydi.

Mandell-Fleming modelini tahlil qilish kichik ochiq iqtisodiyotda davlatning har qanday iqtisodiy siyosati natijasi qayd qilingan va suzib yuruvchi valyuta kursiga bog'liq degan xulosaga olib keladi. Masalan, suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida daromadga faqat pul-kredit siyosati ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda rag'batlantiruvchi budjet-soliq siyosatining ta'siri, valyuta kursining ko'tarilishi sababli, nolga teng bo'ladi.

Qayd qilingan valyuta kursi sharoitida daromadga faqat budjet-soliq siyosati ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda pul-kredit siyosati daromadlarga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi, chunki Markaziy bankning

[113]N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY :Worth Publishers, 2015.

pul taklifini o‘zgartirishdan maqsadi almashinuv kursini belgilangan darajada saqlab turishdan iborat bo‘ladi.

Bu o‘zgartirish ichki iqtisodiy siyosat maqsadlariga to‘g‘ri kelish-kelmasligi e’tiborga olinmaydi.

12.3. Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat

Oldingi savolda ta’kidlaganimizdek qayd qilingan valyuta kursi sharaoitida monetar siyosat ko‘proq ichki balans muammosi bilan aloqador bo‘ladi. Keltirilgan fikrlarni izohlab berish uchun quyidagi gepotetik misolni ko‘rib chiqamiz.

Mamlakatning barcha tijorat banklari va Markaziy bankni barcha xorijiy aktivlar va passivlar to‘plangan yagona bank deb tasavvur qilamiz. Pul taklifi esa naqd pul va depozitlardan iborat deb qaraymiz. Bunday gepotetik bankning passivida pul taklifining barcha komponentlari (odatda M2 agregati), aktivida esa bank tizimining sof xorijiy aktivlari (aktivlar-passivlar, ya’ni xorijliklarning ularga bo‘lgan barcha talablari so‘ndirilgandan so‘ng mamlakat ega bo‘ladigan aktivlar) va sof ichki aktivlar (yoki hukumatga, firmalarga va uy xo‘jaliklariga sof ichki kreditlar) jamlangan bo‘ladi.

Sof xorijiy aktivlar mamlakatning valyuta zaxiralariga mos keladi. Bunday holatda aktivlar va pasivlarning tengligi shartini $M=Res+DS$ ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Bu tenglik pul taklifi (bank tizimining majburiyati) valyuta rezervlari (sof xorijiy aktivlar) va bank tizimining ichki kreditlari yig‘indisiga tengligini anglatadi.

Demak, pul taklifi ham ichki, ham tashqi omillarga bog‘liq.

Pul taklifining o‘zgarishini $\Delta M=\Delta Res+\Delta DS$ ko‘rinishida tasvirlash mumkin.

Bu yerda ΔRes to‘lov balansining taqchilligi yoki ortiqchaligiga mos keladi. Tashqi balansni tiklash, o‘z navbatida valyuta kursini saqlab turish zaruriyati xorijiy aktivlarni sotish va sotib olishni talab qiladi. Bu esa valyuta rezervlarining ko‘payishi yoki kamayishini keltirib chiqaradi. Lekin, rezervlarni sotish barobarida Markaziy bank muomaladagi pulning bir qismini chiqarib oladi. Rezervlarni sotib olish bilan esa pul taklifi hajmini ko‘paytiradi. Shunday qilib, qayd qilingan valyuta kursi sharoitida M endogen o‘zgaruvchi bo‘lib, to‘lov

balansining yuzaga keladigan taqchilligi yoki ortiqchaligiga (ya'ni almashinuv kursini pasaytirish yoki ko'tarish borasidagi harakatlarga) bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitda iqtisodiyotni rivojlantirish prognozlari tuzilayotganda pulga talab iqtisodiy o'sish va inflyatsiyaning maqsadli (rejadagi) ko'rsatkichlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Pul taklifi esa sof xorijiy aktivlar va ichki kreditlar hajmiga bog'langan holda aniqlanadi. Sof xorijiy aktivlar to'lov balansini tuzish prognozlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Ichki kreditlar hajmi esa qoldiq prinsipida aniqlanadi hamda hukumat va xususiy sektor o'rtasida taqsimlanadi. Xususiy sektorga ichki kreditlar miqdorini o'zgartirish uchun pul-kredit siyosatining uchala usuli ham qo'llaniladi.

Markaziy bank to'lov balansining iqtisodiyotdagi pul taklifiga ta'sirini valyuta rezervlari o'zgarishini sterillash orqali neytrallashtirishi mumkin. Masalan, (to'lov balansi taqchilligini yoki almashinuv kursi pasayishini bartaraf qilish maqsadlarida foydalanilishi natijasida) rezervlar qisqarganida Markaziy bank ichki aktivlarni pul taklifi hajmi o'zgarmasligini ta'minlaydigan darajada ko'paytirishi mumkin.

Ya'ni : $M=\downarrow Res+\uparrow DS$

Bunda u ochiq bozordagi operatsiyalar yoki pul-kredit siyosatining boshqa vositalaridan foydalanadi.

Ammo sterillash imkoniyatlari cheklangan. Agar to'lov balansining taqchilligi uzoq vaqt saqlanib qolsa, uni bartaraf qilishga intilish valyuta rezervlarini tugab qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda, mamlakat, almashinuv kursining pasayish tendensiyasini bartaraf qilish hamda pulning xorijga oqib ketishini tugatish uchun yoki qayd etilgan kursdan voz kechishi, yoki pul massasining qisqarishiga yo'l qo'yib berishga majbur bo'ladi. To'lov balansining barqaror ijobiy qoldig'i sharoitida rezervlar hajmi shunchalik ko'p bo'lishi mumkinki, ichki kredit nolga teng bo'lib qoladi. Bu esa amalda mumkin bo'lmagan holatdir (banklar ichki kreditlarni kamaytirmasligi, balki nobank sektoridan pul qarz olishi zarur bo'ladi).

Demak, hattoki sterillash ham pul masssasini to'lov balansi ta'siridan himoya qila olmaydi. Bu esa pul-kredit siyosatining ichki balansga ta'sirini keskin cheklab qo'yadi.

Qayd qilingan valyuta kursi sharoitida budjet-soliq siyosatining samaradorligi kapitalning mobilligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Davlat xarajatlarining ko‘payishi foiz stavkasining o‘sishini keltirib chiqaradi (fond bozorida qarzga mablag‘ olib, davlat xususiy sektor foydalanadigan pul massasini kamaytiradi). Bu esa, o‘z navbatida, xorijdan kapital oqib kelishini rag‘batlantiradi. Kapitalning yuqori mobilligi sharoitida davlat xarajatlarining ko‘payishi bilan bog‘liq savdo balansi taqchilligi kapital harakati schyotining musbat (ijobiy) qoldig‘i bilan amalda qoplanadi. Markaziy bank esa yuzaga kelgan almashinuv kursining o‘sish tendensiyasini bartaraf qilish uchun xorijiy valyutani sotib olish va muomalaga milliy valyutani ko‘p miqdorda chiqarishga, bu bilan esa pul taklifini oshirishga majbur bo‘ladi. Bu tadbir (davlat xarajatlarining o‘sishi bilan birgaldikda) daromadlarning kengayishi uchun qo‘shimcha rag‘bat yaratadi.

Shunday qilib, qayd qilingan valyuta kursi sharoitida budjet-soliq siyosati pul-kredit siyosatidan farqli ravishda daromad darajasiga, o‘z navbatida, ichki muvozanatga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsata oladi. Ta’sir darajasi kapitalning mobilligi o‘sishi bilan ortib boradi.

Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Iqtisodiyot yaxlit bo‘lar ekan, iqtisodiy siyosat ham yagonadir. Lekin davlat siyosatining aniq yo‘nalishlari bor.

Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo‘lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko‘ra milliy pul birligi xarid qurbini, uning valyuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvzanatlashtirishdan iborat bo‘ladi[114].

Monetar siyosatning uchta asosiy jihati bor:

1. Qayta moliyalashtirish yoki uchyot siyosati. Bunda davlat nomidan Markaziy banklar uchyot stavkasini o‘zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda pul arzonlashib, unga talab oshadi. Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo‘lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan investitsiyalarni o‘zgartirib, uning o‘sishiga ta’sir etadi. Masalan, Yevropa mamlakatlarida qayta moliyalashtirish stavkasi XX1 asrning birinchi o‘n yilligida 0.9 foizga tushdi. Bu bilan kredit

[114] Sh.R.Qobilov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik –T.,-2013.

arzonlashtirildi, chunki tijorat banklari shunga qarab kredit uchun undiriladigan foiz stavkalarini belgilaydilar.

2. Ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish siyosati. Bu davlat obligatsiyalarini chiqarib firmalar, banklar va aholiga sotish va vaqti kelganda, ularni qaytadan sotib olishni bildiradi. Bu obligatsiyalarni olish qulay bo'ladi, chunki ularga qat'i belgilangan foizni davlat to'laydi, bu bilan ularning daromadliligi kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda, pul ularga bog'lanib qoladi, natijada uning muomaladagi miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda, pul ulardan bo'shab muomalaga keladi, u yerdagi pul miqdori ko'payadi. Demak, bu usul bilan ham pul miqdori tartiblanadi.

3. Majburiy rezerv siyosati. Bu siyosatga binoan Markaziy bank boshqa banklar uchun kredit resursining majburiy rezervini kiritadi. Bu tartibga ko'ra banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini Markaziy bank ixtiyoriga beradi. Bu rezerv oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul ko'payadi. Masalan, mamlakatda jami kredit resurslari 80 mlrd. dollar. Shundan 10 foiz zaxiraga o'tkazilsa, 72 mlrd. dollar kredit uchun pul qoladi. Bordi-yu bu zaxira 15 foizga chiqarilsa, kreditga 68 mlrd. dollar qoladi. Bu bilan kreditga mo'ljallangan pulning taklifi oshadi yoki qisqaradi. Shunga qarab kredit olish goh oshib, goh qisqarib turadi. Monetar siyosatning aytilgan yo'nalishlari shuni ko'rsatadiki, unda turli iqtisodiy vositalar qo'llanadi.

Monetar siyosat ikki xil bo'ladi. Qattiq siyosat. Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi qat'i chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat biz ilgari ko'rganimizdek, odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani jadal bostirish uchun qo'llaniladi.

Yumshoq monetar siyosat. Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul ko'payib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot o'sish pallasida bo'lmaganda ko'proq qo'llaniladi, pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.

Fiskal siyosat. Bu davlatning soliq-budjet siyosatidir, unga binoan soliqlar belgilanadi, budjet mablag'lari aniq maqsadlar yo'lida ishlatiladi.

Fiskal siyosatda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va o'stirish uchun ikki xil yo'ldan boriladi:

1. Ilgari kiritilgan va hozir amalda bo'lgan iqtisodiy stabilizatorlarni - vositalarni qo'shib davom ettirish. Davlat qonun yo'li bilan shunday tartibni o'rnatadiki, unga binoan moliya normativlari (me'yorlari) joriy etiladi. Bular sharoit o'zgarishiga qarab avtomatik ravishda amal qilaveradi. Bular jumlasiga soliq stavkalarini, ishsizlik nafaqasi miqdori, daromadlarning inflyatsiyaga qarab indeksatsiya qilinishi, ijtimoiy yordam ko'rsatish normativlarini kiritish mumkin. Masalan, daromad solig'i daromad miqdoriga nisbatan 12 foiz qilib belgilansa, daromad ko'payishi bilan uning miqdori ham avtomatik ravishda oshadi. Daromadlarni 80 foiz indeksatsiyalash tartibi o'rnatilgan bo'lsa, narx oshgan taqdirda, shu 80 foiz darajada daromad ham ko'paytiriladi.

2. Sharoitga qarab yangi normativlarni kiritish, bu diskresion fiskal siyosat deb yuritiladi. Bu siyosat doirasida yangi soliq stavkalari joriy etiladi, yangi soliqlar kiritiladi, budjet mablag'larini sarflash me'yorlari o'zgartiriladi. Diskresion siyosat o'zgargan sharoitga moslashish siyosatidir.

Fiskal siyosat budjet orqali ham iqtisodiyotga ta'sir etadi. Budjet hisobidan davlat ishlab chiqarish infratuzilmasiga katta investitsiyalarni yuboradi, milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatli ish (masalan, yangi texnologiyani yaratish) bilan shug'ullanuvchi korxonalarga subsidiya beriladi. Subsidiya moliyaviy yordam sifatida qaytarib olinmaydi, uning hisobidan xarajatlar qoplanib foyda ko'payadi, bu bilan korxonalar rag'batlantiriladi.

Fiskal siyosat ikki xil bo'ladi. Faol fiskal siyosat. Bu qo'llanganda diskresion vositalar ishga solinadi, masalan, soliqlar kamaytiriladi, ulardan saylangan tarzda bo'lsa-da siylovlar beriladi, budjetdan transfertlar berish ko'paytiriladi, firmalar subsidiyalar oladi. Bularning hammasi iqtisodiy faollikka olib keladi. Firmalar xarajati qisqarib foydasi ortadi, aholining transfertlar hisobidan xarid qobiliyati oshadi. Xullas, bu siyosat firmalar va xonadonlar talabini oshiradi. Mana

shunday yo'l ko'p hollarda iqtisodiyot qiyinchilikdan chiqib o'zini o'nglab olishi uchun qo'llaniladi.

Nofaol fiskal siyosat. Bu siyosat moliyaviy stabilizatorlarni o'zgartirmay, ularning erkin ishlashiga xalal berishga qaratiladi, chunki bozor mexanizmi yaxshi ishlab turgan bo'ladi. Iqtisodiyotning uzilishlarsiz yuksalib borishi tufayli moliya vositalarini o'zgartirishga hojat qolmaydi. Demak, bu siyosat iqtisodiy o'sish to'xtovsiz borayotgan kezlarda ish beradi.

12.4.Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida makroiqtisodiy siyosat

Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitidagi budjet-soliq va pul-kredit siyosati qayd qilingan valyuta kursi sharoitidagiga nisbatan mutlaqo boshqacha natijalar beradi. Endi rollarni taqsimlash muammosini to'g'ri hal qilish teskari ko'rinish oladi.

Budjet-soliq siyosati savdo, demak, to'lov balansi uchun pul-kredit siyosatiga nisbatan katta ahamiyat kasb etadi. Aynan budjet-soliq siyosatidan tashqi balansga etish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ichki balansni ta'minlashda esa pul-kredit siyosatidan foydalanish birinchi planga chiqadi.

Agar qayd qilingan valyuta kursi sharoitida ichki pul siyosati almashinuv kursini quvvatlab turishni ham ko'zda tutgan bo'lsa, suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida u bunday vazifadan ozod qilinadi va ichki muammolarni hal qilish uchun samaraliroq ishlatilishi mumkin.

Pul taklifini kengaytirish foiz stavkalarini pasaytiradi va xarajatlarning oshishiga olib keladi. Ma'lumki, xarajatlarning ortishi importning o'sishini rag'batlantiradi va savdo balansini yomonlashtiradi. To'lov balansining taqchilligi yuzaga kelishiga foiz stavkasining pasayishi sababli kapitalning mamlakatdan chiqib ketishi ham ta'sir ko'rsatadi. Lekin egiluvchan valyuta kursi sharoitida taqchillik saqlanib qolmaydi. Importning o'sishi va kapitalning oqib ketishi xorijiy valyutaga talab oshishiga olib keladi va milliy valyuta qadrsizlanadi. Bu qadrsizlanish mamlakat eksportchilarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Oqibatda savdo balansi yaxshilanadi. Eksportning ortishi mamlakatimiz mahsulotiga bo'lgan talabning o'sishini anglatadi va

pul massasining dastlabki o‘sishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yuksalishni yanada kuchaytiradi.

Demak, pul siyosati ichki daromadlarga bevosita (pul taklifining o‘sishi orqali) va bilvosita (almashinuv kursining pasayishi hamda eksportning o‘sishi orqali) ta’sir ko‘rsatadi.

Kapitalning oqib ketishiga va o‘z navbatida milliy valyutaning qadrsizlanishi darajasiga ta’sir ko‘rsatgani uchun ham kapitalning mobilligi muhim ahamiyatga egadir.

Ammo, pul-kredit siyosati murakkab yetkazib berish mexanizmiga egaligi sababli uning ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta’siri ishlab chiqarishni kengaytirishning ichki rag‘batlari (foiz stavkasining pasayishi) orqali emas, balki ko‘proq tashqi dunyo orqali ro‘y beradi deb tasavvur qilish mumkin. Boshqacha aytganda, kapitalning chiqib ketishi va valyutaning qadrsizlanishi sharoitida mamlakat mahsulotlariga talabning o‘sishi uning eksportiga talabning oshishi hisobiga ro‘y beradi. Shu sababli, pul siyosatining ichki balansga ijobiy ta’siri o‘ziga xos xususiyatga ega.

Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida budjet-soliq siyosatining samaradorligini baholash yanada murakkabroqdir. Ma’lumki, davlat xarajatlarining ortishi ichki va tashqi muvozanatga ikki yo‘nalishda: daromad orqali va foiz stavkasi orqali ta’sir ko‘rsatadi. Daromadlarning ortishi (multiplikator samarasi orqali) importni ko‘paytiradi, savdo balansini yomonlashtiradi va milliy valyutaning kursini pasaytiradi. Davlat xarajatlarining ortishi, shuningdek, hukumat olayotgan qarzlarini ko‘paytirayotganligini anglatadi, bu esa foiz stavkalarining ortishiga olib keladi.

Yuqoriroq foiz stavkalari esa xorijdan kapital oqib kelishini rag‘batlantiradi. Bu esa milliy valyuta kursini oshiradi va kapital harakati schyotini yaxshilaydi. Yakuniy natija esa kapitalning mobilligi darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Kapitalning past mobilligi sharoitida budjet ekspansiyasi daromad orqali ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Kapitalning uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda oqib kelishi savdo balansining taqchilligini qoplay olmaydi va oqibatda valyuta kursi pasayadi.

Milliy valyutaning arzonlashishi eksportning o‘sishi uchun qulay sharoit yaratadi va to‘lov balansining taqchilligini bartaraf qilish

imkonini beradi. Eksportning ortishi, shuningdek, budjet ekspansiyasining ichki ishlab chiqarishga ijobiy ta'sirini to'ldiradi.

Shu bilan birga kapitalning mobilligi ortib borishi bilan kapital schyotining to'lov balansi va valyuta kursiga ta'siri kuchaya boradi. Kapitalning yuqori mobilligi sharoitida uning oqib kelishi sababli ro'y bergan valyuta kursining ko'tarilishi tendensiyasi ustunlik qiladi. Bu eksportning qisqarishiga va savdo balansi taqchilligining ortishiga olib keladi. Kapitalning katta miqdorda oqib kelishi bu taqchillikni qoplash va to'lov balansini muvozanatlashtirish imkonini beradi. Ammo budjet ekspansiyasining ishlab chiqarish hajmiga yakuniy ta'siri deyarli nolga teng bo'ladi. Bunga kuchli siqib chiqarish samarasi mavjudligi, ya'ni xususiy investitsiyalarni foiz stavkasining oshishi orqali va eksportni almashinuv kursining oshishi orqali siqib chiqarilishi sabab bo'ladi.

Shunday qilib, pul siyosatining ichki daromadga aniq ijobiy ta'siridan farqli ravishda budjet-soliq siyosati kapitalning past mobilligi sharoitidagina samarali bo'ladi.

Xulosa yasab, pul va budjet-soliq siyosatining, tashqi balansni saqlab turgan holda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan, nisbiy samaradorligini baholashimiz mumkin.

Ma'lumki, qayd qilingan valyuta kursi sharoitida ichki monetar siyosat amalda falajlangan bo'ladi va faqat budjet-soliq siyosatigina samara beradi. Va bu samara kapitalning mobilligi ortishi bilan ko'payib boradi.

Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida ichki ishlab chiqarish hajmiga, shubhasiz, kapitalning mobilligi qanday bo'lishidan qat'i nazar pul-kredit siyosati ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri. Real valyuta kurslari jamg'arma va sarmoyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi vertikal to'g'ri chiziq bilan sof eksport miqdorini ko'rsatuvchi, o'ngdan pastga egilgan egri chiziq kesishgan nuqtada tenglikka erishadi (12.5-rasm). Ushbu nuqtada xorijga kredit berish sifatida ko'rsatilgan milliy valyuta taklifi bilan xorijliklarning ushbu mamlakatdan sof eksportni sotib olishi uchun zarur bo'ladigan milliy valyuta talabi kesishadi.



12.5 - rasm. Real almashinuv kursidagi muvozanat[115].

Davlat xarajatlarining oshishi (yoki soliqlarning kamayishi) milliy jamg'armalarni kamaytiradi va (S-I) egri chiziq chapga suriladi (12.6-rasm). Bu siljishlar xorijiy investitsiyalar uchun milliy valyuta taklifining kamayishini ko'rsatadi.

Valyuta taklifining qisqarishi uning real almashtirish kursini oshiradi. Natijada milliy mahsulotlar xorijliklarnikiga nisbatan qimmatlashadi. Bu esa, o'z navbatida, eksportning qisqarishiga va importning oshishiga olib keladi. Oqibatda joriy operatsiyalar hisobida taqchillik paydo bo'ladi. Agar soliqlarning kamayishi investitsiyalarning oshishiga olib kelsa, milliy jamg'armalar hajmi o'zgarmasa ham S-I egri chizig'i yana chapga siljiydi.

[115] N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.:Worth Publishers, 2015



12.6 - rasm. Valyuta taklifidagi o'zgarishlarning real almashtirish kursiga ta'siri[116].

Investitsion soliq kreditlari ushbu mamlakatga investitsiyalar kiritishning xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishiga olib keladi. Bu esa muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va to'lov balansida taqchillikni keltirib chiqaradi[117].

Chet mamlakatlardagi rag'batlantiruvchi budjet-soliq siyosati bu mamlakatlardagi jamg'armalar darajasining kamayishiga olib keladi. Bu esa xalqaro foiz stavkasini oshiradi va kichik ochiq iqtisodiyotdagi investitsiyalar darajasini kamaytiradi.

Bunday vaziyatlarda xorijga sarmoya qo'yish uchun taklif qilinayotgan milliy valyuta ko'payadi va (S-I) egri chizig'i o'ngga suriladi (12.7-rasm). Natijada muvozanatli real almashtirish kursi pasayadi, milliy mahsulotlar arzonlashadi va sof eksport ko'payadi.

Importga ta'rif yoki kvotalar joriy qilish siyosati sof eksportning oshishiga olib keladi va bu hol grafikda Xn (E1) egri chizig'ining Xn (E2) holatiga siljishi sifatida namoyon bo'ladi (12.8-rasm).

[116]N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.:Worth Publishers, 2015
[117]A.E.Ishmuhamedov Makroiqtisodiyot Toshkent-2005 o'quv qo'llanma.



12.7-rasm. *Budjet - soliq siyosatining real almashtirish kurslariga ta'siri*[118].



12.8-rasm. *Importdagi o'zgarishlarning eksportga ta'siri*[119].

Natijada muvozanatli real valyuta kursi oshadi, milliy mahsulotlar qimmatlashadi va sof eksport kamayadi. Shunday qilib, mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida olib boriladigan proteksionistik savdo siyosati joriy operatsiyalar hisobi va kapital harakati hisobiga ta'sir qilmaydi. Ammo u muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va tashqi savdo miqdorini kamaytiradi. Sof eksport o'zgarmagan bo'lsa ham V nuqtadagi eksport va import hajmi A nuqtadagi eksport va import hajmidan kam bo'ladi. Importga cheklashlarni joriy qilish ichki narxlar darajasining (Pd) oshishiga olib keladi.

Shuning uchun ham uzoq davrda nominal valyuta kursi (En) narxlar oshishiga teng tarzda kamayadi. Natijada, o'sgan muvozanatli real valyuta kursi E2 nuqtada barqarorlashadi, ya'ni sof eksport kamayishi ortidan En nuqtaga qadar pasaymaydi.

Baholar darajasining ko'tarilishiga javoban nominal valyuta kursining pasayishi sotib olish qobiliyati paritetini tiklaydi.

[118]N.Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.:Worth Publishers, 2015.
[119]O'sha joyda.

Xulosalar

1. Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-sotdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

2. Milliy iqtisodiyot tashqi dunyoning ta'siri mazkur mamlakatlarning jahon xo'jaligida tutgan o'rni va salmog'iga bog'liq. Ochiq iqtisodiyotda muvozanatlikka ta'sir qiluvchi barcha omillarning ta'sirini aniqlashda makroiqtisodiy modeldan foydalaniladi.

3. Makroiqtisodiy modelda to'lov balansi, tashqi savdo aylanmasi, milliy pul birligining ayirboshlash kursi, chet ellardagi narxlar darajasi va foiz stavkasi hisobga olinadi.

4. Ochiq iqtisodiyotda savdo siyosati – davlat iqtisodiy siyosatining nisbatan mustaqil yo'nalishi bo'lib, u davlatning tashqi savdo hajmini soliqlar, subsidiyalar va to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishi bilan bog'liq.

5. Valyuta nazorati – bu davlat tomonidan mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan amalga oshiradigan barcha bitimlarini nazorat qilishdir.

Tayanch so'z va iboralar

Ochiq iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy aloqa, makroiqtisodiy model, ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar, eksport va import, jahon moliya bozori, kredit olish, kredit berish, kichik va katta ochiq iqtisodiyot, yalpi ichki mahsulotdagi tashqi savdo kvotasi, ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushi, iste'mol tarkibidagi import ulushi, tashqi va ichki muvozanat, Mandell-Fleming modeli, savdo balansi taqchilligi, kapital harakati schyoti, suzib yuruvchi valyuta kursi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ochiq iqtisodiyotda muvozanatli ishlab chiqarish hajmini tushuntirib bering.

2. Ochiq iqtisodiyotda ichki xarajatlar va savdo balansi qanday ko'rinishda bo'ladi.

3. Eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'sirini tushuntirib bering.

4. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida iqtisodiy siyosatni tushuntirib bering.

5. Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida iqtisodiy siyosatni tushuntirib bering.

TESTLAR

1. .... ochiq iqtisodiyot modeli kapital harakati schyoti va joriy operatsiyalar schyotini o‘z ichiga oladi.

A. Kichik
B. Katta
C. O‘rta
D. A va S javoblar to‘g‘ri

2. Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardir:

A. YaIMdagi tashqi savdo kvotasi;
B. Ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushi va iste’mol tarkibidagi importning ulushi
C. Investitsiyalar hajmidani xorijiy investitsiyalarning ulushi.
D. Barcha javoblar to‘g‘ri

3. Ochiq iqtisodiyot xalqaro hisob-kitoblarda qaysi valyutadan foydalanishni ko‘zda tutadi?

A. Xorijiy
B. Milliy
C. A va V javoblar to‘g‘ri
D. To‘g‘ri javob yo‘q

4. Inflyatsiya jarayonlari mavjud bo‘lmagan (yoki uning barqaror past darajasidagi) to‘liq bandlik sharoitida talab va taklifning balanslashganligi nima deb ataladi?

A. Ichki muvozanat
B. Tashqi muvozanat
C. To‘lov balansi
D. To‘g‘ri javob yo‘q

5. ...muvozanat qayd qilingan yoki suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida to‘lov balansining nolga teng qoldig‘ini ta’minlab turilishni anglatadi.

A. Tashqi
B. Ichki
C. To‘lov balansida
D. To‘g‘ri javob yo‘q

6. Tashqi va ichki muvozanatni ta’minlab turish usullari necha xil

A. Bir xil
B. Ikki xil
C. Uch xil
D. To‘rt xil

7. Tashqi muvozanatni ta’minlash kapital harakatining mobilligi (mamlakatlararo kapital qo‘yilishi jarayonining ichki foiz stavkasining jahon foiz stavkasiga nisbatan o‘zgarishiga javoban keskinlashuvi) sababli qanday bo‘ladi?

A. Murakkablashadi
B. Soddalashadi
C. O‘zgarmaydi
D. Ko‘payadi

8. 8.Ichki va tashqi muvozanatni ta’minlash muammosi tovar, pul va valyuta bozorlarining amal qilishiga ....

A. Taalluqlidir
B. Taalluqli emas
C. Har vaqt har xil
D. To‘g‘ri javob yo‘q

9. Mandell-Fleming modeli qanaqa iqtisodiyot modeli hisoblanadi?

A. Kichik ochiq
B. Katta ochiq
C. Kichik yopiq
D. Katta yopiq

10.Pul siyosati ichki daromadlarga qanday ta'sir ko'rsatadi?

A. Bevosita
B. Bilvosita
C. A va V javoblar to'g'ri
D. To'g'ri javob yo'q

13-BOB. TARMOQLARARO BALANSNING IQTISODIY TAHLILI

13.1. Tarmoqlararo balans tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.

13.2. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning miqdoriy bog‘liqligi.

13.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning matematik bog‘liqligi.

13.1. Tarmoqlararo balans tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

Respublika hukumati ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur, deb hisoblaydigan qonun loyihalarini taqdim qiladi. Kompleks prognozning ishchi vositalari sifatida iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishida o‘tmishda vujudga kelgan jarayonlarning kelajakka ekstrapolyatsiyasi, milliy hisobchilik tizimi ma’lumotlari asosida iqtisodiy hisob-kitoblar, tarmoqlararo balansning yangilangan modelini, iqtisodiyot real sektoriga investitsiyalar va kapital dinamikasi modelini o‘z ichiga olgan makrotarkibiy modellar tizimidan foydalaniladi. Bu model hali tugallangan ko‘rinishga ega emas va faqat eksperimental hisob-kitoblari uchun qo‘llaniladi. Tarmoqlararo solishtirish prinsip jihatdan farqlanadigan ikki xil yondashuv mavjud:

Genetik yondashuv – obyekt rivojlanishi tarixi oldidan tahlil qilishga asoslanadi, rivojlanish xususiyatlarini belgilaydigan asosiy omillarni qayd etadi. Shu asosda kelajakda prognoz qilinayotgan obyekt holatiga nisbatan xulosalar qilinadi. Ushbu yondashuv ko‘p darajada kechayotgan jarayonlarning “begona kuzatuvchilari”ga xos-dir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsadli tuzilishi mazkur yon-dashuvda alohida ahamiyatga ega emas. N.D.Kondratevning “uzun to‘lqinlar” nazariyasi mazkur yondashuvga yaqqol misol bo‘la oladi.

Teleologik yondashuv (yunoncha telos — maqsad so‘zidan olingan) – iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarning faol ishtirok-chilariga ko‘proq xos. U mazkur obyekt rivojlanishining maqsadli tuzilishi va qo‘yilgan vazifalarga uning yaqinlashish darajasiga asoslanadi. Iqtisodiyotni prognozlashga ushbu yondashuvning tarafdori va namoyandasi S.G.Strumilin hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni solishtirishning metodologik va uslubiy muammolari davlat prognozlarni ishlab chiqishni topshirayotgan tashkilotlarning alohida huquqlari hisoblanadi. Xususan, yig'ma iqtisodiy prognoz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Mintaqani kompleks solishtirish ikkita maqsadni ko'zlaydi:

Birinchidan, u mintaqa hokimiyatiga iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni taqdim qilishi kerak.

Ikkinchidan, uning ko'rsatkichlari mintaqa budjeti loyihasi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy hisoblar tizimi iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borishning yig'ma va umumlashtiruvchi vositasi hisoblanadi. Milliy hisoblarning mintaqaviy tizimi, eng avvalo, moliyaviy resurslar oqimlari shaklida iqtisodiy jarayonlarni bir butun ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Bu esa asosan, bozor turidagi iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarning mazmunini yoritadi. U takror ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida tarmoqlar, sohalar va institutsional birliklarni umumlashtiradigan ko'rsatkichlarni aniqlash bu ko'rsatkichlarni o'zaro bog'lash imkoniyatini beradi. Takror ishlab chiqarishning har bir bosqichiga maxsus hisob yoki ularning guruhi mos keladi. Bu esa ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar miqdorining hamda ishlab chiqarishdan to foydalanishgacha takror ishlab chiqarish sikli orqali qo'shilgan qiymat harakatini kuzatish imkonini beradi. Milliy hisoblar tizimi yig'ma jadvallari majmuyi makroiqtisodiy hisob-kitoblarni olib borishda ham, prognoz alohida bo'limlarini yagona bir butunga umumlashtirish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin.

Mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirish. Mintaqani rivojlantirishning strategik rejasi – bu boshqaruvchilik hujjati bo'lib, mintaqani rivojlantirish bo'yicha faoliyat turli jihatlarini o'zaro bog'liq tasvirlashdan iborat. Bunday hujjatning tayyorlanishi quyidagilarni ko'zda tutadi:

– mintaqani rivojlantirish maqsadlarining qo'yilishi;

– qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llarining belgilanishi;

– potensial imkoniyatlarni tahlil qilish bo'lib, uning natijalari muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi;

– tanlangan yo'nalishlar bo'yicha harakatlarni tashkil qilish usullarini ishlab chiqish;

– resurslardan foydalanish oqilona usullarini asoslash.

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik rejasi — bu indikativ hujjat bo‘lib, u mintaqa hokimiyatiga va mintaqaviy hamjamiyatga birgalikda harakatlanish imkoniyatini beradi. Bu – mutlaqo mahalliy hokimiyatninggina emas, balki ko‘p darajada mintaqaviy rivojlanish jarayoni barcha subyektlarining ham, jumladan, siyosiy jarayon ishtirokchilari va iqtisodiy sheriklarning ham hujjatidir. Bu mintaqa hokimiyatidan tadbirkorlar va mintaqa aholisiga yuqoridan yo‘naltirilgan buyruq emas, balki iqtisodiy faoliyat barcha subyektlari ishtirokida ishlab chiqilgan mo‘ljaldir. Bunday reja mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha barcha subyektlarning tortilgan va kelishilgan harakatlarini ko‘zda tutadi. U sheriklik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish vositasini, mintaqa hayotining barcha sohalarida samarali strategik harakatlarni aniqlash va amalga oshirish mexanizmini o‘zida mujassamlashtiradi.

13.2. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning miqdoriy bog‘liqligi

Hozirgi vaqtda jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo‘lib, bu bosqichda iqtisodiy o‘sish omillarining roli va o‘rni o‘zgarmoqda. An’anaviy hisoblab kelingan uch: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika tarraqiyoti omili ham qo‘shildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida “PF - 4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan” 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi"ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida "makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish" belgilangan. Ushbu ustuvor yo‘nalish doirasidagi muhim vazifalar tarkibidan xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan

aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish; ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, Darslik valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma - bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash o‘rin olgan.

Yuqoridagi vazifalarning ijrosi bevosita mamlakatda tarmoqlararo balansi holatiga ta’sir etgani holda, uni tartibga solish bo‘yicha zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqishni ham taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarmoqlararo balansning ijobiy (aktiv) qoldig‘ini ta’minlash masalasiga makroiqtisodiy barqarorlikning muhim sharti sifatida qaraldi. Natijada mamlakatda tashqi qarzning mo‘tadil darajasi qo‘llab - quvvatlandi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga jalb qilishga ustuvorlik berildi, shuningdek, importning eksport hisobidan to‘liq qoplanishi, ya’ni tashqi savdo balansining defitsit bo‘lmasligini ta’minlash tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida baholandi.

Shunga qaramay, 2010–2017-yillarda tashqi savdo balansi qoldig‘i dinamikasida beqarorlik kuzatildi. 2010–2014-yillarda tashqi savdo balansi qoldig‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda, 2014-yilda hatto tashqi savdo balansi defitsiti yuzaga kelgan. 2017-yil yakuni bo‘yicha tashqi savdo balansining ijobiy qoldig‘i 854 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu esa so‘nggi olti yildagi eng yaxshi ko‘rsatkichdir.

Hozirgi kunda mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada mustahkamlashga e’tibor kuchaytirilmoqda. Binobarin, 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasida iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo‘llab - quvvatlash ustuvor vazifalardan biri ekanligi va bu maqsadda eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarurligi ta’kidlandi.

Ayni paytda, kapital harakatini tartibga solish, xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish ham iqtisodiy o‘sish

nuqtayi-nazaridan muhim omillardan hisoblanadi. 2018-yil yakuni bo'yicha mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyaning yalpi hajmi 1,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Vaholanki, 2017-yilda bu ko'rsatkich 2,6 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan. Bunga asosiy sabab sifatida asosan neft-gaz sektoriga bo'lgan investitsiyalarning kamayishini keltirish mumkin.

Shu bilan birga, joriy yilda xorijiy investorlar tomonidan reinvestitsiya qilingan daromadlar miqdori 46%ga o'sib, 693 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

13.2-rasmda. O'zbekiston Respublikasi umumiy tashqi qarzining dinamikasi, (mlrd. doll.) ma'lumotlari ko'rsatishicha, 2012–2018- yillarda O'zbekistonning umumiy tashqi qarzi hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi tashqi qarzining umumiy hajmi 2018-yil boshidan 9,5% ga yoki 1,5 mlrd. AQSH dollariga oshgan holda 2019-yil 1 yanvar holatiga 17,3 mlrd. dollarni tashkil qildi.



13.2-rasm. Xususiy tashqi qarz Davlat tashqi qarzi —□—Jami tashqi qarz.[120]

[120] Internet ma'lumotlari: Read more: https://sputniknews-uz.com/economy/20180922/9499947/Markaziy-bank-ayta-moliyalash-stavkasi-16-foiz-etib-belgilandi.html Ajratilayotgan kredit qo'yilmalarining qariyb yarmi davlat dasturlari doirasidagi kreditlar hissasiga to'g'ri kelishi, shuningdek, 2018-yilning 1-oktyabridan boshlab joriy etiladigan majburiy rezervlar bo'yicha yangi normativlar depozitlar bo'yicha foiz stavkalari oshganda ham kreditlar bo'yicha stavkalarni oshirish zaruratini kamaytirib banklarga foiz yuklamasini pasaytirish imkonini beradi.

13.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning matematik bog‘liqligi

O‘zbekistonda keyingi yillarda izchillik bilan olib borilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlash siyosati, innovatsion jarayonlarning tobora rivojlanib borayotganligi jonli mehnat unumdorligiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘sishi oqibatida moddiy ishlab chiqarish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi nisbiy qisqarishi sodir bo‘lmoqda (13.1-jadval).

Bundan tashqari, bandlik muammolari O‘zbekistonda ishlab chiqarishda (ayniqsa qishloq xo‘jaligida) keragidan ortiqcha band bo‘lgan, lekin bozor munosabatlari mustahkamlanib borgan sayin, asta-sekin ishdan bo‘shayotgan ishchi xodimlar hisobidan ham ancha keskinlashdi. Rejali iqtisodiyot sharoitida ishsizlik muammosi, unumsiz, yaxshi samara bermaydigan ish o‘rinlarini asossiz ravishda ko‘paytirish, ishchi kuchini qanday bo‘lmasin ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish yo‘li bilan hal qilingan.

13.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlarining 2000–2017-yillarda yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (foizlarda)[121]

№	Tarmoqlar	Yillar				
		2000	2005	2010	2015	2017
1	YaIM, jami, shu jumladan:	100	100	100	100	100
2	Sanoat	14,2	21,1	26,7	25,7	25,7
3	Qishloq xo‘jaligi	30,1	26,3	19,8	18,3	17,6
4	Qurilish	6,0	4,8	6,6	7,3	7,2
5	Xizmat ko‘rsatish	37,0	37,0	46,9	48,7	49,5
6	Sof soliqlar	12,7	10,8	9,2	8,8	8,7

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, yuqorida qayd etganimizdek, barcha resurslardan, jumladan, mehnat resurslaridan unumli foydalanish zaruriyati kuchayadi. Bunday sharoitda oldingi davrlarda asossiz ravishda, rasman yaratilgan ish o‘rinlarining bekor qilinishi va ularda

[121]Urunbaeva Yulduz Pirnazarovna "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish istiqbollari" doktorlik diss. – Samarqand, - 2018.-48-52bb.

"band" bo'lgan ishchi xodimlarning qisqarishi va natijada ularning ishsiz qolishi muqarrar.

O'zbekistonda ishsizlik va bandlik muammosi mamlakatda yuzaga kelgan murakkab demografik vaziyat bilan ham chambarchas bog'liq. Aholining tabiiy o'sishi darajasi yuqori bo'lgan O'zbekistonda balog'atga etgan yigit va qizlar hisobidan mehnat resurslari yiliga 450-500 ming kishiga ko'paymoqda[122].

Yuqoridagilarni umumlashtirib, O'zbekistonda mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi bilan unga bo'lgan talab o'rtasidagi nomutanosiblikning asosiy sabablarini aniqladik. Bizning nazarimizda bular: birinchidan – ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida ijtimoiy mehnat unumdorligining uzluksiz oshib borishi; ikkinchidan – ijtimoiy ishlab chiqarishda keragidan ortiqcha[123] yaratilgan ish o'rinlarining barham topishi; uchinchidan – mamlakatda yuzaga kelgan va hozirgacha ma'lum darajada saqlanib turgan murakkab demografik vaziyat.

Xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini ta'minlash, ishsizlik muammosini hal etishdagi ulkan imkoniyatlari mavjudligini ilmiy jihatdan asoslash, istiqbollarini aniqlash lozim.

Xizmat ko'rsatish sohasi aholi pul daromadlarini ko'paytirish muammosini yechishda ham faol ishtirok etuvchi soha hisoblanadi. Yaqin yillargacha xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni va ularning daromadlari moddiy ishlab chiqarish sohasiga nisbatan ancha past, degan nuqtayi nazar hukmronlik qilgan bo'lsa, keyingi yillarda, ya'ni ushbu sohada band bo'lganlar soni va daromadlari nisbatan tezroq sur'atlar bilan oshib borgan vaqtlardan boshlab, ushbu qarashlarda ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi, aholi daromadlari va uning turmush darajasi ko'rsatkichlarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatiga to'g'ri baho berish sohaga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi, unda yuzaga kelgan muammolarning yechimini izlab topish zaruratini va jarayonlarini tezlashtiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasining aholi daromadlarini shakllantirishning tarkibiy qismlariga va ularni tashkil etish manbalariga aniqliklar

---

[122] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2016 yil ma'lumotlari

[123] 2016-yilda 1 mln-ga yaqin yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'sa, 2017-yilda 336 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etildi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojatnomasi. "2018-yil – Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Xalq so'zi, 2017-y 23 dekabr).

kiritilishi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hozirgi sharoitda xizmat ko'rsatish sohasining va unda band bo'lganlarning daromadlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan barcha xo'jalik subyektlari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning (jismoniy shaxslarning) tadbirkorlik faoliyatidan olayotgan daromadlarini;

– xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan yollanma ishchilarning shaxsiy mehnati natijalari va qobiliyatiga muvofiq olgan ish haqi miqdorini;

– xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish va tartibga solishda band bo'lgan davlat organlari va tizilmalari xodimlarining ish haqlarini;

– xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan, lekin ijtimoiy himoyaga muhtoj ishchi-xodimlarga nisbatan davlat tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordamni;

– xizmatlardan foydalanish natijasida aholi daromadlarining tejalishi va xarajatlarning kamayishini (aholi xarajatlarining kamayishi shuncha miqdorda uning daromadlrining ko'payganligini anglatadi).

Aholiga iste'mol uchun taklif etilayotgan xizmatlar hajmini jadal sur'atlar bilan oshirish, ularning sifatini va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, O'zbekistonda ustuvor vazifalar sifatida qaralayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, aholi turmush tarzini takomillashtirish, xalqimizga farovon yashashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishdek[124] dolzarb vazifalarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Har tomonlama yetuk, madaniyatli, ma'rifatli barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi aholining moddiy va ma'naviy noz-ne'matlarga hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish bilan bir qatorda, uning bo'sh vaqtini[125] ko'paytirishni va undan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Darhaqiqat aholining bo'sh vaqtini ko'paytirish, ular tomonidan amalga oshiriladigan ammo, samara keltirmaydigan vaqt sarflarini boshqa xizmat ko'rsatish sohalari tomonidan qamrab olgan holda xizmat ko'rsatish ahamiyatlidir. Ammo bunday vazifani hal etishda mehnat bilan band aholining ish haqini oshirish, mehnat bilan band

---

[124] 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.- Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 156 b.

[125] www.uzlaw/uz Izoh: Inson uchun ikkita baxt borki, odamlar uning qadriga yetmaydi birinchisi -sog'liq, ikkinchisi- bo'sh vaqt (At-Termiziy)

bo‘lmaganlarga turli ijtimoiy resurslardan qilinadigan xarajatlar miqdori va ularni o‘sishi bilan bog‘liqdir. Hozirgi sharoitda aholini ish bilan band bo‘lgan qatlamini bo‘sh vaqtini aksariyat samarasizligicha qolmoqda.

Amerikalik olim A.Maslou piramidasida fiziologik (moddiy) ehtiyojlarga muhimligi nuqtayi nazaridan birinchi o‘rin berilgan[126]. Shubhasiz, bunday ehtiyojlar ijtimoiy tizim shakli va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti darajasidan qat’i nazar, har qanday jamiyat uchun xos va birinchi darajada qondirilishi lozim. Insonlar, ongli harakatlanuvchi tirik mavjudot sifatida, avvalambor birlamchi ehtiyojlarini ya’ni, oziq-ovqat iste’mol qilishlari, kiyinishlari, boshpanaga ega bo‘lishlari shart. Shundan keyingina ular ta’lim, madaniyat, san’at, sayohat va hokazolar bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘ladi. Ushbu piramidada turli xil ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlar ham muhim o‘rinni egallagan. Lekin masalaning muhim jihati shundaki, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanib, aholi daromadlari va turmush darajasi oshib borgan sayin, uning xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji moddiy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojiga nisbatan tezroq sur’atlar bilan rivojlanadi. Xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri xizmat ko‘rsatish sohasida band aholining daromadlari shakllanishi mehnatning mazmuni va xarakteri bilan bog‘liq. Xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarning tobora oshib borishi va takomillashuvi aholi bandligidagi tarkibiy o‘zgarishlarda, aniqrog‘i, uning bandligida xizmatlar ulushining doimiy tarzda oshib borishida o‘z ifodasini topadi (13.2-jadval).

Yuqoridagi 13.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra Samarqand viloyatida doimiy aholi soni 2010-yilda 3270,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib 3651,7 ming kishini, ya’ni 11,6 foizga (380,9 ming kishi) o‘sgan.

[126] http://www.ctntrforum.ru/Macro/Stat2_5.htm

13.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand viloyati aholisining iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi ko‘rsatkichlarining 2010–2017-yillardagi o‘zgarishi[127]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston Respublikasi			Samarqand viloyati		
		Yillar					
		2010	2015	2017	2010	2015	2017
1.	Doimiy aholi soni (ming kishi)	29123,4	31575,4	32120,5	3270,8	3583,9	3651,7
2.	Iqtisodiy faol aholi (ming kishi)	12286,6	13767,7	14022,4	1324,6	1530,6	1575,7
3.	Doimiy aholi sonidagi ulushi (foiz)	42,2	43,6	43,6	40,5	42,7	43,1
4.	Iqtisodiyotda band aholi (ming kishi)	11628,4	13058,3	13298,4	1229,9	1443,9	1485,1
5.	Iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi (foiz)	94,6	94,8	94,8	92,8	94,3	94,3
Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlar							
6.	Sanoatda (ming kishi)	1540,0	1768,7	1802,4	131,6	177,6	181,2
7.	Iqtisodiyotda bandlardagi ulushi (foiz)	13,2	13,6	13,6	10,7	12,3	12,2
8.	Qishloq xo‘jaligida (ming kishi)	3127,0	3601,7	3646,7	367,7	421,6	427,7
9.	Iqtisodiyotda bandlardagi ulushi (foiz)	26,9	27,6	27,4	29,9	29,2	28,8
10.	Qurilishda (ming kishi)	1065,0	1222,2	1263,6	76,2	102,5	105,4

[127] Urunbaeva Yulduz Pirnazarovna “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish istiqbollari” doktorlik diss. – Samarqand, - 2018.- 52-55bb.

13.2-jadvalning davomi

11.	Iqtisodiyotda bandlardagi ulushi (foiz)	9,1	9,3	9,5	6,2	7,1	7,1
13.	Xizmat ko‘rsatishda (ming kishi)	5896,0	6456,5	6596,0	654,4	742,2	770,8
14.	Iqtisodiyotda bandlardagi ulushi (foiz)	50,7	49,5	49,6	53,2	51,4	51,9

Iqtisodiy faol aholi mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishchi kuchi talabini qondiruvchi aholining ma’lum bir qismi hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy o‘sish sur’atiga ish bilan bandlik muammolarini hal qilishga alohida zamin yaratadi. 2017-yilda iqtisodiy faol aholi 1575,7 ming kishini tashkil etib, 2010-yilga nisbatan 18,9 foizga o‘sgan.

2010-yilda iqtisodiyotda band aholining 46,8 foizi, ya’ni 575,5 ming kishi ishlab chiqarish sohasida band bo‘lsa, 53,2 foizi, ya’ni 654,4 ming kishi xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan. 2017-yilda iqtisodiyotda band aholidan 714,3 ming kishi ishlab chiqarish sohasida, 770,8 ming kishi xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lib, 2010-yilga qaraganda xizmat ko‘rsatish sohasida band aholi 56,5 ming kishiga ko‘p. Viloyat iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasida band aholi soni ulushining o‘sishi yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining oshishiga hamda uning tarkibidagi xizmat ko‘rsatish sohasining salmog‘i ham sezilarli darajada o‘sishiga olib kelgan. Aholi bandligi tarkibida bunday o‘zgarishlarni ijobiy baholash mumkin. Chunki u mamlakatda xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini oshirish yo‘lida olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosatning mohiyatiga mos keladi.

TESTLAR

1. “Model” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

A. Oldindan aytish
B. Namuna
C. Qo‘shin tortish

D. To‘g‘ri javob yo‘q

2. Iqtisodiy o‘sish modellarining maqsadi – bu ...

A. Ishlab chiqarish dinamikasi va hajmi o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganishdan iborat

B. Bozor va mahsulot yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishdan iborat

C. Asosiy va aylanma mablag‘larning mutanosibligi

D. Mahsulot yetkazib berish

3. Iqtisodiy o‘sish modellarini 2 ta yirik qaysi guruhlarga bo‘lish mumkin?

1. Neoklassik va liberalistik
2. Liberalistik va neoliberalistik
3. Neokeynscha va neoklassik
4. Neokeynscha va liberalistik
5. Liberalistik

4. O‘zgaruvchan makroiqtisodiy modellar qanday turga bo‘linadi?

1. Chiziqli va nochiziqli
2. Omilli va tarkibiy
3. Egzogen va endogen
4. Hamma javob to‘g‘ri
5. Hammasi to‘g‘ri

5. Yangi iqtisodiy o‘sish nazariyalarida klassik Kobb-Duglas va Solou modellari qanday omil bilan to‘ldiriladi?

1. Kapital omili
2. Mehnat omili
3. Investitsiya omili
4. Bilim omili
5. Inson omili

6. R&D siyosati modellari qanday funksiya hisoblanadi ?

1. Kapital ishlab chiqarish funksiyasi
2. Mehnatni ishlab chiqarish funksiyasi
3. Yangi bilimlarni ishlab chiqarish funksiyasi
4. Resurs ishlab chiqarish funksiyasi

5. Ishlab chiqarish funksiyasi

7. Tarmoqlararo balansning 1-kvadrantida nima aks ettiriladi?

1. Tarmoqlar o'rtasidagi ishlab chiqarish bog'lanishlari va proporsiyalarini

2. Barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so'nggi mahsuloti ko'rinadi

3. Milliy daromadni xarakterlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi ya'ni barcha tarmoqlarda mehnatga to'langan haq va sof daromad yig'indisi sifatida qaraladi

4. Yerda milliy daromadning so'nggi taqsimlanishi va foydalanishi o'z aksini topadi

8. Tarmoqlararo balansning 2-kvadrantida nima aks ettiriladi?

A. Tarmoqlar o'rtasidagi ishlab chiqarish bog'lanishlari va proporsiyalarini

B. Barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so'nggi mahsuloti ko'rinadi

C. Milliy daromadni xarakterlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi, ya'ni barcha tarmoqlarda mehnatga to'langan haq va sof daromad yig'indisi sifatida qaraladi

D. Yerda milliy daromadning so'nggi taqsimlanishi va foydalanishi o'z aksini topadi

9. Tarmoqlararo balansning 3-kvadrantida nima aks ettiriladi?

A. Tarmoqlar o'rtasidagi ishlab chiqarish bog'lanishlari va proporsiyalarini

B. Barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so'nggi mahsuloti ko'rinadi

C. Milliy daromadni xarakterlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi, ya'ni barcha tarmoqlarda mehnatga to'langan haq va sof daromad yig'indisi sifatida qaraladi

D. Yerda milliy daromadning so'nggi taqsimlanishi va foydalanishi o'z aksini topadi

14-BOB. MAKROIQTISODIY O‘SISH, UNING TURLARI VA OMILLARI

14.1. Iqtisodiy o‘sishning mohiyati va uning nazariy masalalari

Mamlakat taraqqiyotida makroiqtisodiy o‘sish bevosita uning milliy iqtisodiyotida namoyon bo‘ladi. Milliy iqtisodiyot ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu bevosita mamlakat ichidagi yuz beradigan iqtisodiy faoliyatda o‘z aksini topadi. Aynan shu iqtisodiyot mamlakat aholisining tom ma’nodagi farovonligi, yashash sifatining darajasini belgilaydi. Ushbu iqtisodiyotning oshganligi aholisining tom ma’nodagi farovonligi, yashash darajasi va sifatining ko‘tarilganligida namoyon bo‘ladidi.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining bir yo‘nalishi, uning iqtisodiy o‘sishida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sishning bir yo‘nalishi, mamlakat yalpi milliy mahsuloti (YaMM) va yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ning va uning tarkibiy qismlarining o‘sish sur’ati bilan ifodalanadi. **Mamlakat YaMM** deganda, shu mamlakatning ichkarisida va shu mamlakatga tegishli bo‘lgan, ammo tashqarisida joylashgan iqtisodiyot subyektlari tomonidan bir yil davomida yaratilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymati bilan o‘lchanadigan qiymati tushuniladi. Xuddi shunday mamlakat YaIMga ham ta’rif berish mumkin. **Mamlakat YaIM** deganda, shu mamlakatning faqat ichkarisida joylashgan iqtisodiyot subyektlari tomonidan bir yil davomida yaratilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymati bilan o‘lchaydigan qiymati tushuniladi.

Makroiqtisodiy tahlilda iqtisodiy o‘sish masalasi ustuvorlikni tashkil qiladi. Shu tufayli ushbu kategoriyaning ta’rifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu borada olimlarimiz turli fikrlarni aytishgan. Bularning ayrimlari quyidagi jadvalda keltirilgan (14.1-jadval).

Iqtisodiy o‘sishga bir qancha omillar ta’sir etadi. Ushbu omillar mikroiqtisodiyot, mezoiqtisodiyot va makroiqtisodiyot darajasida amal qiladi. Chunki har bir korxonadagi mahsulot va xizmatlarning o‘sishi, pirovardida makroiqtisodiyot hajmida namoyon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, makroiqtisodiy o‘sishni tashkil qiladi.

14.1-jadval

Iqtisodiy o‘sishning ta’rifi bo‘yicha olimlarning qarashlari[128]

Mualliflar	Iqtisodiy o‘sishning ta’rifi	Manbasi
A.O‘lmasov, A.Vaxabov	Iqtisodiy o‘sish – bu iqtisodiyotning rivojlanishi, ya’ni hayotiy ne’matlar bo‘lgan tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishining ko‘payib borishidir.	A.O‘lmasov, A.Vaxabov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – “Iqtisod-moliya”, 2014, 269 bet.
Sh.Sh.Shodmonov, B.E.Mamaraximov	Iqtisodiy o‘sish bevosita YaIM mutlaq hajmining va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdorining o‘sishi, sifatining yaxshila-nishi, va tarkibining tako-millashuvida ifodalanadi.	Sh.Sh.Shodmonov, B.E.Mamaraximov Iqtisodiyot nazariyasi. Ma’ruzalar matni. – “Iqtisod-moliya”, 2016, 323 bet.
T.Jo‘rayev	Iqtisodiy o‘sish bevosita YaIM miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs sarflari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatining va tarkibining tako-millashuvida ifodalanadi.	T.Jo‘rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – “Fan va texnologiya”, 2017, 323 bet.
Bizning ta’rif	Iqtisodiy o‘sish deganda, bevosita tovar va xizmatlarni o‘zida mujassam etgan YaIM umumiy hajmi va uning aholi jon boshiga ma’lum bir davrda o‘sishi tushuniladi.	Mazkur asarda.

[128] Tadqiqot natijasida mualliflar tomonidan shakllantirildi

Iqtisodiy o‘sish mazmun va mohiyati jihatidan bir qancha yo‘nalishda ifodalanishi mumkin. Buni ushbu jadvalda ko‘rish mumkin (14.2-jadval).

14.2-jadval

Makroiqtisodiy o‘sishning mazmuni, mohiyati va uning o‘ziga xos jihatlari

T/r	Makroiqtisodiy o‘sishning asosiy yo‘nalishlari va omillari	Makroiqtisodiy o‘sishning mazmuni, mohiyati
1.	Mazmuni bo‘yicha	Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish
2.	Bosqichlari	Ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va iste’mol
3.	Barcha bosqichlarda harakatlantiruvchi kuchlari	Ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, takomillashgan zamonaviy texnologiyalar
4.	Asl manbayi	Yer osti va ustidagi tabiiy boyliklar
5.	Omillari	Ekstensiv, intensiv, modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish, innovatsiya, raqamli iqtisodiyotni joriy qilish
6.	Sifatiy belgilari	Yaratilgan YalMning ijtimoiy talab va taklifga mosligi
7.	Miqdoriy belgilari	Iqtisodiy o‘sishning darajasi, so‘mda va foizda
8.	Natijasi	Milliy boylikni ko‘paytirish va mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish
9.	Maqsadi	Aholining farovonligi, yashash darajasi va sifatining oshib borishi

Iqtisodiy o‘sish odatda ikkita yo‘l bilan hisoblanadi. Birinchisi, YaMMning yillik o‘sishi bo‘lsa, ikkinchisi YaIMning yillik o‘sishida o‘z ifodasini topadi. Hozirgi sharoitda mamlakatimizning statistik amaliyotida asosan YaIM hajmi bilan o‘lchanadi. Bu asosan joriy bahoda va qiyosiy bahoda amalga oshiriladi. Joriy bahodagi o‘sish sur’ati nominal o‘sish, deb yuritilsa, qiyosiy bahodagi (bazis bahodagi) o‘sish sur’ati real iqtisodiy o‘sishni ifodalaydi. Ammo statistik to‘plamlarda asosan joriy bahoda beriladi.

Iqtisodiy o‘sish uchta ko‘rsatkichda ifodalanadi.

1. YaIMning o‘sish koeffitsiyenti (Ko‘s = YaIMjy / YaIMby).
2. YaIMning o‘sish sur’ati (YaIMo‘s = Ko‘s * 100).
3. YaIM o‘sish sur’atining farqi (ΔYaIMo‘s = YaIMo‘s – 100).

Mazkur ko‘rsatkichlarning darajasi bir qancha omillarga bog‘liq. Bu omillar yuqorida ko‘rsatilgan omillar (ekstensiv, intensiv, modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish, innovatsiya, raqamli iqtisodiyotni joriy qilish) bilan birga makro- darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ham bog‘liq. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Talab bilan bog‘liq omillar (aholining pul daromadlari, iste’mol tavarlari va xizmatlarning narxi, tovar va xizmatlarning sifati, aholining jamg‘arish darajasi kabilar).

2. Taklif bilan bog‘liq omillar (ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning hajmi, ularning hududlar bo‘yicha ta’minlanishi, aholining talabiga soni va sifatining mosligi, import tovarlarining hajmi va h.k.).

3. Iste’mol holati bilan bog‘liq omillar (aholining jinsi va yoshi bo‘yichcha tabaqalanishi, aholining ish bilan bandlik darajasi, ish haqining darajasi, boshqa manbalardan olinadigan daromadlilik darajasi, savdo xizmatining sifati kabi omillar).

Makroiqtisodiy tahlilda iqtisodiy o‘sishning salmoqlilik darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkich YaIMning 1 % o‘sish sur’atining miqdori bilan o‘lchanadi. Buni aniqlash uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (14.3-jadval).

14.3-jadval

O‘zbekistonda 2020–2021-yillarda iqtisodiy o‘sishning salmoqlilik darajasi[129]

Yillar	Mamlakat YaIMning hajmi, mlrd. so‘m	YaIMning 1 % o‘sishining salmoqlilik darajasi, mlrd. so‘m.
2020-yil	653 546	6 535,5
2021-yil	786 227	7 862,3
2022-yil	929 076	9 290,8

Ko‘rinib turibdiki, 2020-yilda YaIMning 1 % o‘sishi 6 535,5 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda uning miqdori 9 290,8 mlrd. so‘mni tashkil qilmoqda. Mazkur holatda 1 % ning salmoqlilik darajasi 2022-yilda 2020-yildagi ko‘rsatkichiga nisbatan 142,2 %ga (9290,8 * 100 / 6535,5) yuqoriligidan dalolat berib turibdi.

14.2. Mamlakatimizda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sish tendensiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni parlamentiga qilgan murojaatnomasida 2019-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yakunlariga to‘xtalar ekan “Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo‘l qurilishi, qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta’minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog‘ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o‘tgan yili iqtisodiy o‘sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko‘paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019- yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi”[130] deb ta’kidladi.

[129] O‘zbekiston Respublikasining 2020 yilga mo‘ljallangan davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonuni. Oliy Majlisning qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 21 noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 30-noyabrda ma’qullangan. 2-ilovada keltirilgan ma’lumotlar asosida mualliflar hisob-kitobi.

[130] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. – 2020-yil 25-yanvar. – 1-bet

Yana bir muhim jihat, "2020-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir"[131], deb ta'kidlangani bo'ldi. 2020-yilda mamlakatimizda inflyatsiya darajasi 5,0 foizni tashkil etishi ham qayd etildi. Aynan shu murojaatnomada 2020-**yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga ham batafsil to'xtaldi.** O'tgan yilda mamlakatimizning **iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan** mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror sur'atlarda **rivojlanganini** qayd etish bilan birga oldimizda o'ta muhim vazifalar borligiga ham e'tiborni qaratdi. **"Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi"[132].**

Mamlakatimizda olib borilayotgan puxta o'ylangan siyosat natijasida iqtisodiyotimiz barqaror sur'atlar bilan rivojlanish barobarida tashqi qarzlarimiz kamligicha saqlanib qolmoqda. Bunday holatni xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasi, deb baholash mumkin. "Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan – mana shu raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman – 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi"[133]..

Iqtisodiy o'sishning yana bir muhim omili mamlakatimizda soliq yuki muttasil kamayib borayotganligi bilan izohlanadi. 2020-yildan boshlab iqtisodiyot sohasidagi "soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi[134]. Bularning hammasi iqtisodiyotimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlanish yo'liga tushib olganligidan, uni boshqarishda to'g'ri iqtisodiy siyosat yuritilayotganligidan dalolatdir.

Mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'ati oxirgi yillarda 5,5 %dan yuqori o'sishni ta'minlab kelmoqda va shu kelgusi yillarda ham

[131] O'sha joyda. – 2-bet.
[132] O'sha joyda. – 1-bet.
[133] O'sha joyda. – 1-bet.
[134] O'sha joyda. – 1-bet.

saqlanib qolmoqda. Ushbu holatni oxirgi yillardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishida ham ko‘rishimiz mumkin (14.4-jadval).

Jadvalda ko‘rinib turibdiki, erishilgan taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichi, mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan barqaror sur’atlar bilan rivojlanganidir. Shuning uchun modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsion iqtisodiyotning bugungi kundagi muvaffaqiyatlarimizning muhim omili sifatida maydonga chiqdi.

(14.4-jadval)

O‘zbekiston Respublikasida 2020 rejasi va 2021–2022-yillarda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishi sur’ati[135]

№	Ko‘rsatkichlar	2020-yil	Maqsadli yo‘naltirigan miqdori	
			2021-yilga	2022-yilga
1.	Yalpi ichki mahsulot (YaIM), mlrd. so‘m	653 546	786 227	929 076
2.	Yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati, %	5,5	5,8	6,2
3.	Iste’mol bahosi indeksi, o‘tgan yilning dekabriga nisbatan, %	12,5-13,0	11,0	9,5
4.	Sanoat mahsulotining o‘sish sur’ati, %	6,5	6,7	7,0
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining o‘sish sur’ati, %	4,0	4,1	4,2
6.	Savdo aylanmasining o‘sish sur’ati, %	5,6	5,7	6,0

Zero, iqtisodiyot tarmoqlarini yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash evaziga modernizatsiya qilish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlarni kengaytirish bilan ularning raqobatbardoshligini oshirish bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarning ustuvor vazifalari sirasiga kiritilgan.

[135] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yilga mo‘ljallangan davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonuni. Oliy Majlisning qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 21-noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 30-noyabrda ma’qullangan. 2-ilova

Mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, uning ijtimoiylashganligidir. Bu holat davlat budjetining asosiy qismi ijtimoiy sohaga yo‘naltirilganligi bilan ifodalanadi. Buni 2020-yilda Davlat budjetining rejasi 158 960,1 mlrd. so‘m qilib belgilangan. 2021-yilda 191 781,6 va 2022-yilda 226 318,5 mlrd. so‘m miqdorida prognoz qilingan. Bularning yarmidan ko‘pi ijtimoiy sohaga yo‘naltirilganligida ko‘rishimiz mumkin.

Bulardan tashqari iqtisodiyotning harbiylashgan, industrial, agrar kabi shakllari ham mavjud. Agar davlat budjetining asosiy qismi harbiy maqsadlar uchun sarflansa, bunday iqtisodiyotni harbiylashgan va mos ravishda qaysi yo‘nalishga ko‘proq mablag‘ sarf qilinsa, shunday iqtisodiyot, deb atalishi mumkin. Bizning iqtisodiyotimiz ijtimoiylashgan iqtisodiyot, deb yuritiladi.

Mamlakat iqtisodiyotidagi muhim ijobiy o‘zgarishlardan biri, uning tarkibiy o‘zgarishlardagi holatida ko‘rinmoqda. Bundan bir qancha yillar muqaddam agrar iqtisodiyot ustuvor bo‘lgan iqtisodiyotimiz, bugungi kunda industrial iqtisodiyotga aylanib borayotganligidan dalolat berib turibdi. Yana bir muhim jihat – mamlakat iqtisodiyoti jahon andozalari darajasi tomon intilib bormoqda. Uning tarkibida xizmat ko‘rsatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarining jadal sur’atlar bilan o‘sishi, mamlakat YaIMdagi ulushining oshib borishi kuzatilmoqda. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin (14.5-jadval).

14.5-jadval

Mamlakat iqtisodiyotida (YaIMda) oxirgi o‘n to‘rt yil mobaynida tarmoq va sohalarning ulushidagi o‘zgarishlar[136], %

Ko‘rsatkichlar	2000 y.	2013 y.	2018 y.
Sanoat	14,2	24,3	58,6
Qishloq xo‘jaligi	30,1	16,8	26,8
Xizmat ko‘rsatish	37,0	53,0	46,8
Chakana tovar oboroti	31,0	45,8	41,4

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakat YaIMda sanoatning ulushi 2000-yilda 14,2 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2013-

[136] O‘zbekiston Respublikasi statistika vazirligi ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

yilga kelib 24,3 %ni tashkil qildi. 2018-yilda joriy bahoda 58.6 %gacha ko'tarildi. Mos ravishda qishloq xo'jalik mahsulotlarining ulushida kamayish ro'y berdi. 2000-yilda ushbu ko'rsatkichning miqdori 30,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib 16,8 %ga teng bo'lib qoldi. 2018-yilda 26,8 %ga teng bo'ldi. Ushbu holat ko'rsatadiki, mamlakatimiz iqtisodiyotida industriyaning ulushi ko'payib bormoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida ham keskin o'zgarish ro'y bergan. Uning miqdori 2000-yilda 37,0 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib 53,0 %ga yetdi. 2018-yilda 46,8 %ni tashkil qilmoqda. Shunday holat chakana tovar aylanmasida ham ro'y berdi. 2000-yilda ushbu sohaning mamlakat YaIMdagi ulushi 31,0 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib, ushbu ko'rsatkichning miqdori 45,8 %ni tashkil qildi. 2018-yilda 41,4 % saqlanib qolmoqda. Ushbu holat ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar ijobiy tomonga qarab bormoqda. Bular tom ma'noda rivojlangan demokratik mamlakatlar qatoridan tezroq joy olishimiz uchun moddiy, tashkiliy va huquqiy zamindir. Chunki bizning strotegik maqsadimiz aynan shu yo'nalishga qaratilganligini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur holat kelajakda ham davom etadi.

Mamlakat iqtisodiyotining oxirgi yillarda erishgan yana bir xarakterli xususiyati shundaki, uning umumiy eksporti yaqindagina faqat xomashyodan iborat bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, ularning ulushi ham keskin o'zgardi. Jumladan 2019-yilda tayyor mahsulotning mamlakat eksportidagi ulushi qariyb 2/3 qismini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2019-yilda 28 %ga ko'paydi[137]. Bu ham ko'rsatadiki, mamlakatimiz iqtisodiyotida shu qisqa davrda ancha muvaffaqiyatlarga erishdik. Mazkur sohani Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarur"[138].

Shuni alohida ta'kidlash joizki qishloq xo'jalik sohasining mamlakt YaIMdagi ulushi kamayib bormoqda. Ammo bu mahsulotlarni ishlab chiqarishning kamayganligi uchun emas, balki boshqa

[137] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi. – 2020-yil 25-yanvar. – 1-bet.
[138] O'sha joyda – 3-bet

sohalarda ishlab chiqarishning keskin oshib borayotganligidan dalolatdir. Bunday tendensiya kelajakda ham saqlanib qoladi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Agrar tarmoqda fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash bilan birga, paxta va g'alla yetishtirishni klaster shakliga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha izlanishlarimizni davom ettiramiz. Meva-sabzavot, sholichilik, chorvachilik, ipakchilik kabi boshqa tarmoqlarda ham bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish ishlarini davom ettiramiz. Bu yil 2 milliard dollarlik, keyingi 5-7 yilda esa 3-4 barobar ko'p meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish uchun mahsulot yetishtirishni keskin ko'paytirish choralarini ko'rish zarur"[139]. Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 2020-yilda sezilarli o'sishga erishiladi. Ushbu sohada yaratilayotgan mahsulotlar umuman kamaygan emas va bundan keyin ham kamaymaydi. Agar 2019-yil natijalari bo'yicha reja ko'rsatkichlarini ham inobatga oladigan bo'lsak, o'sish tendensiyasi hamon saqlanib qolgan va bu uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Ushbu holatlar ko'rsatib turibdiki, mamlakatimiz qishloq ahlining fidokorona mehnati bilan g'alla va boshqa eng muhim hayotiy zarur bo'lgan mahsulotlar bo'yicha to'liq iqtisodiy mustaqillikka erishdik va shu tendensiya saqlanib qoladi. Chunki, kechagina juda ko'p oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan olib kelgan bo'lsak, bugungi kunda o'z ehtiyojlarimizni to'liq qondirgan holda o'zimizdan ortiqcha qismini tashqariga eksport qilish imkoniyatini yaratdik. Bu juda qisqa paytda erishilgan juda katta yutuqlarimizdandir.

14.3. Iqtisodiy o'sishning turlari va mezonlari

Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezon – bu iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Hozirgi paytda bunday ko'rsatkich mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) bilan belgilanadi. Oxirgi paytlarda iqtisodiy o'sishning turli shakllari haqida turli fikrlar aytilmoqda. Masalan, YaIMning pasayishi ro'y bergan mamlakatlarda resessiya jarayoni ro'y berayotganligi ta'kidlansa, ayrim mamlakatlar iqtisodiyotida beqarorlik ro'y berayotganligi aytilmoqda. Yana boshqa bir mamlakatda muntazam o'sish saqlanib

[139] O'sha joyda – 3-bet.

qolinayotganligi e'tirof etilsa, ayrimlarida barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanayotganligi qayd qilingan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga keladigan bo'lsak, oldin barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanayotganligi xususida gap ketgan bo'lsa, hozirgi paytda yuqori sur'atlar bilan o'sish kuzatilayotganligi qayd qilinmoqda. Bunday qarashlarni jamlab bir narsaga amin bo'ldikki, iqtisodiy o'sishning mezonlarini belgilab chiqish kerak ekan. Ammo iqtisodiy o'sishning alohida turlari bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilmagan. Bularni inobatga olib, ushbu holatlarni mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari hamda tarixiy manbalarni chuqur tahlil qilish natijasida, iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlarning nomlari va darajasini (mezonlarini) ishlab chiqdik. Bu quyidagi jadvalda tarkib topgan (14.6-jadval).

14.6-jadval

Iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlarning turlari va darajasini belgilovchi mezonlari[140]

Iqtisodiy o'sishning turlari	Darajasi
Resessiya (pasayish)	O'tgan yilga nisbatan past bo'lsa
Beqaror	Bir oshib, bir kamayib o'sganda
Muntazam	100,1 dan 105,0 %gacha o'sish ta'minlansa
Barqaror	105,1 – 108,0 % o'sish ta'minlansa
Yuqori sur'atda	108,1 – 110,0 % o'sish ta'minlansa
Jadal sur'atda	110,1 % dan ortiq o'sishga erishilsa

O'zbekiston iqtisodiyotida qator yillar davomida (1996–2003-yillar) muntazam o'sishga (5,0 %gacha) erishildi. 2004–2006-yillarda barqaror sur'atlar bilan (8,0 %gacha) o'sdi. 2007–2013-yillar davomida yuqori sur'atlar bilan o'sish (8,0 % ko'p) ta'minlandi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni tahlil qiladigan bo'lsak, 1995-yilga qadar resessiya jarayoni yuz berib keldi. 1996-yildan boshlab o'nglanish sodir bo'ldi, ya'ni asta-sekinlik bilan

[140] Muallif tomonida ishlab chiqilda va tuzildi.

rivojlanish ro‘y berdi. Buni biz tavsiya qilgan mezonlar bo‘yicha quyidagicha baholash mumkin bo‘ladi (14.7-jadval).

14.7-jadval

O‘zbekistonda YaIMning 1995–2019-yillarda o‘sish sur’ati (%)[141]

Yillar	Mamlakat YaIMning o‘zgarish sur’atlari, %	O‘tgan yilga nisbatan farqi (+,-)	Yillar bo‘yicha iqtisodiy o‘sishning turlari
1995	-0,9	-	Resessiya
1996	1,7	+2,6	Muntazam o‘sishga erishilgan
1997	5,2	+3,5	
1998	4,3	-0,9	
1999	4,3	0	
2000	3,8	-0,5	
2001	4,2	+0,4	
2002	4,0	-0,2	
2003	4,2	+0,2	
2004	7,4	+3,2	Barqaror o‘sish ro‘y bergan
2005	7,0	-0,4	
2006	7,3	+0,3	
2007	9,5	+2,2	Iqtisodiyotimiz yuqori sur’atlar bilan rivojlanmoqda.
2008	9,0	-0,5	
2009	8,1	-0,9	
2010	8,5	+0,4	
2011	8,3	-0,2	
2012	8,2	-0,1	
2013	8,0	-0,2	
2014	8,0	0,0	
2015	8,0	0,0	
2016	8,0	0,0	
2017	4,5	-3,5	Muntazam o‘sish
2018	5,1	+0,6	
2019	5,6	+0,6	

[141] Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 1965-2010 гг. Т.: Госстандарт. Соответствующие годы. Shuningdek, Prezident I.A.Karimovning yilning yakunlari va kelgusi yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalarni belgilab beradigan har yilgi an’anaviy ma’ruzasida va Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga an’anaviy Murojaatnomasida keltirilgan ma’lumotlardan olindi.

Ko‘rnib turibdiki, mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida mustaqillik yillarida iqtisodiy o‘sishning to‘rtta shaklini boshidan o‘tkazdi. Jumladan, 1996-yilgacha iqtisodiyotimizda **resessiya** jarayoni sodir bo‘lgan. 1996–2003-yillar davomida **muntazam** o‘sishga erishilgan. 2004–2006-yillada iqtisodiyotimizda **barqaror** o‘sish ro‘y bergan. 2007-yildan 2016-yilgacha **yuqori sur’atlar** bilan rivojlanib kelgan. 2017-yildan boshlab muntazam o‘sish sur’ati davom etib kelmoqda.

Ushbu iqtisodiy o‘sishning turlari va darajasini belgilashda metodologik asos qilib rasmiy hujjatlar, ma’ruzalar olindi. Jumladan, muntazam rivojlanish mezoni ham mamlakatimiz Birinchi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan mezonlardan kelib chiqilgan. Masalan, 2003- yilning natijalari va 2014-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-fevraldagi ma’ruzasida: “Keyingi olti yil davomida yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari har yili **muntazam** (ta’kid bizniki – M.P.) ravishda 4 foizdan ko‘proq oshmoqda”[142], deb ta’kidladi. Demak, 5,0 %gacha o‘sish sur’atini muntazam o‘sish, deb atash lozim degan xulosaga keldik.

Barqaror rivojlanishning metodologik asosini ham rasmiy ma’ruzalarda ko‘rishimiz mumkin. Jumladan “2006-yilda yalpi ichki mahsulot 7,3 foizga o‘sdi”[143]. Bunday makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar “...jamiyatimizning barcha sohalarini tubdan isloh qilish va yangilash bo‘yicha amalga oshirilgan ko‘p yillik mashaqqatli va murakkab ishlarning mantiqiy natijasi, mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil va **barqaror rivojlantirish**ning (ta’kid bizniki – M.P.) amaliy namoyoni bo‘ldi”[144]. Ko‘rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyoti 7,3 % o‘sgan paytni Birinchi Prezidentimiz barqaror rivojlanish, deb atagan edi. Ushbu ko‘rsatkich 8,0 %dan oshganda esa, yuqori o‘sish, deb ta’kidlangan. Masalan, “2013-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o‘tgan yilda mamlakatimizning **iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgan, modernizatsiya va diversifikatsiya**

---

[142] Karimov I.A. Tinchlik va xafsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qa’iy irodamizga bog‘liq. T.12. – T.: “O‘zbekiston”, 2004. – 185-bet.

[143] Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir./ Islom Abdug‘aniyevich Karimov – T. 15. –T.: “O‘zbekiston”, 2007. – 155-bet.

[144] O‘sha joyda. – 155-bet. (Mazkur havolada keltirilgan ta'kid bizniki – M.P va O.P).

hisobidan yuqori sur'atlar (ta'kid bizniki – M.P.) **bilan rivojlanganini** qayd etamiz"[145], deb ta'kidladi.

Prezidentimizning ushbu ta'kidi birinchidan, iqtisodiyotimizning 8,0 %ga oshganligi, uning **"yuqori sur'atlar"** bilan rivojlanganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, uning **modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan** amalga oshirilganligini e'tirof etmoqda. Bu yerda gap o'sish va uning omili haqida ketmoqda. E'tiborli jihati shundaki, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi aynan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi avj olib turgan paytlarda ham saqlanib qoldi. Buning asosiy omili, mamlakatimizda mustaqil rivojlanish strotegiyasini to'g'ri belgilab olinganligi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik shu asosda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda unga innovatsion omillarni joriy qilish bo'ldi.

Buni mamlakatimizning Birinchi Prezidentining 2009-yil 22-mayda "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchilariga murojaatida quyidagilarni ta'kidlaydi: "...iqtisodiyotni **modernizatsiya va diversifikatsiya qilish,** ishlab chiqarishni muntazam yangilash va **innovatsion texnologiyalarni** joriy etish rivojlanishning asosiy ustuvor yo'nalishi bo'lgan va bu tamoyilga amal qilayotgan davlatlar yuksak muvaffaqiyatlarga erishadi"[146], degan gaplaridan ham anglab olish mumkin. Biz moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida aynan shu tamoyillarga amal qilganligimiz uchun mamlakat YaIMning yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy o'sishning asosiy omillari mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda unga innovatsiyalarni joriy qilishdan iborat. Ammo ushbu tushunchalar nechog'lik muhim bo'lmasin, ularning ayrim nazariy va amaliy masalalari hamon iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Shu

---

[145] Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – "Xalq so'zi" gazetasi. – 2014-yil 18-yanvar. – 1-3 betlar.

[146] Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning asosiy maqsadimiz.- T.17. – T.: "O'zbekiston", 2009. – 231-bet. (Mazkur havolada keltirilgan ta'kid bizniki – M.P va O.P)

tufayli, ushbu tushunchalarning ilmiy-nazariy va amaliy masalalariga[147] e'tiborni qaratishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Mamlakatimiz 2017-yildan boshlab yangi yo'nalishga o'tdi. Buning yorqin namunasi sifatida beshta yo'nalishni qamrab olgan 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini keltirish kifoya. Endi "Yangi O'zbekiston" shakllanmoqda. YaIMning har bir foizining salmog'i ham keskin o'sdi. 2010-yil joriy bahosida YaIMning 1 % o'sishi 623,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilda – 1718,1 mlrd. so'mga, 2018-yilda – 2811,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2018-yildagi 1 % YaIMning salmog'i, 2010-yilning xuddi shunday ko'rsatgichiga nisbatan 4,5 marta (2811,3/623,9) yuqori. 2020-yilga kelib, bizning hisob-kitoblarimiz bo'yicha 1 % o'sishining salmog'i 3505,9 mlrd. so'mni tashkil qilmoqda. Bugungi 1 % o'sish, 2010- yildagi 5,6 % (3505,9/623,9) o'sganligiga teng.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida Yangilanayotgan O'zbekistonning o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan iqtisodiy o'sishning to'qqizta ustuvor vazifalari belgilab berildi va Murojaatnomaning oxirida mamlakatimiz xalqiga qarata: "Bugun biz ham tanti, sabr-qanoatli va mehnatkash xalqimiz bilan birga ulug' maqsadlarni belgilab, marrani baland olmoqdamiz. Oldinda bizni ulkan vazifalar, katta imkoniyatlar kutmoqda"[148], deb ta'kidladi. Ammo ushbu marralarni bajarishga xalqimiz bor kuch va qudratini, ilmiy va intellektual salohiyatini ayamaydi, deb to'liq ishonch bildirdi. Ammo belgilab olgan marraning qiyinligi va qancha mashaqqatli bo'lmasin, orqaga yo'l yo'qligini ham qat'i takidlab, xalqimzga katta ishonch bildirdi. Unda quyidagi gaplar aytildi: **"Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz.**

Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak,

---

[147] Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M. Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o'sishning muhim omili. Monografiya. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2014. – 104 bet.

[148] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2020-yil 25-yanvar. 19-son. 1-4 betlar

har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tarixi-mizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz.

Bu yo'lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo'lmasin, barchasini mardona yengib o'tishga tayyormiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning o'zi, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari madadkor bo'ladi, deb ishonaman"[149], deb ta'kidladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz iqtisodiyoti bundan keyin ham jadal rivojlanadi. Yuqori sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishga erishiladi. Buning uchun barcha asoslarimiz bor.

Tayanch so'z va iboralar

Makroiqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, aholi farovonligi, makroiq-tisodiy ko'rsatkichlar, YaIM, YaMM, iste'mol, tendensiya, Iste'mol bahosi indeksi, xizmat ko'rsatish sohasi, modernizatsiya, diversifikat-siya, innovatsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiyotning o'nta tamoyilini izohlang?
2. Noyob resurslarni taksimlashning asosiy tamoyillari?
3. Iqtisodiy o'sishning ta'rifi bo'yicha olimlarning qarashlariga izohingiz.
4. Makroiqtisodiy o'sishning mazmuni, mohiyati va uning o'ziga xos jihatlari.
5. Makroiqtisodiy o'sishning mazmuni, mohiyatini izohlang?
6. Iqtisodiy o'sish ko'rsatklarini izohlang.
7. Iqtisodiy o'sishning turlari va mezonlari?
8. 2020-yilda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari.

TESTLAR

1.Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyot tushunchalari.

A.*Iqtisodiy faoliyat deb tushunish mumkin

B. Ishlab chiqarish faoliyati

[149] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi//"Xalq so'zi" gazetasi. 2020-yil 25-yanvar. 19-son. 1-4 betlar.

C.Taqsimlash sohasidagi faoliyat
D.Ayriboshlash sohasidagi faoliyat

2. Iqtisodiy o‘sishning mazmuni ifodalab bering

A.*Yalpi ichki mahsulot hajmining aholi jon boshiga o‘sib borishini ifodalab beradi

B. Yalpi ichki mahsulot hajmining aholi jon boshiga kamayishi

C. Yalpi investitsiyalarning ko‘payishi

D. Budjet daromadi hajmining ko‘payishi

3. Mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar:

A. *Real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o‘sishi

B. Yalpi talab va yalpi taklif

C. Iste’mol va jamg‘arma

D. Investitsiyalar miqdori

4. Iqtisodiyotning o‘sish sur’atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo‘llanuvchi qoidani nomini toping.

A. 70 miqdor qoidasi tushuniladi

B. 70 sifat qoidasi

C.70 talab qoidasi

D. Hammasi noto‘g‘ri

5. Ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi tufayli iqtisodiy o‘sishga erishiladi?

A. *Ekstensiv o‘sish hisoblanadi

B. Intensiv

C. Mukammal

D. Nomukammal

6. Quyidagi qaysi omil iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir etadi?

A. (ekalogiya) Atrof muhitning ifloslanishi

B. Mehnat unumdorligi

C. Raqobat
D. Taklif omillari

7. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy o‘sishning intensiv turiga kirmaydi?

A.*Avvalgi texnikaviy asos saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi

B.Ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish

C. Ilg‘or ishlab chiqarish vositalari va yangi texnikani qo‘llash

D. Mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish

8. Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda mavjud bo‘ladimi?

A. *Yo‘q

B. Ha

C. Ba’zan uchrab turadi

D. Alohida-alohida mavjud bo‘ladi

9. YaIM (YaMM)ni qo‘shilgan qiymat (ishlab chiqarish) asosida hisoblash:

A.*Barcha tarmoq va sohalarning ulushini aniqlash imkonini beradi

B. Mamlakat iqtisodiyotida davlat sektorining rolini

C. Undiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarning YaIM tarkibidagi o‘sish sur’atini aniqlash

D.Sanoat va qishloq xo‘jaligida unumdorlikni aniqlash;

10. YaIM teng:

A. *Oraliq mahsulotlardan tashqari hamma firmalarning yalpi tushumiga

B. Omilli daromadlar va kapitalning eskirish qiymati yig‘indisiga

C. Yakuniy daromadlar yig‘indisiga

D. Sanab o‘tilganlarning hammasiga

15-BOB. O‘ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR VA ULAR BILAN BOG‘LIQ JARAYONLARNING PROGNOZI

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining dolzarb masalalaridan biri makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqligi va ularning kelajakdagi tendensiyalarini to‘g‘ri baholashdir. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mamlakatning iqtisodiy holatini, aholining farovonligini, ishlab chiqarish va iste’mol darajalarining rivojlanishini baholashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va strategik dasturlar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "O‘zbekiston–2030" strategiyasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichini belgilashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirishning zaruriyatini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ular bilan bog‘liq jarayonlarning prognozi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirishning zaruriyati va ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston–2030" strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish bilan chambaras bog‘liq. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar va keng ko‘lamli o‘zgarishlar aholining farovonligini oshirish, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va ijtimoiy sohadagi yangiliklarni joriy etishga qaratilgan.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining aniq yo‘nalishlarini belgilash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va kelajakdagi strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qo‘llanmada makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozlashtirish usullari, ularning grafiklarini shakllantirish va bu ko‘rsatkichlarning ahamiyati batafsil yoritilgan.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozlashtirilishi faqat iqtisodiy rivojlanishning yo‘nalishlarini belgilash bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy sohadagi islohotlarning samaradorligini baholash,

aholining hayot sifatini oshirish va ishsizlikni kamaytirish kabi muhim masalalarni hal etishda ham asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu qo'llanmada makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashtirish usullari, ularning ahamiyati va amaliy tatbiqlari batafsil yoritilgan. Bunda Yalpi ichki mahsulot (YaIM), chakana tovar aylanmasi, aholi soni, iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni kabi ko'rsatkichlarning dinamikasi va ularning kelajakdagi tendensiyalari matematik modellar va statistik usullar asosida tahlil qilingan.

Qo'llanmaning asosiy maqsadi – makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashtirish usullarini takomillashtirish, ularning ahamiyatini tushuntirish va bu ko'rsatkichlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning samaradorligini oshirishdir. Bu maqsadlarga erishish uchun qo'llanmada iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi, ularning dinamikasi va kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari batafsil tahlil qilingan.

Umuman olganda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashtirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarining aniqligini ta'minlash va kelajakdagi strategiyalarni ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Bu qo'llanma talabalar, magistrlar, professor-o'qituvchilar va iqtisodiy sohadagi mutaxassislar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

15.1. Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashtirishning zaruriyati va ahamiyati

Bugungi amalga oshirilayotgan islohotlar, keng ko'lamli o'zgarishlardan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir".[150] Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar bevosita "Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz

[150] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// "Xalq so'zi" gazetasi. 2018-yil 29-dekabr.

samarasi bilan chambarchas bog‘liq”dir.[151] Ko‘rinib turibdiki, har qanday taraqqiyot pirovardida ijtimoiy sohadagi islohotlarning, xususan, aholi farovonligining oshib borishiga xizmat qiladi. Shu tufayli gap ertangi istiqbol haqida borar ekan, albatta, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ijtimoiy ko‘rsatikichlar bilan birgalikda olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot (YaIM), chakana tovar aylanmasi, aholi soni kabi ko‘rsatkichlarning prognoziga bag‘ishlangan adabiyotlar ko‘p bo‘lsada, ularning o‘sishini bir qancha yillarga o‘zaro bog‘liq holda aniqlash orqali strategiyasini belgilash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qaratilgan masalalar iqtisodiy adabiyotlarda juda kam yoritilgan. Shu tufayli, mazkur ishda asosiy e’tiborni aynan YaIM, chakana tovar aylanmasi, aholi soni va ular bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning prognozi asosida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish yo‘llarini takomillashtirishga qaratishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Shuningdek, ulardan amaliyotda foydalanish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi.

Har qanday bobning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan strategik taraqqiyot talablaridan kelib chiqqan holda, mazmunini to‘liq ochib berish maqsadida yuqoridagi ko‘rsatkichlarning prognozi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda qiyoslangan tarzda qarab chiqishga qaratilgan. Chunki mazkur masalaning bugungi kundagi dolzarbligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar talabiga mos holda obyektiv zaruratdan kelib chiqmoqda. Ushbu zarurat quyidagilar bilan izohlanadi:

1) bugungi kunda iqtisodiyot sohasida samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi;

2) ushbu samaradorlik ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish uchun bir qancha boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlardan foydalanish lozimligi;

3) iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar o‘sishini bugungi kundagi amalda bo‘lgan mamlakatni rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasiga mosligini ta’minlash lozimligi;

4) iqtisodiyot sohasidagi prognoz ko‘rsatkichlarining ijtimoiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligi va ular asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish yo‘llarini takomillashtirish lozimligi;

[151] O‘sha joyda.

5) iqtisodiyot sohasini rivojlantirish evaziga, ular bilan bog‘liq ijtimoiy ko‘rsatkichlarni diversifikatsiya qilib, aholini ish bilan ta’minlash imkoniyatining yaratilishi;

6) O‘zbekistonning iqtisodiy sohada katta salohiyatga ega ekanligi, uni eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal rivojlantirish evaziga ijtimoiy masalalarni hal qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish choralarini ko‘rishga keng imkoniyatlarning yaratilishini ta’minlash lozimligi.

Yuqoridagilarning barchasi mazkur masalaning o‘ta muhim va dolzarbligini hamda iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning prognozi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning o‘ta muhimligini ko‘rsatib beradi. Bularni inobatga olib, doimiy aholi soni, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, chakana tovar aylanmasi aholiga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar hajmi, savdoda band xodimlar soni bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar dinamikasini keltirdik. Chunki ushbu ko‘rsatkichlarda aholi va uning farovonligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar o‘z aksini topgan (15.1-jadval).

15.1-jadval

O‘zbekistonda YaIM, chakana tovar aylanmasi, aholi soni va u bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning 2000–2023-yillar dinamikasi[152]

Yillar	Doimiy aholi soni, ming kishi	Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, ming kishi	YaIM, mlrd. so‘m	Chakana tovar aylanmasi, mlrd. so‘m	Aholiga pullik xizmat ko‘rsatish, mlrd. so‘m	Savdoda band xodimlar soni, ming kishi
2000	24813,1	8983,0	3255,6	1787,5	309,9	754
2001	25115,8	9136,0	4925,3	2699,9	472,3	778
2002	25427,9	9333,0	7450,2	3786,3	711,4	781
2003	25707,4	9589,0	9844,0	4289,7	948,4	815
2004	26021,3	9910,6	12261,0	4787,5	1243,4	858

[152] O‘zbekiston Respublikasi statistika Davlat qo‘mitasining tegishli yillar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

15.1-jadvalning davomi

2005	26312,7	10196,3	15923,4	5577,4	1628,5	904
2006	26663,8	10467,0	21124,9	7453,8	2194,1	977
2007	27072,2	10735,4	28190,0	9574,6	3038,3	1055
2008	27533,4	11035,4	38969,8	12682,3	4627,1	1136
2009	28001,4	11328,1	49375,6	16874,6	6045,0	1186
2010	29123,4	11628,4	78936,6	21872,8	7858,0	1243
2011	29555,4	11919,1	103232,6	28539,0	10520,9	1283
2012	29993,5	12223,8	127590,2	36964,4	13614,1	1330
2013	30492,8	12523,3	153311,3	46863,0	18146,8	1379
2014	31022,5	12818,4	186829,5	58136,6	22392,4	1431
2015	31575,3	13058,3	221350,9	71184,1	27297,1	1711
2016	32120,5	13298,4	255421,9	88071,6	90991,7	1760
2017	32656,7	13520,3	356453,8	105229,9	116795,7	1798
2018	33254,1	13273,1	473652,8	121392,1	146836,3	1846
2019	33905,8	14797,4	594659,6	166094,4	190356,0	1881
2020	34383,1	14876,4	668038,0	199518,8	218853,5	1913
2021	35079,2	14980,7	820536,6	216694,6	283301,6	1952
2022	35821,2	15038,9	995573,1	270687,2	357554,5	1985
2023	36599,8	15038,3	1192162,5	330448,1	47 286,5	2006

Ushbu jadvaldagi ko‘rsatkichlar prognozi mutlaq miqdorda keltirilgan. Bunda ko‘z bilan qancha ko‘payganligini tasavvur qilish mumkin. Ammo aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun ularning nisbiy o‘zgarishlarini aniqlashni taqozo etadi. Jumladan, doimiy aholi sonining 2000–2023-yillardagi o‘sish sur’ati 147,5 % ni (36599,8*100/24813,1) tashkil qiladi. Bulardan iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’ati 167,4 %ni (15038,3*100/8983,0) tashkil qildi. YaIMning o‘sish sur’atini aniqlash uchun ularning asosidagi o‘zgarishlar tendensiyasiga baho berish lozim. Ushbu ko‘rsatkich 2000–2023-yillarda 36618,8 %ga (1192162,5*100/3255,6) o‘sdi. Bular shu davrda qancha o‘sganligini bildiradi. Xulosani chuqurlashtirish, haqiqiy holatni oydinlashtirish uchun ushbu ko‘rsatkichlarning 2000–2023-yillardagi dinamikasi quyidagi jadvalda keltirildi (15.2-jadval).

15.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni va YaIMning 2000–2023-yillardagi dinamikasi

Yillar	Doimiy aholi sonining o‘sish sur’ati, %	Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’ati, %	YaIMning o‘sish sur’ati, %
2000	100,0	100,0	100,0
2001	101,2	101,7	151,3
2002	102,5	103,9	228,8
2003	103,6	106,7	302,4
2004	104,9	110,3	376,6
2005	106,0	113,5	461,5
2006	107,5	116,5	648,9
2007	109,1	119,5	865,9
2008	111,0	122,9	1197,0
2009	112,9	126,1	1516,6
2010	117,4	129,5	1916,3
2011	119,1	132,7	2419,4
2012	120,9	136,1	3008,0
2013	122,9	139,4	3712,4
2014	125,0	142,7	4449,8
2015	127,3	145,4	5277,3
2016	129,5	148,0	6143,1
2017	131,6	150,5	7803,3
2018	134,0	147,8	8635,2
2019	136,6	164,7	18265,7
2020	138,6	165,6	20519,7
2021	141,4	166,8	25203,9
2022	144,4	167,4	30580,3
2023	147,5	167,4	36618,8

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000–2023-yillarda mamlakat YaIMning o'sish sur'ati, 366,2 martaga yoki 36618,8 %ga o'sganligini ko'rish mumin. Bu aholining o'sishiga nisbatan 248,3 marta (36618,8/147,5) ko'pdir. Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati 147,5 %ni tashkil qiladi. Iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik sonining o'sish sur'ati esa 167,4 %ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichga nisbatan YaIMning o'sish sur'ati 218,8 martani (36618,8/167,4) tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarni mamlakat YaIM bilan qiyoslaganda bir qancha martaga ko'paygani mamlakat aholisi farovonligining oshib borayotganligidan dalolat beradi.

15.2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning grafigini shakllantirish usullari

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi haqida aniq xulosa qilish uchun ushbu ko'rsatkichlarning grafigini shakllantirish lozim. Bularni shakllantirish uchun ekzel dasturidan foydalanish etarli bo'lib hisoblanadi. Ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning grafigi quyidagi rasmlarda keltirilgan (15.1-rasm).



15.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida YaIMning 2000–2023-yillardagi dinamikasi diagrammasi.

Mamlakat YaIMning 2000–2023-yillardagi o‘sish sur’ati keskin o‘zgarganligi sababli, uni alohida grafigini oldik (15.1-rasm). Diagrammadan ko‘rish mumkinki 2000-yilga nisbatan 2007-yilgacha YaIMning o‘zgarish sur’ati normal holatda o‘sib kelgan, ya’ni 2007-yilda YaIMning o‘sish sur’ati 865,9 %ga teng bo‘lgan. 2008 yildan boshlab, jahon iqtisodiy inqiroziga qaramasdan, bu ko‘rsatkich keskin o‘sganligini kuzatish mumkin. Bu ham ko‘rsatadiki, mamlakatimiz iqtisodiyoti o‘ziga xos yo‘ldan borayotganligidan dalolat beradi. Yana bir jihat iqtisodiy o‘sish asosan ichki imkoniyatlarimiz evaziga o‘sganligidan dalolatdir. Agar tashqi omillar evaziga o‘sayotgan bo‘lsak, albatta, inqiroz paytida ushbu ko‘rsatkich bunchalik jadal rivojlanmagan bo‘lar edi. O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni va iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining 2000–2023-yillardagi o‘sish sur’ati bir-biriga yaqin bo‘lganligi sababli, ularning birgalikdagi grafigini ishlab chiqdik (15.2-rasm).



15.2-rasm. *O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni va iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining 2000–2023-yillardagi dinamikasi diagrammasi.*

15.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirish usullari

Mazkur grafiklarga asosan har bir ko‘rsatkichning dinamikasidagi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Mamlakat YaIMning o‘sish sur’ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning polinamiyal chizig‘iga to‘g‘ri keldi. Buning formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$y = 122{,}24x^2 - 1818{,}2x + 5286{,}3$$
$$R^2 = 0{,}9412$$

Bunda, u – natija ko‘rsatkichi, ya’ni tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichning i-yildagi hajmi;

x – tegishli yillarning ketma-ketligini ifodalovchi o‘zgaradigan miqdor;

R^2 – natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi koeffitsiyent.

Bu yerda $R^2 = 0{,}9412$ ga tengligi, ushbu ko‘rsatkichning vaqt omili bilan uzviy bog‘liqligidan dalolat beradi. Yuqoridagi formulalarga asosan mazkur ko‘rsatkichning 2000–2023-yillardagi dinamikasi asosida, ularning 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

$$Y_{2024} = 122{,}24*25^2 - 1818{,}2*25 + 5286{,}3 = 36231{,}3$$
$$Y_{2025} = 122{,}24*26^2 - 1818{,}2*26 + 5286{,}3 = 40647{,}3$$
$$Y_{2026} = 122{,}24*27^2 - 1818{,}2*27 + 5286{,}3 = 45307{,}9$$
$$Y_{2027} = 122{,}24*28^2 - 1818{,}2*28 + 5286{,}3 = 50212{,}9$$
$$Y_{2028} = 122{,}24*29^2 - 1818{,}2*29 + 5286{,}3 = 55362{,}3$$
$$Y_{2029} = 122{,}24*30^2 - 1818{,}2*30 + 5286{,}3 = 60756{,}3$$
$$Y_{2030} = 122{,}24*31^2 - 1818{,}2*31 + 5286{,}3 = 66394{,}7$$

Navbatdagi prognoz qilinishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkich iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’ati bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichning o‘sish sur’ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning polinamiyal chizig‘iga to‘g‘ri keldi. Buning formulasi quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$y = -0{,}019x^2 + 3{,}397x + 94{,}46$$
$$R^2 = 0{,}992$$

Mazkur holatda ham R^2 = 0,992ga tengligi, ushbu ko‘rsatkichning ham o‘rganilayotgan vaqt omili bilan uzviy bog‘liqligidan dalolat beradi. Ushbu ko‘rsatkichning 2000–2023-yillardagi dinamikasi asosida, ularning ham 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi[153]:

$$Y_{2024} = -0,019*25^2 + 3,397*25 + 94,46 = 167,5$$
$$Y_{2025} = -0,019*26^2 + 3,397*26 + 94,46 = 169,9$$
$$Y_{2026} = -0,019*27^2 + 3,397*27 + 94,46 = 172,3$$
$$Y_{2027} = -0,019*28^2 + 3,397*28 + 94,46 = 174,7$$
$$Y_{2028} = -0,019*29^2 + 3,397*29 + 94,46 = 177,0$$
$$Y_{2029} = -0,019*30^2 + 3,397*30 + 94,46 = 179,3$$
$$Y_{2030} = -0,019*31^2 + 3,397*31 + 94,46 = 181,5$$

Ushbu tizimga kiruvchi ko‘rsatkichlardan biri doimiy aholi sonining o‘sish sur’ati bo‘lib hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichning o‘sish sur’ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning polinamiyal chizig‘iga to‘g‘ri keldi. Buning formulasi quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$\mathbf{y = 0,040x^2 + 1,148x + 98,34}$$
$$\mathbf{R^2 = 0,995}$$

Doimiy aholi sonini ifodalovchi ko‘rsatkichning 2000–2023-yillardagi dinamikasi asosida, ularning ham 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozini aniqlash mumkin. Mazkur holatda ham R^2 = 0,995 ga tengligi, ushbu ko‘rsatkichning ham o‘rganilayotgan vaqt omili bilan uzviy bog‘liqligidan dalolat beradi. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

$$Y_{2024} = 0,040*25^2 + 1,148*25 + 98,34 = 152,0$$
$$Y_{2025} = 0,040*26^2 + 1,148*26 + 98,34 = 155,2$$
$$Y_{2026} = 0,040*27^2 + 1,148*27 + 98,34 = 158,5$$
$$Y_{2027} = 0,040*28^2 + 1,148*28 + 98,34 = 161,8$$
$$Y_{2028} = 0,040*29^2 + 1,148*29 + 98,34 = 165,3$$

[153] Ushbu hisob-kitoblarni uslubiy asos sifatida keltirdik.

$$Y_{2029}= 0,040*30^2+ 1,148*30+ 98,34=168,8$$
$$Y_{2030}= 0,040*31^2 + 1,148*31 + 98,34=172,4$$

Yuqoridagi hisob-kitoblar natijasida tahlil qilingan ko‘rsatkichlarning (doimiy aholi soni, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, YaIMning o‘sish sur’atini) 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun yuqoridagi formulalarni umumlashtirib, hisob-kitoblarni qisqartirilgan holda quyidagicha ifodalashni tavsiya qilamiz (15.3-jadval).

15.3-jadval

Aholi farovonligi, yashash darajasi va savdo xizmatlari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozining hisob-kitobini amalga oshiradigan formulalar[154]

Ko‘rsatkichlar	Matematik modellarning formulalari	Natija bilan omillarning bog‘liqlik darajasi
Doimiy aholi sonining o‘sish sur’ati	$y = 0,040x^2 + 1,148x + 98,34$	$R^2 = 0,995$
Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’ati	$y = -0,019x^2 + 3,397x + 94,46$	$R^2 = 0,992$
YaIMning o‘sish sur’ati	$y = 122,24x2 - 1818,2x + 5286,3$	$R^2 = 0,9412$

Ushbu jadvalda har bir ko‘rsatkich bo‘yicha matematik modellarning tiplari va natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, doimiy aholi sonining o‘sish sur’ati, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’ati, YaIMning o‘sish sur’ati bo‘yicha polinamial modeldan foydalanilgan. Ushbu ma’lumotlar asosida har bir ko‘rsatkichning prognozi aniqlandi. Mazkur hisob-kitoblar natijasini tegishli tarzda jadvalga kiritiladigan bo‘lsa, u quyidagicha shaklga ega bo‘ladi (15.4-jadval).

[154] Mazkur ilova matematik usullarni qo‘llagan holda 1-jadval ma’lumotlari asosida **muallif** tomonidan shakllantirildi.

15.4-jadval

O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni va YaIMning 2000–2023-yillardagi dinamikasi va 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari

Yillar	Doimiy aholi sonining o‘sish sur’ati, %	Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’ati, %	YaIMning o‘sish sur’ati, %
2000	100,0	100,0	100,0
2001	101,2	101,7	151,3
2002	102,5	103,9	228,8
2003	103,6	106,7	302,4
2004	104,9	110,3	376,6
2005	106,0	113,5	461,5
2006	107,5	116,5	648,9
2007	109,1	119,5	865,9
2008	111,0	122,9	1197,0
2009	112,9	126,1	1516,6
2010	117,4	129,5	1916,3
2011	119,1	132,7	2419,4
2012	120,9	136,1	3008,0
2013	122,9	139,4	3712,4
2014	125,0	142,7	4449,8
2015	127,3	145,4	5277,3
2016	129,5	148,0	6143,1
2017	131,6	150,5	7803,3
2018	134,0	147,8	8635,2
2019	136,6	164,7	18265,7
2020	138,6	165,6	20519,7
2021	141,4	166,8	25203,9
2022	144,4	167,4	30580,3
2023	147,5	167,4	36618,8
2024	152,0	167,5	36731,3
2025	155,2	169,9	40647,3
2026	158,5	172,3	45307,9
2027	161,8	174,7	50212,9
2028	165,3	177,0	55362,3
2029	168,8	179,3	60756,3
2030	172,4	181,5	66394,7

Ushbu jadval ma'lumotlari tahlil qilinayotgan soha va ko'rsatkichlar bo'yicha kelajakda ahvol qanday bo'lishligini ifoda etadi. Hisob-kitobdardan ko'rinib turibdiki, doimiy aholi sonining o'sish sur'ati 2000–2023-yillarda 147,5 % o'sgan bo'lsa, 2030-yilga borib 172,4 % o'sishi ko'zda tutilgan. Iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik sonining o'sish sur'ati ham shu tahlil qilgan davrda 167,4 %ga o'sgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichning miqdori 2030-yilda 181,5 %ga yetishi mo'ljallangan. O'zbekistonda YaIM 2000–2023-yillarda 366,2 martaga o'sgan bo'lsa 2030-yilga borib, uning o'sishi 664,0 martaga yetishi ko'zda tutilmoqda. Ushbu prognozlardan ham ko'rinib turibdiki, bu ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati aholining farovonligini oshirish bilan birga mamlakat iqtisodiyotining ham yuksalishiga xizmat qiladi. Xuddi shunday holatni kelgusida ham saqlab qolish chora-tadbirlarini ko'rish kerak bo'ladi.

Hisob-kitob qilingan prognoz ko'rsatkichlarining 2023-yilga nisbatan qanday holatda ekanligi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, ko'rsatkichlar hisob-kitobini quyidagi jadvalda keltirishni maqsadga muvofiq, deb topdik (15.5-jadval).

15.5-jadval

O'zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni, iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni va YaIMning 2023-yilga nisbatan 2024–2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari

T/r	Yillar	Doimiy aholi soni		Iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni		YaIMning summasi	
		ming kishi	o'sish sur'ati %	ming kishi	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
1.	2023	36599,8	100,0	15038,3	100,0	1192162,5	100,0
2.	2024	37715,9	103,0	15046,5	100,1	1195824,2	100,3
3.	2025	38509,9	105,2	15262,1	101,5	1323313,5	111,0
4.	2026	39328,8	107,5	15477,7	102,9	1475044,0	123,7
5.	2027	40147,6	109,7	15693,3	104,4	1634731,2	137,1

15.5-jadvalning davomi

6.	2028	41016,1	112,1	15899,9	105,7	1802375,0	151,2
7.	2029	41884,5	114,4	16106,5	107,1	1977982,1	165,9
8.	2030	42777,8	116,9	16304,1	108,4	2161545,9	181,3

Mazkur tahlil ma'lumotlari ko'rsatishicha doimiy aholi soni, 2023-yilga nisbatan 2024–2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari 116,9 %ga oshishi ko'rsatilgan. Iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni esa 108,4 % ga oshishi ko'zda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, aholining umumiy sonining o'zsishiga nisbatan iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni kamroq o'sgan. Ushbu holatni o'zgartirishni taqozo etadi. Chunki iqtisodiyotni rivojlantirish uchun, ishsizlikni kamaytirish uchun yangi ish o'rinlarini ko'proq yaratish va iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik sonining o'sish sur'atini oshirishni taqozo etadi. Demak, biz 2000–2023-yil holatidan keskin o'zgartirishimiz lozim ekan. YaIMning o'sish sur'ati shu yillarda 181,3 % ga o'sishi prognoz qilinmoqda. Bu aholining farovonligi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Ushbu holatlar to'g'risida aniq xulosaga kelish uchun har birining grafigini ko'rib chiqish lozim. Mamlakat YaIMning o'sish sur'ati quyidagicha holatga ega bo'lgan (15.3-rasm).



15.3-rasm. *O'zbekiston Respublikasida YaIMning 2000–2023-yillardagi dinamikasi va 2024–2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari diagrammasi.*

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida YaIM-ning 2000–2023-yillardagi dinamikasi va 2024–2030-yillarga mo‘l-jallangan prognoz ko‘rsatkichlari diagrammasi uning oxirgi yillarda keskin rivolanayotganligini prognoz qilingan yillarda ham ushbu tendensiyaning saqlanib qolayotganligidan dalolat berib turibdi.

Navbatdagi jarayonda O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni va iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari diagrammasini tadqiq qilib tegishli xulosa chiqarishdan iboratdir. Ushbu holat ko‘rsatmoq-daki, tahlil qilinayotgan ikkita ko‘rsatkich ham shu prognoz qilingan yillarda o‘sgan. Ammo 2000-yilga nisbatan 2030-yilda iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’ati 181,5 %ni tashkil qilgan bir pallada aholi sonining o‘sishi 172,4 %ni tashkil qilgan. Bu aholining soniga nisbatan band aholi o‘sishining ta’minlanganligidan dalolat beradi. Bu yaxshi jarayon, ammo 2024–2030-yillardagi o‘sish tendensiyasi ushbu holatning teskarisi bo‘lgan. Bunga kelgusida yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Odatda, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’atining jadalligini ta’minlashni taqozo etadi. Ushbu holatning diagrammasi quyidagi rasmda keltirilgan (15.4-rasm).



15.4-rasm. *O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni va iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining 2000–2018-yillardagi dinamikasi va 2019–2025-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari diagrammasi.*

Ushbu rasm yuqoridagi xulosalarning yaqqol ifodasi ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Endi mamlakatimizda aholi farovonligiga bevosita ta’sir qiluvchi chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2000–2023-yillardagi dinamikasini tahlil qilib ko‘ramiz. Buning uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (15.6-jadval).

15.6-jadval

O‘zbekiston Respublikasida chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2000–2023-yillardagi dinamikasi

Yillar	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, %	Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, %	Savdoda band xodimlar sonining o‘sish sur’ati, %
2000	100,0	100,0	100,0
2001	151,0	152,4	103,2
2002	211,8	229,6	103,6
2003	240,0	306,0	108,1
2004	267,8	401,2	113,8
2005	312,0	525,5	119,9
2006	417,0	708,0	129,6
2007	535,6	980,4	139,9
2008	709,5	1493,1	150,7
2009	944,0	1950,6	157,3
2010	1223,7	2535,7	164,9
2011	1596,6	3394,9	170,2
2012	2067,9	4393,1	176,4
2013	2621,7	5855,7	182,9
2014	3252,4	7225,7	189,8
2015	3982,3	8808,4	226,9
2016	4927,1	29361,6	233,4
2017	5887,0	37688,2	238,5
2018	6791,2	47381,8	244,8

15.6-jadvalning davomi

2019	9292,0	61425,0	249,5
2020	11161,9	70620,7	253,7
2021	12122,8	91417,1	258,9
2022	15143,3	115377,4	263,3
2023	18486,6	151754,3	266,0

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000–2023-yillarda chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati 184,9 martaga yoki 18486,6 % ga o'sgan. Aholiga pullik xizmat ko'rsatishning shu davrdagi o'sish sur'ati 1517,5 martaga yoki 151754,3 % ga teng bo'lgan. Navbatdagi ko'rsatkich – savdoda band xodimlar sonining o'sish sur'ati 2,7 martaga yoki 266,0 % ga o'sgan. Ko'rinib turibdiki, aholining farovonligi shu tahlil qilingan 2000–2023-yillarda muttasil oshib borgan. Ayniqsa oxirgi yillarda ularning o'sish sur'ati sezilarli darajada o'sgan. Bularning grafigi quyidagi rasmda keltirilgan (15.5-rasm).



15.5-rasm. *O'zbekiston Respublikasida chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko'rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2000–2023-yillardagi dinamikasi diagrammasi.*

Mazkur grafikka asosan har bir ko‘rsatkichning dinamikasini aniqlab olish mumkin. Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning polinamiyal chizig‘iga to‘g‘ri keldi. Buning formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$y = 520{,}71x^2 - 8187x + 22862$$
$$R^2 = 0{,}9467$$

Ushbu formulaga asosan mazkur ko‘rsatkichning 2000–2023-yillardagi dinamikasi asosida, ularning 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

$$Y_{2024} = 520{,}71*25^2 - 8187*25 + 22862 = 143630{,}8$$
$$Y_{2025} = 520{,}71*26^2 - 8187*26 + 22862 = 162000{,}0$$
$$Y_{2026} = 520{,}71*27^2 - 8187*27 + 22862 = 181410{,}6$$
$$Y_{2027} = 520{,}71*28^2 - 8187*28 + 22862 = 201862{,}6$$
$$Y_{2028} = 520{,}71*29^2 - 8187*29 + 22862 = 223356{,}1$$
$$Y_{2029} = 520{,}71*30^2 - 8187*30 + 22862 = 245891{,}0$$
$$Y_{2030} = 520{,}71*31^2 - 8187*31 + 22862 = 269467{,}3$$

Navbatdagi prognoz qilinishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkich chakana tovar aylanmasi o‘sish sur’ati bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichning o‘sish sur’ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning polinamiyal chizig‘iga to‘g‘ri keldi. Buning formulasi quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$y = 54{,}839x2 - 715{,}27x + 2013{,}1$$
$$R^2 = 0{,}9778$$

Ushbu ko‘rsatkichning 2000–2023-yillardagi dinamikasi asosida, ularning ham 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

$$Y_{2024} = 54{,}839*25^2 - 715{,}27*25 + 2013{,}1 = 18405{,}7$$
$$Y_{2025} = 54{,}839*26^2 - 715{,}27*26 + 2013{,}1 = 20487{,}2$$
$$Y_{2026} = 54{,}839*27^2 - 715{,}27*27 + 2013{,}1 = 22678{,}4$$

$$Y_{2027} = 54{,}839*28^2 - 715{,}27*28 + 2013{,}1 = 24979{,}3$$
$$Y_{2028} = 54{,}839*29^2 - 715{,}27*29 + 2013{,}1 = 27389{,}9$$
$$Y_{2029} = 54{,}839*30^2 - 715{,}27*30 + 2013{,}1 = 29910{,}1$$
$$Y_{2030} = 54{,}839*31^2 - 715{,}27*31 + 2013{,}1 = 32540{,}0$$

Savdoda band xodimlar sonining o‘sish sur’ati ham ushbu ko‘rsatkichlar tizimiga kiradi. Kompyuter dasturi ko‘rsatdiki, mazkur ko‘rsatkichning o‘sish sur’ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning polinamiyal chizig‘iga to‘g‘ri keldi. Buning formulasi quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$\mathbf{y = 0{,}0378x^2 + 7{,}3431x + 81{,}555}$$
$$\mathbf{R^2 = 0{,}9791}$$

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar singari savdoda band xodimlar soni umumiy hajmining dinamikasini ifodalovchi ko‘rsatkichning 2000–2023-yillardagi dinamikasi asosida, ularning ham 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

$$Y_{2024} = 0{,}0378*25^2 + 7{,}3431*25 + 81{,}555 = 288{,}8$$
$$Y_{2025} = 0{,}0378*26^2 + 7{,}3431*26 + 81{,}555 = 298{,}0$$
$$Y_{2026} = 0{,}0378*27^2 + 7{,}3431*27 + 81{,}555 = 307{,}4$$
$$Y_{2027} = 0{,}0378*28^2 + 7{,}3431*28 + 81{,}555 = 316{,}8$$
$$Y_{2028} = 0{,}0378*29^2 + 7{,}3431*29 + 81{,}555 = 326{,}3$$
$$Y_{2029} = 0{,}0378*30^2 + 7{,}3431*30 + 81{,}555 = 335{,}9$$
$$Y_{2030} = 0{,}0378*31^2 + 7{,}3431*31 + 81{,}555 = 345{,}5$$

Mazkur hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun unda keltirilgan formulalarni jamlab olamiz. Buning uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (15.7-jadval).

15.7-jadval

Chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozining hisob-kitobini amalga oshiradigan formulalar[155]

Ko‘rsatkichlar	Matematik modellarning formulalari	Natija bilan omillarning bog‘liqlik darajasi
Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati	$y = 54{,}839\ x^2 - 715{,}27x + 2013{,}1$	$R^2 = 0{,}9778$
Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati	$y = 520{,}71x^2 - 8187x + 22862$	$R^2 = 0{,}9467$
Savdoda band xodimlar sonining o‘sish sur’ati	$y = 0{,}0378\ x^2 + 7{,}3431x + 81{,}555$	$R^2 = 0{,}9791$

Ushbu jadvalda ham har bir ko‘rsatkich bo‘yicha matematik modellarning tiplari va natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, savdoda band xodimlar sonining o‘sish sur’ati bo‘yicha ham polinamial modeldan foydalanilgan. 15.7-jadvaldagi formulalar asosida har bir ko‘rsatkichning prognozi aniqlandi. Hisob-kitoblar natijasida 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari hosil bo‘ldi. Ushbu prognoz ko‘rsatkichlarini qo‘shgan holda quyidagicha jadval shakllantirildi (15.8-jadval).

[155] Mazkur ilova matematik usullarni qo‘llagan holda 1-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

15.8-jadval

O‘zbekiston Respublikasida chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2000-2023 yillardagi dinamikasi 2024-2030 yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari

Yillar	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, %	Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, %	Savdoda band xodimlar sonining o‘sish sur’ati, %
2000	100,0	100,0	100,0
2001	151,0	152,4	103,2
2002	211,8	229,6	103,6
2003	240,0	306,0	108,1
2004	267,8	401,2	113,8
2005	312,0	525,5	119,9
2006	417,0	708,0	129,6
2007	535,6	980,4	139,9
2008	709,5	1493,1	150,7
2009	944,0	1950,6	157,3
2010	1223,7	2535,7	164,9
2011	1596,6	3394,9	170,2
2012	2067,9	4393,1	176,4
2013	2621,7	5855,7	182,9
2014	3252,4	7225,7	189,8
2015	3982,3	8808,4	226,9
2016	4927,1	29361,6	233,4
2017	5887,0	37688,2	238,5
2018	6791,2	47381,8	244,8
2019	9292,0	61425,0	249,5
2020	11161,9	70620,7	253,7
2021	12122,8	91417,1	258,9
2022	15143,3	115377,4	263,3
2023	18486,6	151754,3	266,0
2024	18405,7	143630,8	288,8
2025	20487,2	162000,0	298,0
2026	22678,4	181410,6	307,4
2027	24979,3	201862,6	316,8
2028	27389,9	223356,1	326,3
2029	29910,1	245891,0	335,9
2030	32540,0	269467,3	345,5

Ushbu prognoz ko‘rsatkichlari tahlil qilinayotgan ma’lumotlarning kelajakda ahvol qanday bo‘lishligini ifoda etish yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi. Hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati 2000–2023-yillarda 184,9 martaga yoki 18486,6 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2030 yilga borib 325,4 martaga yoki 32540,0 % ga o‘sishi ko‘zda tutilgan. Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati ham shu tahlil qilgan davrda 1517,5 martaga yoki 151754,3 %ga o‘sgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkichning miqdori 2030-yilda 2694,7 martaga yoki 269467,3 %ga yetishi mo‘ljallangan. Savdoda band xodimlar sonining o‘sish sur’ati 2000–2023-yillarda 266,0 %ga o‘sgan bo‘lsa 2030 yilga borib, uning o‘sishi 345,5 %ga yetishi ko‘zda tutilmoqda. Ushbu prognozlardan ham ko‘rinib turibdiki, bu ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’ati aholining farovonligining muhim omili bo‘lgan chakana tovar aylanmasining va aholiga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlarni oshirish bilan birga mamlakat iqtisodiyotining ham yuksalib borayotganligidan dalolat beradi. Shu tufayli mazkur holatni kelgusida ham saqlab qolish chora-tadbirlarini ko‘rish lozim, deb o‘ylaymiz. Buning uchun har bir ko‘rsatkichning o‘sish sur’atini ta’minlash bo‘yicha aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining hisob-kitobi bo‘yicha aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlarining 2023 yilga nisbatan qanday holatda ekanligi aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzishni maqsadga muvofiq, deb topdik (15.9-jadval).

Mazkur tahlil ma’lumotlari prognoz qilingan ko‘rsatkichlar bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, ushbu ko‘rsatkichlar hisob-kitobini 2023-yilga nisbatan aniqlash lozim, deb o‘ylaymiz. Chakana tovar aylanmasi, 2023-yilga nisbatan 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari 176,0 %ga oshishi ko‘rsatilgan. Aholiga pullik xizmat ko‘rsatish hajmi 177,6 %ga oshishi ko‘zda tutilgan. Savdoda band xodimlar soni esa 129,9 %ga oshishi mumkinligi ko‘rsatilmoqda.

Bundan ko‘rinib turibdiki, chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining o‘sishi ro‘y bergan.

15.9-jadval

O‘zbekiston Respublikasida chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2023-yilga nisbatann 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Yillar	Chakana tovar aylanmasi		Aholiga pullik xizmat ko‘rsatish		Savdoda band xodimlar soni	
		mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, %	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, %	ming kishi	o‘sish sur’ati, %
1.	2023	330448,1	100,0	470 286,5	100,0	2006	100,0
2.	2024	329001,9	99,6	445111,8	94,6	2178	108,6
3.	2025	366208,7	110,8	502038	106,8	2247	112,0
4.	2026	405376,4	122,7	562191,4	119,5	2318	115,6
5.	2027	446505,0	135,1	625572,2	133,0	2389	119,1
6.	2028	489594,5	148,2	692180,6	147,2	2460	122,6
7.	2029	534643,0	161,8	762016,2	162,0	2533	126,3
8.	2030	581652,5	176,0	835079,2	177,6	2605	129,9

Ushbu holatni savdoda band xodimlar sonining tezroq o‘sishiga erishishni taqozo etadi. Chunki iqtisodiyotni rivojlantirish uchun, ishsizlikni kamaytirish uchun yangi ish o‘rinlarini ko‘proq yaratish va iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik sonining o‘sish sur’atini oshirish uchun ham har bir sohada band bo‘lgan xodimlar soning o‘sishiga erishish lozim bo‘ladi. Demak, shu davrdja aholining farovonligini oshirish borasida aniq yo‘nalishlarga erishish uchun qaysi yo‘nalishga ahamiyat berish lozimligiga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi. Buning uchun ushbu ko‘rsatkichlar har birining grafigini ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’ati quyidagicha holatga ega bo‘lgan (15.6-rasm).

Mazkur diagrammada O‘zbekiston Respublikasida chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2000–2023-yillardagi dinamikasi va 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari keltirilgan. Bulardan ham ko‘rinib turidiki, chakana tovar aylanmasi va aholiga ko‘rsatilgan pullik xizmat hajmi keskin o‘sgan va bu tendensiya 2024–2030-

yillarda ham saqlanib qolmoqda. Ammo savdoda band xodimlar sonining 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari ancha past darajada. Yuqorida ko‘rsatilganidek, ushbu ko‘rsatkichni ham jadallashtirish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi.



15.6-rasm. *O‘zbekiston Respublikasida chakana tovar aylanmasi, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar sonining 2000–2023-yillardagi dinamikasi va 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari diagrammasi.*

Bu yerda chakana tovar aylanmasining savdoda band xodimlar soni o‘zgarishiga nisbatan jadallik koeffitsiyenti 1,35 ni (176,0/129,9) tashkil qiladi. Aholiga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlarning jadallik koeffitsiyenti esa, 1,37 ni (177,6/129,9) tashkil qiladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning 2024–2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlaridagi holatni o‘zgartirib, ular o‘rtasidagi jadallik koeffitsiyentlarini qisqartirishga erishish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo‘ldik. Chunki ushbu qo‘llanmada keltirilgan ma’lumotlar va tahlillar O‘zbekistonning 2000–2023-yillardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasini va 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozlarni bir qancha xulosalarga asos bo‘ldi. Bular:

Birinchidan, yalpi ichki mahsulot (YaIM), chakana tovar aylanmasi, aholi soni, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish va savdoda band xodimlar soni kabi ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlari va ularning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari batafsil tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, qo‘llanmada keltirilgan matematik modellar va formulalar asosida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan prognozlarini sodda yo‘l bilan aniqlash usulini o‘rgatishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu prognozlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining oldingi yo‘nalishlarini belgilash, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, ushbu usullar bilan aniqlangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari faqat iqtisodiy rivojlanishning yo‘nalishlarini belgilash bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy sohadagi islohotlarning samaradorligini baholash, aholining hayot sifatini oshirish va ishsizlikni kamaytirish kabi muhim masalalarni hal etishda ham asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, hozirgi paytda taraqqiyotning strategik yo‘nalishlarini oldindan belgilab olish uchun barcha faoliyatlarni prognozlashtirish lozimdir. Chunki, har qanday ko‘rsatkich bo‘yicha korxona va tashkilotlarning, tarmoqlar va hududlarning va nihoyat mamlakatning istiqboli kelajakda qanday bo‘ladi va bunga erishish uchun nimalar qilish kerakligi xususida har bir mutasaddi insonlar bilishlari lozim.

Umuman olganda, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining samarador-

ligini kelajakda qanday holatda bo‘lishligi, bunga erishish uchun qanday boshqaruv qarorlarini qabul qilish, har bir qilinadigan ishlarning aniqligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodologik asoslar kelajakdagi strategiyalarni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi. Bu qo‘llanma talabalar, magistrlar, professor-o‘qituvchilar va iqtisodiy sohadagi mutaxassislar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, prognozlashtirish, prognoz ko‘rsatkichlari, samaradorlik, boshqaruv qarorlari, yalpi ichki mahsulot (YaIM), doimiy aholi soni, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, chakana tovar aylanmasi, aholiga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar hajmi, savdoda band xodimlar soni, o‘sish sur’ati, matematik modelning apraksimatsiyasi, polinamiyal chiziq.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar deganda qaysi ko‘rsatkichlarni tushunasiz?
2. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirishning zaruriyati haqida gapirib bering.
3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirishda nima uchun aynan yuqorida ko‘rsatilgan (yalpi ichki mahsulot (YaIM), doimiy aholi soni, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, chakana tovar aylanmasi, aholiga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar hajmi, savdoda band xodimlar soni) ko‘rsatkichlarni olganligingizni asoslab bering.
4. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning grafiklari qanday shakllantirilgan?
5. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirishda qaysi usullardan foydalandingiz?
6. Nima uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozi 2019-2025-yillarga qilingan?
7. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda qanday xulosalarga kelindi?

TESTLAR

1. Quyidagi ko‘rsatkichlardan qaysi biri makroiqtisodiy ko‘rsatkichga kirmaydi?

A. Yalpi ichki mahsulot
B. *Mehnat unumdorligi
C. Chakana tovar aylanmasi
D. Doimiy aholi soni

2. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozini keltirishda necha yillik ma’lumotlardan foydalanilgan?

A. *19
B. 15
C. 18
D. 21

3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda iqtisodiy tahlilning qaysi usulidan foydalanilgan?

A. Solishtirma usuli
B. Zanjirli almashtirish usuli
C. *Bazis usuli
D. Dinamik usuli

4. Doimiy aholi soni 2018-yildan 2000-yilga nisbatan necha foizga o‘sgan?

A. *134,0 % ga
B. 132,4 % ga
C. 137,2 % ga
D. 128,3 % ga

5. Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni 2018-yildan 2000-yilga nisbatan necha foizga o‘sgan?

A. 150,3 % ga
B. *147,8 % ga
C. 139,7 % ga
D. 155,9 % ga

6. Mamlakat YaIMning o‘sish sur’ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning ..... chizig‘iga to‘g‘ri keldi.

A. Eksponensial
B. Chiziqli (lineynaya)
C. Darajali (stepennaya)
D. *Polinamiyal

7. Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’atida natija bilan omillarning bog‘liqlik darajasini ko‘rsating?

A. $R^2 = 0,985$
B. $R^2 = 0,976$
C. *$R^2 = 0,9926$
D. $R^2 = 0,9877$

8. Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati matematik modelining formulasini ko‘rsating?

A. *$y = 64,611x^2 - 560,51x + 1194,5$
B. $y = 31,626x^2 - 293,36x + 729,54$
C. $y = 0,040x^2 + 1,148x + 98,34$
D. $y = 0,2579x^2 + 3,3585x + 93,622$

9. Savdoda band xodimlar soni prognoz qilingandan keyin 2025-yilda 2000-yilga nisbatan necha foizga o‘sgan?

A. 338,2 % ga
B. *355,3 % ga
C. 345,7 % ga
D. 363,5 % ga

10. Chakana tovar aylanmasi prognoz qilingandan keyin 2025-yilda necha mlrd. so‘mni tashkil etdi?

A. 171289,0 mlrd. so‘m
B. *258855,0 mlrd. so‘m
C. 212810,8 mlrd. so‘m
D. 235267,2 mlrd. so‘m

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014 yil, 38 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni. 1990-yil 31-oktyabrda qabul qilingan.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2000-yil 25-mayda qabul qilingan. 2012-yilda yangi tahriri qabul qilingan.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2004-yil 29-aprelda qabul qilingan. 2015-yilda yangi tahriri qabul qilingan.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2012-yil 26-aprelda qabul qilingan.

8. Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan.

9. Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish tartibini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. 2017-yil 14-dekabrda qabul qilingan.

10 O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga iqtisodiy munosabatlar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respub-

likasining Qonuni, №O'RQ-494, Qabul qilingan sana 03.10.2018, Kuchga kirish sanasi 04.10.2018

10. «O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, №O'RQ-483. Qabul qilingan sana 09.07.2018. Kuchga kirish sanasi 11.10.2018

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4933-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-feraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil 6-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1112-sonli Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-1474-sonli Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 25-avgustdagi "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1604-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi “2012–2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1754-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 17-apreldagi “2013–2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1957-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-apreldagi “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2164-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 28-sentyabrdagi “Tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2412-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktyabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2646-sonli Qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 16-martdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2507-sonli Qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Farmoyish va Qarorlari

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-apreldagi “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda hamda yer maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to‘g‘risida”gi 126-sonli qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivoj-

lantirishni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi to'g'risida"gi 344-sonli qarori.

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 17-fevraldagi "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi faoliyatini faollashtirish to'g'risida"gi 57-sonli qarori.

26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-iyuldagi "Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 216-sonli qarori.

27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6-sonli qarori.

28. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 4-dekabrdagi "2016–2018-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 353-sonli qarori.

29. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-fevraldagi "2016–2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 55-sonli qarori.

30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 4-maydagi "Qishloq joylardagi aholiga servis xizmati ko'rsatishni yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 139-sonli qarori.

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonining "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ga bag'ishlangan 1-ilovasi. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-oktyabrdagi "Tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №PQ-3970 qarori.

33. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2018- yil 22-yanvardagi «Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida o‘tkaziladigan soliq tekshiruvlarida nazorat xaridini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida reg. № MYu 2475-4 qarori.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili» da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida №PF-5308 Farmoni.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi №PF-5813 Farmoni.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PF-5718 Farmoni.

III. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalari

37. Karimov I.A. “Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlat darajasiga ko‘tarilishi sari”. –T.: “O‘zbekiston”, 2010, 280-bet.

38. Karimov I.A. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir”./ Islom Abdug‘aniyevich Karimov –T. 19. –T.: “O‘zbekiston” 2011, 360-bet.

39. Karimov I.A. “Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir” ./Islom Abdug‘aniyevich Karimov –T. 20. –T.: “O‘zbekiston” 2012, 320-bet.

40. Karimov I.A. "Mamlakatimizni yanada ozod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida" ./Islom Abdug'aniyevich Karimov –T. 21. –T.: "O'zbekiston" 2013, 384-bet.

41. Karimov I.A. "O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan yo'lning tasdig'idir" ./ Islom Abdug'aniyevich Karimov –T. 22. –T.: "O'zbekiston" 2014, 368-bet.

42. Karimov I.A. "Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan islohotlarimizni yangi bochqichga ko'tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir" ./Islom Abdug'aniyevich Karimov –T. 23. –T.: "O'zbekiston" 2015, 408-bet.

43. Karimov I.A. "Demokratik islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikning ustuvorligini ta'minlashga keng yo'l ochib berish – Vatanimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida hal qiluvchi omildir". /Islom Abdug'aniyevich Karimov –T. 24. –T.: "O'zbekiston" 2016, 376-bet.

44. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida". /Islom Abdug'aniyevich Karimov. –T.: "O'zbekiston" 1995, 269-bet.

45. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" – T.: "O'zbekiston", 1997, 326-bet.

46. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: "O'zbekiston", 2015. 440-bet.

47. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tarjimai holi va dasturi. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016, 88 bet.

48. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017, 488 b.

49. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-J. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017, 592 b.

50. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-J. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018, 508 b.

51. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-J. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019, 400 b.

52. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-J. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2020, 456 b.

53. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018-yil 29-dekabr.

54. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

55. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

IV. Ilmiy monografiya, o'quv qo'llanma va darsliklar

56. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 2-nashr.– T.: " IQTISOD-MOLIYA", 2010, 384 b.

57. Abdukarimov B.A., Komilova N.A., Abdukarimov F.B. Актуалные вопросы развития торговли в Узбекистане. Monografiya. – T.: "Iqtisodiyot", 2010, 96 b.

58. Abdukarimov B.A va boshq. Savdo iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. I–qism.–T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.

59. Abdullayev Yo.A. va boshqalar. Statistika: – T., 2011, 256 b.

60. Abduraxmonov Q.X., Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2013, 207 b.

61. Abduramanov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari. Monografiya. – T., 2014, 196 b.

62. Abdurahmonov X.X., Arabov N.U., Xolmuxamedov M.M. Aholi daromadlari va turmush sifati. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur bo‘stoni”. 2014, 242 b.

63. Агабабян Э.М., Пузин И.Н. Производство-потреблени– М.: 2010, 427 с.

64. Axunova G.N., Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U.V. Iqtisodiyot asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU., 2008, 194 b.

65. Бархатов В.И., Журавлёва Г.П. Экономическая теория: учебник. – М., 2007, 848с.

66. Горелов Н.А. Политика доходов и качество жизни населения: Учеб.пособие. - СПб.: Питер, 2003.- 653 с.

67. Gulyamov S.S. va boshqalar. Ijtimoiy sohada investitsiya-larning samaradorligi. Monografiya. – T.: IQTISODIYOT, 2019, 342 b.

68. Gro`nroos C. Service Management and Marketing. Customer management in service competition. NevYork, NY, 2007.

69. Djurakulov Sh. Reklama xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2019, 232 bet.

70. Добрынин А.И., Журавлева Г.П. Общая экономическая теория. СПб: Питер, 2000, 288 с

71. Doyl P. Markening, menedjment i strategii / Doyl P., Shtern F.-4-e izd. - SPb.: Piter, 2007, 544 s.

72. Жеребин В.М., Романов А.Н.Уровен жизни населения. - М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2002, 224 с.

73. Jo‘rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2017, 688 b.

74. Исроилов Б.И. и др. Современная система противо-действия отмыванию преступных доходов и финансированию тер-роризма (ПОД/ФТ). Учебное пособие. Санкт-Петербург, СПбПУ, 2018, 386 стр.

75. Kushnir I.V. Mirovaya ekonomika//http://www.be5. Biz/ekonomika/ mo13/tech.htm

76. Маршалл А. Принципы экономической науки, институтионес.com /download/ books/ 1229-принципы-экономической-науки. html.

77. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: краткий курс: Пер. 10-го анг.изд. ИНФРА, –М., 2015., Т.1.- 400 с.

78. Mamatkulov X.M. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug‘ati. – T.: “Iqtisod va moliya” nashriyoti, 2010, 398 bet.

79. Muxammedov M. va boshqalar “Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”– S.: Zarafshon 2017, 299 b.

80. Muxiddinov X.S. “Aholi turmush darajasini modellashtirish” Monografiya. – T., 2005, 168 b.

81. Нусратуллин В.К. Неравновесная экономика. 2-э изд., доп. – М., 2016, 361 с.

82. Pardayev M.Q. Mirzayev Q.J., Pardayev O.M. “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014, 384b. Pardayev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2011, 172 b.

83. Pardayev M.Q., Oltayev Sh., Pardayeva O.M., Tagirova N.B. Har bir oilada tadbirkorlik – o‘zini o‘zi band qilish imkoniyati. Amaliy tavsiya. Samarqand, SamISI, 2018, 240 bet.

84. Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoining ayrim muammolari. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2014, 264 bet.

85. Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M.. Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o‘sishning muhim omillari. Monografiya. – T.: “Navro‘z”. 2014, 13-bet.

86. Pardayev M.Q., Pardayeva I.M., Pardayev O.M.. O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi asosida). Uslubiy qo‘llanma: – Samarqand. 2019, 105 b.

87. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa-uyi”, 2021, 588 b.

88. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa-uyi”, 2021, 588 b.

89. Pardayeva M.Q, Xolikulov A.N., Jumayeva G.J.. Investitsion loyihalar tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 252 bet.

90. Pardayeva M.Q, Kolonov M.B, Shodiyeva G.M., Ibodov K.M. Soha marketingi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Sano-Standrt”, 2021, 296 bet.

91. Pardayev M.Q., Aminov Z.Yu. Xizmat ko‘rsatish korxonalar iqtisodiy xavfsizligi: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti, 2020, 220 bet. – 13,75 b.t.

92. Pardayev M.Q., Babanazarova S.A., Kuziev Z.B., Ochilova H.N. Ta’lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” nashriyoti, 2020, 260 bet. – 16,25 b.t.

93. Pardayev M.Q., Abduraxmanov X.X., M.A.Mahkamova va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. – T: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 172 bet.

94. Попов А.И. Экономическая теория. Учебник для вузов. СПБ.: Питер 2003, 400 с.

95. Поков Ф.И. Эканомическая теория. Учебник для вузов.- СПБ.: Питер, 2006. – 296 с.

96. Система национальных счетов 2008. Эвропейская комиссия, Международный валютный фонд (Номер публикации СНАЕА 2008 001), Организация экономического сотрудничества и развития (Код OECP 302009191P1), Организация Объединенных Наций (В продаже под № Р.08.ХВИИ.29, Условное обозначение документа СТ/ЭСА/СТАТ/СЕР.Ф/2/Рев.5), Всемирный банк. ИСБН 978-92-1-461028-1.Нью-Йорк. 2012, С763. (Настоящая публикация переведена на русский язык специалистами Межгосударственного статистического комитета Содружества Независимых Государств и Института финансово-эконо-

мического мониторинга. Окончательная редакция осуществлена профессором Ю.Н.Ивановым).

97. Sultonov Sh.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: hududiy muammolar va yechimlar. Monografiya. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2013, 7-19 betlar.

98. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Пер.С.англ. Э.М.Майбурда. – М., 1993.-572 с.

99. Tuxliyev I.S. Turizm asoslari: Uslubiy qo'llanma. Samarqand.: SamaISI, 2008, 247 b.

100. Tuxliyev N.T., Abdullayeva T. Национальные модели развития туризма. – T.: Гос. науч. изд-в O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 424 b.

101. Tuxliyev I.S., Abduhamidov S. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik, T.: 2021, 417 b.

102. Urakov J.R. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2013, 127 bet.

103. Urazov K.B. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditning dolzarb masalalari. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti. – 2011, 260 bet.

104. Usmanova D.I. Puti povыsheniya sotsialno-ekonomicheskoy effektivnosti torgovogo obslujivaniya selskogo naseleniya. Monografiya. – Izdatelstvo «Navruz» GUP, 2014. – 160 s.

105. Xoshimov P.Z., va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: 2003, 289 b.

106. Xamidov O.X. Конкурентная стратегия предприятия на рынке туристических услуг. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2006, 424 c.

107. Челенков А.П. Маркетинг услуг. – М.: Сентр маркетинговых исследований и менеджмента, 2002, 288 с.

108. Шишкин А.Ф. Экономическая теория. Учебник. – М.: Экономист, 2005, 350 с.

109. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'rayev T.. Iqtisodiyot nazariyasi – T.: Moliya. 2002, 409 b.

110. Shodmonov Sh.Sh., Mamaraximov B.E. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. – T.: "Iqtisod-moliya". 2016, 544 b.

111. Shodmonov Sh.Sh., Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Zamin nashr". 2021, 856 b.

112. Sharifxo'jayev M.Sh. Abdullayev Yo.A., va boshqalar. Menejment. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2001, 704 b.

113. Egamov E., Usmonov M. Qishloq aholisi turmush darajasining o'sishi. – T.: Mehnat, 2014, 169 b.

114. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. 1-5./ Tahrir hayati: T.Mirzayev (rahbar) va boshqalar. O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

115. O'lmasov A., Vahobov A.V Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Sharq, 2014, 480 b.

116. O'rinbayeva Yu.P. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi turmush darajasi: o'zaro bog'liqligi va rivojlanish istiqbllari. Monografiya. – T.: "Fan" nashriyoti, 2013, 144 b.

117. Qudratov G'.H., Abdukarimov B.A., Pardayev M.Q. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2016, 508 bet..

118. G'oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. – T.: Fan, 2005, 146 b.

V. Internet saytlari

119. http://press-service.uz.
120. www.moodle.samtuit.uz.
121. www.stat.uz sayti.
122. www.samarqand.uz.
123. http://cbu.uz.
124. www.xb.uz.
125. www.agrobank.uz.
126. www.lex.uz.
127. www.finans.uz.
128. www.bank.uz.

129. www.chamber.uz.
130. https://ru.wikipedia.org/wiki/Usluga.
131. www.market-pages.ru.
132. www.kun.uz

VI. Statistik materiallar

133. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plamlari. 2000–2020-yillar.

134. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. - Samarqand, 1997–2020 yy.

135. Социальное развитие и уровен жизни населения в Узбекистане за 2004-2005-2006-2007-2008-2009-2016. – Ташкент: Госкомстат РУз.

136. Узбекистан в цифрах за 2000-2020. – Ташкент: Госкомстат РУз.

137. Статистический ежегодник регионов Узбекистана за 2000-2020 – Ташкент: Госкомстат РУз.

MUNDARIJA

KIRISH 3

1-BOB. MAKROMAKROIQTISODIY TAHLILNING ZARURLIGI, PREDMETI, OBYEKTI, VAZIFALARI, METODI VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Makromakroiqtisodiy tahlilning obyektiv zarurligi..... 6
1.2. Makromakroiqtisodiy tahlil fani predmetining ta'rifi..... 10
1.3. Makroiqtisodiy tahlil fanining obyekti..... 13
1.4. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida makroiqtisodiy tahlilning vazifalari..... 15
1.5. Makromakroiqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi..... 21
1.6. Makroiqtisodiy tahlilning iqtisodiyotni boshqarishdagi o'rni va unga raqamli iqtisodiyotni kiritish masalalari..... 35
1.7. Makroiqtisodiy tahlil fanining metodi..... 41
1.8. Makroiqtisodiy tahlil fanining metodologiyasi va ularning tasnifi..... 44
1.9. Makroiqtisodiy tahlil fani metodologiyasi tavsifi..... 47

2-BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISH BO'YICHA ASOSIY USTUVOR VAZIFALAR MAKROIQTISODIYOT FANINING METODOLOGIK ASOSI

2.1. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi bosqichi, uning mazmuni va asosiy yo'nalishlari..... 57
2.2. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning ustuvor yo'nalishlari..... 60
2.3. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari..... 65
2.4. Hududlarni kompleks rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari..... 67

2.5. Iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali makroiqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari..... 70
2.6. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va jadal rivojlantirishning strategik yo'nalishlari..... 74

3-BOB. MAKROIQTISODIY TAHLIL FANINING EKONOMETRIK MODELLARI

3.1.Makroiqtisodiy tahlilning miqdoriy usullari..... 83
3.2. Ekonometrik modellar..... 85
3.3. Makroiqtisodiy modellar..... 101
3.4. Iqtisodiyotni rivojlantirish modellari..... 104
3.5. Tarmoqlararo dinamik balans modeli..... 110
3.6. Makroiqtisodiy tahlilda korrelyatsiya, regressiya modellarini qo'llashning mohiyati..... 114
3.7. Kobba-Duglas funksiyasi asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish..... 119

4-BOB. MAKROIQTISODIY TAHLILDAMILLIY HISOBLAR TIZIMI, AXBOROTBAZASI SIFATIDA

4.1. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlari..... 128
4.2. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarning shakllanishi va ularning turlari..... 133
4.3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar axborot obyekti sifatida..... 137
4.4. Makroiqtisodiy tahlilda axborot texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari..... 141

5-BOB. MAKROIQTISODIY TAHLIL KO'RSATKICHLARINI BOSHQARUV VA TASHKILIY TUZILMADA FOYDALANISH YO'LLARI

5.1.Makroiqtisodiy darajadagi boshqaruv tizimi va uning tashkiliy tuzilmasi..... 152
5.2.Boshqaruv uslubi..... 160

5.3.Menejmentning ijtimoiy uslublari..... 166
5.4.O‘z-o‘zini boshqarish..... 172

6-BOB. MAKROIQTISODIY MUVOZANATNING KLASSIK VA KEYNSCHA MODELLARI TAHLILI 179
6.1.Makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi..... 183
6.2.Keynscha modelda investitsiyalar funksiyasi..... 188
6.3.Avtonom xarajatlar multiplikatori.....

7-BOB. PUL-KREDIT SEKTORINING IQTISODIY TAHLILI
7.1.Pul-kredit siyosatining maqsadi, ko‘rsatkichlari, asosiy 197
yo‘nalishlari va ularning amal qilish mexanizmi..... 207
7.2. Pulga bo‘lgan talab, pul taklifi va pul agregatlari..... 213
7.3. Pul-kredit sektori tahlili uslubiyati.....
7.4.O‘zbekistonda pul-kredit siyosati va pul-kredit sektorining 217
tarkibi tahlili.....

8-BOB. BUDJET - SOLIQ SEKTORINING IQTISODIY TAHLILI 226
8.1. Budjet-soliq siyosatini iqtisodiy mazmuni va tamoyillari...
8.2.Budjet-soliq siyosatining tarkibiy tuzilishi va ular 231
o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik..... 241
8.3. O‘zbekistonda budjet-soliq sektori tahlili.....

9-BOB. ISHSIZLIK VA INFLYATSIYA DARAJASINING IQTISODIY TAHLILI 249
9.1. Aholi bandligi siyosati, usullari va yo‘nalishlari.....
9.2.Ishsizlikning kelib chiqish sabablari, turlari, asosiy 251
mezonlari va ko‘rsatkichlari.....
9.3.Yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’min- 255
lashning muhim omili..... 262
9.4. Inflasiyaning mohiyati, turlari va hisoblash usullari.....

10-BOB. TOVAR VA PUL BOZORINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI TAHLILI

10.1. IS – LM modelining mohiyati va tenglamalari..... 269
10.2. IS – egri chizig‘i va uning tenglamasi..... 270
10.3. LM – egri chizig‘i va uning tenglamasi..... 272
10.4. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat..... 274

11-BOB. TO‘LOV BALANSINING IQTISODIY TAHLILI

11.1.To‘lov balansi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi..... 278
11.2.To‘lov balansining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar..... 283
11.3.To‘lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari..... 285

12-BOB. OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT TAHLILI

12.1.Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko‘rinishlari..... 291
12.2.Mandell Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli..... 294
12.3.Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat..... 301
12.4.Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida makroiqtisodiy siyosat..... 306

13- BOB. TARMOQLARARO BALANSNING IQTISODIY TAHLILI

13.1. Tarmoqlararo balans tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi..... 316
13.2. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning miqdoriy bog‘liqligi.... 318
13.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning matematik bog‘liqligi.. 321

14-BOB. MOKROIQTISODIY O‘SISH, UNING TURLARI VA OMILLARI TAHLILI

14.1. Iqtisodiy o‘sishning mohiyati va uning nazariy masalalari..... 329
14.2. Mamlakatimizda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sish tendensiyalari..... 333
14.3. Iqtisodiy o‘sishning turlari va mezonlari..... 338

15-BOB. O‘ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR VA ULAR BILAN BOG‘LIQ JARAYONLARNING PROGNOZI

15.1. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirishning zaruriyati va ahamiyati..... 348
15.2. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning grafigini shakllantirish usullari..... 353
15.3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognozlashtirish usullari 355
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati..... 375

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

M.Q. PARDAYEV, Sh.S. OLTAYEV, Yu.P. URINBAYEVA,
O.M. PARDAYEV, Z.S. ARTIKOV

MAKROIQTISODIY TAHLIL

Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2025

Muharrir: M. Hayitova
Musavvir: U. Ortiqov
Kompyuterda sahifalovchi: Sh. Mirqosimova

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 97-450-11-14, 93-381-22-07.
Bosishga ruxsat etildi 16.07.2025.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Timez Uz» garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25,0. Nashriyot bosma tabog'i 24,75.
Tiraji 300. Buyurtma № 71.

«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Foziltepa ko‘chasi, 22 b uy.

101785-71

ISBN 978-9910-573-16-3

9 789910 573163

0004